

PEDAGOGIK MAHORAT

6
2022



ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

6-son (2022-yil, dekabr)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2022

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2022, № 6

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Mas'ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To'liq Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), dotsent

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)

Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta'limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta'lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Chariyev Irgash To'rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ro'ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)

To'xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent

Nazarov Akmal Mardonovich, Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jumaev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

Научно-теоретический и методический журнал

№ 6, 2022

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «Педагогика» и «Психология».

Журнал основан в 2001 году

Журнал выходит 6 раз в год

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

Ответственный редактор: Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук (PhD)

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук

Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор

Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор

Махмудов Мэлс Хасанович, доктор педагогических наук, профессор

Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор

Расулов Тулкин Хусенович, доктор физико-математических наук, доцент

Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)

Андрюченко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия)

Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия)

Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)

Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), доцент

Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор

Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор

Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)

Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор

Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор

Ураева Дармоний Саиджановна, доктор филологических наук, профессор

Дурдиев Дурдимурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор

Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор

Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор

Чариев Иргаш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор

Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор

Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор

Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор

Курбонова Гулноз Несматовна, доктор педагогических наук (DSc)

Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук, доцент

Назаров Акмал Мардонович, доктор философии психологических наук (PhD), доцент

Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент

Зарипов Гулмурот Тохирович, кандидат технических наук, доцент

PEDAGOGICAL SKILLS

The scientific-theoretical and methodical journal № 6, 2022

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «**Pedagogy**» and «**Psychology**».

The journal was founded in 2001.

The journal is published 6 times a year

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

Editor: Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Nigora Z. Sayfullaeva

Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov
Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Mels Kh. Mahmudov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov
Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Doc. Tulkin Kh. Rasulov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)
Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Doc. Alijon R. Hamroev
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. M. Mahmudova
Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)
Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev
Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R. Amanov
Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva
Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev
Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov
Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov
Doctor of Pedagogical Science, Prof. Irgash T. Chariev
Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova
Doctor of Philology, Doc. Qahramon R. Tuxsanov
Doctor of Psychology, Doc. Akmal M. Nazarov
PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G. Jumaev
Candidate of technical sciences, Doc. Gulmurot T. Zaripov

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
DOLZARB MAVZU			
1.	AXMEDOV Anvar <i>Diyor o'g'li</i>	Zamonaviy dunyoda yoshlarni internet tahdidlaridan himoya qilishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari (Kiberbulling)	7
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA			
2.	DAVRANOVA Gulbahor <i>Numondjonovna</i>	Ta'lim sifatini oshirishda axborot texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	10
3.	XUDOYBERDIYEV Iskandar <i>Boymurodovich,</i> G'ULOMOV Jobirbek <i>G'iyos o'g'li</i>	Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlarini tashkil etish modellari	18
4.	OLIMOV Laziz <i>Yarashovich</i>	Sud psixolog ekspertining sohaga oid bilimdonligini rivojlantirish omillari	23
5.	AXMADOV Nazir <i>Rahmatovich</i>	Социально-психологические механизмы развития адаптационных процессов у дезадаптированных подростков	30
6.	ЖУМАЕВ Улугбек <i>Сатторович</i>	Талабаларда фидойлик мотивларини психодиагностик усуллар орқали аниқлаш методикаси ва унинг ижтимоий психологик аҳамияти	35
7.	ОСТАНОВ Шухрат <i>Шарифович</i>	Креативлик хусусиятлари намоён бўлишининг ўзига хос психологик жиҳатлари	40
8.	РУСТАМОВ Шавкат <i>Шухратович</i>	Структура математических способностей практических психологов	44
9.	САИДОВ Азамат <i>Исмоилов</i>	Оилада ёшларнинг соғлом турмуш тарзи тўғрисидаги тасаввурлари шаклланишининг мотивацион асослари	49
10.	СУЛТАНОВА Шахноза <i>Мирхалиловна</i>	Ўқувчиларда эмоционал зўриқиш намоён бўлишига таъсир этувчи психологик омиллар	53
11.	УМУРЗАКОВА Дилфуза <i>Илхомовна</i>	Узлуксиз таълимда ижтимоий компонентларнинг ривожлантириш (Soft skills)ни қўллаш мисолида	57
12.	ҲАКИМОВА Наргиза <i>Супхоновна</i>	Тарбия дарсларида ўқувчиларда ижтимоий-ҳуқуқий компетенцияларни шакллантириш методикаси	62
13.	ШАВКАТОВА Дилбар <i>Шавкатовна</i>	Бўлажак ўқитувчиларни касбий ўз-ўзини такомиллаштириш тизими	69
14.	ЭЛОВ Зиёдулло <i>Сатторович</i>	Девиант ҳуқ-атворли ўсмирларда кузатиладиган психологик ўзгаришларининг ёш билан боғлиқ хусусиятлари (Вояга етмаганларга ижтимоий ҳимоя кўрсатиш маркази тарбияланувчилари мисолида)	72
15.	МУРОДОВА Раъно <i>Буронова,</i> ЭШАНКУЛОВ <i>Хамза Илхомович</i>	Information and communication means used in the organization of distance education	76
16.	YULDASHOVA Shahlo <i>Toyirovna</i>	Oliy ta'lim muassasalarida o'qitish usullari	80
17.	ШАРАФУТДИНОВА Хадичахон <i>Гулямутдиновна</i>	Оилавий муносабатлар деструкциясини бартараф этишда миллий кадриятларнинг ўрни ва роли	84

18.	A'ZAMOVA Maxliyo Abduraximovna	Masofaviy ta'limni shakllantirishning psixologik asoslari	89
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM			
19.	JUMANOVA Nasiba Sherbaevna	Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy munosabatlarni shakllantirishning psixologik jihatlarini	93
20.	TEMIROVA Kumushoy Sadriddinovna	Boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish	97
21.	БЕРДИЕВА Мухаббат Мейлиевна	Мактабгача ёшдаги болалар интеллектуал ривожланишининг омиллари	104
FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH			
22.	ASHUROVA Dildora Gafurovna	Chet tilini o'qitish jarayonida ijtimoiy va hamkorlikda o'rganish strategiyalarining ahamiyati	109
23.	КУШИЕВА Нодира Хабибжоновна	Мактабгача, умумий ўрта махсус таълим тизимида инглиз тили ўқитиш методикаси	113
24.	SAIDOVA Nodira Mustakimovna	Immanent va kontekstli yondashuv asosida sinfdan tashqari adabiyot darslarini loyihalashtirishning samaradorlik natijalari	117
25.	АЛИМОВА Камола Хужагелдиевна	Матнни тушуниш жараёнига таъсир қиладиган психолінгвистик омиллар	120
ANIQ VA TABIIY FANLARNI O'QITISH			
26.	AMINOV Alijon Axtamovich	Fizika fanini o'qitishda nanotexnologiyalarning qo'llanilishiga oid kompetensiyalarni shakllantirish	123
27.	JO'LLIYEV Asliddin Normengli o'g'li, BOZOROV Erkin Xojiyevich	Neytronlar fizikasi fanini o'qitishda pedagogik ta'lim klasteri metodidan foydalanishga doir tavsiyalar	130
28.	MANSUROV Zuhridin Halilillayevich	“Qurilish chizmachiligi” fanida talabalarning bilimini oshirishda grafik dasturlardan foydalanish metodikasi	133
29.	БЕКМАНОВА Гулбахар Бегдуллаевна	Олий таълим муассасаларида кимё фанини ўқитиш самарадорлигини оширишнинг муҳим шартлари	138
30.	ҚАҲОРОВ Мадамин Абдунабиевич	Кимё фанини ўқитишда мобил дастурий иловалардан фойдаланиш	141
IQTISODIY TA'LIM VA TARBIYA			
31.	САИДКУЛОВА Фируза Фармоновна	Необходимость развития экономической компетентности у студентов	146
TA'LIM MENEJMENTI			
32.	БАЙБАЕВА Мухайё Худайбергановна	Таълим муассасаси раҳбарларининг бошқарув фаолиятида касбий ижодкорлигини ривожлантиришнинг акмеологик хусусиятлари	151
33.	УТАМУРАДОВА Гулчехра Норбоевна	Таълим менежментида шахс компетентлигининг ижтимоий психологик жиҳатларининг педагогик муносабатлари	155
PEDAGOGIK TA'LIMOTLAR TARIXI			
34.	НУСРАТОВ Анвар Нейматжонович	XVI-XVII asrlarda Buxoro xonligida ilm-fan va pedagogik fikrlar tarakkiyoti	159

DOLZARB MAVZU

AXMEDOV Anvar Diyor o'g'li

Samarqand davlat chet tillar instituti
o'qituvchisi

ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNI INTERNET TAHDIDLARIDAN HIMOYA QILISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI (Kiberbulling)

Ushbu maqolada globallashuv jarayonida turli xil internet saytlari va tarmoqlari orqali kiberbulling jinoyatlari orqasidan kelib chiqadigan bolalar va o'smirlardagi asosiy psixologik o'zgarishlar va uning oqibatlari to'g'risida psixologik tahlil keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kiberbulling, tajavuzkorlik, zo'ravonlik, axborot xavfsizligi, o'smirlar, zo'riqish, bolalar, globallashuv.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЗАЩИТЫ МОЛОДЁЖИ ОТ ИНТЕРНЕТ-УГРОЗ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ (Кибербуллинг)

В данной статье представлен психологический анализ основных психологических изменений у детей и подростков и их последствий, которые в основном вызваны преступлениями кибербуллинга через различные интернет-сайты и сети в условиях глобализации.

Ключевые слова: кибербуллинг, агрессия, насилие, информационная безопасность, подростки, стресс, дети, глобализация.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF YOUTH PROTECTION FROM INTERNET THREATS IN THE MODERN WORLD (Cyberbullying)

This article presents a psychological analysis of the main psychological changes in children and adolescents and their consequences, which are mainly caused by cyberbullying crimes through various Internet sites and networks in the context of globalization.

Key words: cyberbullying, aggression, violence, information security, teenagers, stress, children, globalization.

Kirish. Bugungi kunda internetdan foydalanuvchi bolalarning axborot xavfsizligi juda jiddiy muammolardan biridir, sababi hozirgi kunda turli xil web saytlar va ijtimoiy tarmoqlarda bolalarning shaxsiy ma'lumotlarini o'g'irlash va ularni shaxsiy qadr-qimmatini kamsitishga qaratilgan zo'ravonlik holatlari ko'paymoqda. Bu zo'ravonliklar bolalar ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqdaki, natijada ularning psixik salomatligi va taraqqiyoti jiddiy xavf ostida qolmoqda. Yuqoridagi holatlarini bir so'z bilan kiberbulling deb ta'kidlasak joiz bo'ladi. Kiberbulling tarmoqdagi psixologik zo'ravonlikni anglatadi. O'smirning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan haqorat, masxara, qo'rqitish va boshqa harakatlar shaklida namoyon bo'ladigan jarayondir.

Asosiy qism. Jamiyatni global axborotlashtirish sharoitida kiberbullingning tarqalishi muammosi kundan-kunga yangi miqyos kasb etmoqda. Ushbu hodisa, ayniqsa, foydalanuvchilarning eng kam himoyalangan segmentiga - bolalar va o'smirlarga nisbatan xavflidir. Voyaga etmaganlarning Internetda zo'ravonligi fenomenining psixologik va pedagogik jihatlarini bir qancha psixolog va pedagoglar tomonidan o'rganilgan. Darhaqiqat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan ijtimoiy bezorilik, jumladan, yoshlar o'rtasida ham namoyon bo'lish muammosi yangicha tus oldi. Smartfonlar, planshetlar, kompyuterlar va boshqa aloqa vositalarining kundalik hayotga faol joriy etilishi antisosyal va tajovuzkor xatti-harakatlarning turli shakllariga moyil bo'lgan shaxslarning deviant xatti-harakatlarining namoyon bo'lishi uchun deyarli cheksiz imkoniyatlarni berdi, ularning asosiy shakli kiberbullingdir.

Kiberbulling deganda virtual muhitda (ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, elektron pochta va boshqalar) bir yoki bir nechta shaxslarga nisbatan tajovuzkor va psixologik xatti-harakatlar tushunilishi kerak. Keng ma'noda zo'ravonlikdan (himoyasiz shaxslarga tajovuzkor psixologik va jismoniy bosimdan) farqli o'laroq, kiberbullingning asosiy xususiyati uning ta'sir o'tkazish joyi (virtual kommunikativ makon) bilan tavsiflanadi.

Kiberbulling va uning namoyon bo'lish shakllari quyidagicha:

1. Ommaviy ijtimoiy tarmoqlarda, bloglarda va boshqa ko'p foydalanuvchili virtual platformalarda jabrlanuvchiga nisbatan tajovuzlarning ochiq bayonotlari;

2. Shaxs sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi ma'lumotlarni matn, foto va audiovizual shaklda tarqatish;

3. Elektron pochta, messenjerlar va to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy tarmoqlar orqali jabrlanuvchini kamsituvchi yoki tahdid qiluvchi xarakterdagi shaxsiy xabarlarni muntazam ravishda tarqatish.

Keberbulling – bu hozirgi kunda eng jiddiy muammolardan biridir, chunki ijtimoiy hayotimizni internet va ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur etish qiyin bo'lib bormoqda. Turli xil ijtimoiy tarmoqlar orqali bolalar shaxsiy qadr-qimmatini tahqirlovchi va ularning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatish orqali ularni boshqarmoqchi bo'lgan g'arazli shaxslar afsuski bugungi kunda ko'paymoqda. Turli xil tarmoqlar orqali qilingan psixologik tajovuzlar natijasida bolalarda stress, depressiya va boshqa shunga o'xshash hissiy emotsional sohalarida jiddiy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda.

✓ Psixologik buzilish. Kiberbulling jabrlanuvchilari, ayniqsa, o'smirlar haqida gap ketganida, ular ko'pincha yakkalanib qolishadi, o'zlariga nisbatan ishonchlari pasayadi, o'zlarini namoyon qilish bilan bog'liq muammolar paydo bo'ladi, tashvishlanish va xavotirlanish kabi depressiv holatlar darajasi ortib ketadi va o'z joniga qasd qilish fikrlari/urinishlari paydo bo'ladi. Shaxs doimiy stressda, faqat salbiy his-tuyg'ularni boshidan kechiradi va ba'zida jabrlanuvchi rolga juda odatlanib qoladi.

✓ Somatik buzilish. Salbiy his-tuyg'ular va qo'rquv iskanjasida surunkali uyqusizlik, bosh og'rig'i, ishtaha yo'qolishi kabi psixosomatik kasalliklar paydo bo'lishi mumkin.

Kiberbulling yosh xususiyatlariga ko'ra, o'smirlarga ko'proq ta'sir qiladi, Zinovieva va N.F. Mixaylovaning ta'kidlashicha, har xil zo'ravonliklarning eng ko'p qurbonlari o'smirlardir. Ko'pincha, odam o'zini kiberbullingdan himoya qila olmaydi, lekin foydalanuvchilarning faqat kichik bir qismi onlayn bezorilik qurbonini qo'llab-quvvatlashga tayyordirlar. Biroq Internet yoshlarning ta'lim salohiyatini ro'yobga chiqarishdagi o'rni katta bo'lishiga qaramay, Internet tahdidlari deb ataladigan bir qator salbiy jihatlarni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi.

O'smirlar hayot uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni nafaqat tengdoshlari, qarindoshlari bilan muloqot qilish tajribasidan, balki ommaviy axborot vositalaridan (kitoblar, radio, televideniya, internet va boshqalar) oladi. O'smir shaxsidagi insonlarda, shaxsiy tajribadan emas, ommaviy axborot vositalaridan olingan ma'lumotlar ustunlik qiladi. Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining beqarorligi, ommaviy axborot vositalarida talonchilik, qotillik, zo'rlash, jinoiy o'zaro kurashlar haqidagi xabarlar bolalar auditoriyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Haqiqiy hayotda muloqot yetishmasligini boshdan kechirayotgan o'smir ongsiz ravishda internetdagi muloqot tajribasini kundalik hayotdagi muloqotga o'tkazadi. Minimal hayotiy tajribaga ega bo'lgan bolalar internetda mavjud bo'lgan tahdidlarni ko'rmaydilar.

Zamonaviy tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, "individual ong sohasida axborot va psixologik xavfsizlikni ta'minlashning asosiy obyekti - bu insonning atrofdagi voqelikni, uning tashqi dunyodagi o'rnini adekvat idrok etish, o'ziga xos e'tiqodlarga muvofiq ma'lum e'tiqodlarni shakllantirish qobiliyatidir".

Bolalarni salbiy ma'lumotlardan to'liq himoya qilish texnik jihatdan ham imkonsizdir. Ammo ularda shubhali, odobsiz, tajovuzkor ma'lumotlarni rad etish, axborot madaniyatini tarbiyalash mumkin. Psixolog-pedagoglar O.V.Selivanova, I.Yu.Ivanova, E.A.Primakova, I.V.Krivopalovalar [3] tomonidan tuzilgan psixologlarning ota-onalarga beradigan va farzandlarini internet tahdidlaridan himoya qilishga qaratilgan tavsiyalarini keltirib o'tamiz.

Mualliflarning fikriga ko'ra, o'smir o'quvchilar global tarmoqni juda yaxshi bilishadi, ammo ota-onalar doimo farzandlariga internetdagi xavfsizlik haqida eslatishlari, xavfli yoki yoqimsiz vaziyatlarga tushib qolmaslikni tushuntirishlari kerak: Tavsiyalarni tahlil qilib, biz ularni ikki guruhga ajratdik va bular quyidagilar:

Behavioral - Internetda inson xatti-harakatlarini tartibga solishga qaratilgan. Kognitiv - kiruvchi ma'lumotlarni tahlil qilish, idrok, e'tibor, xotirani rivojlantirish uchun. Quyida biz hozirgi kunda o'smirlarini internet tahdidlaridan himoya qilishning ba'zi bir tavsiyalarini keltirib o'tamiz

1. Ota-onalar va boshqa oila a'zolari bolalarga internetdan foydalanishda o'rnak bo'lishlari kerak. Bolalar bilan internetdan foydalanishning oilaviy qoidalarini tuzib chiqing va (cheklovsiz ko'rish mumkin bo'lgan saytlarni, internetga ulanish vaqtini ko'rsating, ijtimoiy tarmoqlarda xavfsiz muloqot qilish bo'yicha ko'rsatmalarni tushuntiring), qat'iyatlilikni ko'rsating, shu bilan birga kompyuterga ijobiy, ijodiy munosabatni ko'rsating;

2. Kompyuterlarni bolaning yotoqxonasiga emas, ochiq joyga o'rnatib, shunda bolaning internetdagi aloqasi va faoliyatini nazorat qilish osonroq bo'ladi;

3. Bolalarni haqoratomuz kontentga ega qalqib chiquvchi oynalardan himoya qilish uchun “qalqib chiquvchi oyna blokeri” funksiyasidan (u Internet Explorer brauzerida oʻrnatilgan), shuningdek, Windows tizimining “ota-ona nazorati” funksiyasidan va “oilaviy xavfsizlik” funksiyasidan foydalaning.

Xulosa. Internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlar shaxslararo toʻsiqlarni bartaraf qiladi, muloqot qilish uchun cheksiz imkoniyatlarni taqdim etadi, odamlarga turli muammolarni hal qilish, oʻylab topilgan loyihalar, gʻoyalarni amalga oshirish va ularni hayotga tatbiq etish uchun birlashishga imkon beradi. Shu bilan birga, virtual olam, ijtimoiy tarmoqdagi ruxsatsizlik illyuziyasi psixologik muammolarga, real hayotdan qochishga, jismoniy va ruhiy charchoqqa olib keladi. Haqiqiy hayotda boʻlgani kabi, internetda, ijtimoiy tarmoqda ham oʻsmir oʻzini tutishi, ehtiyotkorlik bilan muloqot qilishi kerak. Oʻsmirlar va ularning ota-onalarini mediasavodxonligini shakllantirish internetda ishlashning axborot xavfsizligini taʼminlaydi va farzandlarimizni yuzaga kelishi mumkin boʻlgan xavflardan himoya qiladi [2].

Adabiyotlar:

1. Axmedov A. (2022). The negative effect of internet gambling on youth psychology. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(5), 76-79
2. Ратинер Т.Г. Информационно-психологическая безопасность школьников при работе в интернете // Современное образование. – 2014. – №1. – С. 73 - 96.
3. Методика организации недели «Безопасность Интернет» /Авторы составители: Селиванова О. В., Иванова И. Ю., Примакова Е. А., Кривопалова И. В.-Тамбов, ИПКРО 2012.
4. Diyorgul A.A. (2022). The negative effect of public culture on youth consciousness and its social psychological features. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(5), 289-291.
5. Ugli, Akhmedov A. D., et al. "Depressive Behavior in Sports Competitions and Their Characteristics of Will-sustainability." Journal NX, vol. 6, no. 04, 2020,pp. 50-53.
6. Saidov A. Historical roots of formation of healthy lifestyle culture psychology in the family // International Journal of Pharmaceutical Research. – 2020. – Т. 12. – №. 4. – С. 628-630.
7. Ismailovich S. A. Socio-Psychological Problems of Educating an Independent-Minded, Creative Person in the Educational Process // Central Asian journal of literature, philosophy and culture. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 4-7.
8. Саидов А., Джураев Р. Баркамол авлодни тарбиялаш-соғлом турмуш тарзини шакллантиришда спортнинг ўрни // Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 203-208.
9. Саидов А. Pedagogik mahorat: ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш устувор вазифа сифатида // Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

DAVRANOVA Gulbahor Numondjonovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
tayanch doktoranti
sunny.davranova@gmail.com

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Axborotlashtirish bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning asosiy usullaridan biri sifatida namoyon bo'layotganligi, bu nafaqat texnika va texnologiyaning rivojlanishi bilan, balki, birinchi navbatda, axborot jamiyati rivojlanishi natijasida yuzaga keladigan o'zgarishlar bilan bog'liq ekanligi, bugungi kunda har qanday o'qituvchi o'quv jarayonida AKT vositalaridan foydalanish uchun ko'plab imkoniyatlarga ega ekanligi, natijada mashg'ulotlar mazmuni yangilanishi, ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasida tezkor axborot almashinuvi yo'lga qo'yilishi, shu bilan birga, o'qituvchi nafaqat bolaga ta'lim beradi, rivojlantiradi va tarbiyalaydi, balki yangi texnologiyalarni joriy etish bilan u o'z-o'zini tarbiyalash, kasbiy o'sish va ijodiy rivojlanish uchun kuchli rag'bat olishi, hamda o'qitishda AKTdan foydalanish o'qituvchiga didaktik vazifalarni hal qilishga yordam berishi, zamonaviy jamiyatda shaxsni shakllantirishga xizmat qiluvchi loyiha va dasturlarni ishlab chiqish zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri ekanligi haqidagi fikrlar ushbu maqolada bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *axborotlashtirish, o'quvchi, pedagogika, mashg'ulot, o'yin, qiziqish, texnologik taraqqiyot, kompetensiya, elektron vositalar, Internet, taqdimot, dastur, elektron-pochta, telekonferensiyalar, vebinar, raqamli sinf, kompyuter, motivatsiya, multimediya vositalari, integratsiyalash, individuallashtirish, intensivlashtirish, animatsiya, ta'lim landshafti, peyzaj, interaktiv platforma, yuqori malaka.*

ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

То, что информатизация выступает сегодня как один из основных путей модернизации системы образования, связано не только с развитием техники и технологий, но и, в первую очередь, с изменениями, происходящими в результате развития информационного общества, сегодня у преподавателя появляется множество возможностей использовать средства ИКТ в образовательном процессе, в результате чего обновляется содержание уроков, налаживается оперативный обмен информацией между участниками образовательного процесса, при этом педагог не только обучает, развивает и воспитывает ребёнка, но при внедрении новых технологий он получает сильный стимул к самообразованию, профессиональному росту и творческому развитию, а использование ИКТ в обучении помогает учителю решать дидактические задачи, разрабатывать проекты и программы, служащие формированию человека в современном обществе. В статье представлены идеи о том, что духовное воспитание является одной из основных задач системы.

Ключевые слова: *информатизация, студент, педагогика, обучение, игра, интерес, технологическое развитие, компетентность, электронные средства, интернет, презентация, программа, электронная почта, телеконференции, вебинар, цифровой класс, компьютер, мотивация, мультимедийные средства, интеграция, индивидуализация, интенсификация, анимация, образовательный ландшафт, ландшафт, интерактивная площадка, высокая квалификация..*

THE IMPORTANCE OF USING INFORMATION TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION

The fact that informatization appears today as one of the main ways of modernizing the education system, it is connected not only with the development of techniques and technology, but also, first of all, with the changes that occur as a result of the development of the information society, today any the fact that the teacher has many opportunities to use ICT tools in the educational process, as a result of which the content of the lessons is updated, the rapid exchange of information between the participants of the educational process is established, at the same time, the teacher not only educates, develops and educates the child, but

with the introduction of new technologies, he receives a strong incentive for self-education, professional growth and creative development, and the use of ICT in teaching helps the teacher. It helps to solve didactic tasks, it is time to develop projects and programs that serve to form a person in modern society. The ideas that spiritual education is one of the main tasks of the system are presented in this article.

Key words: *information, student, pedagogy, exercise, game, interest, technological development, competence, electronic tools, Internet, presentation, program, e-mail, teleconferences, webinar, digital class, computer, motivation, multimedia tools, integration, individualization, intensification, animation, educational landscape, landscape, interactive platform, high qualification.*

“Dars o‘qituvchining umumiy va pedagogik madaniyatining ko‘zgusi, uning intellektual boyligi mezon, dunyoqarashi, bilimdonligi ko‘rsatkichidir”.

V. Suxomlinskiy

Kirish. Zamonaviy jamiyat hayot sur‘atining tez o‘zgarishi texnologiya, axborotning o‘sishi, mehnat va ijtimoiy faoliyatning murakkabligi bilan tavsiflanadi. Biz yashayotgan davrda kompyuter va axborot texnologiyalarining yangicha shakllari hayotimizning juda muhim qismiga aylandi. Ular nafaqat o‘yin-kulgi uchun, balki ta‘lim berish va o‘rganish uchun ishlatilishi mumkin. Hozirgi vaqtda pedagogika fanining rivojlanishi ta‘lim va tarbiyaning yangi vositalari, shakl va usullarini izlashda katta imkoniyatlar ochmoqda. Ushbu jarayonni tashkil etishning yangi yondashuvlari doimiy ravishda paydo bo‘ladi. Bugungi kunda har bir o‘qituvchi o‘quv jarayonini takomillashtirish, o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini, ta‘lim sifatini oshirishning eng samarali usullarini izlamoqda. Bu esa hozirgi zamon axborot asri ekanligi bilan to‘liq oqlanadi. Bizning vazifamiz nafaqat bolalarga bilim berish, balki o‘quvchilarimizni ularni izlashga va mustaqil ravishda o‘zlashtirishga o‘rgatishdir.

Asosiy qism. Bugungi kunda axborotni qayta ishlash qobiliyati juda qimmatli boylik bo‘lib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish, ularni o‘qituvchi tomonidan qo‘llash har bir o‘qituvchi kasbiy faoliyatining majburiy kompetensiyasidir. Bu esa yosh avlodga elektron ta‘lim o‘qitishning asosiy jihatlari izohlab, ta‘lim sifatini oshirish imkonini bermoqda. Kelgusi ming yillikda kelajagi porloq jamiyatda yashab ijod qiladigan zamonaviy maktab bitiruvchisi mustaqil, faol harakat qila olishi, axborot bilan ishlash, qarorlar qabul qilish, o‘zgaruvchan turmush sharoitlariga moslashuvchan, hamda yuqori malakaga ega bo‘lishi kerak. Texnologik taraqqiyotning barcha yangiliklari bolalar tomonidan alohida ishtiyoq bilan kutib olinmoqda. Shuning uchun o‘quvchilarning qiziquvchanligi va yuqori bilish faolligidan ularni maqsadli rivojlantirish uchun foydalanish juda muhimdir. Aynan o‘qituvchi rahbarligidagi darslarda o‘quvchilar kompyuter texnologiyalaridan ta‘lim maqsadlarida foydalanishni o‘rganishlari, o‘quv va keyinchalik kengroq muammolarni hal qilish uchun ma‘lumot olish usullarini o‘zlashtirishlari, davom ettirish imkoniyatini beradigan ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari mumkin.

Maktabda ta‘lim jarayonini takomillashtirishning zamonaviy usullaridan biri ta‘limni axborotlashtirish, xususan, axborot texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Ta‘limni axborotlashtirish - bu ta‘lim faoliyatini axborotlashtirish, o‘quv natijalarini nazorat qilish va o‘lchash, ta‘lim jarayonlari, darsdan tashqari, ilmiy-tadqiqot va ilmiy-uslubiy faoliyat, shuningdek tashkiliy va boshqaruv faoliyati. O‘quv jarayonida axborot texnologiyalari mavzularni o‘rganishda ma‘lumotni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi va darslar davomida o‘qituvchilarning ishini osonlashtiradi. Ta‘lim vositalarini axborotlashtirish ta‘limning yangi sifatiga yo‘naltirilganligini ifodalaydi. Bu bilim olishda xilma-xillikka yordam beradi va muqarrar ravishda o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha tushunchalarini chuqurlashtiradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning elementlaridan biri axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridir. Ta‘limdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) – axborotni to‘plash, qayta ishlash va tarqatish hamda ulardan ta‘lim jarayonida foydalanish uchun foydalaniladigan usullar, qurilmalar va jarayonlar majmuidir. Axborotlashtirish ta‘lim tizimini modernizatsiyalashning eng muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Kompyuter ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish butun o‘qitish jarayonini o‘zgartirish, o‘quvchilarga yo‘naltirilgan ta‘lim modelini amalga oshirish, darslarni faollashtirish va eng muhimi, o‘quvchilarga o‘z ustida ishlash imkonini beradi. AKT asosida o‘quv jarayonini tashkil qilish imkoniyati fanlarni o‘qitishda darslarni jonli tarzda o‘tishga imkoniyat yaratadi. Ayrim mavzularni o‘qitishda esa jarayonlarni kuzatish, ularni takror ko‘rish kabi imkoniyatlarni yaratadi. Bundan tashqari AKT asosida olib borilgan tayyorgarlik natijasida berilgan mavzu bo‘yicha tushunchalarni o‘zlashtirish va grammatik qoidalarni esda qoldirish imkoniyati kengayadi. Ayniqsa o‘quvchilarda beriladigan visual mashqlar ularda tushuncha hosil bo‘lishda ko‘maklashadi, dars jarayonini faollashtiradi. Ushbu mavzulashtirilgan kompyuter imitatsion modellarning afzalligi shundaki, o‘quvchilarda mavzuni tahlil qilishlari yanada osonlashadi.

Yangi axborot texnologiyalarini qo'llash o'quv jarayoni ko'lamini kengaytiradi, uning amaliy yo'nalishini oshiradi, o'quvchilarning o'quv jarayoniga ishtiyoqini oshirishga, o'quvchilarning intellektual, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularning mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallash va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi, kelajakdagi maqsadlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Faqat an'anaviy o'qitish usullaridan foydalangan holda, bu muammolarni hal qilishning iloji yo'q, shuning uchun maktab quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadigan shart-sharoitlarni yaratadi:

Har bir o'quvchini faol bilim jarayoniga jalb qilish.

Turli muammolarni hal qilish uchun hamkorlikda ishlash.

Boshqa maktablar, viloyatlardagi tengdoshlar bilan keng muloqot.

Turli masalalar bo'yicha o'zining mustaqil asosli fikrini shakllantirish uchun butun dunyo bo'ylab axborot markazlarida kerakli ma'lumotlardan erkin foydalanish.

Bu vazifa nafaqat ta'lim mazmuni, balki qo'llaniladigan o'qitish texnologiyalariga ham ta'sir ko'rsatadi. Har bir o'qituvchi oddiy fikrni tushunishi kerak: o'quv jarayonidagi kompyuter mexanik o'qituvchi emas, o'qituvchining o'rnini bosuvchi yoki analogi emas, balki bolalarni rivojlantirish, uning kognitiv faoliyati imkoniyatlarini oshirish va kengaytirishning faol vositasidir. Kompyuter o'qituvchiga ijodiy faoliyat uchun vaqt ajratish va o'quvchilar uchun individual ta'lim yo'nalishlarini yaratish imkoniyatini beradi. Shu sababli, hozirgi vaqtda elektron vositalardan, birinchi navbatda, Internetning global telekommunikatsiya tarmoqlaridan axborot manbalari sifatida tobora ko'proq foydalanilayotgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida o'quv jarayonini tashkil etish zarurati paydo bo'ldi. O'quv jarayonini axborotlashtirishning muhim tarkibiy qismi bu darsda AKTdan foydalanish tajribasini to'plashdir. Bu maktab pedagogikasida mutlaqo yangi yo'nalishdir.


Axborot texnologiyalari hozirgi vaqtda bir qator vazifalarni hal qilish qiyin bo'lgan vositadir. AKT vositalari ta'limni individuallashtirish, o'quvchilarning mustaqil ishlarini faollashtirish, motivatsiya va kognitiv faollikni oshirishning samarali vositasidir. O'quvchilarda ta'lim Internetda izlash, ma'lumotlarni tasniflash, unga tanqidiy yondashish, taqqoslash qobiliyatini rivojlantiradi, ya'ni umuman olganda, zamonaviy shaxsning zaruriy sifati bo'lgan axborot madaniyatini oshirishga yordam beradi, o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini singdiradi, Bu esa "o'rganishni kashfiyot quvonchiga aylantirish"ga yordam beradi. Agar qiziqish bo'lsa, taraqqiyot bo'ladi, bu esa ta'lim sifatiga yanada ta'sir qiladi.

Pedagogik tizim quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: o'qituvchi, o'quvchi, ta'limning maqsad va vazifalari, o'qitish mazmuni, o'qitish shakl, usul va vositalari. Zamonaviy AKT ushbu barcha komponentlariga o'zini hissasini qo'shib kelmoqda. An'anaviy va zamonaviy AKT muhitida tashkil etilgan ta'limning qiyosiy tahlili quyidagicha bo'lishi mumkin:

№	An'anaviy ta'lim	Zamonaviy ta'lim
1	Yangi avlodga bilim va tajriba berish	Talabalarning shaxsiy barkamolligini ta'minlash va rivojlantirish
2	Talabalarni hayotga tayyorlash	Qiyinchiliklarsiz yashashga o'rgatish
3	Hozirgidan kelgusida yaxshi bo'lishga tayyorlash	Doimiy o'zgarish jarayonida yashashga o'rgatish
4	Ta'lim maqsadi – bilim olish	Ta'lim maqsadi – o'zini rivojlantirish, barkamollik
5	Talabalar maqsadini tayyor holda oladilar	O'zining huquqiy maqsadlarini qo'yishi va unga erishish yo'llarini tanlash
6	Talabalar nazorat turlaridan qochadilar	Obyektiv va o'z vaqtda nazoratga intilish
7	O'quv muassasalari o'zaro o'xshash	Har bir o'quv muassasasi yuksalish sari intiladi.

Zamonaviy sharoitda o‘quv jarayonining samarali bo‘lishi uchun axborot-ma’lumot tizimlari, elektron darslik va ensiklopediyalar, internet resurslarini kiritish zarur. Videomateriallardan foydalanish ham o‘quvchining bilim faolligini faollashtirishga yordam beradi va muhim axborot imkoniyatlariga ega. Elektron ta’lim resurslari va ular asosida shakllantirilgan yangi axborot-ta’lim muhiti ta’lim sifatini oshirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning muammoni yechish, fikrlash strukturasini yaratish va jarayonni tushunish kabi kasbiy faoliyatini talab qiladigan qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ular, shuningdek, texnologiya muhim rol o‘ynaydigan, oldindan aytib bo‘lmaydigan va o‘zgaruvchan kelajakka tayyorlanmoqda. Agar texnologiya sinfda qo‘llanilsa, bolalar o‘rganishga ko‘proq jalb qilinishi mumkin. Hozirgi yoshlar elektron gadgetlardan foydalanishga juda o‘rganib qolganligi sababli, ularni maktab ta’limiga qo‘shish, shubhasiz, ularning qiziqishini uyg‘otishi va faollik darajasini oshirishga yordam beradi.

Talaba uchun kompyuter ko‘plab funksiyalarni bajarishi mumkin:




Talabalar shaxsiy ehtiyojlariga qarab, ishning turli bosqichlarida va turli imkoniyatlarda shaxsiy kompyuterdan foydalanishlari mumkin. O‘qituvchining funksiyalarini amalga oshirish imkoniyatlari tufayli kompyuter ko‘pincha talabalarining mustaqil va uy vazifalarini bajarish jarayonida, xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida, orqada qolgan talabalar uchun bilim bo‘shliqlarini to‘ldirish uchun ishlatiladi. Bunday holda, o‘qitish uchun maxsus yaratilgan kompyuter dasturlari qo‘llaniladi.

Hozirgi vaqtda zamonaviy ta’lim oldida turgan maqsad va vazifalar o‘zgarmoqda - sa’y-harakatlarda bilimlarni o‘zlashtirishdan kompetensiyalarni shakllantirishga siljish kuzatilmoqda, asosiy e’tibor o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’limga qaratilmoqda. Ammo, shunga qaramay, dars o‘quv jarayonining asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi. O‘quvchilarning o‘quv faoliyati asosan darsga qaratilgan. Buning uchun eng boy imkoniyatlar AKTdan foydalanish orqali taqdim etiladi.

Bugungi kunda har qanday o‘qituvchi o‘quv jarayonida AKT vositalaridan foydalanish uchun ko‘plab imkoniyatlarga ega - bu Internet, elektron darsliklar, lug‘atlar va ma’lumotnomalar, taqdimotlar, dasturlar, turli xil aloqa turlari - chatlar, forumlar, bloglar, elektron-pochta, telekonferensiyalar, vebinarlar va boshqalar. Buning sharofati bilan mashg‘ulotlar mazmuni yangilanadi, ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida tezkor axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yiladi. Shu bilan birga, o‘qituvchi nafaqat bolaga ta’lim beradi, rivojlantiradi va tarbiyalaydi, balki yangi texnologiyalarni joriy etish bilan u o‘z-o‘zini tarbiyalash, kasbiy o‘sish va ijodiy rivojlanish uchun kuchli rag‘bat oladi. Bundan tashqari, o‘qitishda AKTdan foydalanish o‘qituvchiga quyidagi didaktik vazifalarni hal qilishga yordam beradi:

- ✚ barqaror motivatsiyani shakllantirish;
- ✚ talabalarining aqliy qobiliyatlarini faollashtirish;
- ✚ passiv talabalarni ishga jalb qilish;
- ✚ o‘quv jarayonining intensivligini oshirish;
- ✚ boshqa mamlakatlar va madaniyat vakillari bilan jonli muloqotni ta’minlash;

- o‘quv jarayonini zamonaviy materiallar bilan ta’minlash;
 - talabalarni turli axborot manbalari bilan mustaqil ishlashga ko‘niktirish;
 - ta’limning o‘quvchiga yo‘naltirilgan va tabaqalashtirilgan yondashuvini amalga oshirish;
 - o‘quv jarayonini faollashtirish, talabalarni tadqiqot faoliyatiga jalb qilish imkoniyati;
- o‘quv jarayonining moslashuvchanligini ta’minlash.



Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rib turibdiki, o‘qituvchi o‘z ish jarayonini to‘g‘ri tashkillashtirsa, ta’lim oluvchilarning dars jarayonini o‘zlashtirishi yanada yaxshilanadi. Biz yuqorida ko‘rib o‘tgan bosqichlar, dars samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Lekin bugungi kunda o‘qitish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga turlicha yondashilmoqda. Bu yondashuvlarga ko‘ra, o‘qitish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yaxshi natija beradi, ikkinchi tomondan esa aniq fanlarni o‘tishda doskadan foydalanish jarayonida ma’lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi kabi fikrlar mavjud. Gumanitar sohada zamonaviy texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonini tashkil qilish asosiy o‘rinda turadi. Sababi, dastlab zamonaviy axborot texnologiyalaridan faqat chet tillarini o‘qitish jarayonida qo‘llanilgan bo‘lsa, hozirda boshqa fanlar ham bu texnologiyalar yordamida tashkillashtirilyapti. Ya’ni, darslarni slaydlar yordamida o‘tish, dars jarayonni tushunarli bo‘lishini va yaxshi o‘zlashtirilishiga olib kelmoqda. Ta’lim oluvchilar ta’lim olish jarayonida nafaqat mavzuga doir ma’ruzani tinglaydilar, balki yozadilar, shu mavzuga oid rasmlarni ko‘rib, shu mavzu haqida tassavur hosil qiladilar.

Darslarning samaradorligini oshirishda multimediya vositalaridan foydalanish ham katta imkoniyatlar beradi. Masalan, dars o‘tish jarayonida ovozli slaydlar yoki video darslardan foydalanish mumkin. Bundan tashqari, dars jarayonida turli audio kitoblar yoki kompyuter trenajorlaridan foydalanish ta’lim oluvchini dars jarayoniga bo‘lgan qiziqishini bir necha barobar orttiradi.

Samarali ishlab chiqilgan ta’lim muhiti (shu jumladan, multimediali ta’lim muhiti) quyidagi 4 ta elementni o‘z ichiga qamrab oladi:

1. Axborotlarni aks ettirish.
2. Ishni nimadan boshlash va qanday davom ettirish bo‘yicha qo‘llanma.
3. Tushunish va xotirada saqlab qolish uchun mashqlar.
4. O‘tilganlarni takrorlash yoki keyingi bosqich (qadam)ga o‘tish zarurligini aniqlash uchun o‘zini baholash.


Ushbu to‘rtta element elektron o‘quv resurslaridan foydalangan holdagi ta’limda yoki an’anaviy ta’lim turlari bilan bo‘lgan kombinatsiyalarda ishlatilishi mumkin. Elementlarning barchasini multimediasiz ishlatish mumkinligiga qaramasdan, multimediyada ushbu elementlardan foydalanish ularni yanada samaraliroq va muhimroq qiladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib ta’lim jarayonini tashkil qilishda nafaqat o‘qitish balki mustaqil ish yoki nazorat ishlarini o‘tkazishda ham foydalanish mumkin. Mustaqil ishlarni

tashkil qilish vaqtida ta’lim beruvchi ta’lim oluvchiga turli slaydlar yoki kichik hajmga ega videoroliklarni yaratishni vazifa qilib berishi mumkin. Bunda ta’lim oluvchi vazifaga mustaqil yondashadi va fikrlashga o’rganadi. Ba’zi bir gumanitar fanlarni o’qitishda bu texnologiya yaxshi natija berishi barchaga ma’lum. Nazorat ishlarini o’tkazishda turli xil elektron testlarni tashkil qilish mumkin. Buning uchun ta’lim beruvchidan hech qanday ortiqcha harakat kerak emas. Sababi, nazorat ishlarini o’tkazish uchun tayyor test dasturlari mavjud va bu dasturlarni maxsus o’rganish shart emas. Bu dasturlarni ishlatish sodda bo’lib, xohlovchilar bu dasturlarni o’zlari o’rganish imkoniga ega bo’ladilar.

Texnologiyani ta’limga integratsiyalash o’quvchilarga qiziqarli ta’lim tajribasini taqdim etadi, bu esa ularga chalg’imasdan mavzuga ko’proq qiziqish imkonini beradi. Sinfda proyektorlar, kompyuterlar va boshqa zamonaviy texnik jihozlardan foydalanish o’quvchilar uchun o’qishni samarali va qiziqarli qilishi mumkin. Sinfda texnologiya resurslari, og’zaki taqdimotlar va guruh ishtirokini o’z ichiga olgan vazifalarni o’rnatish orqali o’quvchilarning mavzuni o’zlashtirishi yuqori darajada bo’lishi mumkin. Kompyuterlar va boshqa qurilmalarni raqamli vositalar bilan birgalikda ishlatish bolalarga faolroq rol o’ynash va jarayonning markazida bo’lish imkonini beradi. O’qituvchi bu jarayonda kuzatuvchi bo’lib, o’rganish samaradorligini tasdiqlashi mumkin. Ko’p sonli raqamli resurslardan foydalangan holda, o’quvchilar kerakli ma’lumotlarni yuklab olishlari mumkin. Ushbu texnologiyalar (wiki, podkastlar, bloglar va h.k.) o’quvchilarga kontent yaratish, boshqalar bilan hamkorlik qilish, bir-birlarining ishini baholash va birgalikda o’rganishga o’tishga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar yordamida peyzajlarni o’rganish bir nechta texnikani aralashtirib, har bir o’quvchiga alohida yo’nalishlarni taqdim etish imkonini beruvchi didaktik vosita sifatida rivojlanadi. Texnologiya ta’limni yanada ilhomlantirib mazmunli qiladi.

Smart sinflar o’quvchilarni o’qitish uchun elektron qurilmalar yoki ijtimoiy media, multimedia va mobil telefonlar kabi platformalardan foydalanish orqali aniqlanadi. Ta’limdagi raqamli texnologiyalar bilan bugungi ta’lim landshafti yaxshi tomonga o’zgardi yoki yaxshilandi. Raqamli ta’lim - bu butun o’quv dasturini bajarish uchun texnologiyadan foydalanadigan va o’quvchilarga tez va tez o’rganish imkonini beruvchi o’rganish strategiyasidir. Raqamli smart sinf butunlay texnologiyadan foydalanish orqali o’qitishga qaratilgan. O’quvchilar noutbuklar, planshetlar va shu kabi texnologik yoki internetga ulangan gadjetlardan foydalanadilar. O’qituvchi o’rgatgan narsalarni qayd qilish o’rniga, o’quv dasturining aksariyati o’quvchilarga qiziqarli va interaktiv platforma orqali onlayn tarzda yetkaziladi. Ko’p qirrali bo’lishiga qaramay, ta’lim asosan muloqotning bir turidir. Internet yangi aloqa kanallarining paydo bo’lishiga olib keldi, bu esa ta’lim ma’lumotlarini uzatish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi. Ushbu ommaviy axborot vositalari va virtual smart sinflar o’rganish uchun yordamchi bo’lib xizmat qiladi. Smart sinfning turli xususiyatlari ushbu rasmda ko’rsatilgan:



Smart sinflarda o’quvchilarga o’rganish tajribasini yaxshilashda yordam berish uchun ta’lim dasturlari va veb-saytlar qo’llaniladi. Teskari aloqa va texnologiya raqamli sinfning ikkita muhim komponentidir. Fikr-mulohaza zanjirlari talabalarning o’qituvchilaridan real vaqt rejimida fikr-mulohazalarini olishlari uchun zarurdir. O’qituvchilar o’quvchilar, dars, guruh va hokazo kabi ko’plab omillarga bog’liq holda fikr-mulohaza bildirish uchun teskari aloqa zanjirlaridan foydalanishlari mumkin. PPTlar, video taqdimotlar, elektron ta’lim usullari, onlayn treninglar va boshqa raqamli yondashuvlar ta’lim-tarbiya jarayonida tobora ko’proq foydalanilmoqda. Natijada, talabalar endi internet resurslari va smart sinfxonalardan foydalangan holda ko’plab mavzularni mustaqil o’rganishlari mumkin. Maktablarda rangli jadvallar, grafiklar va modellar sinfning eng yaxshi ko’rsatmalarini tasvirlaydi. Biroq, ular endi ta’lim berishning eski uslublari hisoblanadi. Sinfidagi ta’lim endi faqat kitob o’qish, boblar va tushunchalarni tushuntirish uchun doskaga yozish, kitoblarda qayd qilish bilan cheklanmaydi.

Raqamli texnologiyalar ta’limni turli yo‘llar bilan yaxshilashga yordam beradigan kuchli vositadir, masalan, o‘qituvchilarga o‘quv materiallarini ishlab chiqarishni osonlashtiradi va bolalarga o‘rganish va hamkorlik qilish uchun yangi usullarni taqdim etadi. Internetning butun dunyo bo‘ylab tarqalishi va unga ulangan ko‘plab smart qurilmalar paydo bo‘lishi bilan yangi davr keldi. Shunday qilib, sifatli va samarali ta’lim hamma uchun va hamma joyda mavjud bo‘lishi uchun ta’limni inqilob qilish uchun ilg‘or raqamli texnologiyalar salohiyatidan foydalanish o‘qituvchi va pedagoglarga bog‘liq bo‘ladi. Texnologiya bolalarga mustaqil ta’lim berishda ham muhim rol o‘ynaydi. Raqamli ta’lim ijodkorlikni rivojlantiradi va o‘quvchilarga muvaffaqiyat tuyg‘usini beradi, an’anaviy usullardan tashqari fikrlash orqali mustaqil ta’limni rag‘batlantiradi. Koronavirus pandemiyasi tufayli barcha davlatlar televideniye, radio, onlayn va mobil platformalar kombinatsiyasidan foydalangan holda masofaviy ta’lim texnologiyalarini o‘zlashtira oldi, bu tahsinga sazovor. Bular axborotga oson qabul qilishni, oson saqlashni va taqdim etishni yaxshilashni ta’minlaydi; Masofaviy ta’lim yanada interaktiv bo‘lib, bilim almashishni osonlashtirdi va o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni oshirdi.

Bugungi texnologik o‘rish bilan o‘qituvchilar smartfon va planshet kompyuterlar, sensor doskalar kabi turli xil gadjetlardan foydalanishni bo‘yicha bilim va malakaga ega bo‘lishlari lozim. O‘qituvchilar o‘zlarining materiallari jonli, qiziqarli va dolzarb bo‘lishini ta’minlash uchun barcha mavjud onlayn resurslardan foydalanishlari kerak. Texnologiya shunchaki video o‘yinlar o‘ynash va animatsion filmlarni tomosha qilish emas. Afzalliklar talabalar, ota-onalar va o‘qituvchilarning ta’limni yaxshilash uchun texnologiyadan qanday foydalanishi bilan belgilanadi. Texnologiyadan ta’lim maqsadlarida samarali foydalanilsa, ta’lim tajribasi yaxshilanadi va o‘quvchilarning o‘rganishga qiziqishini uyg‘otadi. Elektron ta’lim tizimlarini telefonlar va planshetlar kabi yangi aqlli qurilmalar bilan moslashtirish raqamli ta’limdan foydalanish qulayligi va tezroq o‘zlashtirilishining muhim elementi bo‘ldi. Animatsiya, o‘yinlar yoki faqat o‘yin-kulgi uchun mo‘ljallangan sun‘iy intellekt tizimlari kabi maxsus o‘quv jihozlari ham kiritilgan. Texnologiyani qo‘llab-quvvatlaydigan innovatsiyalar yosh guruhlar va mavzular bo‘yicha o‘rganishni osonlashtirdi.

Kichik, o‘rta va yirik ta’lim texnologiyalari kompaniyalari kelajakda ko‘payib, akademik muassasalarga turli xil yangi raqamli yechimlarni taklif qilmoqdalar. Bu butun mamlakat bo‘ylab raqamli infratuzilma sifatini yaxshilaydi, innovatsion ta’lim texnologiyalarini kengroq omma uchun qulayroq qiladi. Biz barcha til chegaralari olib tashlanishini va mintaqaviy tillardagi o‘quv resurslarining onlayn mavjudligini ko‘ramiz. Elektron ta’lim va masofaviy ta’lim dasturlari talabalar va o‘qituvchilarga katta hajmdagi ma’lumotlardan foydalanish imkonini beradi. Texnologiya ta’lim kelajagini shakllantirishda muhim rol o‘ynasa-da, yangi o‘qitish vositalaridan samarali foydalanishni ta’minlash sinfda insoniy aloqaning muhimligini tushunadigan yangi avlod o‘qituvchilarini talab qiladi. O‘quvchilar bugungi va kelajakdagi ta’limga bo‘lgan ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish uchun yangi ta’lim texnologiyasidan foydalanish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari zarur. Kelgusi yillarda ta’lim tendensiyalari o‘sib borayotgan internet imkoniyatlari va tarmoq sig‘imini kuzatib boradi, bu esa innovatsion texnologiyalarni sinflarga kiritishni osonlashtiradi.

Demak, zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim sohasiga kirib borishi o‘qituvchilarga ta’lim mazmuni, usullari va tashkiliy shakllarini sifat jihatidan o‘zgartirish imkonini beradi. Ta’limdagi ushbu texnologiyalarning maqsadi axborot jamiyatida o‘quvchilarning intellektual imkoniyatlarini mustahkamlash, shuningdek, ta’lim tizimining barcha bosqichlarida o‘quv jarayonini insonparvarlashtirish, individuallashtirish, intensivlashtirish va ta’lim sifatini oshirishdan iborat. Kompyuterlashtirish axborot jarayonining ajralmas qismidir. Maktab ta’limini kompyuterlashtirish so‘nggi o‘n yilliklarda maktab tizimiga kirib kelgan keng ko‘lamli yangiliklardan biridir. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim jarayoniga katta ta’sirini hisobga olgan holda, ko‘plab o‘qituvchilar ularni o‘zlarining uslubiy tizimiga kiritish istagini kuchaytirishmoqda. Biroq maktab ta’limini axborotlashtirish jarayoni bir zumda sodir bo‘lishi mumkin emas, chunki u bosqichma-bosqich va uzluksizdir.

Shunday qilib, axborot texnologiyalari endi ta’lim tizimini to‘ldiruvchi vositalar emas, balki bilimlarning yangi tartibi va uning institutsional tuzilmalarini o‘rnatish uchun zarur imkoniyat hisoblanadi. O‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun esa o‘qituvchi axborot ta’lim texnologiyalarini o‘zlashtirishi, ularning rivojlanishini hisobga olgan holda, o‘z-o‘zini tarbiyalash orqali axborot madaniyatini muntazam oshirib borishi, shu bilan birga ulardan foydalanishni suiiste’mol qilmasligi kerak. Media ta’lim vositalari va shakllari o‘qituvchiga fan va axborot texnologiyalarining eng so‘nggi yutuqlaridan foydalangan holda kasbiy o‘rish va o‘z-o‘zini takomillashtirish imkoniyatlarini beradi. AKTni sinf muhitiga integratsiyalashtirish holda, o‘zaro aloqalar ajratilgan vaqt va geografik chegaralardan tashqarida kengayadi. Ularning noyob qobiliyati tufayli iqtidorli o‘quvchilar katta hajmdagi ma’lumotlarni

o‘zlashtiradilar va ma’lumotlarni juda tez qayta ishlaydilar. Shubhasiz, ta’lim va ta’lim manbai sifatida AKT qurilmalaridan foydalanish bugungi sinfda o‘qitishning majburiy elementiga aylandi.

Adabiyotlar:

1. Ayupov R.X. Ta’limda axborot texnologiyalari: O‘quv qo‘llanma /. - T.: TPDU, 2020 yil
2. Kuldasheva Sanobar Modern Technologies in Improving the Quality of Teaching. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 04, 2020.
3. Tojiev Nuriddin Shukur o‘g‘li. Dars sifatini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 3 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. April 2021.
4. Юнусова Дильнавоз Панджиевна. Методика обучения русскому языку в начальных классах. Analytical Journal of Education and Development. Volume: 02 Issue: 01 | 2022
5. Fozilov Ibrokhimjon Rakhimovich, Fozilov Jakhongir Ibrokhimovich. The Use of Information Technology in Primary Schools. Texas Journal of Multidisciplinary Studies. 07.11.2021.
6. Temirov Shahrizod Uchqunjonovich. Information technologies and their importance in the educational process. International scientific-practical conference on the topic of “Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages” VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 20 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7
7. Красовская Л.В., Исабекова Т.И. Использование информационных технологий в образовании // Научный результат. Педагогика и психология образования. Т. 3, №4: 29-36.
8. Шнакенберг Х.Л. Планшетные технологии и образование. Международный журнал образования и практики, 1(4) (2013), стр. 44-50.
9. Collis B. Information technologies for education and training. Handbook on information technologies for education and training, Springer, Berlin, Heidelberg (2002), pp. 1-20.
10. J. Hsu. Innovative technologies for education and learning: Education and knowledge-oriented applications of blogs, wikis, podcasts, and more. International Journal of Information and Communication Technology Education (IJICTE), 3 (3) (2007), pp. 70-89.
11. Abdullayev A.A. System of information and communication technologies in the education. Science and world International scientific journal, 2 (2020), pp. 19-2.1

XUDOYBERDIYEV Iskandar Boymurodovich

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
“Matematika va informatika” kafedrası assistenti

G‘ULOMOV Jobirbek G‘iyos o‘g‘li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti “Informatika va uni
o‘qitish metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi

OLIV TA‘LIM MUASSASALARIDA TA‘LIM JARAYONLARINI TASHKIL ETISH MODELLARI

Axborot texnologiyalari asosida ta‘limni takomillashtirish ta‘lim muassasalarida ta‘limni tayyorlash texnologiyasi o‘quv jarayonida amaliy fanlar va ijodiy qobiliyatlarni bog‘lashga xizmat qiluvchi zaruriy vositalar talab qilinadi. Shu maqsadda Muammolarni (o‘quv jarayonida axborot texnologiyalarining o‘rni va vazifalari, o‘qituvchining mehnat muhitidagi ahamiyati, kompyuterni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari, ta‘limni individuallashtirish muammolari, ta‘limni individuallashtirish) hal qilishi uchun ishlab chiqilgan modellar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. universitet 1.0, universitet 2.0, universitet 3.0, universitet 4.0, birlamchi model, ikkilamchi model, aralash model, uzoqlashgan auditoriyalar modeli, ta‘limda axborot texnologiyalari.

МОДЕЛИ ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ В ВУЗЕ

Совершенствование образования на основе информационных технологий в образовательных учреждениях требует наличия необходимых средств, служащих для соединения прикладных наук и творческих способностей в образовательном процессе с образовательными технологиями. Для этого разработаны модели решения задач: роль и задачи информационных технологий в образовательном процессе, значение преподавателя в производственной среде, особенности компьютерного обучения и проблемы индивидуализации обучения.

Ключевые слова: университет 1.0, университет 2.0, университет 3.0, университет 4.0, первичная модель, вторичная модель, смешанная модель, модель отдалённых аудиторий, информационные технологии в образовании.

MODELS OF ORGANIZATION OF EDUCATIONAL PROCESSES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Improving education based on information technology in educational institutions requires the availability of the necessary tools that serve to connect applied sciences and creative abilities in the educational process with educational technologies. For this, problem solving models have been developed: the role and tasks of information technology in the educational process, the importance of the teacher in the production environment, the features of computer learning and the problems of individualization of learning.

Key words: university 1.0, university 2.0, university 3.0, university 4.0, primary model, secondary model, mixed model, remote classroom model, information technologies in education.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli Qarori ijrosi bugungi kunning dolzarb masalalarini yechishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Asosiy qism.

Universitet 1.0, 2.0, 3.0, 4.0 modellari

Jahon amaliyoti ko‘rsatib turibdiki, universitetlar ilm-fan talab qiladigan ishlanmalar va texnologiyalarning yaxlit vazifasini tashkil etadi. Shuning uchun ular eng yaxshi imkoniyatga ega bo‘lgan mintaqalar va davlatlarning iqtisodiy ustunligini ta‘minlaydi. Ular ochiq va dinamik rivojlanayotgan tizimlardir. Doimiy faol yoshlar oqimi bilan, har xil faoliyat turlarining o‘zaro ta‘sirini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan resurs bazasiga ega [1]. Bitta murakkab muammoni hal qilishga qaratilgan ko‘p tarmoqli ilmiy loyihalarni shakllantirish qobiliyatiga ega.

Universitet 1.0 modeli. Talabalar bilimlari va muloqotini takomillashtirishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, mashg‘ulotning interaktiv qismini ta‘minlamaganligi, texnik vositalardan faol foydalanish

mumkinligini bildiradi. Proyektor, kompyuter, aqlli doska, ma'ruza matnlari, taqdimotlar, topshiriqlar, testlar bilan aloqa tarmog'i shakllangan bo'ladi.


O'rta asr universitetlari modelini (“Universitet 1.0”) hisobga olgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, ularning faoliyati ma'lum faoliyat yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash yoki tijoratlashtirish uchun mahsulotlarni ko'paytirish bilan bog'liq amaliy xarakterga ega bo'lmagan.

Universitet 1.0 modeli o'quv yo'nalishlari va ilmiy mavzular bilan cheklangan. Universitet faoliyatining yo'nalishlari va ishlab chiqaradigan mahsulotlar o'rtasidagi aloqalar yaxshi emasligi, shu sababli ish beruvchilarning to'g'ridan-to'g'ri buyurtmalarisiz bitiruvchilarni yagona dasturlarda o'qitish sifatida "Universitet 1.0" modeli bo'yicha ta'lim faoliyati bilan cheklangan.



1-rasm. Universitet 1.0 modeli

Universitet 2.0 modeli. Talabalarning javoblarini qayta ishlash va tahlil qilishning elektron shakli asosida o'quv jarayonida interaktivlik uchun imkoniyat yaratadi. Talabalarning o'quv materiallarini o'zlashtirish uchun o'quv jarayonini boshqarish imkonini beradi [2]. Shu bilan birga, "Universitet 2.0" modelining texnik vositalariga sharxlar berishga shuningdek o'quv jarayonini virtual laboratoriyalar va video materiallar bilan to'ldirishga imkon beradigan maxsus o'quv muhitini nazarda tutadi. "Universitet 2.0" modeli talabalarning individual xususiyatlarini maksimal darajada hisob olgan holda o'qituvchidan turli xil pedagogik texnologiyalarni qo'llashni talab qiladi.




2-rasm. Universitet 2.0 modeli

Universitet 3.0 modeli. Intellektual faoliyatning yangi natijalarini yaratish, texnologik startaplarni tashkil qilish, intellektual mulkni ro'yxatdan o'tkazish imkoniyatini beradi.

Universitet 3.0 modeli o'quv va ilmiy mahsulotlarni yaratish jarayonlarini ularni tijoratlashtirishni o'z ichiga oladi. Universitet 3.0 modeli qiymat yaratishning uchta zanjirini amalga oshiradi: o'quv, ilmiy mahsulotlar va universitetning intellektual faoliyati natijalarini tijoratlashtirish, ularni mijozlar talablariga muvofiq tashkil etish jarayonida moslashuvchanlikni qo'lga kiritadi.

Yuqorida aytib o'tilganlardan kelib chiqib, universitet modellari quyidagi mezonlarga muvofiq tasniflanishi kerak:

- 1) faoliyat yo'nalishlaridan birining ustunligi;
- 2) mahsulot va xizmatlarni yaratish jarayonlari ishtirokchilarining bir-biri bilan o'zaro ta'siri usullari;
- 3) mahsulotlar va xizmatlarni yaratish jarayonlarining bir-biri bilan integratsiyalashuv darajasi.




3-rasm. Universitet 3.0 modeli

"Universitet 4.0" modeli. O'zgaruvchan ta'lim yo'nalishlari bilan ochiq ta'lim resurslari faol rivojlantirgan "bio-raqamli" universitet deb tushuniladi. Raqamli dasturlar inson ehtiyojlariga to'liq moslashadi va yaqin kelajakda klassik ta'lim dasturlari va ma'lumot uzatishning chiziqli usulini o'zgartiradi.

"Universitet 3.0" va "Universitet 4.0" modellari ilmiy-ma'rifiy faoliyatni birlashtirishga, shuningdek intellektual faoliyat natijalarini tijoratlashtirish jarayonlarini faollashtirishga asoslangan [4]. Uchinchi va to'rtinchi universitet modellarining ta'lim texnologiyalaridagi farqlari o'rtasida yetarlicha aniq farq yo'q, chunki Universitet 4.0 modelida taklif qilingan qo'shimcha raqamli dasturlar Universitetda muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin.

Universitet 1.0, 2.0, 3.0 va 4.0 metodologiyalarining asosiy elementlari bo'lgan xalqaro tajribada qo'llanilgan ayrim modellari o'rganilgan bu modellar birlamchi, ikkilamchi, aralashgan, uzoqlashgan auditoriya modellarining xususiyatlari mos kelishi tahlil qilingan.

Birlamchi model. Ushbu model faqat onlayn ta'lim oluvchi talabalar bilan ishlash uchun yaratiladi. Talabalarning har biri virtual o'qituvchiga biriktirilgan bo'lishadi. Konsultasiyalar va yakuniy nazoratlarni topshirish uchun esa regional bo'limlar bo'lishi shart [5]. Shunday o'quv kurslarda o'qituvchi va talabalarga o'quv shaklini va formasini tanlashda katta imkoniyatlar va ozodliklar beriladi. Bu modelga misol qilib Buyuk Britaniyaning Ochiq Universitetidagi <http://www.open.ac.uk> ta'limni olish mumkin(1-rasm).




4-rasm. Talabalar onlayn ta'lim olishda o'quv shaklini ixtiyoriy tanlash

Ikkilamchi model. Ushbu model xam faqat onlayn ta'lim oluvchi va kunduzgi ta'lim talabalar bilan ishlash uchun yaratiladi. Ikkala guruhda bir xil o'quv dasturi va darslar jadvali, imtixonlar va ularni baxolash mezonlari mavjud. Shunday o'quv muassasalarda kunduzgi kurslarning soni masofaviylarga qaraganda ko'p [6]. Ushbu masofaviy kurslar pedagogika va uslubiyatdagi yangi yo'nalishlarni izlanishlarida qo'llaniladi. Bu modelga misol qilib Yangi Angliya va Avstraliya Universitetidagi <http://www.une.edu.au/> ta'limni olish mumkin.

Aralashgan model. Ushbu model kunduzgi ta'lim turlarini integrasiyalashtirish uchun yaratiladi. Talabalar o'quv kursning bir qismini kunduzgi, boshqa qismini esa masofadan onlayn o'qiydi. Shu bilan birga bu ta'lim turiga virtual seminar, prezentatsiyalar va leksiylar o'tkazish ham kiradi. Bu modelga misol

qilib Yangi Zelandiyadagi Massey Universitetidagi <http://www.massey.ac.nz/> [7]ta’limni olish mumkin(2-rasm).



5-rasm. O‘qituvchi va talabalar o‘rtasida prezentasiyalar va leksiyalar o‘tkazish

Uzoqlashgan auditoriyalar modeli. Ushbu modelda informatsion va kommunikatsion imkoniyatlardan keng foydalaniladi. Bitta o‘quv muassasasida bo‘lib o‘tgan o‘quv kurslar videokonferensiyalar, radiotranslyatsiyalar va telekomunikatsion kanallar orqali sinxron teleko‘rsatuvlar ko‘rinishida boshqa auditoriyalarga uzatiladi. Aralashgan modeldan farqi shundaki, bu modelda talabalar kunduzgi ta’limda qatnashmaydi [8]. Bu modelga misol qilib AQShning Viskonsing Universitetidagi va Xitoyning markaziy radio va televideniye Universitetidagi ta’limni olish mumkin.

Ta’lim loyihalari modeli. Ushbu model davlat yoki ilmiy izlanish maqsadidagi dasturlarni bajarish uchun yaratiladi. Asosiy ish onlayn ta’lim beruvchi mutaxassislar va pedagoglar to‘plangan ilmiy-metodik markazga tushadi. Ushbu modelda yaratilgan kurslar aholining katta qismiga namoyish qilinib o‘z vazifasini bajargandan keyin to‘xtatiladi. Bu modelga misol qilib Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasidagi rivojlanmagan mamlakatlarida o‘tkazilgan qishloq xo‘jaligi, soliqlar va ekologiya haqidagi har xil kurslar bo‘lishi mumkin.

1-jadval.

Yuqorida keltirilgan onlayn ta’lim modellari xususiyatlaridan kelib chiqib SWOT tahlili

Kuchli tomonlari	Kuchsiz tomonlari
- o‘quvchi o‘ziga qulay vaqtda va hattoki ishdan ajralmagan holda o‘qishi mumkin; - yashash joyidan turib, o‘qish imkoniyati; - o‘qish va ishini birga parallel olib borish [9]; - sifatli texnologiyalar - talaba sifatli o‘quv materiallari yordamida o‘qitilishi; - ta’limda individual yondashuv - individual o‘quv rejasini tuzishi mumkin; - baholashning xolisligi. - tizimni o‘quvchi uchun tejamkorligi - moliyaviy xarajatlar asosan o‘quv-uslubiy materiallar tayyorlash uchun, maxsus auditoriyalar uchun sarflanadi. Shuningdek, talabalar sonining oshishi bilan o‘qish narxi ham pasayadi; - dars jadvalni qulayligi. O‘quvchi o‘ziga ma’qul bo‘lgan vaqtda va ma’qul usulda o‘quv jarayoniga qatnashishi mumkin. - qulay foydalanish manzillari. O‘quvchi internet kafe, uy, mexmonxona, ish joyida va	- ta’lim muassasalarida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari bazasining mavjudligi va yetarli (masalan server xonalar) darajada ta’minlanganligi; - internet tarmog‘ida ishlashning uzluksizligini ta’minlash zarurati; - onlayn ta’lim tizimi bilim olayotgan talabalarning bilim olish e’tiborini, ishtiyoqi va qiziqishini doimiy jalb qila olishiligi; - elektron kontentni mazmunli va sifatli ma’lumot bilan maqsadga yo’naltirilgan ta’limga erishishni ta’minlay olishi [10]; - kerakli va sifatli o‘quv materiallari, elektron darsliklar va o‘quv kurslari bilan ta’minlanganligi va ularning yetarliligini o‘z vaqtida ta’minlay olish; - o‘zaro qayta aloqaning sifati. - elektron holatdagi ta’lim va muloqot jarayonlarga ishonchsizlik. Ushbu sababdan talabalar asosan virtual holatdagi ta’lim turida

boshqa joylardan o'quv jarayoniga qatnashishi mumkin. • qulay o'qish tempi. Ta'lim, o'quvchilar yangi bilimlarni tushunish tempida o'tkaziladi. • qulay o'quv reja. O'quv rejani talabalarga individual va davlat ta'lim talablariga mos holatda tashkil qilish mumkin. • ma'lumotlar bazasini to'planishi. Oldingi o'qigan talabalar bilimlarini to'plash va undan foydalanish imkoniyati. • malakali o'qituvchilarni tanlab ta'lim jarayoniga jalb qilish.	emas, balki oddiy (kunduzgi va sirtqi) ta'lim turlarida o'qish istagida bo'lishadi. • davlat masofaviy ta'lim standartlari yo'qligi va natijada davlat nusxasidagi diplom berilmasligi. Shu sababdan ko'pgina masofaviy ta'lim kurslari bitiruvchilariga faqat ushbu kursni bitirganligi haqida sertifikat yoki guvohnomalar berishadi. • virtual muhit va texnika ta'minot bilan bog'liqligi. Masofaviy ta'lim internet borligi, undan foydalanish narxi, tezligi va servislar mavjudligiga, maxsus kommunikatsion texnikalar mavjudligi va ularning ishlashiga taalluqli.
Imkoniyatlar	Tahdidlar
• cheksiz masofaga ta'lim berish. • O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi masofa hech qanday ahamiyatga ega emasligi. • ish jarayoniga xalaqit bermasligi. • o'quvchi ishdan ajralmagan holda ta'lim olishi. • o'quvchilar sonining oshirilishi. Masofaviy ta'lim texnologiyalarni to'liq qo'llagan o'quv muassasa talabalar sonini 2-3 barobar oshishi mumkin. • narxi. Onlayn ta'lim kurslari 2-3 barobar oddiy kurslarga qaraganda arzonligi.	• internet orqali onlayn ta'lim beruvchi xorijiy o'quv muassasalari bilan yuqori raqobat. • elektron kurslarni onlayn o'qitish uchun ruxsat berishni joriy etish borasida rasmiylarning aniq pozitsiyasi yo'qligi • mintaqalarda past sifatli masofaviy ta'limning paydo bo'lishi. • akkreditatsiyadan o'tgan va sertifikatlangan professional kurslarning yo'qligi. • onlayn ta'limda faol foydalaniladigan manbalarning mualliflik huquqida kamchiliklar borligi.

Xulosa. Demak, onlayn ta'limda asosiy e'tiborni o'quv uslubiy materiallarni tayyorlashga qaratish darkor. Chunki o'quv uslubiy materiallarning sifati onlayn ta'lim sifatining eng asosiy omillaridan biridir. O'quv uslubiy material qanchalik tushunarli va batafsil bo'lsa, shunchalik u talabaga foydali bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Бегимкулов У. Ш., Джуроев, Р. Х., Исянов, Р. Г., Шарипов, Ш. С., Адашбоев, Ш. М., & Цой, М. Н. (2011). Педагогик таълимни ахборотлаштириш: назария ва амалиёт. Монография. Тошкент, 177.
2. Djuraev R. X., & Turgunov, S. T. (2012). Education management. T.: Voris-Nashriyot.
3. Цой М. Н., Джуроев, Р. Х., & Тайлаков, Н. И. (2007). Создание электронных учебников: теория и практика. Монография. Государственное научное издательство «Узбекистон миллий энциклопедияси, 3.
4. Temirov A., & Sohobiddinov, A. Information in the education system of our country learning through communication and innovative technologies. WORLD SOCIAL SCIENCE, 15-16.
5. Temirov A. A., & Salimova, H. R. (2019). Use of modern information and communication technologies in the training of teachers. In Proceedings of the Republican scientific-practical conference "Innovations in the development of information and communication technologies." Karshi (pp. 170-171).
6. Temirov A. A., & Habibulloyev, D. S. & G'ulomov, G'J.(2021). Masofaviy ta'limning boshqaruv tizimlari va xizmatlarining umumiy tuzilishi. Academic research in educational sciences, 2(1), 203-212.
7. Temirov A.A., Abdullayeva Sh.H. Ekspertlar jamoasini shakllantirish orqali innovatsiyalar baholash jarayoni va algoritmlari. "Raqamli pedagogika: holati va rivojlanish istiqbollari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya // Toshkent 2021. 233-237 b.
8. Temirov A.A., Abdullayeva Sh.H. LMS moodleda yaratiladigan elektron kurslarni ta'lim jarayoniga qo'llash. "Raqamli pedagogika: holati va rivojlanish istiqbollari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, Toshkent, 2021. 61-64 b.
9. Sh. Adinayev, A. Temirov Java dasturlash tilini o'rgatishda talabalarga mustaqil ish topshiriqlarini berishning namunaviy tuzilmasi Fizika, Matematika va Informatika 2/2021. 16-23b.
10. Раджабов О.С., Рустамов Б.Х., Темиров А.А. Стратегия развития ИКТ в республике Узбекистан // ТАТУ хабарлари, 2 (50), 90-99 б.



OLIMOV Laziz Yarashovich
Buxoro davlat universiteti
Psixologiya va sotsiologiya kafedrası dotsenti

SUD PSIXOLOG EKSPERTINING SOHAGA OID BILIMDONLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Ushbu maqolada sud psixolog eksperti faoliyatida huquqiy bilimdonlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning oʻziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, sud psixolog eksperti sotsial-psixologik kompetentligi va ish tajribasini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash, sud psixolog ekspertidagi kommunikativ, emotsional va shaxslilik komponentlarining namoyon boʻlishi va rivojlanishini tadqiq qilish; sud psixolog ekspertlarining sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirishda ularning sud-huquq tizimi bilan bogʻliqligi ochib berilgan.

Kalit soʻzlar: sud psixolog eksperti, huquqiy bilimdonlik, sud psixologik ekspertiza, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, ekspert shaxsi, kasbiy faoliyat.

ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ЭРУДИЦИИ СУДЕБНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЭКСПЕРТА

В данной статье рассматриваются вопросы исследования проявления и развития факторов правовой эрудиции в деятельности судебного психолога, а также совершенствования его специфических социально-психологических факторов, выявления социально-психологических факторов, составляющих развитие социально-психологической компетентности и опыта работы судебного психолога-эксперта, изучения проявления и развития коммуникативных, эмоциональных и личностных компонентов судебного психолога-эксперта. А также выявлена их связь с судебно-правовой системой в развитии социально-психологической компетентности судебных психологов.

Ключевые слова: судебный психолог-эксперт, правовые знания, судебно-психологическая экспертиза, профессиональная компетентность, компетентность, эксперт, профессиональная деятельность.

FACTORS FOR THE DEVELOPMENT OF KNOWLEDGE OF THE FORENSIC PSYCHOLOGIST EXPERT

This article discusses the issues of researching the manifestation and development of factors of legal erudition in the activities of a forensic psychologist, as well as improving its specific socio-psychological factors, identifying socio-psychological factors that make up the development of socio-psychological competence and work experience of a forensic psychologist-expert, studying the manifestation and development of communicative, emotional and personal components of a forensic psychologist-expert. And also revealed their connection with the judicial and legal system in the development of socio-psychological competence of forensic psychologists.

Key words: forensic psychologist expert, legal knowledge, forensic psychological expertise, professional competence, competence, expert person, professional activity.

Kirish. Sud psixologik ekspertizasini tashkil qilishda uning huquqiy, psixologik, ijtimoiy jihatlarini oʻrganish, shuningdek, ekspertiza oʻtkaziluvchi shaxs jinoyatchiligidan sabab va motivlarini, ijtimoiy-psixologik, shaxs va individual-psixologik, yosh, hududiy, statistik va jinsiy xususiyatlarini oʻrganish hamda jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish, ularning samaradorlik darajasini ilmiy, psixologik-pedagogik jihatdan asoslash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotimiz natijasidan yaratilgan xulosalar sud-huquq tizimini yanada isloh qilishda, sud-psixologik ekspertizalar bilan bogʻliq nazariy va amaliy jihatlarini yanada boyitishga, ijtimoiy, huquqshunoslik va pedagogik psixologiyasi fanlaridagi voyaga yetmaganlarda xulq ogʻishi va jinoyatchilik xulqining ijtimoiy-

psixologik omillarini, yosh, etnopsixologik, hududiy, statistik va jinsiy xususiyatlarini o‘rganish yo‘nalishini ilmiy-nazariy jihatdan boyitadi.

Tadqiqotdan olingan natijalar va ilgari surilgan g‘oyalar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligidan ijtimoiy-psixologik omillari to‘g‘risida muayyan konseptual nazariyaning shakllanishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari olingan empirik natijalar quyidagi hollarda qo‘llanilishi mumkin:

- ichki ishlar bo‘limining voyaga yetmaganlar bilan ishlash xodimlari faoliyatida;
 - sud psixologik ekspertiza o‘tkazuvchi komissiya faoliyati samaradorligini oshirishda;
 - maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari psixologlari, ijtimoiy, pedagogik, huquqshunoslik psixologiyasi sohasida ishlaydigan tadqiqotchilar faoliyatlarida;
 - o‘qituvchilar va ota-onalarning bolalar va o‘smirlar bilan muomala munosabat jarayonlarida;
 - mahalla fuqarolar yig‘ini faollari faoliyatlarida;
 - ushbu yo‘nalish bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqishda;
 - ichki ishlar bo‘limi voyaga yetmaganlar bilan ishlash profilaktika nozirlari, o‘qituvchilar, mahalla faollarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarini tashkil etishda;
- ommaviy axborot vositalarida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi muammosi bo‘yicha maxsus ko‘rsatuvlar, radioeshittirishlar va ruknlar tashkil etishda samarali foydalanish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Yuridik psixologiya ko‘pgina sohalarni o‘z ichiga qamrab oluvchi amaliy fan hisoblanib, bir tomondan psixologiya, ikkinchi tomondan huquqshunoslik fanlari doirasiga kiradi. Bu fan ijtimoiy-gumanitar fanlarning integrallashuvi jarayonlarining mahsuli sifatida XVIII asrdan boshlab paydo bo‘la boshlagan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida I.M.Sechenov, S.M.Bexterev, A.F.Koni faoliyat yuritgan davr yuridik psixologiyaning o‘rish davri hisoblanadi. Bu davrga kelib, jinoyatchi shaxs psixologiyasi borasidagi izlanishlar natija bera boshlaydi va yuridik psixologiyani mustaqil fan sifatida qabul qilish zarurati tug‘iladi.

Gans Grosning 1898-yilda chop etilgan “Kriminal psixologiyasi” nomli asari ko‘plab psixolog olimlarning mashaqqatli mehnatlarini o‘zida aks ettirgan birinchi ilmiy adabiyot sanaladi. Alfred Bine 1900-yilda nashr ettirgan “Ta’sir etish” asarida yosh bolalarning guvohlik berishida ta’sir ko‘rsatishning muhimligi muammosini o‘rgangan. 1925-yilda birinchi bo‘lib Rossiya federatsiyasida Jinoyat va jinoyatchilikni o‘rganish instituti tashkil etiladi. 1964-yilda “Yuridik psixologiya” fani huquqshunoslik yo‘nalishidagi barcha oliy o‘quv yurtlarining o‘quv dasturlariga kiritiladi.

1970-yilda Amerika milliy psixologik sog‘lomlashtirish markazida o‘tkazilgan 45 ta izlanish natijalari asosida “Jinoiy xromosoma anomaliyasi” mavjudligi haqida ma’ruza qilinadi. Kriminal psixologiya nazariyasiga ko‘ra, Klaynfelter gipotezasi tahlil qilinadi va 5242 nafar jinoyatchi (aynan bo‘yi balandlari) tajribadan o‘tkaziladi. Olingan natijalarga ko‘ra, baland bo‘yli erkak jinsiga mansub shaxslarning 2 % da, o‘rta bo‘yli shaxslarning 0,7% da qonunga itoatkor deb topilgan respondentlarning 1,0% da tajovuzkor xulqning shakllanishiga bog‘liq xromosomalarni aniqlangan.

Yuridik psixologiya fanining rivojlanishiga S.S.Romanov, M.I.Enikeyev, V.L.Vasilevlar katta hissa qo‘shganlar. Shu ma’noda yuridik psixologiya psixik qonuniyatlarning huquqiy faoliyat va huquqiy tartibga solish jarayonlarida paydo bo‘lishi hamda amalda qo‘llanishini o‘rganuvchi soha ekanligini ko‘rishimiz mumkin

Sud-psixologik ekspertiza bugungi kunda yuridik faoliyat amaliyotiga chuqur kirib bormoqda. Sud-psixologik ekspertizasining mohiyatini to‘laroq anglash va amaliyotga keng tadbqiq etish uchun esa uning shakllanish yo‘lini, tarixiy rivojlanishini bilish talab etiladi.

Huquqbuzarlik jarayonidagi ishtirokchilarning (ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlik beruvchi, xolis) psixik xususiyatlarini tadqiq qilish va o‘rganishga qiziqish qadim-qadimdan mavjud bo‘lgan.

Kishilik jamiyatining taraqqiy etib borishi, bir ijtimoiy tuzumning ikkinchi bir ijtimoiy tuzumga o‘rni bo‘shatib berishi jamiyatda bir qator yangiliklarni, o‘zgarishlarni keltirib chiqargan. Shu tariqa jamiyat taraqqiyoti barcha sohalar singari psixologiya ilmining ham rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Natijada huquqshunoslik amaliyotida psixologik tajribalarning ahamiyati yanada ortib, uni o‘tkazish usullari takomillashib bordi. Bu o‘z navbatida, tergov va sudlov jarayonlarining oshkoralik asosida, odilona olib borilishini ta’minladi. Biroq tergov va sudlov jarayonlarining oshkora va odilona olib borilishi ko‘p hollarda faqat sudya yoki tergovchining tajribasiga, ilmiga, malakasiga va vijdoniga bog‘liqligicha qolaveradi. Bunday holat tabiiy ravishda sudlov va tergov jarayoniga boshqa sohalarning ham aralashishi zaruriyatini

keltirib chiqardi. Dastlab sudlov jarayonida psixologlar voyaga yetmaganlarning psixik rivojlanishi xususiyatlarini, xotira, tafakkur va idrok qilish va xayol jarayonlarini tadqiq qilish bilan shugʻullana boshladilar.

Huquqshunoslik amaliyoti tarixidan maʼlum boʻlishicha, birinchi boʻlib 1810-yilda Napoleon “Jinoyat kodeksi”ga oʻz xatti-harakatlarini boshqara olish yoki boshqara olmaslik layoqatini aniqlash tushunchasini kiritadi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, bir qator mamlakatlarning jinoyat protsessual kodekslariga ayblanuvchi (gumonlanuvchi shaxsi)ning oʻz xatti-harakati yoki qilmishlariga javob bera olish yoki javob bera olmasligini aniqlashga doir tibbiy tushunchalar ham kiritila boshlandi.

Rossiyada 1864-yilda jinoyat ishlari boʻyicha sudlov nizomiga psixiatrik ekspertiza oʻtkazish zarurligi toʻgʻrisidagi kodeks qoʻshilgan edi. Ushbu psixiatrik ekspertiza tarkibida psixologik ekspertiza oʻtkazish ham koʻzda tutilgan. Shu vaqtdan eʼtiboran Rossiyada psixologik ekspertiza oʻtkazila boshlanadi.

XX asrning oʻrtalariga kelib, eksperimental psixologiya va psixodiagnostika sohasi boʻyicha erishilgan yutuqlardan sud amaliyotida ham foydalanila boshlandi. Ushbu yoʻnalish boʻyicha ilmiy tadqiqot laboratoriyalari tashkil etilib, ularda jinoyatchi shaxs xulq-atvoridagi oʻzgarishlari, fiziologik affekt holati va shu kabilar oʻrganila boshlandi.

1922-yilda Rossiya Federatsiyasida birinchi marta jinoyat protsessual kodeksi qabul qilindi. XX asrning boshlarida sobiq ittifoqning bir qator shaharlarida jinoyatchi shaxsini oʻrganish boʻyicha markazlar ochilib, ularda sudga oid psixologik ishlar olib borila boshladi.

Oʻtgan asrning 70-yillaridan boshlab, psixologik ekspertiza xizmati yana rivojlana boshladi. Psixologik ekspertiza sohasining rivojlanib borishi natijasida asta-sekin uning vazifasi, tergov va sud jarayoniga aralashuv chegarasi aniqlashib bordi. Bugunga kelib psixologik ekspertizaning vazifasi, oʻrganuvchi sohasi xususidagi anglashilmovchilik, tushunchovchiliklar barham topa boshladi.

Sud-psixologik ekspertiza mustaqil ekspert tadqiqotining shakli sifatida murakkab hisoblangan amaliy psixologiya maʼlumotlarini yuridik faoliyatga bogʻliq ehtiyojlarga moslashtirish urinishlaridan boshlab, sud-psixologik ekspertizaning oʻz nazariyasini yaratishgacha boʻlgan yoʻlni bosib oʻtgan. Bu jarayon umumiy va amaliy psixologiya rivojlanishi bilan chambarchas bogʻliq va shu kun qadar davom etmoqda.

Sud-psixologik ekspertizaning, alohida ajralgan fan sifatidagi, paydo boʻlish jarayonida quyidagi bosqichlarni ajratish mumkin:

XIX asrning birinchi yarimida Shvedsariyalik yozuvchi I.Lafaterning fiziognomika risolasi mashhur boʻlib ketdi. Unda muallif “Tashqi koʻrinish (xulqiy)ga qarab ichki (psixik) holatini” (insonning psixik holatini va psixik tipini yuz tuzilishining anatomik xususiyatlariga qarab) aniqlashga intilishini aks etgan.

Oʻsha paytda avstriyalik vrach va anatom F.Gal frenologiyaga asos solgan. U inson miyasining oʻziga xos xaritasini ishlab chiqib, bu xaritada insonning har bir qobiliyati uchun maʼlum bir qism javob berganligini aniqlagan. F.Gal fikricha, bosh miyaning alohida qismlarining rivojlanishi bosh suyagining shakliga taʼsir qilsa, bosh suyagining ustki qismining oʻrganilishi shaxs xususiyatlarini baholashga imkon beradi. Yurisprudensiya va psixologiyani bogʻlab turgan, boshqa qismlarni aniqlashga qaratilgan boshqa urinishlar ham boʻlgan. Ushbu urinishlarning oʻziga xos natijasi Italiyalik psixiatr va kriminalist Ch.Lombrozo tomonidan yaratilgan mashhur boʻlgan “jinoyatchi inson” nazariyasini katta ahamiyat kasb etadi. Garchi bunga oʻxshash taʼlimotlarning ilmiyligi isbotlanmagan boʻlsa ham, bularning hammasi yuridik psixologiya rivojlanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatgan.

XIX asrning ikkinchi yarimida psixologiya bilimning ilmiy sohasiga aylanib qoladi, bunga falsafa va fiziologiya sohalaridagi mutanosib yoʻnalishlar koʻmaklashadi. Nemis olimi G.Gelmgols asarlari sezgi organlari zamonaviy fiziologiyasining asosini tashkil etadi. Muallif oʻz asarida ilk bor bilish jarayonining sensor (his-tuygʻu) va intellektual (kognitiv) komponentlari oʻrtasidagi uzoqlashishni koʻrsatib berishga harakat qilgan. Uning psixofiziologiyasining gʻoyalari bir qator xususan psixofiziologik kategoriyalarni ishlab chiqishga, psixologiyani fan sifatida shakllanishiga koʻmaklashgan.

Ushbu bosqichda sud-psixologik ekspertiza psixiatrik tadqiqotning bir qismi sifatida, sud-psixiatrik ekspertizaning muhim qurollari sifatida (bu esa psixologiya va psixiatriya fanining qisman oʻxshashligi, va psixologiya fani rivojlanishining ushbu bosqichida yetarli darajada mustaqil emasligini inobatga olgan holda) yoki maxsus pedagogik tadqiqot sifatida oʻrganilgan.

Psixologiya ilmining mustaqil sohasiga aylanayotgan bir paytda, amaliy fan sifatida taraqqiy etgan. Sud psixologiyasining shakllanishiga D.Drilning “Psixofizik tiplar jinoyatchilik va uning turlari bilan solishtirganda (xususan, jinoyatchilik psixologiyasi)”, “Jinoyatchilik va jinoyatchilar” (jinoiy psixologik etyudlar) asarlari ulkan hissa qoʻshgan.

XIX asrning oxiri XX asrning boshiga kelib psixologiya ilm-fanda mustaqil sohaga ajralib qoladi. Bir tomondan bunga psixologiyaga – tajriba kiritilgani bilan erishiladi, ikkinchi tomondan ushbu hol tadrijiy

psixologiya rivojlanishiga turtki bo‘lib xizmat qildi. Bu esa o‘z navbatida yuridik amaliyotda (shu bilan birga sud amaliyotida ham) psixologik tadqiqotlarning yutuqlarini qo‘llash yo‘lida kuchli yangi turtki vazifasini bajardi. Aynan shu paytda G‘arbiy Yevropa davlatlaridagi olimlar K.Marbe, V.Shtern, J.Varendonk, A.Bine tomonidan sud-psixologiya ekspertizasi yo‘nalishida ilk tajribalar o‘tkazilgan.

XIX asrning oxiri XX asrning boshida sud-psixologik ekspertizaning xulosalari isbot-dalillarning mustaqil manbai sifatida qo‘llaniladi. Uning nazariy asoslari yirik olimlar tomonidan, xususan, Germaniyada - V.Shtern, G.Gross, Italiyada - E.Ferri va R.Garofalo, Rossiyada – L.E.Vladimirov, A.U.Freze, V.M.Bexterev va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan. Bu paytda sud-psixologik ekspertizaning muammolariga bag‘ishlangan bir qator asarlar paydo bo‘ladi. Bular - K.Marbening “Psixolog jinoiy va fuqarolik ishlarda ekspert sifatida”, R.Kuve “Psixotexnika temir yo‘llar xizmatida”, V.Shtern “Jinsiy jinoyat ishlari yuzasidan yosh guvohlar ko‘rsatmalari” va “Aqliy qobiliyatlarni aniqlashning psixologik usullari”, G.Gross tomonidan “Kriminal psixologiyasi” asari chop etilgan.

1885-yilga kelib Rossiyada empirik psixologiya o‘z maqomiga ega bo‘ladi. 1902-yilda V.Bexterev tomonidan sud-psixologik amaliy tadqiqotlarga bag‘ishlangan birinchi asar yaratiladi. 1907-yilda Rossiyada V.Bexterev va D.Dril Psixonevrologik institutga asos soladilar. U yerda ilk bor sud-psixologik ekspertiza fanidan ma‘ruzalar o‘qilgan. Rossiyalik tadqiqotchilar sud-psixologik ekspertizaning chet el tajribasini katta qiziqish bilan o‘rganadilar. Sud-psixologik ekspertizaning eng chuqur tahlil qilish bo‘yicha ilk tajribalar A.E.Brusilovskiy “Sud-psixologik ekspertiza. Fan sifatida, uslubiyoti va chegaralari” asarida qilingan, ushbu asar 1929-yilda Xarkov shahrida nashr etilgan.

Bu davrda Rossiyada amaliy psixologiyaga va xususan psixologik ekspertizaga katta qiziqish kuzatiladi. Gumonlanuvchi, ayblanuvchi va guvoh shaxslar psixikasining o‘rganib chiqishga va tahlil qilishga alohida e‘tibor qaratilgan. Olimlar shunday metodika ishlab chiqishga harakat qilganlarki, ular ekspert tadqiqoti natijasida paydo bo‘lgan psixologik ma‘lumotni yuridik ahamiyatga ega tushunchalar bilan solishtirishga imkoniyat yarasin (masalan, ma‘lum psixologik holat yoki psixologik jarayonlar sifati, ayblanuvchi yoki gumon qilingan shaxsning aqli raso ekanligi yoki emasligi bilan solishtirganda). Bu holatda olimlar tomonidan haqiqatdan ham bir qator qiziqarli psixologik hodisalar aniqlangan edi. Agar sud-psixologik ekspertizaning eng keng tarqalgan turi haqida fikr yuritilsa, bu ko‘rsatmalarni haqqoniyligini tekshirish hisoblanadi (alohida e‘tibor guvohlar ko‘rsatmalariga qaratilgan, shu bilan birga jinoiy jarayonning voyaga yetmagan qatnashchilarining ko‘rsatmalariga ham). Bir vaqtning o‘zida sud psixologiyasi muammolarini tadqiq etish ham rivojlanib ketdi (jarayondagi turli ishtirokchilarining psixologiya xususiyatlari, xususan sud jarayonidagi psixologik vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlari). Rossiyada XX asrning boshida bu ish bilan L.E.Vladimirov, L.D.Kiselyov, O.B.Goldovskiy, V.K.Sluchevskiy, A.P.Boktunov va boshqalar shug‘ullanganlar.

Bu davrga kelib sud-psixologik ekspertizasi bag‘ishlangan ilmiy-amaliy asarlar paydo bo‘la boshladi: M.M.Grodzinskiy “Guvohlar ko‘rsatmalaridagi bir xil xatolar”, Ya.A.Kantarovich “Guvohlik ko‘rsatmalarining psixologiyasi”, A.R.Luriya “Jinoyat izlarini aniqlashda psixologiya”, G.I.Volkova “Jinoiy huquq va refleksologiya”, V.A.Vnukova va A.E. Brusilovskiy “Voyaga yetmagan va yoshi kichik guvohlik ko‘rsatmalarining psixologiyasi va psixopatologiyasi” va boshqalar. Bu asarlarda shaxs va ayblanuvchi psixologiyasi, guvohlik ko‘rsatmalari bo‘yicha sud-psixologik ekspertizani o‘tkazish texnikasi va uslubini asoslab bergan.

Natijalar. Sud psixolog ekspertlarining sohaga oid bilimdonligini baholashga mo‘ljallangan yopiq tarzda so‘rovnomalar natijalarining tahliliga o‘tamiz.

1-jadval

Sud psixolog eksperti huquqiy savodxonligini baholash bo‘yicha ijtimoiy psixologik so‘rovnoma natijalari tahlili


t/r	Savollar	1-5 yilgacha n=41						5 yildan ortiq N=61					
		past		o‘rta		yuqori		past		o‘rta		yuqori	
		n	%	n	%	n	%	n	%	n	%	n	%
1	O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida sud ekspertizasi faoliyatiga doir moddalarni izohlab bering	25	61	10	24	6	15	14	23	23	38	24	39
2	O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksida sud ekspertizasi faoliyatiga doir	20	49	13	32	8	19	18	29	18	29	25	42

	moddalarni izohlab bering.												
3	O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida sud ekspertizasi faoliyatiga doir moddalarni izohlab bering.	26	63	9	22	6	15	14	23	21	34	26	43
4	O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksida sud ekspertizasi faoliyatiga doir moddalarni izohlab bering.	22	54	15	36	4	10	9	15	23	38	29	47
5	O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksida sud ekspertizasi faoliyatiga doir moddalarni izohlab bering.	31	76	6	15	4	9	14	23	28	46	19	31
6	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 24-sonli 12.12.2008 y. “Fuqarolik ishlari bo‘yicha ekspertiza tayinlash, o‘tkazish va ekspert xulosasiga baho berishda sud amaliyotida kelib chiqadigan ayrim masalalar haqida” qarori bo‘yicha sohaga tegishli qanday bilimga egasiz?	19	46	11	27	11	27	14	23	31	51	16	26
7.	“Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni												
7.1. (7)	“Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining asosiy tushunchalarini izohlang.	13	32	18	44	10	24	11	18	29	47	21	34
7.2. (8)	Davlat sud-ekspertiza muassasasi, boshqa tashkilot rahbarining hamda sud ekspertining huquq va majburiyatlari bobi bo‘yicha nimalarni bilasiz?.	12	29	17	41	12	30	11	18	30	49	20	33
7.3. (9)	Sud ekspertizasi o‘tkazishda nimalarga e‘tibor qaratish lozim?	18	44	10	24	13	32	14	23	31	51	16	26
7.4. (10)	Sud-ekspertlik faoliyatini moliyalashtirish, tashkiliy, ilmiy-uslubiy va axborot bilan ta’minlash. Sud ekspertlarining malakasini va huquqiy bilimlarini oshirish bobining mohiyatini tushuntirib bering.	21	51	13	32	7	17	17	28	29	47	15	25
7.5. (11)	Qonunning yakunlovchi qoidalarida nimalar nazarda tutilgan?	16	39	18	44	7	17	19	31	23	38	19	31
7.6. (12)	Sud ekspertiga qo‘yiladigan malakaga oid talablar nimalardan iborat?	9	22	21	51	11	27	8	13	34	56	19	31
7.7. (13)	Sud ekspertining qanday majburiyatlari bor?	6	15	24	58	11	27	9	15	37	60	15	25
7.8. (14)	Sud ekspertizasi o‘tkazish asoslari va muddatlarini tushuntirib bering.	22	54	13	31	6	15	21	34	28	46	12	20


7.9. (15)	Sud ekspertining xulosasi (xulosa)da nimalar ko'rsatiladi?	7	18	17	41	17	41	9	15	23	38	29	47
7.10. (16)	Qanday holatlarda xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risidagi hujjat tayyorlanadi?	29	71	9	22	3	7	14	23	27	44	20	33
8. (17)	Respondent (aylanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh, gumonlanuvchi)ning ruhiy va jismoniy holatini qaysi usullar yordamida o'rganish lozim?	23	56	10	24	8	20	8	13	31	51	22	36
9. (18)	Respondent (aylanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh, gumonlanuvchi)ning aqliy taraqqiyoti qanday baholanadi?	17	42	12	29	12	29	10	17	24	39	27	44
10. (19)	Respondentning ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni idrok qila olishini qaysi usullar bilan baholash mumkin?	29	71	9	22	3	7	15	25	27	44	19	31
11. (20)	Respondentning o'rganilayotgan paytdagi psixologik holatiga ko'ra to'g'ri ko'rsatuv berish va boshqa tergov harakatlarini o'tkazish hamda sudda ishtirok etishga qodir yoki qodir emasligi qanday aniqlanadi?	12	29	18	44	11	27	10	17	22	36	29	47
12. (21)	Voyaga yetmaganlarni ota yoki onasi bilan yashash istagini o'rganishda qanday talablarga amal qilish lozim?	15	36	18	44	8	19	14	23	25	41	22	36

1-diagramma

5- yilgacha ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlarining huquqiy bilimdonligi darajasi (% hisobida)



5 yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlarining huquqiy bilimdonligi darajasi (% hisobida)



Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, sud psixologik ekspertizasiga aloqador bo'lgan huquqiy va psixodiagnostik bilimdonligi 5 yilgacha faoliyat yuritgan sud psixolog ekspertlarining sohaga oid bilimlari 5 yildan ortiq ish stajiga ega bo'lganlarning ko'rsatkichlari o'rtasida keskin tafovut borligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni 5 yildan ortiq faoliyat yuritgan sud psixolog ekspertlarining sohaga oid bilimlarga egaligi ish tajribasiga bog'liq bo'lib, berilgan savollar yuzasidan o'rta yoki yuqori ko'rsatkichlarni namoyon qildi. Bu esa albatta ular bilan o'quv va rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni o'tkazish zarurati borligidan dalolat beradi.

Xulosa. Tadqiqotimiz davomida sud psixolog ekspertlari huquqiy bilimdonligini har biri o'ziga xos dinamikasi va natijasiga ega ekanligi qayd etildi va bu uslub, o'z navbatida, yuridik psixologiya fanidagi sud psixolog ekspertizasi samaradorligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etishi tabiiy.

Sud psixolog ekspertlarining huquqiy bilimdonligini oshirishda sohaga oid kodekslar va qonunlarni bilishi juda katta ahamiyat kasb etadi.

Umuman, sud psixolog ekspertlari shaxsiy va kasbiy faoliyati uyg'unligining namoyon etilishida muhim ahamiyat kasb etuvchi xususiy bilimdonlik ko'rsatkichlariga baho berishda, ularning ish tajribalari bilan bog'liq tomonlari yuzasidan empirik xulosalar chiqarish orqali sud psixolog ekspertlari kasbiy faoliyat kompetentligini ta'minlash mumkinligi yana bir bor o'z tasdig'ini topdi.

Adabiyotlar:

1. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
2. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
3. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o'gishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. "Tafakkur avlodi" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
4. Olimov L.Ya., Bahronova M.O'. O'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.
5. Olimov L.Ya., M.B.Rasulova. O'smir shaxsi shakllanishida ahloqiy normalarning ijtimoiy-psixologik ahamiyati. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 675-683 p.
6. Олимов Л.Я. Социально-психологический подход к исследованию конфликтов. Вестник интегративной психологии (журнал для психологов). 2019 год, Выпуск 19. 379-381 стр.
7. Олимов Л.Я. Теоретические основы педагогической технологии. Вестник интегративной психологии (журнал для психологов). 2018 год, Выпуск 18. 163-165 стр.
8. Олимов Л.Я. Теоретический анализ проблемы креативности в психологии. Вестник интегративной психологии (журнал для психологов). Выпуск № 23, 2021 г. С. 237-241.
9. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari va koping xulq-atvor namoyon bo'lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari // Psixologiya, 2020 yil, 4 son, 31-38.
10. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari va koping xulq-atvor namoyon bo'lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari: stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari. Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 yil, 4 son 109-115 b.
11. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. O'smirlarda psixologik himoya mexanizmlarining namoyon bo'lishining o'ziga xosligi. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 4 son 103-112 b.



АХМАДОВ Назир Рахматович

Преподаватель кафедры психологии
Бухарского государственного университета

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ АДАПТАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ У ДЕЗАДАПТИРОВАННЫХ ПОДРОСТКОВ

Социальная дезадаптация подростков — распространённое в обществе негативное явление. Для борьбы с ней необходимо знание её психологических механизмов или глубинных причин. Наиболее типичные психологические механизмы подростковой дезадаптации связаны с симптомокомплексами, характерными для подросткового возраста, а именно с отношениями с товарищами, отношением к самому себе, к нравственным ценностям, идеалам, целям жизни, к миру в целом, учебной деятельности, учителям и взрослым, общественно полезной деятельности, к семье, родителям.

Ключевые слова: подростковая дезадаптация, виды дезадаптации, психологические механизмы дезадаптации, симптомокомплексы, психологические дефекты, «пусковые» механизмы.

DEZADAPTATSION O'SMIRLARDA ADAPTIV JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

O'smirlarning ijtimoiy moslashuvi jamiyatda keng tarqalgan salbiy hodisadir. Bunga qarshi kurashish uchun uning psixologik mexanizmlarini yoki asosiy sabablarini bilish kerak. O'smirlik moslashuvining eng tipik psixologik mexanizmlariga o'smirlik davriga xos bo'lgan simptom komplekslari, ya'ni o'rtoqlar bilan munosabatlar, o'ziga bo'lgan munosabat, axloqiy qadriyatlar, ideallar, hayotiy maqsadlar, butun dunyo, o'quv faoliyati, o'qituvchilar va kattalar, ijtimoiy foydali tadbirlar, oila, ota-onalar kiradi.

Kalit so'zlar: o'smirlar dezadaptatsiyasi, noto'g'ri moslashish turlari, dezadaptatsiyaning psixologik mexanizmlari, simptom komplekslari, psixologik nuqsonlar, "tetik" mexanizmlar.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF ADAPTIVE PROCESSES IN MALADAPTED ADOLESCENTS

Social maladaptation of adolescents is a widespread negative phenomenon in society. In order to combat it, it is necessary to know its psychological mechanisms or underlying causes. The most typical psychological mechanisms of adolescent disadaptation are connected with the symptom complexes characteristic of adolescence, namely with relations with peers, attitudes toward oneself, moral values, ideals, life goals, the world as a whole, educational activities, teachers and adults, socially useful activities, family and parents.

Key words: adolescent maladaptation, types of maladjustment, psychological mechanisms of maladaptation, symptom complexes, psychological defects, "trigger" mechanisms.

Введение. Социальная дезадаптация - это полная или частичная потеря субъектом способности адаптироваться к условиям социума. То есть это нарушение взаимосвязей человека со средой, которое характеризуется неосуществимостью им своей положительной социальной роли в определённых социальных условиях, соответственной его потенциалу.

Социальная дезадаптация характеризуется несколькими уровнями, которые отражают её глубину: латентное проявление явлений дезадаптации, дезадаптивные «пертурбации», разрушение ранее сформированных приспособительных механизмов и связей, закрепившаяся дезадаптация.

Основная часть. Социально-психологическая дезадаптация

Адаптация дословно означает приспособление. Это одно из самых значимых понятий в биологии. Широко используется в концепциях, трактующих отношения индивидов с его окружением в качестве процессов гомеостатического уравнивания. Она рассматривается с точки зрения двух

её направленностей: адаптация индивида к внешней новой среде и приспособление как формирование на этом базисе новых качеств личности.

Выделяют две степени адаптированности субъекта: дезадаптация или глубокая адаптированность.

Социально-психологическая адаптация заключается во взаимодействии социальной среды и личности, приводящее к идеальному соотношению ценностей и целей группы в общем и личности в частности. В ходе такой адаптации осуществляются потребности и стремления, интересы личности, обнаруживается и формируется её индивидуальность, индивид входит в социально-новое окружение. Итогом такой адаптации является образование профессиональных и социальных качеств коммуникаций, деятельности и поведенческих реакций, принятых в определенном обществе.

Если рассматривать приспособительные процессы субъекта с позиции социально-психологического процесса включаемости в деятельность, то в качестве главных моментов деятельности следует выделить фиксацию интереса к ней, налаживание контактов с индивидами, которые окружают, удовлетворенность такими отношениями, включение в социальную жизнь.

Понятие социальная дезадаптация личности обозначает срыв процессов взаимодействия субъекта с окружающей средой, которые направлены на поддержание баланса внутри организма, между организмом и окружающей средой. Данный термин появился сравнительно недавно в психологии и психиатрии. Применение понятия «дезадаптация» достаточно противоречиво и неоднозначно, что можно проследить, главным образом, в оценивании места и роли дезадаптационных состояний относительно таких категорий как «норма» или «патология», так как параметры «нормы» и «патологии» в психологии пока еще мало разработаны.

Социальная дезадаптация личности – это явление достаточно разностороннее, в основе которого лежат определённые факторы социальной дезадаптации, затрудняющие социальное приспособление индивида.

Факторы социальной дезадаптации:

- относительная культурно-социальная депривация (лишение необходимых благ или жизненных потребностей);
- психолого-педагогическая запущенность;
- гиперстимуляция новыми (по содержанию) общественными стимулами;
- недостаточная подготовленность к процессам саморегуляции;
- потеря уже сформировавшихся форм наставничества;
- утрата привычного коллектива;
- низкая степень психологической готовности к овладению профессии;
- ломка динамичных стереотипов;
- когнитивный диссонанс, который был вызван вследствие несовпадения суждений о жизни и положении в реальности;
- акцентуации характера;
- психопатическое формирование личности.

Таким образом, говоря о проблемах социально-психологической дезадаптации, подразумевается изменение внутренних и внешних обстоятельств социализации. Т.е. социальная дезадаптация личности – это сравнительно кратковременное ситуативное состояние, которое является следствием влияния новых, непривычных раздражающих факторов изменившейся среды и сигнализирует о нарушении баланса между требованиями среды и психической деятельностью. Ее можно определить в качестве затруднения, осложненного какими-либо приспособительными факторами к трансформирующимся условиям, которое выражается в неадекватных реакциях и поведении субъекта. Она является важнейшим процессом социализации индивида.

Причины социальной дезадаптации

Социальная дезадаптация личности не является врождённым процессом и никогда не возникает спонтанно или неожиданно. Её образованию предшествует целый поэтапный комплекс отрицательных новообразований личности. Также различают 5 значимых причин, влияющих на возникновение дезадаптационного нарушения. К таким причинам относят: социальные, биологические, психологические, возрастные, социально-экономические.

Сегодня большинство учёных считают первоисточником отклонений в поведении социальные причины. Вследствие неправильного семейного воспитания, нарушения межличностного общения происходит так называемая деформация процессов накопления общественного опыта. Данная деформация чаще происходит в подростковом и детском возрастах по причине ошибочного

воспитания, плохих взаимоотношений с родителями, отсутствия взаимопонимания, травмы психики в детском возрасте.

К биологическим причинам относят врожденную патологию или травму головного мозга, что воздействует на эмоционально-волевую сферу детей. Дети с патологией или перенесенной травмой характеризуются повышенной утомляемостью, затруднением коммуникативных процессов, раздражительностью, неспособностью к длительным и регулярным нагрузкам, неспособностью проявлять волевые усилия. Если такой ребенок растет в неблагополучной семье, то это только усиливает тенденции к девиантному поведению.

Психологические причины возникновения обуславливаются особенностью нервной системы, акцентуациями характера, которые при неблагоприятных обстоятельствах воспитания образуют аномальные черты характера и патологии в поведении (импульсивность, высокая возбудимость, неуравновешенность, безудержность, чрезмерная активность и др.)

Возрастные причины – это характерные возрасту подростка лабильность и возбудимость, ускоряющие образование явлений гедонизма, стремление к праздности и беспечности.

К социально-экономическим причинам относят чрезмерную коммерциализацию общества, небольшой доход семьи, криминализацию социума.

Социальная дезадаптация детей

Значимость проблем социальной дезадаптации детей определяется сложившейся ситуацией в социуме. Современную ситуацию, которая сложилась в обществе, следует рассматривать как критическую. Последние исследования показывают резкий рост среди детей таких негативных проявлений, как педагогическая запущенность, отсутствие желания обучаться, задержка психического развития, быстрая утомляемость, плохое настроение, истощение, чрезмерная активность и подвижность, отсутствие целенаправленности в умственной деятельности, проблемы с концентрацией внимания, ранняя наркотизация и алкоголизация.

Очевидно, что на образование перечисленных проявлений непосредственно воздействуют биологические и социальные обстоятельства, тесно взаимосвязанные и обусловленные, в первую очередь, трансформирующимися условиями жизнедеятельности детей и взрослых.

Проблемы социума непосредственно отображаются на семье в целом и детях в частности. Исходя из проведенных исследований, можно сделать вывод, что сегодня 10% детей характеризуются различными отклонениями в развитии. Большинство детей от младенчества и до подросткового возраста имеют какую-либо болезнь.

На социальную адаптацию взрослого молодого человека воздействуют условия его формирования в детском и подростковом возрастах, его социализация в социальной детской среде. Поэтому и возникает существенная проблема социальной и школьной дезадаптации ребенка. Главной ее задачей является предотвращение – профилактика, и коррекция, т.е. методы, направленные на исправление.

Следовательно, рост дезадаптации, девиантных поступков, подростковой преступности - это результат глобального социального отчуждения детей и молодежи от общества. А это является следствием нарушения непосредственно процессов социализации, которые стали носить неуправляемый характер, стихийную направленность.

Признаки социальной дезадаптации подростков, связанные с таким институтом социализации как школа:

Первым признаком является неуспеваемость по школьной программе, которая включает в себя: хроническую неуспеваемость, второгодничество, недостаточность и отрывочность усвоенной общеобразовательной информации, т.е. отсутствие системы знаний и навыков в учебе.

Следующий признак – это систематические нарушения эмоционально окрашенного личностного отношения к обучению в целом и некоторым предметам в частности, к педагогам, жизненным перспективам, связанным с обучением. Поведение может быть равнодушно-безучастным, пассивно-негативным, демонстративно-пренебрежительным и др.

Третий признак – регулярно повторяющиеся аномалии поведения в процессе школьного обучения и в школьной среде. Например, пассивно-отказное поведение, неконтактность, полный отказ от школы, устойчивое поведение с нарушением дисциплины, характеризующееся оппозиционно-вызывающими действиями и включающее в себя активное и демонстративное противопоставление своей личности другим ученикам, учителям, пренебрежение к принятым в школе правилам, вандализм в школе.

Коррекция социальной дезадаптации

В детском возрасте основными направленностями коррекции социальной дезадаптации личности должны быть: развитие коммуникационных навыков, гармонизация межличностного общения в семье и в коллективах сверстников, корректировка некоторых свойств личности, препятствующих общению или трансформация проявлений свойств таким образом, чтобы в дальнейшем они не могли негативно воздействовать на коммуникационную сферу, корректировка самооценки детей для приближения ее к нормальной.

В настоящее время особой популярностью в коррекции социальной дезадаптации пользуются тренинги: психотехнические игры, направленные на развитие различных функций психики, которые связаны с трансформациями в сознании, и ролевой социально-психологический тренинг.

Данный тренинг направлен на разрешение внутренних противоречий субъекта в условиях отработки определенных навыков выполнения конкретных социальных функций (формирование и закрепление нужных социальных и культурных норм). Тренинг проходит в виде игры.

Основные функции тренинга:

- обучающая, заключающаяся в развитии навыков и умений необходимых для обучения, таких как: внимание, память, воспроизведение полученной информации, навыки владения иностранной речью;
- развлекательная, служит для создания более благоприятной атмосферы на тренинге, которая трансформирует обучение в увлекательное и интересное приключение;
- коммуникативная, заключающаяся в установлении эмоциональных контактов;
- релаксационная – направлена на снятие эмоциональных напряжений;
- психотехническая, характеризуется формированием навыков для подготовки своего собственного физиологического состояния с целью получения большего объема информации;
- профилактическая, направленная на предотвращение нежелательного поведения;
- развивающая, характеризующаяся развитием личности с разных сторон, развитием черт характера посредством проигрывания всяческих возможных ситуаций.

Социально-психологический тренинг заключается в специфическом психологическом воздействии, которое основано на активных способах работы в группах. Он характеризуется интенсивностью подготовки индивида к более полноценной и активной жизни. Сутью тренинга является специально организованное обучение с целью самосовершенствования личности индивида. Он направлен на решение таких задач, как: освоение социально-педагогических познаний, формирование способностей познания себя и других, приумножение представлений о своей значимости, формирование разнообразных способностей, умений, навыков.

Тренинг – это целый комплекс последовательных занятий с одной группой. Задачи и упражнения подбираются для каждой группы индивидуально.

Профилактика социальной дезадаптации

Профилактика – это целая система социально, экономически, гигиенически направленных мер, которые проводятся на государственном уровне, отдельными индивидами и общественными организациями для обеспечения более высокой степени здоровья населения и предотвращения заболеваний.

Профилактика социальной дезадаптации – это научно обусловленные и своевременные действия, которые направлены на предупреждение потенциальных физических, социокультурных, психологических столкновений у отдельных субъектов, принадлежащих группе рисков, сохранение и предохранение здоровья людей, поддержку в достижении целей, раскрытие внутреннего потенциала.

Концепция профилактики заключается в том, чтобы избежать определенных проблем. Для решения данной задачи следует устранить уже существующие причины риска и увеличить защитные механизмы. Существует два подхода в профилактике: один направлен на индивида, другой – на структуру. Для того чтобы эти два подхода были максимально эффективными следует использовать их в комплексе. Все профилактические меры должны быть направлены на население в целом, на определенные группы и на отдельных индивидов, находящихся в опасности.

Существует первичная, вторичная и третичная профилактика. Первичная – характеризуется направленностью на предотвращение возникновения проблемных ситуаций, на ликвидацию негативных факторов и неблагоприятных условий, которые вызывают определенные явления, а также на увеличение устойчивости индивида к воздействию таких факторов. Вторичная – призвана распознавать ранние проявления дезадаптивного поведения индивидов (существуют определенные критерии социальной дезадаптации, способствующие раннему выявлению), его симптомов и уменьшать их действия. Такие профилактические мероприятия принимаются по отношению к детям из групп рисков прямо перед появлением проблем. Третичная – заключается в проведении

мероприятий на стадии уже появившейся болезни. Т.е. данные меры принимаются для ликвидации уже возникшей проблемы, однако наряду с этим, они также направлены и на предупреждение возникновения новых.

Заключение. В зависимости от того, какими причинами была вызвана дезадаптация, различают следующие типы профилактических мер: нейтрализующие и компенсирующие, мероприятия, направленные на предотвращение появления ситуаций, способствующих возникновению дезадаптации; ликвидации таких ситуаций, контроль проводимых профилактических мероприятий и его результатов.

Эффективность профилактической работы с дезадаптированными субъектами в большинстве случаев имеет зависимость от наличия развитой и комплексной инфраструктуры, которая включает в себя такие элементы: квалифицированные специалисты, финансовая и организационная поддержка со стороны контролирующих и государственных органов, взаимосвязь с научными подразделениями, специально созданное социальное пространство с целью решения дезадаптивных проблем, в котором должны развиваться свои традиции, способы работы с дезадаптированными людьми.

Основной целью социальной профилактической работы должна служить психологическая адаптация и ее конечный исход – успешное вхождение в социальный коллектив, возникновение ощущения уверенности во взаимоотношениях с членами коллективной группы и удовлетворенность собственным положением в такой системе отношений. Таким образом, любая профилактическая деятельность должна быть целеустремленна на личность как субъекта социальной адаптации и заключаться в увеличении его адаптивного потенциала, на среду и на условия наилучшего взаимодействия.

Литература:

1. Ларин А. Н. Изучение характера личностной направленности и опасного поведения детей, воспитывающихся в условиях детского дома // Психопедагогика в правоохранительных органах. 2017. № 1(68). С. 51–54.
2. Молодцова Т. Д. Психологические механизмы подростков о дезадаптации // Вестник Таганрогского государственного педагогического института. 2009. № 2. С. 331–336.
3. Bandura A., Walters R. H. Adolescent Adrression. N.-Y., 1959. 278 p. 15. Bandura A. and Walters R. H. Social learning and personalbty development. N.Y., 1969. 329 p.

ЖУМАЕВ Улугбек Сатторович

Бухоро давлат университети
“Психология” кафедраси доценти, психология
фанлари номзоди

ТАЛАБАЛАРДА ФИДОЙИЛИК МОТИВЛАРИНИ ПСИХОДИАГНОСТИК УСУЛЛАР ОРҚАЛИ АНИҚЛАШ МЕТОДИКАСИ ВА УНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК АҲАМИЯТИ

Ушбу мақолада бугунги куннинг долзарб масалаларидан бири олий таълим тизимини ислоҳ қилиш бўлиб, унинг асосий талабларидан бири янгича фикрлайдиган, ижодий тафаккур ва қобилиятига эга бўлган баркамол шахсни вояга етказишдир. Илмий мақолада фидойилик психологик категория сифатида маъноси тўлиқ очиқ берилган бўлиб, талабаларда фидойилик мотивларини аниқлаш ва унинг бугунги глобаллашув шароитидаги аҳамиятини тушунтириш орқали уларда қадриятларга йўналганликни ривожлантириш, пировардида эса ҳар томонлама гармоник ривожланган шахсни таркиб топтириш ҳақида фикр юритилган.

Калит сўзлар: фидойилик, қадрият, интуитив, ижтимоий, этник, фаоллик, ижтимоий муносабат, ижод, таълим, миллий маънавият, метод, шахс, идеал, психологик фактор.

МЕТОДИКА ОПРЕДЕЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ МОТИВОВ ПРЕДАННОСТИ С ПОМОЩЬЮ ПСИХОДИАГНОСТИЧЕСКИХ МЕТОДОВ И ЕЁ СОЦИАЛЬНО- ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ

В данной статье одним из актуальных вопросов современности является реформа системы высшего образования, одним из основных требований которой является воспитание зрелой личности с новым мышлением, творческим мышлением и способностями. В научной статье в полной мере раскрыто значение преданности как психологической категории, а путём объяснения мотивов преданности у студентов и его значения в современных условиях глобализации предполагается выработать у них ценностную ориентацию, и, в конечном итоге, сформировать гармонично развитую во всех аспектах личность.

Ключевые слова: преданность, ценность, интуитивное, социальное, этническое, деятельность, социальная установка, творчество, воспитание, национальная духовность, метод, личность, идеал, психологический фактор.

THE METHODOLOGY OF DETERMINING THE MOTIVES OF DEVOTION IN STUDENTS THROUGH PSYCHODIAGNOSTIC METHODS AND ITS SOCIAL PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE

In this article, one of the topical issues of our time is the reform of the higher education system, one of the main requirements of which is the education of a mature personality with new thinking, creative thinking and abilities. The scientific article fully reveals the meaning of selflessness as a psychological category, and by explaining the motives of selflessness among students and its significance in the modern conditions of globalization, it is supposed to develop a value orientation in them, and in the end, to form a harmoniously developed personality in all aspects.

Keywords: devotion, value, intuitive, social, ethnic, activity, social attitude, creativity, education, national spirituality, method, personality, ideal, psychological factor.

Кириш. Ҳозирги замон илм-фан техника тараққиёти талабаларидан бири янгича фикрлайдиган, ижодий тафаккур ва қобилиятига эга бўлган баркамол шахсни вояга етказишдир. Ушбу ҳаракатлар замирида эса энг аввало шахснинг фидойилиги, ватанга ва ўз халқига муҳаббатини шакллантириш масаласи ётади. Зеро, ҳар бир инсоннинг барча ҳаракатлари у ёки бу даражадаги ижтимоий манфаатларга хизмат қилади.

Талабаларда фидойилик мотивлари мавжудлигининг даражаларини аниқлаш муҳим аҳамият касб этади. Чунки ёшлар тарбияси ва маънавий етуклигини таъминлаш асосида уларда фидойилик мотивлари мавжудлиги асосий психологик факторлардан биридир. Фидойилик - аввало ҳар бир

баркамол шахсининг асосий инсоний категориялардан бири бўлиб ҳисобланади. Фидойлик тушунчасининг асосий ўзагини ташкил қилувчи сўз бу - «Фидо» бўлиб унинг маъноси - бирор кимса, нарса ёки идея учун ўзини бағишлаш демакдир. Фидой - арабча сўздан олинган бўлиб, мақсад йўлида ўзини қурбон қилишга тайёр шахс. (“Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси”, давлат илмий нашриёти Тошкент-2005, №9). Фидойлик - миллий маънавиятнинг асосий компонентларидан бири бўлмиш қадриятларда кўпроқ намоён бўлади. Фидойлик ватанпарварликнинг бош белгиси ҳисобланади. Ўзбекистон Республикасининг мустақил давлат сифатида мустақамланиши, унинг иқтисодий, маънавий-маданий тараққиёти, меҳнаткашларнинг тезроқ фаровон ҳаётга эришиши учун тинмай меҳнат қилиши ва изланишини фидойлик дейиш мумкин. (“Мустақиллик”изоҳли илмий-оммабоп лугат. “Шарқ” нашриёти, Тошкент -2006.)

Асосий қисм. Миллий маънавият - муайян ижтимоий - этник бирлик бўлмиш миллатнинг тарихан шаклланган ахлоқий, диний, илмий, бадий, фалсафий, мафкуравий қарашларининг яхлит бирлиги ва уларнинг ҳаётий фаолият давомида намоён бўлиши демакдир. (“Мустақиллик” изоҳли илмий-оммабоп лугат. “Шарқ” нашриёти, Тошкент -2006). Миллий маънавият миллий амалиётдаги ҳаётни англаш орқали ривожланади ҳамда миллий ўзликни англашга тўртки бўлади. Миллий онг миллий ўзликни ва миллий манфаатни англашдан келиб чиқади. Миллий ўзликнинг муҳим таркибий қисмини эса миллий ахлоқ ташкил этади. Шу боис, инсонийлик, аввало, ахлоқий мезонлардан келиб чиққан ҳолда баҳоланади. Ахлоқий мезонлардан бири сифатида эса биз қадриятларни муҳим деб топдик, сабаби ҳар бир миллатнинг равнақида тарихан шаклланган миллий қадриятларнинг аҳамияти беқиёсдир.

Халқимиз мустақилликка эришгач, миллий маънавиятимизни янада ривожлантириш ўта долзарб вазифага айланди, чунки миллий мустақилликнинг мустақамлиги миллий ўзликни англаш, яъни миллий маънавият билан чамбарчас боғлиқ.

Миллий истиқлол ғояси ва мафкурасининг асл мақсади халқимизнинг миллий маънавиятини оширишга, мустақиллигимиз қадриятларини тўлароқ англашга, уни авайлаб асрашга ҳамда турмушимизни янада фаровонлаштиришга, ҳаётимизнинг энг олий қадрияти бўлмиш инсонни улуғлашга, камол топтиришга қаратилган. Шу маънода, бизнинг миллий маънавиятимиз умуминсоний қадриятларни ўзида мужассам этади. Шу ўринда қадрият ўзи қандай тушунча деган савол туғилади.

Қадрият тушунчасини биринчи бўлиб И.Кант ахлоқийлик (эркинлик) соҳаси билан табиат (зарурият) соҳасини қарама - қаршилигини тадқиқ қилиш чоғида янги термин сифатида илмий муомалага киритган.

Бироқ норма ва қадриятлар ҳаракатларни бошқарибгина қолмайди, балки ҳар қандай қадрият - ўз ҳолича мақсаддир, унга унинг ўзи учун интиладилар, чунки у - идеал бўлиб, ҳар қандай нормаларнинг яратувчиси бўлган танқидий онг унинг манбаидир. (“Миллий истиқлол ғоясини шакллантиришда ташкилий-услубий ёндашувлар” Тошкент 2002, “Академия” нашриёти).

Қадриятни билиш, уни фикран мушоҳада қилиш ва бошдан кечириш ҳисларга, энг аввало севги ва яхшиликка, ҳақиқатга ва гўзалликка интилиш каби асосий ҳисларга асослангандир. Масалан, М.Шелер фикрича, қадрият ҳар қандай билишни афзал кўриш ҳодисаси бўлиб, унинг интуитив аёнлигида қадриятларнинг "даражалари" аниқланади: қадриятлар "бўлинишга" қанча кам даҳлдор бўлса, қадриятлардан каноатланиш ҳисси қанча чуқур бўлса, улар шунча юқори бўлади. Ана шу маънода, одамнинг ўткинчи майллари ва эҳтиёжларини қондириш билан боғлиқ бўлган, ҳаммадан кўпроқ "бўлинадиган", "ёқимли" ёки "моддий неъмат" ҳисобланувчи қадриятларнинг умри ҳаммадан қисқа.

Одам доимо муқобил қарорлардан бирини танлаш вазиятида бўлар экан, бундай танловнинг мезони қадрият ҳисобланади. Агар конкрет фаолиятга кўпинча вазият сабаб бўлса, қадриятларни ижтимоий ва маданий ҳаёт шароитлари ҳамда одам мавжуд бўлиб туришининг анча чуқур омиллари келтириб чиқаради.

Қадриятлар одам ҳаётининг мазмуни ролини бажаради, шунингдек, инсон ҳаётини маъноли қилишга имкон берадиган учта асосий синфни ташкил этади: бўлар - ижод (шу жумладан меҳнат) қадриятлари, кечинмалар (энг аввало севги) қадриятлари ва муносабат қадриятлари. Қадриятларнинг манбаи - "ўн минг ноёб вазият" дунёси ҳамда вазиятларнинг ҳар биридан ноёб маъно топишга қодир бўлган "маъно органи" сифатидаги одам виждонидир. (“Миллий истиқлол ғоясини шакллантиришда ташкилий-услубий ёндашувлар” Тошкент 2002, “Академия” нашриёти).

Шундай қилиб, "қадрият" оддий онг соҳасида ҳам, илмий, хусусан, методологик ва фалсафий билим соҳасида ҳам кенг ёйилган кўп маъноли тушунчалар жумласига киради. Улар шахс томонидан муҳим аҳамиятга молик маъно, идеал сифатида англандиган ва бошдан кечириладиган ҳамма нарсани акс эттириб, индивид онги ва хулқининг муҳим хусусияти, ижтимоий фаолиятнинг мақсад манбаи сифатида ҳам намоён бўлади.

Қадриятларни билиш - шахснинг интилишлари тизими, шунингдек, бу интилишнинг хусусияти, идеаллар, ҳаёт ва фаолиятнинг мазмуни ҳақидаги тасаввурларнинг юқори даражаси бўлиб, уларнинг ҳаммаси ҳар бир одамнинг фаоллигига асос бўлади ва унинг ўз фаоллигининг ички манбаини ташкил этади.

Қадриятларни билиш субъектнинг тажрибасини муайян ижтимоий муҳитда мавжуд бўлган маънавий ва маданий намуналар билан таққослаш асосида вужудга келади ҳамда одамнинг яшашдан мақсадларини, афзал кўрган нарсаларини, зарурият ҳақидаги тасаввурларини ҳамда эстетик дидини конкрет тушунишни ифодалайди. (“Миллий истиқлол ғоясини шакллантиришда ташкилий-услубий ёндашувлар” Тошкент 2002, “Академия” нашриёти).

Шахс қадриятларни билишининг динамикаси билан боғлиқ муаммо шахснинг (ёш ҳамда етук ёшдаги одамнинг) ривожланишини психология-педагогика нуқтаи назаридан тушунтириш, индивид ҳаётидаги танглик даврларини амалий тарзда енгил жараёнларини тушуниш учун муҳимдир. Бу жараёнларга шахсий қадриятларни қайтадан англаш учун асос бўлади.

Қадриятларни билиш динамикасини қуйидаги тартибда талқин қилиш мумкин:

1. Таълим тизимидаги барча субъектларнинг ўзлигини англаши ва ўзини ривожлантириш механизмларини тушуниш учун.

2. Педагоглар фаолиятида янгиликларни танлаб олишнинг психологик механизмини тушунтириш учун (бу таълим соҳасидаги ислохотлар шароитида айниқса долзарб).

3. Болаларнинг ижтимоий, маданий, ахлоқий қадриятларни ўзлаштириб олишига ёрдам берувчи оптимал психологик шароитлар яратиш учун.

4. Шахсга йўналтирилган педагогик фаолиятда ахлоқий жиҳатдан жуда муҳим бўлган психологик тактикани қабул қилиш, ўз-ўзини қабул қилиш, ўзини қадрлаш принципларини амалга ошириш учун. (“Миллий истиқлол ғоясини шакллантиришда ташкилий-услубий ёндашувлар” Тошкент 2002, “Академия” нашриёти).

Қадриятларни билиш динамикасининг муҳим компоненти турли қарама-қарши маънолар ва мазмунлар ўртасидаги қадриятлар тафовутидан иборатдир. Бунда шахснинг турли қадриятларни таққослаши юз беради.

Шундай қилиб, қадриятларни билиш шахснинг ўз динамизми ва очиклиги даражасининг ифодасидир. Қадриятларни билиш иерархияси муайян ижтимоий-маданий турдаги шахсни шакллантиришга таъсир кўрсатади. Ўхшашлик асосида қадриятлар иерархияси умуман муайян турдаги таълимни (таълимнинг ўз мазмуни ва фалсафасини ҳам, унинг субъектларининг онгини ҳам) шакллантиришга ижобий таъсир кўрсатади. Хулоса қилиб айтсак талабаларда қадриятлар асосида шаклланивчи фидоийлик мотивациясини аниқлаш алоҳида аҳамият касб этади. Қуйида айнан шу муаммо юзасидан ўтказилган психодиагностик усуллар ёрдамида олинган айрим натижалар бўйича мулоҳазалар юритилади.

Шахс йўналганлигини (айни пайтда унинг фидоийлиги) аниқлашда мезон сифатида муайян ҳаётий мақсадларни, қадриятларни асос қилиб олиш мумкин. Сабаби, қадриятлар йўналишлари тизими шахс йўналганлигининг асосий мазмунини белгилайди ва унинг атроф-оламга, одамларга, ўзига бўлган муносабатини, ҳаётий фаолият мотивларининг мазмунини, шахснинг дунёқарашини ташкил этади.

Муайян ҳаётий мақсадлар сари йўналган қадриятларга мақсадли қадриятлар деб аталади. Бошқа сўз билан айтганда, ҳар бир шахс ўзига хос умумҳаётий ғояларга, ўзининг етакчи ҳаётий мақсадларига эга бўлиши билан характерланади. Масалан, одамлар билан алоқада бўлиш баъзи кишилар ҳаётининг асосий мазмунини, мақсадини ташкил этади, бундай кишилар кўпинча, ҳаётнинг барча соҳаларида шахсларо муамалада бўлиш имкониятини жуда қадрлайдилар. Бинобарин, бу-мақсадли қадриятлардан ҳисобланади. Шунингдек, бирор бир касб-корга ёки билим соҳасига чин юракдан меҳр қўйиб, меҳнат қилиш ва тинимсиз илм олиб ривожланишни ҳаётнинг мазмуни деб билиш ва шу қабилар ҳам ана шундай мақсадли қадриятларга кириди.

Тавсия этилаётган саволнома таркибига қуйида келтирилган 8 йўналишдаги мақсадли қадриятларга доир саволлар кетма-кетлиги киритилган. Мазкур 80 та саволноманинг ҳар 10 таси қуйида келтирилган 8 та йўналишдаги мақсадли қадриятларнинг қабул қилинган баҳолаш мезони асосидаги балларда ифодаланган даражаларни аниқлаш имконини беради.

1. Олий нуфузга эга бўлиш, яъни муайян ижтимоий талабларга риоя қилиш йўли билан жамоатчилик назарида бўлишга интилиш, ижтимоий талабларга риоя қилган ҳолда жамоатчилик ёқлайдиган, қўллаб-қувватлайдиган фаолиятга интилиш, ўз мавқеини тобора баланд кўтарадиган фаолият турини излаш ва бажариш пайида бўлиш.

2. Юқори моддий таъминланганлик, яъни фаровон ҳаёт омилларига тирикликнинг асосий мазмуни сифатида муносабатда бўлиш.

3. Ижодкорлик, яъни ўз ижодий имкониятларини рўёбга чиқаришга, тевақалдаги нарса ва ходисаларни ўзгартиришга интилиш.

4. Фаол ижтимоий муносабатлар, яъни ижтимоий ҳамкорлик жараёнида илиқ ҳиссий муносабатларни ўрнатишга интилиш, одамлар билан ишлашни, ҳамкорлик қилишни ёктириш хислати.

5. Ўз устида ишлаш, яъни ўз шахсий хислатларини англаб, доимий равишда ўз қобилиятларини ва шахсий фазилатларини ривожлантиришга эришиш.


6. Ютуқларга йўналганлик, яъни ўз олдига муайян ҳаётий мақсадларни қўйиш ва албатта уларга эришишга ҳаётнинг асосий омили сифатида ёндашиш хислати.

7. Маънавий қониқиш, яъни маънавий фазилатлар ва эҳтиёжларни ёки ҳар хил ижтимоий талаблар, расм-русумлардан устун қўйиш хусусияти.

8. Ўзликни сақлаш, яъни ўз фикр ва қарашларини бошқа ҳар қандай қарашлардан ажрата олиш, баъзан устун қўйиш, ўзининг бетакдорлиги ва ўзига ҳослигини, мустақиллигини муҳофаза этиш.

Энди юқоридаги фикрларимизни далили сифатида 2 нафар талабада ўтказилган сўровнома натижалари ҳақида фикр юритамиз.

Рамазонов Жасурбек Жаҳонкулович




Талаба Рамазонов Жасурбек Жаҳонкулович берган жавоблардан шуни хулоса қилиш мумкинки, танлаб олинган 8 та мақсадли қадрият йўналишлари бўйича қуйидаги балларни тўплади:

- | | |
|---------------------------------|----------|
| 1. Олий нуфузга эга бўлиш | -33 балл |
| 2. Юқори моддий таъминланганлик | -26 балл |
| 3. Ижодкорлик | -46 балл |
| 4. Фаол ижтимоий муносабатлар | -41 балл |
| 5. Ўз устида ишлаш | -46 балл |
| 6. Ютуқларга йўналганлик | -41 балл |
| 7. Маънавий қониқиш | -32 балл |
| 8. Ўзликни сақлаш | -46 балл |

Демак, талаба мавжуд 8 та қадрият йўналиш бўйича 3,5,8 - да юқори балл тўплади. Унга кўра бу талабада ижодкорлик, ўз устида ишлаш ва ўзликни сақлаш устун. Энди ушбу жавобларнинг барқарорлигини текшириш мақсадида кейинги босқич сўров ўтказилди. Бу босқич бўйича талаба фидоийлик мотивларини акс эттирувчи 5 та савол вариантидан фақатгина 2 тасини аниқ танлади, қолган 3 таси эса нотўғри танланди. Демак: талаба Рамазонов Жасурбек Жаҳонкулович фаолиятидаги фидоийлик мотивлари тўлиқ англаб олинган эмас.

Кейинги талабамиз билан олиб борилган сўровнома натижалари эса қуйидагича.



Талаба Аминова Сабинабону Умид қизи берган жавоблардан шуни хулоса қилиш мумкинки, танлаб олинган 8 та мақсадли кадрият йўналишлари бўйича қуйидаги балларни тўплади:

- | | |
|---------------------------------|----------|
| 1. Олий нуфузга эга бўлиш | -32 балл |
| 2. Юқори моддий таъминланганлик | -19 балл |
| 3. Ижодкорлик | -48 балл |
| 4. Фаол ижтимоий муносабатлар | -41 балл |
| 5. Ўз устида ишлаш | -43 балл |
| 6. Ютуқларга йўналганлик | -44 балл |
| 7. Маънавий қониқиш | -43 балл |
| 8. Ўзликни сақлаш | -34 балл |

Демак, талаба мавжуд 8 та кадрият йўналиш бўйича 3,5,7 - да юқори балл тўплади. Унга кўра бу талабада ижодкорлик, ўз устида ишлаш ва маънавий қониқиш устун. Энди ушбу жавобларнинг барқарорлигини текшириш мақсадида кейинги босқич сўров ўтказилди. Бу босқич бўйича талаба фидойилик мотивларини акс эттирувчи 5 та савол вариантдан ҳаммасига аниқ жавобларни танлади. Демак: талаба Аминова Сабинабону Умид қизи фаолиятидаги фидойилик мотивлари тўлиқ англанди.

Хулоса қилиб айтганда, ушбу илмий мақолада келтирилган методик ишланма натижаларидан олий таълим муассасаларининг маънавият ва ёшлар масалалари бўйича декан ўринбосарлари, тьюторлар ҳамда гуруҳ билан тарбиявий фаолият олиб боровчи мутахассислар ўз фаолиятлари давомида фойдаланиш орқали талабаларнинг маънавий ва ахлоқий тарбия масалаларини янада такомиллаштиришда ҳамда кадриятларга асосланган установкаларини шакллантиришда муҳим омил сифатида роль ўйнайди деган умиддамиз.

Адабиётлар:

1. “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси”, давлат илмий нашриёти Тошкент-2005, №9.
2. “Миллий истиқлол ғоясини шакллантиришда ташкилий-услубий ёндашувлар”, Тошкент 2002, “Академия” нашриёти.
3. “Мустақиллик”изоҳли илмий-оммабоп луғат. “Шарқ” нашриёти, Тошкент -2006.
4. Баротов Ш.Р., У.С.Жумаев. Талабаларда фидойилик мотивларини психодиагностик усуллар орқали аниқлаш методикаси. Услубий қўлланма. Тошкент, 2011. – Б. 28.
5. Жумаев У.С “Ўсмирларда касб танлашга муносабат тизими шаклланишининг ижтимоий - психологик хусусиятлари” монография. Тошкент 2020, “Наврўз” нашриёти.



ОСТАНОВ Шухрат Шарифович

Бухоро давлат университети
Психология кафедраси доценти

КРЕАТИВЛИК ХУСУСИЯТЛАРИ НАМОЁН БЎЛИШИНING ЎЗИГА ХОС ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ

Ушбу мақолада Олий таълим тизимида тахсил олаётган талаба-ёшларнинг креатив хусусиятларини арт-терапия усуллари орқали ривожлантириш ҳамда ҳозирги кунда долзарб саналган касб танлаш муаммоси, касбга йўналтириш усуллари ҳақида сўз боради.

Калим сўзлар: креативлик, арт-терапия, конвергент, дивергент, семантик спонтан мослашувчанлик.

СВОЕОБРАЗНЫЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОЯВЛЕНИЯ КРЕАТИВНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ

В данной статье говорится о развитии творческих качеств студентов и молодёжи, обучающихся в системе высшего образования методами арт-терапии, а также проблеме выбора профессии и методах профориентации, которые считаются актуальной на сегодняшний день.

Ключевые слова: творчество, арт-терапия, конвергентная, дивергентная, семантическая спонтанная адаптивность.

SPECIFIC PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF EXPRESSING CREATIVE CHARACTERISTICS

This article examines the development of creative features of students at higher educational institutions through Art-therapy methods and discusses the ways of directing also choosing profession matters as one of the most important issues of today.

Key words: creativeness, Art therapy, konvergent, divergent, semantic spontaneous adaptability.


Кириш. Бутун дунёда таълим тизимининг асосий мақсади талабаларга янги муҳит талаблари асосида билим бериш, ижтимоий муносабатларнинг барча соҳаларида уларнинг эркин фаолиятини таъминлаш, ёшларнинг, янги ғоялар ҳосил қила оладиган, янги маҳсулотлар ярата оладиган ва ҳар қандай вазият, жараён ёки фаолиятнинг ностандарт ечимини топа оладиган ижодкорлик хусусиятини шакллантиришдан иборат.

Жаҳонда, мамлакат ҳамда жамият равнақи кўп жиҳатдан, унинг интеллектуал потенциали билан белгиланади. Чунки илмий потенциали юқори даражада ривожланган мамлакат барча соҳаларда доимо илғор бўлади. Давлатларнинг тарихий ривожланишида ёшларга бўлган эътибор муҳим ўрин эгаллайди. Ёшларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, уларга имкониятлар яратиш, уларнинг манфаатларини ифода этувчи ҳуқуқий база яратилиши давлатнинг келажакда тараққиёт даражасини белгилаб беради.

Асосий қисм. Мамлакатимизда таълим тизимида юз бераётган жадал ўзгаришлар сабабли янги қоидаларнинг, янги таълим тизимининг пайдо бўлиши замонавий дунёда ижодкор шахснинг ривожланишига улкан талаблар қўяди. Ижодкор шахс ўз тараққиётининг барча босқичларида жамият томонидан тан олинади ва маълум ижтимоий статусига эга бўлади. Психологик тадқиқотларда ижодкорликни ривожлантириш билан боғлиқ соҳалар – талаба шахсининг ижодий муаммоларни ҳал этиш муваффақиятини белгилловчи хусусиятлари алоҳида ўрин тутди. Бугунги кунда шахслараро муносабатларнинг тобора замонавий тус олиши, яъни талабалар ва ўқитувчилар алмашинуви, олий таълим муассасалар ҳамкорлиги, халқаро конференциялар, туризм соҳасининг ривожланиши, бўлажак мутахассисдан креативлик хусусиятларини талаб қилмоқда.

Ўрганилган илмий-амалий адабиётлар таҳлили ва ўз кузатишларимизга асосланган илмий тадқиқий мулоҳазалар бугунги кунда талабаларда креативлик хусусиятларини психологик жиҳатлари

ва унинг шаклланганлик даражаларини тадқиқ қилишни атрофлича эмпирик жиҳатдан ўрганишни тақозо



қилмоқда.

Энг аввало, олий таълим талабаларида креативлик хусусиятини ижобий ва салбий сифатларини шаклланганлик даражалари ва психологик омиллари, мезонлари кўламини аниқлаш ва уларнинг ҳар бирини алоҳида таҳлил қилиш учун тегишли методларни танлаш ва ишлаб чиқишга тўғри келади.

Юқорида таъкидлаб ўтилган психологик тузилмаларга асосланиб, ўз тадқиқотимизда креативлик сифатлар мезонлари тизими ишлаб чиқилди ва шу тизим асосида талабаларда креативлик сифатларининг ривожланиш даражаларини ўргандик, таҳлил қилдик ва тегишли хулосалар чиқаришга ҳаракат қилдик.

Вильямс ижодкорлиги тестининг тадқиқот мақсадига мос мазмуни ва тадқиқ қилиш услуби ҳақида қисқача изоҳ бериб ўтамыз.

Методика. Вильямс ижодкорлиги тести

Вильямс тести 5 ёшдан 17 ёшгача бўлган болалар ва ўсмирлардаги ижодкорликни комплекс таҳлил учун мўлжалланган. Ижодий фикрлаш ва шахсий ижодий хусусиятлар билан боғлиқ сифатларни баҳолайди.

Тестлар уч қисмдан иборат:

- 1 Турли хил (ижодий) фикрлаш тести
- 2 Шахсий ижодий хусусиятлар тести (болалар учун сўровнома)
- 3 Вильямс шкаласи (ота-оналар ва ўқитувчилар учун сўровнома)

Вильямс ижодий тестлари ижодкорликни таҳлил учун энг яхши психодиагностик воситалардан биридир. Чунки, Вильямс тестлари ишончли, қулай ва кенг ёш гуруҳга мўлжалланган бўлиб, турли ижодий хусусиятларни акс эттиради.

Тест мактабгача ёшдан бошлаб (5-6 ёш) ва мактабнинг битирув синфларига (17-18 ёш) болаларнинг ижодий истеъдодини ўрганиш учун ишлатилиши мумкин. Ушбу тестларнинг вазифаларига жавоблар расм ва имзо шаклида берилиши керак. Агар болалар ёзишни билмаса ёки жуда секин ёзишса, экспериментатор ва унинг ёрдамчилари уларга расм чизишларига ёрдам беришлари керак. Шу билан бирга боланинг тасаввур доирасидаги тасвирларга тўлиқ риоя қилиш керак.

Омиллар	1-2 курслар n=180	%	3-4 курслар n=180	%
дивергент фикрлаш	24	13,3	26	14,4
конвергент фикрлаш	36	20,0	36	20,0
Ностандарт вазиятларда ечим топиш қобилияти	38	21,1	36	20,0
семантик спонтан мослашувчанлик	22	12,2	24	13,3
креативлик когнитив	32	17,8	32	17,8
оригинал ечимларга эришиш қобилияти	28	15,6	26	14,4
Жами:	180	100	180	100

**Талабалар креативлик хусусият даражаларини тадқиқ қилиш ижтимоий-психологик
сўровномаси**

Даставвал, талабалардаги ижодий фикрлаш ва шахсий ижодий хусусиятларни умумий ҳолатини ўрганишда Вильямс тестини татбиқ этишдан олинган қийматлар устида таҳлил амалга оширилди.

Вильямс тести бўйича талабаларнинг креативлигини шартли равишда белгиланган баллар бўйича баҳолаймиз.

Талабаларнинг ижодий фикрлаш ва шахсий ижодий хусусиятлар даражаси таҳлили Вильямс методикасининг даставвал тўртта субтестидан олиб борилди. Булар равлонлик, мослашувчанлик, ўзига хослик ҳамда яратувчанликдан иборат.

Тадқиқот маълумотларидан кўриниб турибдики, жами 360 нафар талабаларнинг «**равлонлик**» қобилияти 1-2 курсларда 21,1 %, 3-4-курсларда 22,2 %, «мослашувчанлик» қобилияти 1-2-курсларда 24,4 %, 3-4-курсларда 32,2 %, «ўзига хослик» қобилияти 1-2-курсларда 32,2 %, 3-4-курсларда 25,6 %, «**яратувчанлик**» қобилияти 1-2-курсларда 22,2%, 3-4-курсларда 20,2% ни ташкил қилди («2.2-жадвалга қаранг»).

Юқоридаги таҳлил натижаларидан кўриниб турибдики, 1-2-курсларда «ўзига хослик» қобилияти энг юқори кўрсаткични (32,2) ташкил қилди. 1-2-курс талабаларида индивидуал-психологик хусусиятларнинг роли катта бўлиб улар ҳар бир вазият ва жараёнда ўзига хос шахслилик хусусиятларини намоён қиладилар. «**Равлонлик**» мезони бўйича 1-2-курс талабаларида энг куйи кўрсаткични (21,1 %) ташкил қилди. Демак, талабаларда ўқиш даврининг илк йилларида шахслараро муносабатга киришиш, ўз фикрини бемалол айта олиш ва атрофдагилар билан тез тил топиб кетиш укуви етишмас экан. 3-4-курс талабаларида эса «мослашувчанлик» қобилияти (32,2%) энг юқори ўринни эгаллади. Демак, талабаларда атроф-муҳитга, ҳар хил ноқулай вазиятларга ҳамда ўз тенгдошлари, шунингдек, атрофдаги бошқа шахсларга ҳам уларда ижтимоий адаптация анча шаклланганини кўриш мумкин экан.

Хулоса. Юқоридаги эмпирик натижалардан кўриниб турибдики, талабаларнинг ижодий фикрлашида анча тафовутлар бор ва бу келажакда уларнинг баркамол шахс ва етук мутахассис бўлиб етишишида бир қанча тўсиқларга олиб келиши мумкин. Шунинг алоҳида таъкидлаб ўтиш лозимки, шахснинг ижодий ўсишида маданий шарт-шароитлар, ижодий муҳит, зарурий индивидуал-психологик сифатлар мавжудлиги, тегишли даражада интеллектуал таъминланганлик муҳим аҳамият касб этса-да, аммо маълум бир фаолият жараёнларининг ўрни бекиёсдир. Тадқиқот натижалари ва уларнинг таҳлили қуйидаги йўналишларда ишлар олиб борилиши заруриятини кўрсатди:

- турли соҳа мутахассислари иштирокида таълим муассасаларида креативликни ривожланишига таъсир этувчи омилларга бағишланган давра суҳбатлари, конференциялар, семинарлар уюштириш;

- таълим муассасаларида ижтимоий фанларни ўқитиш жараёнида асосий эътиборни талабаларда ижодий тафаккурнинг ривожлантирилишига, шунингдек, уларда шахслараро муносабатларнинг механизмлари шаклланганлигига қаратиш;

- ижодий фикрлашнинг ривожланиши учун энг асосий омил, интеллект эканлигини талабаларга тушунтириш.

- амалий психологик тажриба асосида таълим муассасаларида ижодий фикрлаш ва креативликнинг асосий омиллари, усул ва воситаларини таҳлил қилиш. Таълим муассасалари талабалари ўртасида креативликни ривожлантиришга қаратилган чора-тадбирлар, ижтимоий-психологик дастурлар натижаларини баён этиш.

Фикрлашнинг равлонлиги – ушбу омилда респондентларда тезлик ва маҳсулдорлик талаб этилади. 12 та расм чизилади. Баҳолаш - ҳар бир расм учун 1 балдан берилади. Энг юқори бал-12.

Мослашувчанлик – бунда талаба турли ғояларни илгари суриш, ўз позициясини ўзгартириш ва нарсаларга янги нуқтаи назар орқали ёндашади. Категориядаги ҳар бир ўзгариш учун биринчи ўзгаришни ҳисобга олган ҳолда 1 балл берилади, (тўртта мумкин бўлган тоифалар мавжуд). Максимал балл - 11.

Оригиналлик – респондент фақатгина чегара чизиқлари билан чекланиб қолмайди, балки у бутун расмнинг берилган шаблон қисмини яратиш учун контурнинг ташқарисида ва ичкарисида расм чизади. Ҳар бир оригинал расм учун 3 балл берилади. Максимал балл - 36.

Тафаккурнинг ривожланиши даражаси – респондентлар берилган шаблонга тафсилотларни қўшади, расмда ассиметрия ва мураккабликни афзал қўради. Ҳар бир ассиметрик ички ва ташқи расм учун 3 балдан берилади. Максимал балл - 36.

Номлаш - респондентлар луғат бойлигидан моҳирлик ва оқилона фойдаланишади. Ҳар бир мазмунли, ақлли, расмга берилган ном учун 3 балл берилади. Максимал бал-36.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 19 сентябрь куни Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи.

2. Медведева, Е. А., Левченко И. Ю. Артпедагогика и арттерапия в специальном образовании. — М.: Издательский центр «Академия», 2001.

3. Сучкова, Н. О. Арт-терапия в работе с детьми из неблагополучных семей. — СПб.: Речь; М.: Сфера, 2008.

4. Останов Ш.Ш. Развитие креативности у подростков и старших школьников средствами арт-терапии. - Вестник интегративной психологии // Журнал для психологов Вып. 21. /Под ред. В.В.Козлова. – Ярославль: МАПН, 2020. – 274-278 с.

5. Ш.Ш.Рустамов. Возможности программы SPSS при обработке данных массового тестирования. Вестник интегративной психологии (Ярославль, выпуск 18, 2019.стр. 199-203).



РУСТАМОВ Шавкат Шухратович
Преподаватель кафедры психологии
Бухарского государственного университета

СТРУКТУРА МАТЕМАТИЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ПРАКТИЧЕСКИХ ПСИХОЛОГОВ

В данной статье рассматривается математическая компетентность психологов, уровень развития профессиональной компетентности, а также методологические основы этой проблемы.

Ключевые слова: компетентность, профессиональная компетентность, средства оценки уровня профессиональной компетентности, стандарт профессиональной деятельности психолога, интеллект.

АМАЛИЙ ПСИХОЛОГЛАРНИНГ МАТЕМАТИК ҚОБИЛИЯТЛАРИНИНГ ТУЗИЛИШИ

Ушбу мақолада психологларнинг математик компетенлиги, профессионал компетенликнинг ривожланганлик даражаси ҳамда ушбу муаммонинг методологик асослари ҳақида фикр боради.

Калим сўзлар: компетенлик, профессионал компетенлик, профессионал компетенлик даражаси, амалиётчи психологлар станларт фаолияти, интеллект.

STRUCTURE OF MATHEMATICAL ABILITIES OF PRACTITIONAL PSYCHOLOGISTS

This article deals with the mathematical competence of psychologists, the level of development of professional competence, as well as the methodological foundations of this problem.

Key words: competence, professional competence, means of assessing the level of professional competence, the standard of professional activity of a psychologist, intelligence.

Введение. В последнее десятилетие происходит переориентация оценки результата образования с понятий «подготовленность», «образованность», «общая культура», «воспитанность» на понятия «компетенция», «компетентность» обучающихся. Анализ литературы по этой проблеме показывает всю сложность, многомерность и неоднозначность трактовки как самих понятий «компетенция», «компетентность», так и основанного на них подхода к процессу и результату образования.

В исследование математических способностей внесли свой вклад и такие яркие представители определенных направлений в психологии, как А. Бинэ, Э. Трондайк и Г. Ревеш, и такие выдающиеся математики, как А. Пуанкаре и Ж. Адамар.

Большое разнообразие направлений определило и большое разнообразие в подходе к исследованию математических способностей, в методических средствах и теоретических обобщениях. Единственное, в чем сходятся все исследователи, это, пожалуй, мнение о том, что следует различать обычные, «школьные» способности к усвоению математических знаний, к их репродуцированию и самостоятельному применению и творческие математические способности, связанные с самостоятельным созданием оригинального и имеющего общественную ценность продукта. Большое единство взглядов проявляют зарубежные исследователи по вопросу о врожденности или приобретенности математических способностей. Если и здесь различать два разных аспекта этих способностей - «школьные» и творческие способности, то в отношении вторых существует полное единство - творческие способности ученого-математика являются врожденным образованием, благоприятная среда необходима только для их проявления и развития. В отношении «школьных» (учебных) способностей зарубежные психологи высказываются не столь единодушно. Здесь, пожалуй, доминирует теория параллельного действия двух факторов - биологического потенциала и среды.

Основная часть. Основным вопросом в исследовании математических способностей (как учебных, так и творческих) за рубежом был и остается вопрос о сущности этого сложного психологического образования. В этом плане можно выделить три важные проблемы.

В качестве структурного компонента интеллекта математические способности взаимодействуют с другими компонентами, которые составляют структуру общих умственных способностей, делящиеся на более сложные структурные образования. В качестве относительно автономной системы они строятся из компонентов психики и в частности из свойств синтезированных психических познавательных процессов: восприятия, памяти, мышления, воображения.

Хотя математические способности и не были предметом специального рассмотрения в трудах Б.М. Теплова, однако ответы на многие вопросы, связанные с их изучением, можно найти в его работах, посвященных проблемам способностей. Среди них особое место занимают две монографические работы «Психология музыкальных способностей» и «Ум полководца», ставшие классическими образцами психологического изучения способностей и вобравшими в себя универсальные принципы подхода к этой проблеме, которые возможно и необходимо использовать при изучении любых видов способностей.

В обеих работах Б. М. Теплов не только дает блестящий психологический анализ конкретных видов деятельности, но и на примерах выдающихся представителей музыкального и военного искусства раскрывает необходимые составляющие, из которых складываются яркие таланты в этих областях. Особое внимание Б. М. Теплов уделил вопросу о соотношении общих и специальных способностей, доказывая, что успех в любом виде деятельности, в том числе в музыке и военном деле, зависит не только от специальных компонентов (например, в музыке – слух, чувство ритма), но и от общих особенностей внимания, памяти, интеллекта. При этом общие умственные способности неразрывно связаны со специальными способностями и существенно влияют на уровень развития последних.

Наиболее ярко роль общих способностей продемонстрирована в работе «Ум полководца». Остановимся на рассмотрении основных положений этой работы, поскольку они могут быть использованы при изучении других видов способностей, связанных с мыслительной деятельностью, в том числе и математических способностей. Проведя глубокое изучение деятельности полководца, Б.М. Теплов показал, какое место в ней занимают интеллектуальные функции. Они обеспечивают анализ сложных военных ситуаций, выявление отдельных существенных деталей, способных повлиять на исход предстоящих сражений. Именно способность к анализу обеспечивает первый необходимый этап в принятии верного решения, в составлении плана сражения. Вслед за аналитической работой наступает этап синтеза, позволяющего объединить в единое целое многообразие деталей. По мнению Б.М. Теплова, деятельность полководца требует равновесия процессов анализа и синтеза, при обязательном высоком уровне их развития.

Известно, что целью высшего образования является подготовка высококвалифицированного специалиста, обладающего сформированной профессиональной компетенцией. Большинство исследователей понимают под профессиональной компетенцией совокупность знаний, умений, навыков и качеств личности, позволяющих субъекту эффективно решать вопросы и совершать необходимые действия в какой-либо профессиональной деятельности.

Профессиональная компетенция предполагает наличие в своей структуре специальных или предметных компетенций, включающих в себя узкоспециальные знания, умения, навыки и качества личности, формируемые при изучении специальных дисциплин [3, 4]. В настоящее время существует проблема установления роли предметных компетенций в профессиональной компетенции специалиста, определения содержания этих компетенций и способов их формирования.

Мы рассматриваем профессиональную компетентность как особый уровень готовности и возможности специалиста качественно выполнять работу на профессиональном поле, при этом самостоятельно решать проблемы, и не только самооценивать результаты своей деятельности, но и корректировать их, в случае необходимости [Байденко 2002]. Понятие «компетентность» Н.Н. Нечаев в одной из своих работ рассматривает как высокий уровень соответствия имеющегося потенциала специалиста профессиональным требованиям. Это определяется комбинацией психологических качеств, позволяющих ответственно действовать и принимать решения самостоятельно, мастерски реализовывать профессиональные обязанности

Целью данной работы является определение структуры математической компетенции психолога, а также рассмотрение педагогических условий, способствующих их формированию.

Термины «математическая компетентность» и «математическая компетенция» широко используются в современной педагогической литературе. Существуют разные подходы к толкованию их содержания [2]. Наиболее распространен подход, обусловленный сложившейся в мире установкой

на понимание математической компетентности как способности человека к практической реализации полученного им математического образования [5].

Л. О. Денищева с соавторами определяет математическую компетенцию как способность вычленять математические объекты, математические отношения, создавать математическую модель ситуации, анализировать и преобразовывать ее, интерпретировать полученные результаты [6].

С точки зрения профессиональной компетенции психологов математическую компетенцию следует рассматривать как прикладную.

Работа психолога направлена на повышение психологических ресурсов и адаптационных возможностей человека, гармонизацию психического развития, охрану здоровья, профилактику и преодоление недугов, психологическую реабилитацию [7]. Поэтому психолог должен демонстрировать владение высокой культурой мышления, способами разработки методов решения неструктурированных проблем, типовых и нестандартных задач, умение строить и использовать модели для описания и прогнозирования различных явлений, осуществлять их качественный и количественный анализ.

Рассмотрим, какую роль играет математика в подготовке будущих психологов.

Во-первых, трудно представить себе культуру нашего времени без разработанной техники математических вычислений (она входит как в современную медицину, так и в современное языкознание, психологию и другие науки). Таким образом, математика является частью человеческой культуры.

Во-вторых, математика способствует развитию культуры мышления. Это обусловливается специфическим для математики стилем мышления, для которого характерно доминирование логической схемы рассуждения над его содержанием, лаконизм, четкая расчлененность хода рассуждений, строгость доказательств и точность выражения.

В-третьих, использование языка математики расширяет возможности ученого-гуманитария. Знание математики позволяет заимствовать модели из естественных наук в гуманитарные, проводить аналогии. Абсолютно необходимой для любого исследователя является также статистическая грамотность – некоторый минимум, без которого невозможна деятельность психолога.

Математика предоставляет адекватный аппарат для количественного описания всевозможных фактов и явлений. В результате исследований психологи получают данные, подлежащие обработке, а ее результаты должны быть осмыслены исследователем с точки зрения психологии. Провести обработку данных помогают статистические методы. Для овладения простейшими из них необходимы знания некоторых разделов математики [8]. Кроме того, математика помогает выявить в психологическом исследовании закономерности, которые на первый взгляд не очевидны.

Значение математики для психологии не исчерпывается только обработкой данных. Она выступает также как средство абстракции, анализа и обобщения экспериментально-психологических данных, следовательно, и как одно из средств построения психологической теории. Даже простой перевод данных психологии на математический язык позволяет выразить их в компактной и удобной для теоретического осмысления форме, вскрыть в исследуемом материале противоречия и расхождений.

Таким образом, важность качественной математической подготовки психологов не вызывает сомнений.

Учитывая роль математики для профессиональной деятельности психолога, определим профессиональную математическую компетенцию психолога (ПМК) как личностное качество психолога, интегрирующее в себе:

- сформированную культуру логического мышления;
- теоретическую и практическую подготовленность к использованию математических методов для решения профессиональных задач;
- мотивацию и способность к творческому применению математического инструментария в психологии.

Авторы ряда исследований предлагают многокомпонентную структуру компетенции, содержащую когнитивный, мотивационный, ценностно-смысловой и другие компоненты [2, 3].

– когнитивная составляющая – системные математические знания (как база формирования профессиональной математической компетенции) и знания математических методов, применяемых в психологии;

– деятельностная составляющая – владение математическими методами и опыт их применения к решению профессиональных задач (при планировании эксперимента, обработке результатов

исследования, получении выводов на основе экспериментальных данных и представлении результатов);

– личностная составляющая – те качества личности, которые, во-первых, развиваются при изучении математических дисциплин (культура мышления, способность к самостоятельным действиям, саморефлексия, адекватность самооценки), во-вторых, мотивируют будущих психологов к применению математических методов в профессиональной деятельности.

Лекции с компьютерными презентациями и неполными конспектами.

Одним из методов, повышающих качество лекций и эффективность обучения в целом, является чтение лекций с использованием мультимедийного проектора. Компьютерные презентации удовлетворяют фундаментальному принципу дидактики – принципу наглядности. В этом случае обеспечение наглядности реализуется на принципиально новом, более высоком уровне, позволяя, по мнению специалистов, в 2–3 раза увеличить долю усваиваемого материала, так как параллельно задействованы органы зрения и слуха [5]. Но студентам на таких лекциях становится еще сложнее фиксировать информацию, так как нужно следить и за слайдами (списать текст, зарисовать схемы), и за словами преподавателя.

Чтобы устранить эти недостатки и повысить «информационную емкость» лекции, можно использовать неполные конспекты, которые выдаются студентам заранее, до лекции. Текст конспекта содержит все определения, основные формулы, схемы, таблицы, на запись которых студенты тратят большое количество времени. Но он не является абсолютной копией лекции, в нем оставлены свободные места для примеров, выводов формул, доказательства теорем, пояснений, комментариев. Во время лекции студент активно работает с конспектом, дополняет его, записывая примеры, некоторые формулы, рисунки и комментарии.

За счет применения неполных конспектов и компьютерных презентаций обеспечивается психологическая комфортность на лекциях (что важно для студентов гуманитарных специальностей), появляется возможность приводить большое количество профессионально ориентированных примеров, уделять внимание формированию мотивации к применению математики и математических методов в профессиональной деятельности психологов.

Уровневая дифференциация. Освоение образовательного стандарта является обязательным для всех студентов, однако при обучении математике психологов возникает следующая проблема: по своим природным способностям, уровню подготовки, темпу работы и т. п. студенты сильно отличаются друг от друга. Для части из них является проблематичным усвоение обязательного уровня, а некоторые студенты могут изучить математику на более высоком уровне, чем предполагает стандарт, что дает более широкие возможности для их профессиональной самореализации.

Следовательно, необходима такая организация учебного процесса, которая позволила бы учитывать различия между студентами, создавать оптимальные условия для их эффективной учебной деятельности. Одним из способов решения данной проблемы является построение процесса обучения на основе дифференцированного подхода.

Профессионально ориентированные ситуационные задачи. На пропедевтическом и первично-профессиональных этапах уделяется большое внимание решению профессионально ориентированных ситуационных задач. Каждая задача представляет собой небольшое психологическое исследование. В процессе решения студенты должны перевести психологическую задачу на язык математики, сформулировать математическую гипотезу, осуществить решение и интерпретировать полученный результат с точки зрения психологического исследования. Профессионально ориентированные задачи способствуют формированию мотивации к применению математических методов в деятельности психологов, поскольку решая задачи с психологическим содержанием, студенты оперируют психологическими понятиями, которые входят в состав профессиональной культуры специалиста-психолога.

Заключение. Таким образом, нами рассмотрена роль математики в профессиональной подготовке психологов, определено понятие профессиональной математической компетенции психологов, предложена структура данной компетенции и рассмотрены педагогические условия, способствующие ее качественному формированию в процессе обучения в вузе.

Литература:

1.Аксенова Е.А. Стратегический ассессмент: Как сформировать человеческий ресурс организационных изменений: учеб. пособие для студентов вузов. М.: Аспект Пресс, 2008.

2. Байденко В.И. Болонский процесс: Нарастающая динамика и многообразие (документы международных форумов и мнения европейских экспертов) / под науч. ред. д-ра пед. наук, профессора.
3. Байденко В.И., М., 2002. Вудраф Ч. Центры развития и оценки / пер. с англ. М.: НІРРО, 2005.
4. Гуревич А.М. Ассесмент: принципы подготовки и проведения. СПб.: Речь, 2005.
5. Данилов Д.Д., Серова Ж.И. Экспериментальная модель контроля и оценивания в образовательной системе «Школа–2100» // Начальная школа плюс До и После. 2004. № 4.
6. Забродин Ю.М., Пахальян В.Э. К вопросу о необходимости разработки стандарта профессиональной переподготовки по специальности «Практическая психология» // Вестник практической психологии образования. 2011. №4.
7. Ильязова М.Д. Компетентность, компетенция, квалификация – основные направления современных исследований // Научные исследования в образовании. 2008. №1. С. 28–31.
8. Коновалова И.В. Сертификация педагога-психолога на право самостоятельной профессиональной деятельности. М.: МГППУ, 2012. Крупнов Ю. Модернизация образования и развитие страны // Народное образование. 2006. № 1. С. 19–20.

САИДОВ Азамат Исмоилович

Самарқанд давлат чет тиллари институти
Психология фанлари доктори (DSc), доцент

ОИЛАДА ЁШЛАРНИНГ СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИ ТЎҒРИСИДАГИ ТАСАВВУРЛАРИ ШАКЛЛАНИШИНИНГ МОТИВАЦИОН АСОСЛАРИ

Мақолада ёшларнинг соғлом турмуш тарзи тўғрисидаги тасаввурларини шакллантириш муаммосининг мотивацион асослари ва ижтимоий психологик жиҳатлари таҳлил қилинади. Шунингдек, мақолада оилада соғлом турмуш тарзи ҳақидаги тасаввурларни шакллантириш бўйича психологик тавсиялар ўртага ташланади.

Калит сўзлар: Соғлом турмуш тарзи, мотивация, саломатлик, оила психологияси, жисмонан соғлом, ақлан баркамол, тасаввур, соғлом авлод, ижтимоий муҳит, ҳаёт даражаси.

МОТИВАЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ МОЛОДЁЖИ О ЗДОРОВОМ ОБРАЗЕ ЖИЗНИ В СЕМЬЕ

В статье анализируются мотивационные основы и социально-психологические аспекты проблемы формирования представлений молодёжи о здоровом образе жизни. Также в статье представлены психологические рекомендации по формированию представлений о здоровом образе жизни в семье.

Ключевые слова: здоровый образ жизни, мотивация, здоровье, семейная психология, физически здоровые, психически здоровые, воображение, здоровое поколение, социальная среда, качество жизни.

MOTIVATION BASIS OF THE FORMATION OF YOUNG PEOPLE'S IDEAS ABOUT A HEALTHY LIFESTYLE IN THE FAMILY

The article analyzes the motivational foundations and socio-psychological aspects of the problem of forming young people's ideas about a healthy lifestyle. The article also presents psychological recommendations for the formation of ideas about a healthy lifestyle in the family.

Keywords: healthy lifestyles, motivation, health, family psychology, physically healthy, mentally healthy, imagination, healthy generation, social environment, quality of life.

Кириш. Саломатлик – инсон камолотининг муҳим таркибий қисмларидан бири бўлиб, шахснинг ҳеч ким дахл қила олмайдиган ҳуқуқи, ўз-ўзини ривожлантириш, шахсий ва жамият ҳаётида фаол иштирок этиши гарови ҳисобланади. Инсон дунёга келар экан, бахтли бўлишни орзу қилади ва унга интилади. Бахт – кенг қамровли тушунча бўлиб, инсон ҳаётининг мазмуни ҳисобланади. Инсоннинг бахтли ҳаёт кечиришини таъминловчи омил – бу унинг соғлом турмуш тарзи ва у ҳақидаги тушунча ва тасаввурларнинг шаклланиши ҳисобланади.

Маълумки, соғлом турмуш тарзи – бу инсоннинг маълум мақсад асосида онгли равишда ўзининг яшаш тарзи, ҳаёт кечириши учун зарур бўлган турмуш шароитларини яратиш ва уларга амал қилишидир. Бошқача айтганда, соғлом турмуш тарзи - бу фаол меҳнат, ижод оғушида яшаш, кучли жисмоний ва руҳий юкламаларни, ўта хавфли ва зарarli таъсир кўрсатувчи омилларни енгил кўтара оладиган ҳар томонлама тараққий этган шахснинг шаклланиш жараёнидир [1].

Асосий қисм. Соғлом турмуш тарзи деганда қуйидаги ижтимоий-психологик омиллар назарда тутилади:

- ўз саломатлигини психологик жиҳатдан қўллаб-қувватлаш ва таъминлашга ҳаракат қилиш (соғлом турмуш тарзи ҳақидаги тушунча, тасаввурга эга бўлиши ва уларга риоя этишга ўзини йўналтира олиш);
- турли стрессоген таъсирларга берилувчанликнинг олдини олиш;
- соғлом турмуш тарзини шакллантиришга ўзини иродавий жиҳатдан йўналтира олиш;
- фаол жисмоний ҳаракат қилиш, чиникиш, жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланишга ўз менини ишонтира олиш;
- кун тартибини оқилона режалаштириш ва унга амал қилиш;

- жисмонан ва руҳан толиқишга йўл қўймаслик;
- ақлий ва жисмоний меҳнатни гигиеник талаблар асосида тўғри режалаштириш ва ташкил қилиш;
- тўғри ва сифатли овқатланиш;
- шахсий ва умумий гигиена талабларига риоя қилиш;
- атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва экологик маданиятга эришиш;
- юқумли касалликлар, жароҳатланиш ва бахтсиз ҳодисаларнинг рўй беришини олдини олиш;
- тўғри жинсий тарбия олиш;
- психогигиена талаблари (ҳаддан ташқари асабийлашиш ва ҳаёжонланишнинг олдини олиш)га амал қилиш ва б.к. [1].

Соғлом турмуш тарзи тўғрисидаги тасаввурларни шакллантириш-да психологик мотивация омилининг ўрни ҳақида гап юритмоқчи бўлсак, аввало мотивация атамаси ўз мазмунига кўра, шахсни маълум бир фаолиятни бажаришга киришиши учун ҳаракатга келтириш, унинг муҳимлигини асослаш ва англатишдан иборат эканлигини тушуниш зарур бўлади. Бошқача айтганда, соғлом турмуш тарзи тўғрисидаги тасаввурларни шакллантириш муаммосида мотивация омили одамларга уларнинг нима учун соғлом турмуш тарзига риоя қилган ҳолда яшаш лозимлиги ва нима сабабдан соғлом турмуш тарзини танлаш кераклигини англатишга қаратилган тушунчани шакллантиришдир.

Ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзи тўғрисидаги тасаввурлар шаклланиши жараёнида мотивация омилининг ўрнини баҳолашда ҳар бир шахсда унинг кундалик ҳаёт фаолиятини таҳлил қилиш учун зарур бўлган учта асосий элементнинг мавжудлигига эътиборни қаратиш лозим. Жумладан, ҳар бир шахсда:

- соғлом турмуш тарзи ҳақидаги тушунча ва билимларнинг мавжудлиги;
- соғлом турмуш тарзига риоя қилган ҳолда яшашнинг инсонни соғлом қилишга ва умрини узайтириши мумкинлигига қатъий ишончнинг бўлиши;
- инсонда ўз саломатлигини таъминлашга ва умрини узайтириши мумкинлигига қатъий ишончнинг мавжуд бўлиши;
- соғлом турмуш тарзига риоя қилган ҳолда яшаш учун шахсда астойдил ҳаракатнинг мавжуд бўлиши кабилар талаб этилади.

Назарий жаҳатдан олиб қаралганда, одамларнинг кундалик ҳаётида бу учбурчак турлича вариантларда шаклланган бўлиши мумкин. Ҳар бир шахснинг ўз саломатлигини мустаҳкамлашга бўлган ички эҳтиёжи унинг бу йўлдаги амалий ҳаракатини белгилайди. Шунга кўра, қуйидагича:

- гигиеник жиҳатдан тўғри ва асосланган турмуш тарзига риоя қилганлар, яъни соғлом турмуш тарзида яшовчиларга;
- тиббий гигиеник жиҳатдан асосланмаган, яъни носоғлом турмуш тарзида яшовчиларга ажратиб кўрсатиш мумкин [2].

Маълумки, биз наслимизнинг келажаги – соғлом авлод учун курашар эканмиз ўз мақсадимизга эришиш учун миллатни соғлом турмуш тарзига риоя этган ҳолда яшашга ўргатишимиз керак бўлади. Соғлом авлод деганда, биз нафақат жисмонан бақувват фарзандларни эмас, балки маънавий жиҳатдан ҳам бой ва соғлом авлодни назарда тутишимиз лозим. Зеро, маънавий соғлом бўлмасдан туриб, жисмонан соғлом бўлиш мумкин эмас. Ҳар иккала тушунча бир бирига мос ва бири иккинчисидан тақозо қилади. Ҳам жисмонан, ҳам маънавий соғлом авлодга эга бўлган халқни эса синдириб бўлмайди. Биз жисмонан соғлом, юксак маънавиятли ва ягона миллий ғоя асосида жипслашган миллатни шакллантиришни бош мақсад қилиб қўяр эканмиз, уни соғлом турмуш тарзида яшашга ўргатишимиз лозим.

Тадқиқотимизда оилада ёшларнинг соғлом турмуш тарзи тўғрисидаги тасаввурлари шаклланиши мотивларини ўрганиш мақсадида ўзимиз томонимиздан тузилган ижтимоий-психологик сўровномадан фойдаланилди.

Тадқиқотимиз натижалари асосида оилада ёшларнинг соғлом турмуш тарзи ҳақидаги тасаввурлари шаклланишининг қуйидаги кўринишдаги мотивлари мавжудлигини кўрсатди:

1. Соғлом турмуш тарзи тўғрисидаги тасаввурларнинг шаклланиши учун зарурий оилавий психологик муҳитнинг мавжудлиги.

2. Ота-оналарнинг ва оиланинг бошқа аъзоларининг соғлом турмуш тарзи бўйича намунавий таъсири.

3. Ёшларда соғлом турмуш тарзи тўғрисидаги тушунча ва тасаввурларнинг мавжудлиги.

4. Соғлом турмуш тарзига нисбатан шахсий қизиқишнинг мавжудлиги.

5. Тенгқурлари даврасининг таъсири.

6. Саломатликнинг буюк неъмат эканлигини англаб етиш.

7. Спорт - саломатлик гарови эканлигини тушуниш.
8. Саломатликни асраш бўйича тиббий-психологик билимларнинг мавжудлиги.
9. Соғлом турмуш тарзига нисбатан миллий ва оилавий қадриятлар.
10. Жисмонан бақувватлилигини бошқаларга намоёиш этиш истаги.
11. Соғлом турмуш тарзи бўйича тарғиботнинг етарлилиги.

Оилада ёшларнинг соғлом турмуш тарзи тўғрисидаги тасаввурлари шаклланишининг мотивларини ўрганиш натижаларидан маълум бўлишича, оилада фарзандларнинг соғлом турмуш тарзи тўғрисидаги тасаввурлари шаклланишининг катта қисми, “Соғлом турмуш тарзи тўғрисидаги тасаввурларнинг шаклланиши учун зарурий оилавий психологик муҳитнинг мавжудлиги” (23,8%), “Ота-оналарнинг ва оиланинг бошқа аъзоларининг соғлом турмуш тарзи бўйича намунавий таъсири” (15,4%) ва “Ёшларда соғлом турмуш тарзи тўғрисидаги тушунча ва тасаввурларнинг мавжудлиги” (11,4 %) мотивларига тўғри келаётганлиги кузатилди. Ёш даврларига кўра эса мос равишда “Соғлом турмуш тарзи тўғрисидаги тасаввурларнинг шаклланиши учун зарурий оилавий психологик муҳитнинг мавжудлиги” мотиви 11-12 ёшда 24,6% , 13-15 ёшда 25,0 % ва 16-18 ёшдаги синалувчиларда эса 23,2 % ни, “Ота-оналарнинг ва оиланинг бошқа аъзоларининг соғлом турмуш тарзи бўйича намунавий таъсири” мотиви 11-12 ёшда 16,4%, 13-15 ёшда 17,2, % ва 16-18 ёшдаги синалувчиларда эса 14,3%ни, “Ёшларда соғлом турмуш тарзи тўғрисидаги тушунча ва тасаввурларнинг мавжудлиги” мотиви эса 11-12 ёшда 14,7% , 13-15 ёшда 10,0 % ва 16-18 ёшдаги синалувчиларда эса 14,3 % ни, ташкил қилмоқда.

1-жадвал

Оилада ёшларнинг соғлом турмуш тарзи тўғрисидаги тасаввурлари шаклланишига таъсир этувчи мотивлар кўрсаткичи (фоиз ҳисобида)

	Соғлом турмушга етақловчи мотивлар	Ёш даврлари			Ўртача
		11-13 ёш	14-15 ёш	16-18 ёш	
1	Соғлом турмуш тарзи тўғрисидаги тасаввурларнинг шаклланиши учун зарурий оилавий психологик муҳитнинг мавжудлиги	24,6	25,0	23,2	23,8
2	Ота-оналарнинг ва оиланинг бошқа аъзоларининг соғлом турмуш тарзи бўйича намунавий таъсири	16,4	17,2	14,3	15,4
3	Ёшларда соғлом турмуш тарзи тўғрисидаги тушунча ва тасаввурларнинг мавжудлиги	14,7	10,0	12,6	11,4
4	Соғлом турмуш тарзига нисбатан шахсий қизиқишнинг мавжудлиги	6,3	8,4	7,8	7,6
5	Тенгқурлари даврасининг таъсири	11,6	12,0	6,7	9,8
6	Саломатликнинг буюк неъмат эканлигини англаб етиш	4,0	3,2	5,5	4,0
7	Спорт-саломатлик гарови эканлигини тушуниш	6,4	5,4	6,0	6,9
8	Саломатликни асраш бўйича тиббий-психологик билимларнинг мавжудлиги	4,2	5,3	7,3	5,9
9	Соғлом турмуш тарзига нисбатан миллий ва оилавий қадриятларнинг мавжудлиги	3,2	4,1	5,6	4,6
10	Жисмонан бақувватлилигини бошқаларга намоёиш этиш истаги	3,5	5,2	3,8	4,9
11	Соғлом турмуш тарзи бўйича тарғиботнинг етарлилиги	5,1	4,2	7,2	5,7

Ушбу фоизлардан кўринадик, ёшларда соғлом турмуш тарзи тўғрисидаги тасаввурларнинг шаклланиши асосан “Соғлом турмуш тарзи тўғрисидаги тасаввурларнинг шаклланиши учун зарурий оилавий психологик муҳитнинг мавжудлиги”, “Ота-оналарнинг ва оиланинг бошқа аъзоларининг

соғлом турмуш тарзи бўйича намунавий таъсири” ва “Ёшларда соғлом турмуш тарзи тўғрисидаги тушунча ва тасаввурларнинг мавжудлиги” мотивларига тўғри келмоқда. Бу шундан далолат берадики, оилада ёшларнинг соғлом турмуш тарзи тўғрисидаги тасаввур ва тушунчаларининг шаклланишида оилавий психологик муҳитнинг мавжудлиги, оила аъзоларининг намунавий таъсири, соғлом турмуш тарзи тўғрисидаги тушунча ва тасаввурларнинг мавжудлиги даражаси соғлом турмуш тарзи ҳақидаги тасаввурларнинг шаклланишига таъсир этувчи асосий мотивлардан синалар экан.

Хулоса. Мазкур мақсадга эришиш аввало шахсий ва ижтимоий микёсда соғлом турмуш тарзини ташкил этиш ҳамда унинг узвийлиги ва узлуксизлигига эришишнинг муҳим йўналишларини амалга оширишни тақозо этади. Бунинг учун эса ушбу муаммо моҳиятини англаш ва ҳал этишни билиш зарур.

Адабиётлар:

1. Теппервайн К. Психосоматика, отношения и здоровье. – М.: АСТ, Астрель, 2004. – 224 с.
2. Психосоматика: взаимосвязь психики и здоровья. Хрестоматия / Сост. Сельченко К.В. – Минск: Харвест, 2005. – 640 с.
3. Ismoilovich S. A. Socio-psychological problems of the formation of the psychology of a healthy lifestyle of families.
4. Saidov A. Historical roots of formation of healthy lifestyle culture psychology in the family // International Journal of Pharmaceutical Research. – 2020. – Т. 12. – №. 4. – С. 628-630.
5. Ismailovich S. A. Socio-Psychological Problems of Educating an Independent-Minded, Creative Person in the Educational Process //central asian journal of literature, philosophy and culture. – 2021. – т. 2. – №. 12. – с. 4-7.

СУЛТАНОВА Шахноза Мирхалиловна

Тошкент шаҳар педагогларни янги методикаларга
ўргатиш миллий марказининг
Қайта тайёрлаш ва малака ошириш жараёнини
мониторинг қилиш ва сифатини баҳолаш бўлими бошлиғи

ЎҚУВЧИЛАРДА ЭМОЦИОНАЛ ЗЎРИҚИШ НАМОЁН БЎЛИШИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАР

Мазкур мақола ихтисослашган мактаб ўқувчиларида эмоционал зўриқишлар намоён бўлишининг психологик хусусиятлари мавзусига бағишланган. Шунингдек, мақола матнида ихтисослашган мактаб муассасаларининг фаолияти, ўқувчиларнинг янги муҳитга мослашиши, ўқувчилар эмоционал соҳасидаги муммолар, ўқув фаолияти билан боғлиқ эмоционал зўриқишлар ва унга сабаб бўлувчи омиллар, эмоционал-ҳиссий кечинмалар ҳақидаги илмий ёндашувлар, эмоционал зўриқишларни бартараф этишининг психологик чора-тадбирлари, таълим-тарбия шароити ва шахс интеллектуал имкониятлари каби масалалар ҳам батафсил ёритилган.

Калит сўзлар: ихтисослашган мактаб, ўқувчи, иқтидор, ҳиссий соҳа, эмоционал зўриқиш, таълим, тарбия, ўқув вазифалари, янги муҳит, янги жамоа, ўқитувчи, фаолият, мотивация, ижодийлик, ўз-ўзига паст баҳо, ўзига ишонмаслик, муваффақиятсизликдан қўрқиш, шахслараро муносабатлар, таълим талаблари.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПОЯВЛЕНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО НАПРЯЖЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ

Данная статья посвящена психологическим особенностям проявления эмоционального напряжения у учащихся специализированных школ. В статье также рассматривается деятельность профильных школьных учреждений, адаптация учащихся к новой среде, проблемы в эмоциональной сфере учащихся, эмоциональные стрессы и их причины, научные подходы к эмоциональным переживаниям, психологические меры преодоления эмоционального напряжения, вопросы воспитания, такие как также подробно освещаются условия и интеллектуальные возможности человека.

Ключевые слова: специализированная школа, ученик, талант, эмоциональная сфера, эмоциональная напряжённость, образование, воспитание, учебные задачи, новая среда, новый коллектив, педагог, активность, мотивация, творчество, низкая самооценка, заниженная самооценка, страх неудачи, межличностные отношения, требования к воспитанию.

PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE APPEARANCE OF EMOTIONAL TENSION IN STUDENTS

This article is devoted to the psychological features of the manifestation of emotional stress in students of specialized schools. The article also discusses the activities of specialized school institutions, the adaptation of students to a new environment, problems in the emotional sphere of students, emotional stress and their causes, scientific approaches to emotional experiences, psychological measures to overcome emotional stress, educational issues, such as conditions and intellectual human possibilities.

Key words: specialized school, student, talent, emotional sphere, emotional tension, education, upbringing, learning tasks, new environment, new team, teacher, activity, motivation, creativity, low self-esteem, low self-esteem, fear of failure, interpersonal relationships, requirements to education.

Кириш. Маълумки, ёш авлодга таълим-тарбия бериш, уларнинг фан соҳаларидаги билим ва кўникмаларини янада ошириш шунингдек, жисмонан соғлом ва ақлан баркамол қилиб тарбиялаш, ҳар бир давлат томонидан амалга ошираётган бош ислохотларидан бири саналади. Жумладан, Ўзбекистон Республикасида ҳам, мазкур масалада кўплаб чора-тадбирлар, қонун лойиҳалари ва стратегик дастурлар амалга оширилмоқда. Инсон интеллекти ва иқтидори муҳим психологик хусусиятларидан бири саналиб, уни ўз вақтида шакллантириш, психологик-педагогик жиҳатдан кўллаб қувватлаш, таълим субъектларига замонавий шарт-шароитлар яратиб бериш,

кечиктирилмайдиган вазифалар туркумидан бири саналади. Шу боис, ёшлар таълими масаласи ҳар бир даврда ўз долзарблик аҳамиятини сақлаб келган.

Таъкид жоизки, мамлакатимизда таълим соҳасини қайта ислоҳ қилиш, таълим муассасаларини замонавий ахборот технологиялари ва илғор инновацион технологиялар билан таъминлаш борасида эътиборга молик ишлар олиб борилмоқда. Дунёнинг кўпгина олий ўқув юртларининг филиаллари, замонавий лицей ва коллежлар барпо этилмоқда. Асосий мақсад, жаҳон талабларига мос кадрларни етиштириш, рақобатбардош бозор иқтисодиёти шароитида, соҳа мутахассисларини тайёрлаш, уларни келажак ҳаётга мос ҳар томонлама етук қилиб тарбиялашдан иборатдир. Бундай ишларнинг амалий исботи сифатида, академик лицей ва махсус мактаблар фаолиятини мисол қилиш мумкин.

Асосий қисм. Ҳозирда юртимизда деярли барча олий ўқув юртларининг академик лицейлари, лицей-интернат мактаблар, ички ишлар академияси лицейи, ҳарбий лицейлар ҳамда мухтарам юртбошимиз томонидан ташкил этилган “Президент мактаблари” каби замонавий ўқув муассасалари фаолият юритмоқда. Бу эса, қатор ижтимоий фанлар ва уларнинг мутахассислари олдида ўзига хос долзарб вазифалар қўйиши табиийдир. Психология фани ҳам бундан мустасно эмас. Чунки “иқтидорлилик” ва интеллектуал қобилиятларнинг намоён бўлиши, эмоционал соҳа имкониятлари билан чамбарчас боғлиқ саналиб, унда юзага келган номувофиқликлар иқтидорли ўқувчиларнинг ўқув фаолиятига ва етакчилик сифатларига салбий таъсир этиши мумкин. Савол туғилиши табиийдир? Ўқувчилар иқтидорли, ақлан зукко бўлса, нега уларнинг ҳиссий кечинмаларида муаммо бўлиши керак? Илмий тилда айтганда, ихтисослаштирилган, замонавий шарт-шароитлар билан таъминланган таълим муассасаларининг ўқувчилари ҳам, ушбу муаммолардан ҳоли эмас. Қуйида ихтисослаштирилган мактаб ўқувчилари фаолиятида намоён бўлувчи эмоционал зўриқишлар ва уларнинг психологик масалаларига тўхталиб ўтамиз.

Моҳиятан, эмоционал зўриқиш тушунчаси “руҳий таранглик” ҳолати бўлиб, ўқув фаолиятида у ортиқча вазифаларнинг кўплиги, янги шароитга мослашишдаги қийинчиликлар, мураккаб ижтимоий шароит, ота-оналардан узоқда яшаш, ўзига ишонмаслик ва ўз-ўзига берилган паст баҳо, ўсмирлик ёшидаги инкироз кабилар орқали келиб чиқиши таъкидланади [1,78]. Ихтисослашган мактаб ўқувчилари қанча қулай шарт-шароитлар яратилган бўлмасин, барибир ўз эмоционал соҳасини тартибга солишда муаммоларга дуч келишади. Бир томондан уларнинг ёш хусусиятлари ҳам бунга катта таъсир этади. Чунки ушбу жараён айни ўсмирлик ёши билан узвий боғлиқ саналади. Ўсмирлик ёшида ўз-ўзига баҳо бериш, атрофдагилар билан алоқалар ўрнатиш, янги шериклар ва тенгдошларни танлаш масаласида ўзига хос қийинчиликлар юзага келади. Бу бир томондан организмдаги ўзгаришлар ва ҳулқ-атвордаги интенсивликдан келиб чиқади.

Тадиқиқотчи Л.Г.Дикаяга кўра, “эмоционал зўриқишлар” инсон организмда манфий функциянал ҳолатларнинг юзага келишига сабаб бўлади ва иқтидорли ўқувчиларнинг муваффақиятли фаолиятини издан чиқаради деб таъкидлайди [2,140-148].

Е.П.Варламованинг сўзларига кўра, ихтисослашган мактаб ўқувчиларида эмоционал зўриқишларга сабаб бўлувчи омиллар сифатида қуйидагиларни ажратиш мумкин [3,37-50]:

Ўқувчиларда эмоционал зўриқишларга сабаб бўлувчи омиллар	
	Янги ўқув муҳити
	Янги жамоа, турли фан соҳаларидаги ўқитувчилар гуруҳи
	Вазифа ва топшириқларнинг ҳаддан ортиқ кўплиги
	Муваффақиятсизликка учраб қолишдан қўрқиш
	Янги дўстлар орттиришдаги қийинчиликлар
	Ота-онасининг ишончини оқлай олмасликдан қўрқиш
	Фалсафий фикрлашга юқори даражада мойиллик ёки ҳаётий муаммолар ҳақида эрта ўйлаш
	Ўзини-ўзи назорат қилишдаги камчиликлар

Юқорида қайд этилган эмоционал зўриқишларни келтириб чиқарувчи омиллар, айни 12-14 ёшга тўғри келиб, бу давр, ўсмирлик инкирозлари билан кечувчи жараён саналади.

Психолог Р.Алимаскиннинг таъкидлашича, ўсмир ёшдаги ўқувчиларда ўзини-ўзи назорат қилишнинг кучайиши ёки сусайиши, шахсда ёрқин эмоционал соҳадаги муаммоларнинг келиб чиқишига сабаб бўлади. Эмоционал реакцияларнинг жадал тараққиёти ўзини ўзи назорат қилишнинг кучсизлиги билан кечади. Эмоционал ҳолатларда ихтисослашган мактаб ўқувчиларининг ўзини ўзи назорат қила олмаслиги кейинчалик, ҳулқ-атвордаги айрим оғишларни келиб чиқишига сабаб бўлади [4,78].

Ўсмирлик даври охирига келиб ўзини ўзи назорат қилиш жараёнининг фаолиятдаги иштироки табиий равишда англанимаган ҳолда, рўй бера бошлайди. Аммо ўқувчи ўқув фаолиятида муайян қийинчиликларга дуч келиб, шу сабабли унда топшириқни тўғри бажарганига ишончсизлик уйғонса, ўзини ўзи назорат қилиш жараёни яна ёйиқ ва англанимаганроқ шаклга киради. Бу ҳақда В.Г.Афанасьев қуйидагича ёзади: “... агар инсон онгида рационаллик кучли бўлса, ўзига, шахсий камчилик ва ютуқларига оқилона назар ташлай олса, у ўзини ўзи назорат қила олади ёки бунинг аксинча, инсонда эмоциялар, аффект, ҳиссиётлар ва ўзини ўзи севиш каби ҳолатлар устунлик қилса, бунда ўқувчи ўзини ўзи бошқара олмайди” [5,44].

Одатда, эмоционал ҳолатларда ўзини ўзи назорат қилиши сусайган ихтисослашган мактаб ўқитувчиларида қўзғалувчанлик, жиззакилик, майдакашлик, импульсивлик, мувозанатсизлик каби сифатлар устунлик қилади. А.М.Прихожаннинг фикрича, ўсмир ўқувчиларда ўзини ўзи бошқариш шахс хусусияти сифатида “гомеостаз тамойили” асосида намоён бўлади[6,112]. Бу борада С.В.Ильинанинг қуйидаги фикри характерлидир: “биз доимо ўз ҳиссиётларимиз, ҳаяжонларимиз, эхтиросларимизни улар табиий равишда намоён бўлишидан қатъи назар, назорат қилиб туришимиз, жуда интенсив бўлиб кетганда қуюшқондан чиқиб кетмаслигимиз зарур ... шундай вазият бўладики, биз ўзимизни назорат қила олмаймиз ва ҳаддан ошиб кетганимизни ҳис этамиз” [7,14]. Шунинг учун, барча ҳам эмоционал вазиятларда ҳар доим ҳам эмоционал соҳага таъсир этувчи ўзини ўзи назорат қилиш компонентлари ва унинг оқибатлари ҳақида маълумотга эга бўлмайди.

Я.Рейковскийнинг ёзишича, эмоционал барқарорликни таъминловчи, назорат қилувчи механизмларни излашга уринишдаги қийинчилик ва омадсизликлар кўпчилик тадқиқотчиларда, ўзини ўзи назорат қилиш мавжудлигига нисбатан иккиланишга олиб келади [8,33]. Бундан ташқари, эмоционал зўриқишлар нафақат барча инсонларнинг, балки ўқувчи ёшларнинг ҳам ақлий, жисмоний, физиологик имкониятларини чеклаб, саломатлик билан боғлиқ кўплаб муаммоларга сабаб бўлади.

Тьюбинг Дональд сўзларига кўра, эмоционал зўриқиш ҳолатида ўқувчилар ҳулқ-атвордаги реакцияларининг бузилиши қуйидагилар билан характерланади [9,56]:

- Психомотор ҳаракатларнинг бузилиши кузатилади, яъни юз ва бўйин мушаклари ҳаддан ташқари зўриқади;
- Қўлларнинг қалтираши кузатилади;
- Нафас олиш ритмининг ўзгариши содир бўлади;
- Сенсомотор реакциялар тезлиги пасаяди;
- Овознинг титраши ва нутқнинг бузилиши кузатилади;
- Турмуш тарзи ўзгаради, яъни уйқу, оқатланиш ва дам олиш тартиби бузилади.

Ҳулқ-атвордаги реакцияларининг бузилишларининг намоён бўлиши	Юз ва бўйин мушаклари ҳаддан ташқари зўриқиши
	Қўлларнинг қалтираши
	Нафас олиш ритмининг ўзгариши
	Сенсомотор реакциялар тезлиги пасайиши
	Овознинг титраши
	Нутқнинг бузилиши
	Уйқу, оқатланиш ва дам олиш тартиби бузилиши

Юқоридагилардан ташқари ўқув фаолиятида ҳам ўзгаришлар кузатилади, яъни ўзлаштириш самарадорлиги пасаяди, чарчокнинг кўпаяди, ҳаракатларни мувофиқлаштириш ёмонлашади, фан топшириқларини бажаришдаги талаб қилинадиган мезонларнинг мутаносиблиги издан чиқади.

Бизнингча, ихтисослашган мактаб ўқувчиларида эмоционал зўриқишларнинг пайдо бўлишига шахслараро муносабатлардаги узилишлар ҳам сабаб бўлади. Яъни ихтисослашган таълим муассасаларига қабул қилинган ўқувчилар ота-оналаридан узоқлашгани, дўстлари ва яқинлари мулоқотидан чекланганлиги боис, ҳиссий соҳасида ўзгаришлар кечади. Яъни инсоннинг мулоқот пайтида сезгирлик пасаяди, турли хил ассоциал хатти-ҳаракатлар пайдо бўлади ҳамда инсоннинг ўз ташқи кўринишига умуман эътибори йўқолади. Шу боис, ўқитувчилар ва синф раҳбарлар иктидорли ўқувчилар гуруҳида шахслараро муносабатларни ўз вақтида яхшилашга эътибор беришлари муҳим ҳисобланади.

Шуни алоҳида айтиш жоизки, ихтисослашган мактаб ўқувчиларида эмоционал зўриқишлар намоён бўлишига яна бир сабаб сифатида, улардаги шахслилик сифатлари ҳам кенг таъсир этади. Айрим оилаларнинг фарзандлари ўта уятчан, тортинчоқ, пессимизм, интровертлик каби хусусиятларга эга саналади. Гарчи, улар иктидорли ўқувчилар саналсада, айрим вазиятларда ва керакли ўринларда мазкур сифатларидан анча азият чекишади. Шунинг учун, синф раҳбарлари, ўқув

муассасаси амалий психологлари ўқув йилининг дастлабки ойларида ўқувчилар шахсининг индивидуал-психологик хусусиятларига ҳам кенг эътибор қаратишлари мақсадга мувофиқ саналади.

Айрим муаллифлар, ихтисослашган мактаб ўқувчилари фаолиятида юзага келувчи, эмоционал зўриқишлар турига коммуникатив стресс турини ҳам киритадилар. С.С.Чшмаритяннинг таърифича, коммуникатив зўриқиш (стресс) - бу асабийлашиш, мулоқотдаги тажовузлардан ўзини ҳимоя қила олмаслик, керак бўлганда бошқалар фикрини рад эта олмаслик, танқидлардан ҳимоя бўлишнинг махсус усуллари билмаслик ҳамда мулоқотдаги номувофиқликлар билан тавсифланади[10,9]. Бу стресс тури ҳам эмоционал зўриқишлар табиатини очиш учун ўта аҳамиятли саналади.

Хулоса қилиб айтганда, ихтисослаштирилган мактаб ўқувчилари ўқув фаолиятида юзага келувчи эмоционал зўриқишларни олдини олишнинг, психологик чора-тадбирлари сифатида қуйидагиларни амалга ошириб бориш, мақсадга мувофиқ саналади.

– Мактаб ўқувчиларининг когнитив имкониятларинигина эмас, балки ахлоқий, ижодий, жисмоний имкониятларини ҳам ривожлантириш;

– Фаол синф раҳбарларини танлаб олиш, уларнинг фаолиятини қўллаб-қувватлаш, синф кенгаши ишини ташкил этиш;

– Синфда қулай психологик муҳитни яратишга қаратилган тадбирларни ташкил этиш ва ўтказиш;

– Таълим соҳасида мактаблар, оилалар, болалар ташкилотлари ва бошқа ижтимоий шерикларнинг ўзаро ҳамкорлиги механизмларини ишлаб чиқиш;

– Ўқувчиларнинг жисмоний, ақлий тарбиясига янгича ёндашувлар ишлаб чиқиш;

– Таълим муҳитида салбий ҳодисаларнинг олдини олиш учун, идоралараро ўзаро ҳамкорликнинг янги шакллари ишлаб чиқиш ва амалга ошириш;

– Шахснинг лидерлик, ташкилотчилик, муваффақиятлилик, оптимизм, инновацион фикрлаш қобилияти, шахслараро муносабатларга бўлган қобилияти, ўзи-ўзига ишонч ҳисси, ўзини ўзи субъектив назорат қила олиш, репродуктив фикрлаш қобилияти каби шахслик хусусиятларини шакллантирувчи турли психологик ўйинлар ва тренингларни ташкил этиб бориш;

– Эмоционал соҳасида муаммо кузатилаётган, ёлғизликка мойил, тортинчоқ, уятчан ўқувчилар билан алоҳида суҳбатлар ва психологик маслаҳатлар ташкил этиш ва ҳоказо.

Агарда, юқорида эътиборга олинган ва ихтисослашган мактаб ўқувчиларининг эмоционал соҳасида зўриқишларга сабаб бўлувчи омилларнинг тадқиқига оид, кенгроқ психологик тадқиқотлар олиб борилса ва уларнинг олдини олиш бўйича таклиф ҳамда хулосалар ишлаб чиқилса, унда иктидорли ўқувчиларнинг ўқув фаолиятида юзага келаётган, турли муаммоларнинг олди олиниши эҳтимолдан холи эмас.

Адабиётлар:

1. Якобсон П.М. Эмоциональная жизнь школьника. М., ВЛАДОС, вт. изд. 2011. – 291 с.
2. Дикая Л.Г., Махнач А.В. Отношение человека к неблагоприятным жизненным событиям и факторы его формирования // Психол. журнал. 1996. № 3. Т. 17. С. 140-148.
3. Варламова Е.П. Жизненный путь как творческая активность. Психологические проблемы самореализации / Е.П. Варламова, Ю.Н. Михайлова // под ред. Л.А. Головей, Л.М. Коростылевой. - Спб., 1999. – С.37-50.
4. Алемаскин М.А. Воспитательная работа с подростками / М.А. Алемаскин.- М.: Знание, 2009. – 211 С.
5. Афанасьев В. Г. Социальная информация / В.Г. Афанасьев. - М.: Наука, 2016. – 208 с
6. Прихожан А.М. Тревожность у детей и подростков: психологическая природа и возрастная динамика. М.:Московский психолого-социальный институт; Воронеж: изд-во НПО «МОДЭК»), 2000 – 304 с.
7. Ильина С.В. Эмоциональный опыт насилия и пограничная личностная организация при расстройствах личности. Автореф. дис.... канд. пс. наук / С.В. Ильина. МГУ им. М.В. Ломоносова, факультет психологии. - М., 2000. – 24 с.
8. Рейковский Я. Экспериментальная психология эмоций. - М.: ПРИНТ, 2012. –70 с.
9. Тьюбеинг Дональд А. Избегайте стрессовых ситуаций: пер. с англ. - М.: Медицина, 2003. – 144 с.
10. Чшмаритян С. С. Стресс и фрустрация: возрастные аспекты: Автореф.дис. канд.психол.наук. Ереван, 1990. – 14 с.



УМУРЗАКОВА Дилфуза Илхомовна
Фарғона давлат университети
мустақил тадқиқотчиси

УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМДА ИЖТИМОЙ КОМПОНЕНТЛАРНИНГ РИВОЖЛАНТИРИШ (SOFT SKILLS)НИ ҚўЛЛАШ МИСОЛИДА

Мазкур мақолада ҳозирги кунда таълим тизимида универсал компетенциялар SOFT SKILLS, яъни ҳаётий ва мослашувчанлик кўникмаларга эга бўлишлик билан изоҳланади. Ҳаётий ва мослашувчанлик кўникмаларни муҳим ва таянч билим кўникмалар сифатида кўриб чиқадиган бўлса, улар инсон учун ўзи танлаган касбий фаолиятида муваффақиятли ишлаб кетишига имкон беришини яққол кўриш мумкин. Мамлакатнинг ижтимоий ва иқтисодий тараққиёти истиқболларидан, жамият эҳтиёжларидан, фан, маданият, техника ва технологиянинг замонавий ютуқларидан келиб чиққан ҳолда, қайта қуришга қаратилганлиги таълим олувчиларда SOFT SKILLSни қўллаш орқали, унинг муваффақиятини белгилайди.

Калит сўзлар: маънавий-ахлоқий фазилатлар, ахлоқий, эстетик, ватанпарварлик, инсонпарварлик, ҳаётий, мослашувчанлик, ижтимоий-сиёсий, иқтисодий-маданий, илм-маърифат, инновация, илм-фан, таълим-тарбия, миллий-модел, глобллашув.

СОЦИАЛЬНЫЕ КОМПОНЕНТЫ РАЗВИТИЯ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК ПРИМЕР ИСПОЛЬЗОВАНИЯ (SOFT SKILLS)

В данной статье рассматриваются универсальные компетенции в системе образования, так как сегодня они определяются как приобретение SOFT SKILLS, то есть навыков жизни и адаптивности. Когда жизненные навыки и навыки адаптации рассматриваются как важные и основополагающие знания, становится ясно, что они позволяют человеку добиться успеха в выбранной им карьере. Ориентация на реконструкцию с учётом перспектив социально-экономического развития страны, потребностей общества, современных достижений науки, культуры, техники и технологий определяет успешность учащихся путем применения SOFT SKILLS.

Ключевые слова: духовно-нравственные качества, нравственный, эстетический, патриотизм, гуманизм, жизненный, гибкий, социально-политический, экономико-культурный, научно-просветительский, инновационный, наука, образование-образование, национально-модель, глобализация.

SOCIAL COMPONENTS OF LIFELONG EDUCATION DEVELOPMENT AS AN EXAMPLE OF USE (SOFT SKILLS)

This article discusses universal competencies in the education system, as today they are defined as the acquisition of SOFT SKILLS, that is, life skills and adaptability. When life skills and adaptive skills are seen as important and foundational knowledge, it becomes clear that they enable a person to succeed in their chosen career. Orientation towards reconstruction, taking into account the prospects for the socio-economic development of the country, the needs of society, modern achievements in science, culture, engineering and technology determines the success of students through the use of SOFT SKILLS.

Key words: spiritual and moral qualities, moral, aesthetic, patriotism, humanism, vital, flexible, socio-political, economic and cultural, scientific and educational, innovative, science, education-education, national model, globalization.

Кириш. Янги Ўзбекистонда ижтимоий тарққиётнинг фан, таълим ва тарбияси мазмунига алоҳида эътибор берилиб, олиб борилаётган ислохотларнинг энг муҳим мақсади юртимизда соғлом ва баркамол, билимли, юксак маънавий-ахлоқий фазилатларга эга бўлган авлодни шакллантиришдан иборатдир. Узоқ ва бой тарихга эга бўлган ўзбек халқи, таълим-тарбияга оид улкан меросга эга бўлиб, ҳар томонлама маънан етук, инсон камолотининг энг муҳим ва зарур омилларидан бири бу таълим-тарбия бўлиб келмоқда. Шу нуқтаи назардан олиб қаралганда, халқимиз тарихига назар ташласак, илмий-назарий ва амалий жиҳатдан мисли кўрилмаган тарбиявий меросга эга эканлигимизни кўрамыз. Эришилган ютуқлар ёшларда миллий маънавий мерос ва кадриятларни асраб-авайлаш, уларда воқеаларнинг ҳодиса сифатида намоён бўлиши эмас, балки маданий, ахлоқий,

эстетик моҳиятини чуқур англаш малакаларини шакллантиришни тақозо этмоқда. Айни пайтда бу жараён онг, маданият, амалиёт шакллари бўлмиш этика, эстетика ҳамда ижтимоий фанларнинг методологик асослари ҳамда илмий мазмунини миллий ва умуминсоний тамойиллар билан муштараклигини таъминлашни талаб этади. Жамият маънавий тараққиётини таъминлашда ёшларимиз тафаккурини мустақиллик талабларига, ҳамда ҳозирги ахборот технологиялари ҳаётнинг барча соҳаларига шиддат билан кириб келаётган, бутун дунёда глобаллашув тамойиллари кучайиб бораётган давр чақириқларига мослаштирмасдан туриб, ислохотларни юқори суръатларда ва муваффақиятли давом эттириб бўлмайди. Фақат эркин ва мустақил, танқидий фикрлай оладиган кишидагина жоҳилликка, мутаассибликка, ҳар турли бузғунчи ғояларга нисбатан мафкуравий иммунитет тезроқ вужудга келади. Фақат шундай тафаккур эгасигина ватанпарварлик, инсонпарварлик, мустаҳкам эътиқод ва ижтимоий этуқлик касб этади. Юртимизда қабул қилинган ва қабул қилинаётган қонунлар, ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатлар, қўлга киритилаётган муваффақиятларимиз ўз олдимизга қўйган бош мақсадимизга, яъни мамлакатимизни дунёдаги ривожланган демократик давлатлар қаторидан жой олишига тобора яқинлаштирмоқда.

Асосий қисм. Таълим соҳасидаги Ўзбекистон давлатининг сиёсати Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясининг[1] узлуксиз таълимнинг барча турларида амалга оширилиши билан чамбарчас боғлиқдир. Ушбу концепциянинг долзарблиги шу билан изоҳланадики, рақамли иқтисодиётни тез суръатларда ўсиб бориши билан кадрларнинг доимий ўз устида ишлаб боришига зарурияти ҳамда нафақат тор доирадаги мутахассисликка йўналтирилган кўникмалар мажмуасига эга кадрлар, балки кенг қўламли универсал компетенцияларга эга мутахассислар эҳтиёжнинг мавжудлигидир. Универсал компетенциялар ҳозирда SOFT SKILLS, яъни ҳаётий ва мослашувчанлик кўникмаларга эга бўлишлик билан изоҳланади. Ҳаётий ва мослашувчанлик кўникмаларни муҳим ва таянч билим кўникмалар сифатида кўриб чиқадиган бўлса, улар инсон учун ўзи танлаган касбий фаолиятида муваффақиятли ишлаб кетишга имкон беришини яққол кўриш мумкин. Кадрлар тайёрлаш тизими ва мазмуни шундан иборатки, мамлакатнинг ижтимоий ва иқтисодий тараққиёти истикболларидан, жамият эҳтиёжларидан, фан, маданият, техника ва технологиянинг замонавий ютуқларидан келиб чиққан ҳолда қайта қуришга қаратилганлиги таълим олувчиларда SOFT SKILLSни қўллаш орқали муваффақиятни белгилайди. Узлуксиз таълим тизимининг сифат даражаси ва унинг самарадорлигини оширишда, талабаларнинг таълим марказида бўлиши ва ёшларнинг мустақил билим олишларини таъминланишига қаратилган бўлиб, хорижий тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида мамлакатимизда илм-фаннинг бир неча йўналиши танлаб олиниб, ушбу фанларга нисбатан алоҳида эътибор қаратиб ҳамда ривожлантирилиб келинмоқда. Замонавий адабиётларда ушбу компетенцияларни изоҳлашга оид бир нечта ёндашувлар мавжуд. Хусусан, кўникмаларнинг “ҳаётий” ва “мослашувчанлик” тушунчалари қўлланилмоқда. Бўлажак ўқитувчиларда компетентлилик сифатини, уларда эркин, фаол, мустақил фикрлай олиш, ўқув-тарбиявий жараёни моделлаштира олиш, шунингдек таълим-тарбиянинг янги ғоя ва технологияларини мустақил яратиш ҳамда уларни татбиқ эта олиш кўникмаларини шакллантириш муаммоси бугунги кунда мавжуд бўлган ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий шароитларда долзарб ҳисобланади.

Мамлакатимиз ва хорижий давлатлар тадқиқотчиларининг қарашларини таҳлил қилиб айтиш мумкинки, компетентлиликни ривожлантиришда эмпатик ва рефлексив қобилиятлар билан тўлдирилган интеграцион компетенцияларнинг маълум миқдори сифатида талқин қилинади. У махсус ўқув машғулотлари давомида шакллантирилади. Таълимнинг коммуникатив моделини такомиллаштириш, талабаларда интерфаол мулоқот кўникмасини шакллантириш, аниқлаштириш, технологияларини ишлаб чиқиш ҳамда самарали фойдаланиш, олий таълим тизимида ўқув сифат даражасини ошириш ва тубдан такомиллаштириш ҳозирги кунда муҳим аҳамият касб этмоқда. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида “Таълим ва ўқитиш сифатини баҳолашнинг халқаро стандартларини жорий қилиш асосида олий таълим муассасалари фаолиятининг сифати ҳамда самарадорлигини ошириш, илмий-тадқиқот ва инновацион фаолиятни рағбатлантириш жараёнида, илмий ва инновацион ютуқларни амалиётга жорий қилишнинг самарали механизмларини яратиш” [2] каби муҳим вазифалар белгиланди. Айнан шунинг учун педагоглар тайёрлаш таълим жараёнининг асосий вазифаси касбий-педагогик тайёргарлигининг махсус ажралмас қисми бўлган компетентлиликни ривожлантиришга қаратилган бўлиши даркор.

Умуман олганда компетентлиликни ривожлантиришда қуйидаги ўзига хос интеграцион хусусиятларни ўз ичига олади:

1. Мулоқот амалга оширилиши мумкин бўлган коммуникатив компетентлилик вазиятнинг негизини ижтимоий-психологик прогноллаштириш.

2. Мулоқот жараёнининг ўзини ижтимоий-психологик нуктаи-назардан дастурлашга айтилади.

3. Коммуникатив вазиятда мулоқот жараёнларини ижтимоий-психологик бошқарув хусусиятларини амалга оширишдан иборат. Компетентлилик туғма қобилият бўлмай, инсон томонидан ижтимоий-коммуникатив тажрибани эгаллаш жараёнида шаклланивчи қобилиятдир. Коммуникатив-ижтимоий тажриба, аввало, муносабатларни ўзгартириш механизмини ўз ичига олиб, нутқни стилистик жиҳатдан турли вариантларда қўллашда намоён бўлади. Бундай ўзгаришнинг асосида мулоқот иштирокчилари ўртасидаги ролли мулоқотларнинг ўзгариши ётади[3].

Замонавий ижтимоий ва касбий шароитларда компетентлилик мулоқотини ривожлантириш уни уйғунлаштиришнинг қатор принциплал-муҳим йўналишларини тақозо қилиши мумкин. Бироқ амалиёт учун компетентлиликни ривожлантириш тўлақонли ривожлантириш учун мулоқотнинг хизматга оид – амалий ёки ролли, шунингдек, бошқа шахсий турларини чеклаш муҳим. Одатда, тафовут учун асос шериклар орасидаги психологик масофа бўлади, бу “мен – сен – контакт”. Модомики, нафақат “ташқи” маълумотлар, балки биргаликда ҳал қилиниши керак бўлган хизматга оид намунали вазифа сифатида гап борар экан, шахс шеригига ўзи, ўз ички дунёсини намоён қилади, бунда шерикка “яқин инсон” мақомини беради, мулоқот эса том маънода ишончли бўлади[4]. Шунингдек, мулоқотдаги компетентлилик, инсондан турли узоқликдаги психологик масофада ўзига керакли бўлган алоқани яратишга тайёрлик ва маҳоратни талаб қилиши мумкин. Аммо қийинчиликларнинг ўзи айнан “позициянинг инерция ҳодисасига асосланган – шерикнинг феъл-атвори, табиати ҳамда вазиятнинг ўзига хослигига қарамай, улардан бирортасини эгаллаганлиги ва уни ҳар жойда амалга ошириши билан боғлиқ бўлиши мумкин. Умуман олганда, мулоқотдаги компетентлилик, одатда, энг яхшиси сифатида бирор бир позицияни эгаллаганлиги билан эмас, балки уларнинг спектрига мос равишда қўшилишига боғлиқ” [5].

Узлуксиз таълим тизимида кадрлар тайёрлаш миллий моделининг биринчи компоненти шахсдир. Чин маънодаги шахс ўзини-ўзи қайта тарбиялаш салоҳиятига эга бўлади. Ўзи ва миллат учун бефойда, зарарли одатларидан воз кечади. Миллат манфаатларини ўз манфаати, ўз манфаатини эса миллат манфаатига эришиш шарти деб тушунади. Ўз вазифасини миллатнинг кунига яраш, оғирини енгил қилишда кўради. Шу сабабли у ўз шахсий қобиғидан чиқиб кўтарилади ва миллат манфаати учун, миллат фаровонлиги орқали ўзини камолотга эриштириш учун бошқалардан кўпроқ, самаралироқ меҳнат қилади. Умуммиллий ғоя, мақсадга ишонади, уни ҳимоя қилади. Ёшларда бу фазилатлар бирданига пайдо бўлиб қолмайди. У, аввало, оилада ота-она, оиладан ташқарида қариндош-уруғ, қўшни-маҳалладошлар орасидаги тарбиявий муҳитни рағбатлантириб бориш, сўнгра олий ўқув юртида - мафкуравий билимларни эгаллаш орқали тарбияланади. Шу сабабли бу жараёнга ижтимоий педагогиканинг устувор йўналишларидан бири сифатида қараш лозим.

Бу бежиз эмас, албатта. Чунки миллий меросимизнинг ғоявий негизи – шахс тарбияси, унинг маънавий эҳтиёжларига даъвогар бўлган омилларни ўрганишдан иборат бўлиб келган, ушбу муаммо ҳозирда ҳам жамиятимизда олиб борилаётган сиёсатда энг муҳим масалалардан бири сифатида намоён бўлмоқда.

Таълим жараёни дунё бўйича турли мамлакатларнинг яқинлашуви, том маънода глобал, инсоният цивилизацияси тақдири учун ҳал этувчи аҳамиятга эга бўлган кўплаб омиллар билан белгиланади. Бу омиллар орасида юзага келган умумий ва миллий ўзига хосликлар алоҳида аҳамиятга эга.

Таълимнинг ноёб имкониятлари ҳозир нафақат инсон ақлини янги тезкор имкониятлар билан қуроллантириш, балки унинг онгини қайта қуриш билан боғлиқ. Инсоният цивилизацияси ривожининг янги босқичи инсоннинг шаклланиш жараёни, шахсий фазилатлар, ҳаётий мақсадлар ва қадриятлар ҳақидаги тасаввурларини ўзгартиради. Ўсиб келаётган ёш авлод учун таълим тизими сифат жиҳатдан янгича талаблар қўяди.

Давлатимиз келажаги жамият ҳаётининг бошқа соҳалари билан бирга таълим тарбия тизимини янги замон талаблари даражасига кўтаришга йўналтирилган ишларнинг самарадорлиги билан белгиланади.

Таълим-тарбия тизимини такомиллаштириш ўз навбатида бу соҳада янги, замонавий, илғор педагогик технологияларни изчил жорий этишга кўп жиҳатдан боғлиқ. Таълим самарадорлиги ўқувчи бу жараёнда қай даражада фаол қатнашаётганлиги билан белгиланишини ҳисобга олган ҳолда янги ўқитиш услублари, шакллари таълим олувчиларга мустақил фикрлаш, ижодий ёндашиш учун имконият яратади. Аждодларимизнинг яратувчанлиги шахс манфаатларига қаратилган бўлса, айни вақтда янги Ўзбекистонимизда амалга оширилаётган барча янгилликлар ҳам инсон келажаги учун хизмат қилиши кўзда тутилган. Замонавий таълим-тарбия тизими ва миллий мерос асосидаги ғоявий уйғунлик – таълим-тарбия жараёнида миллий мероснинг маънавий-маърифий заминларига таяниш

зарурлигини ҳам англатади. Шу жиҳатдан олиб қараганда ўтмиш алломалари, мутафаккирларининг маънавий меросларини ёш авлоднинг тарбиясидаги аҳамияти бугунги кунда ҳам ғоят бекиёсдир. Миллий таълим ва тарбия тизими асослари даставвал 3000 йиллик тарихга эга “Авесто” да болаларни ўқитиш ва тарбиялаш қоидалари қуйидаги тартибда баён этилган: “ диний ва ахлокий тарбия, жисмоний тарбия, ўқиш ва ёзишга ўргатиш...”[6].

Соғлом ғоявий тарбия – юксак дунёқараш ва эътиқод тарбиясини ҳам англатади. Шу ўринда тарбия ҳамда таълим берувчининг шахсий сифати ҳамда ўз ишига фидойилиги бу масалада ғоят муҳим эканлигини унитмаслик керак. Бу хусусда Ғаззолий шундай ёзади. “Шайхнинг (тарбиячининг) муридани тарбиялаш калити - ердан унган неъматнинг яхши ҳосил бермоғи учун деҳқон унинг атрофини бегона ўтлар, тиканлардан тозаллагани каби бир ҳол”.

Зеро, биз янги асрда ва янги бир цивилизация даврида яшаймиз. Бу цивилизацияда меҳнат қилиб, ўзининг устида тинмай ишлайдиган, узлуксиз таълим оладиган, доимий равишда ўз билим эҳтиёжларини қондириб, олган билимларини оиласи, халқи ва давлати ривожланишига сарф қила оладиган шахсина муносиб ўринни эгаллаши мумкин. Шунинг учун ҳам Миллий моделимизда узлуксиз таълимга катта аҳамият берилган. Чунки, жамиятимиз ўз олдига қўйган олий мақсад – келажакда буюк Ўзбекистонни, озод, обод Ватанни яратиш ва умуман, ислохотларнинг тақдири охири-оқибатда бугун шаклланаётган авлоднинг дунёқарашига, ижтимоий мўлжалига замонавий илм-фан ва касбларни эгаллашига, амалий ташкилотчилигига бевосита боғлиқдир.

Хулоса қилиб шуни таъкидлаш жоизки мустақил фикрловчи талабаларни тарбиялаб вояга етказиш ҳозирги глобаллашув жараёнларда, вужудга келаётган мураккаб жараённинг долзарб вазибаларидан бўлиб, у жамият зиммасига катта масъулият юклайди. Глобаллашув шароитида дунё мамлакатлари барча соҳаларда, барқарор тараққиёт йўлида ўзларининг ўринларига эга бўлиб бормоқда. Албатта, бунда ҳар бир давлатнинг табиий ва иқтисодий омиллари билан бирга, инсон омили, жумладан, ёш авлодларни тарбиялаш, шарт-шароитлар яратиш, уларнинг интеллектуал салоҳиятидан самарали фойдаланиш муҳимлиги албатта тафаккур тарбияси бу оила, маҳалла, меҳнат ёки ўқув юрти жамоаси тизимида амал қилувчи изчил тарбия бўлиб, унинг объекти ҳам, субъекти ҳам ҳазрати инсоннинг ўзидир.

Адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, -Б.464. 2021й.
2. “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони.
3. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг “XXI асрнинг Олий таълими” Бутунжаҳон декларацияси (1998 й.), ЮНЕСКО нинг “Олий таълимни ислох қилиш ва ривожлантириш” дастурий ҳужжати (1995 й.)
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2013 йил 8 майдаги “Узлуксиз таълим тизимининг чет тиллар бўйича Давлат стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 124-сонли Қарори.
5. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирининг “Олий таълим муассасаларининг матбуот қотиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 2018 йил 17 июлдаги 625-сонли буйруғи.
6. Аслонов. И.Н. Ўқувчиларни касбга йўналтиришда оила, маҳалла ва таълим муассасаларининг ҳамкорлиги масалалари. 2016 й.
7. Рискулова К.Д. “Бўлажак инглиз тили ўқитувчилари социолингвистик компетентлигини шакллантириш тизими” диссертацияси автореферати. Тошкент 2017й.
8. Жуманазаров. У. У. “Таълимни рақамлаштириш муҳитида бўлажак инглиз тили ўқитувчиларининг лингвистик компетенциясини ривожлантириш”. Диссертацияси автореферати. Жиззах 2021й.
9. Rahmatullayeva A.I. “O‘quvchilar diqqatini rivojlantirish pedagogik-psixologik muammo sifatida”. “Malaka oshirish tizimida integratsiya va innovatsion tafakkur uyg‘unligi masalasi:muammo va yechimlar” Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi (2020-yil, 20-may) materiallari.
10. Sodiqov G‘.A. “Pedagogik texnologiyalarni o‘quvchi shaxsini tarbiyalashdagi o‘rni”. “Malaka oshirish tizimida integratsiya va innovatsion tafakkur uyg‘unligi masalasi:muammo va yechimlar” Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi (2020-yil, 20-may) materiallari.
11. Азимова З.Э. Ўқувчиларнинг шахслараро муносабатлари интеграл диагностикаси. Дисс... канд. пед. наук. – Тошкент, 2009. 23 б.

12. Петровская Л.А. Компетентность в общении. – М.: Изд-во МГУ, 1989. – С. 38.
13. Гайничева И.А. Развитие коммуникативной компетентности студента в процессе педагогической практики в вузе // Высшее образование сегодня. – 2014. - №12. – С. 19-22.
14. Юлбарсова, Х. А. (2021). Реализация эффективного процесса формирования и развития коммуникативной компетентности у будущего учителя. Восточно-европейский научный журнал, (3-4 (67)), 36-40.

ҲАКИМОВА Наргиза Сунхоновна

Бухоро давлат университети
Мактабгача таълим кафедраси ўқитувчиси

ТАРБИЯ ДАРСЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАРДА ИЖТИМОИЙ-ҲУҚУҚИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕТОДИКАСИ

Мақолада таълим беришда компетенциявий ёндашув, унинг аҳамияти ва долзарблиги, бошланғич синфларда компетенциявий ёндашувга асосланган таълим-тарбия жараёнини таъкил этиш методикаси ҳақида фикрлар баён этилган. Ўқувчиларда зарурий ҳаётий кўникмаларни шакллантириш ҳамда улар онгида кичик мактаб ёшидан бошлаб ижтимоий – ҳуқуқий компетенцияларни таркиб топтириш вазифалари устувор эканлиги ҳақида илмий-назарий мулоҳазалар ёритилган.

Калит сўзлар: ижтимоий-ҳуқуқий меъёрлар, компетенциялар, ҳаётий кўникмалар, таълим сифати, ўқитувчи маҳорати, шахс камолоти.

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ВОСПИТАНИЯ

В статье описывается компетентностный подход в образовании, его значение и актуальность, методы организации учебного процесса на основе компетентностного подхода в начальных классах. Освещаются научно-теоретические соображения о приоритетности формирования у учащихся необходимых жизненных навыков и формирования социально-правовых компетенций в их сознании с младшего школьного возраста.

Ключевые слова: социально-правовые нормы, компетенции, жизненные навыки, качество образования, педагогическое мастерство, личностное развитие

METHODOLOGY FOR FORMING STUDENTS' SOCIO-LEGAL COMPETENCIES IN EDUCATIONAL CLASSES

The article describes the competence approach in education, its importance and relevance, the methods of organizing the educational process based on the competence approach in primary classes. The scientific-theoretical considerations about the priority of formation of necessary life skills in students and formation of social-legal competences in their minds from the junior school age are highlighted.

Keywords: social and legal norms, competencies, life skills, quality of education, pedagogical skills, personal development

Кириш. Тарбия фани концепциясининг илмий-методик асослари: шахсининг ижтимоийлашуви ва тарбиясига оид илмий-тадқиқот изланишларини амалга оширилишини таъминлаш; «Тарбия» фани малака талаблари, ўқув дастурлари ва ўқув режаларини шакллантириш; «Тарбия» фани дарсликларини яратишда самарали тарбия технологияларини жорий этиш; «Тарбия» фани ўқув-методик мажмуасини яратиш ва амалиётга йўналтириш; давлат таълим стандартлари талаблари асосида ўқувчилар томонидан одоб-ахлоқ, билим, кўникма ва малака ҳамда компетенцияларнинг тўлиқ ўзлаштирилишига эришиш; ўқувчиларда мустақил ва эркин фикрлашни ҳамда уларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантириш; ўқувчиларда илмий дунёқараш ва глобал тафаккур юритиш компетентлигини шакллантириш; умумтаълим фанларини ўқитишнинг принциплал янги методологияси асосида таълим-тарбиянинг узвийлиги ва узлуксизлигини таъминлаш каби вазифалар ижросини таъминлаш мақсадида биз “Бошланғич синф тарбия дарсларида ўқувчиларнинг ижтимоий-ҳуқуқий компетенцияларини шакллантириш механизмларини такомиллаштириш” мавзусида илмий тадқиқот ишларини олиб бордик.

Асосий қисм. Бизга маълумки, педагогика ва психология йўналиши бўйича амалга ошириладиган тадқиқот ишлари назарий изланиш ва амалий тажриба қисмларидан иборат. Тадқиқотнинг назарий изланиш қисми танланган муаммо ва уни ҳал қилишга йўналтирилган педагогик фаолият мазмуни, рўй берадиган педагогик жараённинг назарий баёни бўлиб, у амалий қисмнинг таркибий элементи бўлган тажриба-синов ишлари учун асос ҳисобланади. Амалий

тажрибада ишнинг назарий қисмида илгари сурилган устувор ғояларни амалиётга татбиқ этиш йўллари, синов учун тавсия этилган дастур ҳамда етакчи тамойилларнинг баёни, тажрибада фойдаланиладиган методика мазмуни, кутиладиган натижа, уларнинг умумлашмаси, ўзаро қиёсий таҳлили, шунингдек, фарқ кўрсаткичлари, тажриба натижаларининг математик-статистик таҳлили масалалари ёритилади. Назарий ва амалий тажрибаларнинг ўзаро бир-бирига мос келиши тадқиқотни самарали олиб борилишига хизмат қилади.

Юқоридаги фикрларга асосланган ҳолда биз тадқиқот ишимизнинг долзарблиги ва ундаги муаммони аниқлаш мақсадида мавзуга мос режалар тузиб чиқдик.

Мазкур тадқиқот ишлари 2020-2022 ўқув йилларида республикаимизнинг Бухоро, Қарши, Навоий вилоятлари умумтаълим мактаблари бошланғич синф ўқитувчи ва ўқувчилари билан ўтказилди.

Тадқиқот жараёнида анкета сўровномалари, суҳбат, аналитик таҳлил, адабиётлар таҳлили, кузатув, умумлаштириш, тест, педагогик эксперимент, математик-статистик ишлов бериш каби усуллардан фойдаландик.

Дастлаб бошланғич синф ўқитувчиларидан қуйидаги анкета сўровномаларини олдик.

1. Янги Ўзбекистон таълим тизимидаги ислохотларга сизнинг муносабатингиз қандай?

2. Тарбия дарслигига эҳтиёжнинг сабаби нимада деб ўйлайсиз?

3. Тарбия дарсларининг ўзига хос хусусиятини санаб беринг?

4. Миллий дастур асосида ўқитишнинг афзалликлари нимада деб ўйлайсиз?

5. Тарбия дарслари орқали ўқувчиларда қайси компетенциялар шакллантирилади?

6. Ижтимоий ва ҳуқуқий компетенциялар деганда нимани тушунасиз?

7. Ижтимоий ва ҳуқуқий компетенцияларни шакллантиришнинг аҳамияти ҳақида фикр билдиринг.

8. Тарбия дарсларида ўқувчиларда ижтимоий ва ҳуқуқий компетенцияларни шакллантиришда қайси технологиялардан (метод. шакл, восита) фойдаланасиз?

9. Ўқувчиларда ижтимоий ва ҳуқуқий компетенцияларни шакллантириш бўйича қайси олимлар ёки педагогларнинг асарларини ўргангансиз?

10. Ижтимоий ва ҳуқуқий компетенцияларни шакллантириш бўйича ўзингизнинг тажрибангиз борми? У қандай амалга оширилади?

Сўровномалар таҳлил қилинганда аксарият ўқитувчилар Янги Ўзбекистон таълим тизимидаги ислохотлар ҳақида етарлича маълумотларга эга эканликларини ва бу ислохотларга ижобий муносабатда эканликларини билдиришган. Айниқса, Тарбия фанининг жорий этилиши Миллий таълим дастуринг устиворлигини белгилловчи омилардан бири эканлигини эътироф этишган.

Жумладан, Тарбия фанининг ўзига хос хусусиятларидан энг муҳими амалий дарсларга алоҳида урғу берилган ҳолда ўқувчиларда ҳаётий кўникмаларни шакллантиришга қаратилганлигини, бунда ижтимоий – ҳуқуқий компетенцияларни шакллантириш фаннинг асосий мақсад ва вазифаси эканлигини баён этишган. Ушбу фан янги бўлганлиги сабабли ўқитувчилар учун методик қўлланмаларнинг етарли эмаслигини билдиришган. Қабул қилинган Миллий дастур асосида ушбу фанни ўқитишнинг афзалликлари амалий машғулотлар таълим-тарбия жараёнининг 50% қисмини эгаллаганлигини, бу эса ўқувчиларда шахсий кўникмаларни шакллантиришга, улардаги ижобий қобилиятларни ривожлантиришга имконият яратишини билдиришган.

“Тарбия дарслари орқали ўқувчиларда қайси компетенциялар шакллантирилади?”, - деган саволга 76 нафар ўқитувчилардан 50% ўқитувчилар барча 6 та таянч компетенцияларни санаб ўтганлар, 20% ўқитувчилар ҳаётий кўникмалар деб жавоб берганлар, 25% ўқитувчилар ижтимоий – ҳуқуқий компетенциялар деб ёзганлар, 5% ўқитувчилар бу саволга аниқ жавоб бермаганлар. “Ижтимоий ва ҳуқуқий компетенциялар деганда нимани тушунасиз?”, - деган саволга 45% ўқитувчилар шахснинг ҳаётида амал қиладиган ҳар бир ҳаракати унинг ижтимоий – ҳуқуқий компетенцияси эканлигини, 30% ўқитувчилар инсоннинг бурчи ва мажбуриятлари ушбу компетенциянинг мазмуни эканлигини, 15% ўқитувчилар шахслардаги ўзаро мулоқотга киришиш, жамиятдаги маъсулият ва мослашувчанлик, ўз-ўзини ривожлантиришга интилиш, ижтимоий фаол фуқаролик каби компетенцияларни санаб ўтишган. Ижтимоий ва ҳуқуқий компетенцияларни шакллантиришнинг аҳамияти ҳақида ўқитувчилар ижобий фикрлар билдиришган ва ушбу вазифани амалга ошириш бугунги таълимдаги долзарб муаммо эканлигини таъкидлашган. “Тарбия дарсларида ўқувчиларда ижтимоий ва ҳуқуқий компетенцияларни шакллантиришда қайси технологиялардан (метод. шакл, восита) фойдаланасиз?”, - деган саволга кўпчилик ўқитувчилар анъанавий таълим жараёнида қўлланиладиган усулларни санаб ўтишган, 30% ўқитувчилар интерфаол усулларни санаб ўтишган, 10% ўқитувчилар лойиҳавий таълим технологияларидан фойдаланиш афзаллигини

билдиришган. Қолган ўқитувчилар эса ушбу компетенцияларни шакллантириш учун ёш ўқитувчиларга методик ёрдам кераклигини айтишган. “Ўқувчиларда ижтимоий ва ҳуқуқий компетенцияларни шакллантириш бўйича қайси олимлар ёки педагогларнинг асарларини ўргангансиз?”, -деган саволга аксарият ўқитувчилар фақат компетенциявий ёндашувга асосланган ДТС ва ўқув дастурларини билишларини, кўп ҳолларда тайёр маълумот ва методиклардан фойдаланишларини баён этишган. “Ижтимоий ва ҳуқуқий компетенцияларни шакллантириш бўйича ўзингизнинг тажрибангиз борми? У қандай амалга оширилади?”, - деган саволга ўқитувчилар доимий қўлланиладиган интерфаол усулларни санаб ўтишган. Шу билан бирга Тарбия фанини ўтишда янги тавсия ва методикалар зарурлигини, амалий дарсларни ташкил этиш учун ўқитувчиларга услубий қўлланмалар кераклигини айтишган.

Юқоридаги таҳлиллardan шу хулосага келдикки, Тарбия фанини ўқитишда ўқувчиларда ижтимоий – ҳуқуқий компетенцияларни шакллантириш муаммоси долзарб бўлиб, бунда ёш ўқитувчиларда замонавий ёндашувларга асосланган услубий тавсияларга эҳтиёж мавжудлиги ўз исботини топди.

Илмий изланиш ва тажриба - синов жараёнида мавжуд манбалар ва танланган муаммога яқин мавзуларда амалга оширилган илмий ишлар ўрганилган, бошланғич синф ўқувчиларида ижтимоий-ҳуқуқий компетенцияларни шакллантиришга оид методикани яратишга эҳтиёж мавжудлиги аниқланди. Назарий ўрганиш ҳамда мактаб амалиётини бевосита кузатиш, ўқувчилар фаолиятини таҳлил қилиш натижасида муайян ўқув, тарбиявий ва илмий-педагогик методлар ҳамда алоҳида ўзимиз тавсиямиз асосида ишлаб чиқилган методикалар бошланғич синф ўқувчиларида ижтимоий-ҳуқуқий компетенцияларни шакллантиришда самарали эканлиги аниқланди.

Қуйидаги Тарбия дарсларида бошланғич синф ўқувчиларида ижтимоий-ҳуқуқий компетенцияларни шакллантиришда самарали деб топилган ва тажриба-синов давомида қўллаган методларнинг таснифини келтирамыз.

1-жадвал.

Бошланғич синф Тарбия дарсларида ўқувчиларида ижтимоий-ҳуқуқий компетенцияларни шакллантиришда қўлланилиши тавсия этиладиган технология ва машқлар

Т/р	Қўлланилган технология ва машқлар номланиши	Уларнинг мақсад ва вазифалари
1.	Домино	Таълимий ўйин бўлиб, ўқитувчи бир ўқувчига сўз айттиради. Шу сўз қайси ҳарф билан тугаса, шу ҳарф билан бошланган сўзни бошқа ўқувчи айтади ва ўйин шу тақдирда давом этади.
2.	Қироат машқи	Ўқувчининг ифодали нутқ ва адабий талаффуз малакасини шакллантириш мақсадида ўтказилади. Жумладан: мавзу бўйича мустаҳкамлаш босқичида ўқувчиларга матн берилади ва шу матнни ўқувчи томонидан ифодали ўқиб, ундаги отлашган сифатлар аниқланади.
3.	Ассисмент	Ўқувчининг ўз-ўзини тақдирот қилиши, маълум синовдан ўтиши, ўқувчининг бир вақтнинг ўзида билим, саводхонлиги, фикрлаш қобилияти текширилади. Жумладан: ўқувчиларга бир вақтнинг ўзида турли топшириқлар, яъни тест, муаммо (симптом) ,
4.	Жумбоқли топшириқ	Топишмоқ шаклида ўтказилади. Бунда турли феъл сўзлар берилиб, матн тузиш топширилади, матнда биргалик нисбати феълларидан фойдаланилади.
5.	Ҳаёт чизиғи	Белгиланган мавзунинг тарихи, ҳозир ва келажаги: яқин келажак, узоқ-хаёлий келажаги юзасидан ижодий иш олиб борилади.
6.	Менга сўз беринг	Мавзу юзасидан барча ўқувчиларнинг таассурот ва хулосалари тингланади. Энг сўнгги сўзни барча хулосаларни тинглаб бўлинган, умумлаштирилган якуний сўзни “менга сўз беринг” деган ўқувчи айтади. Унинг хулосалари муҳокама этилмайди.

7	Сўзли тасаввур	Барча ўқувчилар асар юзасидан ўзини хайратга солган воқеа – ҳодисаларни ягона сўз орқали ифодалайдилар.
8	Ўйла, изла, топ	Асар юзасидан муаммоли вазият яратилади. Берилган муаммоли топшириқ юзасидан ўқувчилар жавобларни излаб топишлари лозим. Энг тўғри жавоблар саралаб олинади.
9	Ғоявий чархпалак технологияси	ўқувчиларни ўтилган мавзуларни ёд олишга, мантиқан фикрлаб, берилган саволларга мустақил равишда тўғри жавоб беришга ва ўз – ўзини баҳолашга ҳамда қисқа вақт ичида барча ўқувчилар эгаллаган билимларни баҳолашга қаратилган.
10	Саёҳат	усулидан фойдаланиш яхши натижа беради. Бунда 10 та ўқувчи айлана бўлиб жойлашадилар. 1-ўқувчи 1 та Тарбия фанига оид термин айтади, 2-ўқувчи 1-ўқувчи айтган терминни такрорлайди ва ўзи ҳам 1 та термин қўшиб айтади. 3-ўқувчи ҳам 1- ва 2-ўқувчи айтган терминларни такрорлайди ҳамда ўзи ҳам 1 та қўшади. Ўйин шундай тартибда давом этади. Агар ўйинда бирон бир терминни айта олмай қолса, уни ўйиндан четлатиш керак бўлади. Ўйиндан четлатилган бола ўйин тугагандан кейин ўз маҳоратини намойиш этиши лозим. Ўйин тугагандан сўнг болалардан ўйинда ўзини қандай ҳис этганлиги сўралади. Улар фанга оид терминларни эсда сақлаш учун қандай усулдан фойдаланганлиги сўралади.
12	ВЕНН ДИАГРАММАСИ	услуги мавзунини 2 ва 3 жиҳатларини ҳамда умумий томонларини солиштириш ёки таққослаш ёки қарама-қарши қўйиш учун қўлланилади. Тизимли фикрлаш, солиштириш, таққослаш, таҳлил қилиш кўникмаларини ривожлантиради. Алоҳида/кичик гуруҳларда Венн диаграммасини тузадилар ва кесишмайдиган жойларни тўлдирдилар. Жуфтликларга бирлашадилар, ўзларининг диаграммаларини таққослаб, тўлдирдилар. Доираларни кесишувчи жойида, икки/уч доиралар учун умумий бўлган, маълумотлар рўйхатини тузади.
13	Нима учун? схемаси	муаммонинг дастлабки сабабларини аниқлаш бўйича фикрлар занжири. Тизимли, ижодий, таҳлилий фикрлашни ривожлантиради ва фаоллаштиради. Тенденр-ўқитувчи ва тингловчиларни “Нима учун?” схемасини тузиш қондаси билан таништиради. Алоҳида кичик гуруҳларда муаммони ифодалайдилар. “Нима учун” сўровини берадилар ва чизадилар, шу саволга жавоб ёзадилар. Бу жараён муаммонинг дастлабки сабаби аниқланмагунча давом этади ва жавоблар гуруҳларда умумлаштирилади. “Нима учун” графикли органайзери чизмасини тузиш қондалари. 1. Айлана, тўғри тўртбурчак ёки бошқа турдаги шакллардан фойдаланишни ўзингиз танлайсиз. 2. Чизманинг кўринишини - мулоҳазалар занжирини тўғри чизиқлими, тўғри чизиқли эмаслигини ўзингиз танлайсиз. 3. Йўналиш кўрсаткичлари сизнинг қидирувларингизни дастлабки ҳолатдан изланишгача бўлган йўналишингизни белгилайди.
14	Нилуфар гули	Нилуфар гули усули - муаммони ечиш воситаси. Ўзида нилуфар гули кўринишини намоеён қилади. Унинг асосини тўққизта катта тўрт бурчаклар ташкил этади. Тизимли фикрлаш, таҳлил қилиш кўникмаларини ривожлантиради ва фаоллаштиради. 1. Чизмани тузиш қондаси билан танишадилар. Алоҳида кичик гуруҳларда чизма тузадилар: тўрт бурчак марказида аввал асосий муаммони (ғоя, вазифа) ёзадилар.

15	Хотира машқи	усулдан ўтилган мавзуларни мустаҳкамлаш, такрорлаш, билимларни ёдга олишда фойдаланиш тавсия этилади. Доскага мавзуга оид бир нечта (11-12) сўз ёзилади ва бу сўзлар ўқиб эшиттирилади. Бир ёки икки дақиқадан сўнг сўзлар доскадан ўчириб ташланади. Ўқувчилар хотирасида қолган сўзларни дафтарга ёзадилар.
16	Кластер (“Тармоқлар”)	фикрларнинг тармоқланиши-педагогик стратегия бўлиб, у талаба(ёки ўқувчи)ларнинг бирон бир мавзунини чуқур ўрганишларига ёрдам бериб, уларни мавзуга тааллуқли тушунча ёки аниқ фикрларни эркин ва очик ўзвий боғлаган кетма-кетликда тармоқлашни ўргатади. Мазкур метод турли ғоялар ўртасидаги алоқалар тўғрисида фикрлаш имкониятини берувчи тузилмани аниқлашни талаб этади.”Кластер” методи аниқ объектга йўналтирилмаган фикрлаш шакли саналади.Ундан фойдаланиш инсон мия фаолиятининг ишлаш тамойили билан боғлиқ равишда амалга ошади.Ушбу метод муайян мавзунинг ўқувчилар томонидан чуқур ҳамда пухта ўзлаштирилгунига қадар фикрлаш фаолиятининг бир маромда бўлишини таъминлашга хизмат қилади. Бу метод пухта ўйланган стратегия бўлиб,ундан ўқувчилар билан яқка тартибда ёки гуруҳ асосида ташкил этиладиган машғулотлар жараёнида фойдаланиш мумкин. Метод гуруҳ асосида ташкил этилаётган машғулотларда ўқувчилар томонидан билдириладиган ғояларнинг умумлаштириш ва улар ўртасидаги алоқаларни топиш имкониятини яратади
17	Синквейн	берилган мавзу бўйича бир неча сўз орқали ўқув матнини баён қилиш методи.Мазкур методдан кўзланган мақсад бу мавзунини ўрганиш самарадорлигини оширишдан иборатдир. Бу метод- мавзуга оид бирор бир тушунчани беш қатордан иборат қофиясиз шеър орқали тасвирлаш бўлиб, биринчи қатор мавзуга оид битта жисм, атаманинг номидан иборат бўлади.Иккинчи қатор, икки сўздан иборат бўлиб, унда биринчи қатордаги жисм ёки атаманинг сифати ифодаланиши лозим.Учинчи қатор учта сўздан иборат бўлиб, унда биринчи қатордаги сўз билан боғлиқ ҳаракат акс этиши лозим.Тўртинчи қаторда мавзуга муносабатни билдирувчи 4 сўзли мисра ҳосил қилинади.Бешинчи қаторда биринчи сўзнинг синоними ёки биринчи сўзни изоҳловчи таъриф берилади. Мазкур методдан мавзунини мустаҳкамлаш босқичида фойдаланиш мумкин.
18	Гуруҳларда ишлаш	бу технология ўтилган ёки ўтиш лозим бўлган мавзунини яқка, кичик гуруҳларга бўлиб фикрлашга, ўзлаштирилган билимларни ёдга тушириб, тўпланган фикрни умумлаштириб олишга, уларни ёзма, расм, чизма кўринишда ифода қилишга ўргатади. Бу технология тақдирот усулида амалга оширилади. Бу усул ўқувчиларни эркин мустақил фикрлашга, жамоа бўлиб ишлашга , изланишга, фикрни жамлаб, кераклигини ажратиш олишга ўргатади.
19	Баҳслашув	технологияси- бу усулда гуруҳ аъзолари бирор муаммони ечиш (ёки билимларини ошириш, ёки мавзунини тушуниш) мақсадида ўз ғояларини оғзаки таклиф этадилар.Усулдан самарали фойдаланиш учун иштирокчилар муҳокама предметида оид етарли билим ва тажрибага эга бўлишлари лозим.
20	Тушунчалар таҳлили	ушбу услуб ўтилган(чорак, семестер ёки ўқув йилида тугаган)ўқув предмети ёки бўлим барча мавзуларни талаба ёки ўқувчилар томонидан ёдга олиш, бирон бир мавзу бўйича ўқитувчи томонидан берилган тушунчаларга мустақил равишда ўз изоҳларини бериш, шу орқали ўз билимларини текшириб баҳолашга имконият яратиш ва ўқитувчи томонидан қисқа вақт ичида барча талаба ёки ўқувчиларни баҳолай

		олишга йўналтирилган. Мазкур методдан ўқув машғулотларининг барча турларида (дарс бошланиши ёки дарс охирида, ёки ўқув предметининг бирон-бир бўлими тугалланганда) ўтилган мавзуни ўзлаштирганлик даржасини баҳолаш, такрорлаш, мустаҳкамлаш ёки оралиқ ва якуний назорат ўтказиш учун, шунингдек, янги мавзуни бошлашдан олдин талаба ёки ўқувчиларнинг билимларини текшириб олиш учун мўлжалланган. Ушбу услубни машғулот жараёнида ёки машғулотнинг бир қисмида яқка, кичик гуруҳ ҳамда жамоа шаклида ташкил этиш мумкин. Ушбу услубдан уйга вазифа беришда ҳам фойдаланса бўлади.
21	ФСМУ	(Ф-фикрингизни баён этинг; С-фикрингиз баёнига сабаб кўрсатинг; М-кўрсатган сабабингизни асословчи мисол келтиринг; У-фикрингизни умумлаштиринг.) технологияси. Ушбу технология мунозарали масалаларни ҳал этишда, баҳс-мунозаралар ўтказишда ёки ўқув-семинари якунида (талаба ёки ўқувчи) ларнинг ўқув машғулотлари ҳамда ўтилган мавзу ва бўлимлардаги баъзи мавзулар, муаммоларга нисбатан фикрларини билиш мақсадида) ёки ўқув режаси асосида бирор-бир бўлим ўрганилгач қўлланилиши мумкин. Чунки бу технология талаба(ёки ўқувчи)ларни ўз фикрини ҳимоя қилишга эркин фикрлаш ва ўз фикрини бошқаларга ўтказишга, очик ҳолда баҳслашишга, шу билан бир қаторда ўқувчи-талабалар томонидан ўқув жараёнида эгалланган билимларини таҳлил этишга ва эгалланганлик даражасини аниқлашга, баҳолашга ҳамда тингловчиларни баҳслашиш маданиятига ўргатади
22	Чархпалак	Ушбу технология ўқувчиларнинг ўтилган мавзуларни ёдга олишга, мантиқан фикрлаб, берилган саволларга мустақил равишда тўғри жавоб беришга ва ўз-ўзини баҳолашга ўргатишга ўқувчиларнинг эгаллаган билимларини баҳолашга қаратилган
23	Венн диаграммаси	ушбу метод ўқувчиларда мавзуга нисбатан таҳлилий ёндашув, айрим қисмлар негизида мавзунинг умумий моҳиятини ўзлаштириш(синтезлаш) кўникмаларини ҳосил қилишга йўналтирилади. Стратегия(метод) кичик гуруҳларни шакллантириш асосида схема бўйича амалга оширилади. Ёзув тахтаси ўзаро тенг тўрт бўлакка ажратилади ва ҳар бир бўлакка схема чизилади. Стратегия ўқувчилар томонидан ўзлаштирилган ўзаро яқин назарий билимлар, маълумотлар ёки далилларни қиёсий таҳлил этишга ёрдам беради. Ушбу стратегиядан маълум бўлим ёки боблар бўйича якуний дарсларни ташкил этишда фойдаланиш янада самаралидир.
24	Тақдимот	ахборот, назария ёки тамойилларни талаба ёки ўқувчиларга етказиш мақсадида эксперт томонидан ўтказиладиган тадбир. У турли (маъруза, савол бериш, мунозара юритиш) шаклларда ўтказилиши мумкин. Тақдимотнинг мазмуни услуб сифатида ўқитувчига кўпроқ боғлиқ бўлади
25	Биламан. Билишни хоҳлайман. Билиб олдим	Ушбу метод ўқувчиларга муайян мавзулар бўйича билимлари даражасини баҳолай олиш имконини беради. Методни қўллаш жараёнида ўқувчилар билан гуруҳли ёки оммавий ишлаш мумкин. Гуруҳ шаклида ишлашда машғулот якунида ҳар бир гуруҳ томонидан бажарилган фаолият таҳлил этилади.

Тадқиқотимиз жараёнида юқорида келтирилган интерфаол усул ва технологиялар асосида ташкил этилган дарслар натижасида ўқувчиларда ижтимоий-ҳуқуқий компетенциялар ҳамда қуйидаги ҳаётий кўникмалар шакллантирилишига эришилганлиги аниқланди:

Масъулият ва мослашувчанлик – шахснинг ўзида, иш ўрнида ва ҳамжамият миқёсида масъулиятли бўлиш ва мослашувчанликни машқ қилиш;

- **Мулоқот кўникмалари**—Турли хил шакл ва мазмундаги самарали оғзаки, ёзма ва мультимедиага асосланган мулоқотни англаш, бошқариш ва ижод қилиш
 - **Ижодийлик ва қизиқувчанлик** – Янги ғоялар ўйлаб чиқиш, уларни амалга ошириш ва бошқаларга ҳам маълум қилиш;
 - **Танқидий фикрлаш ва тизимли фикрлаш** – Масалани англашда ва мураккаб қарорлар қабул қилишда пухта далиллар келтиришдан фойдаланиш; тизимлар ўртасидаги узвий боғлиқликни англаш
 - **Ахборот ва оммавий ахборот воситаларидан фойдаланиш кўникмалари** – Турли хил шаклларда ва воситалар орқали ахборотларни таҳлил этиш, баҳолаш, бошқариш ва янги маълумотлар яратиш
- Масъулият ва мослашувчанлик** – Шахсининг ўзида, иш ўрнида ва ҳамжамият миқёсида масъулиятли бўлиш ва мослашувчанликни машқ қилиш;
- **Мулоқот кўникмалари**—Турли хил шакл ва мазмундаги самарали оғзаки, ёзма ва мультимедиага асосланган мулоқотни англаш, бошқариш ва ижод қилиш
 - **Ижодийлик ва қизиқувчанлик** – Янги ғоялар ўйлаб чиқиш, уларни амалга ошириш ва бошқаларга ҳам маълум қилиш;
 - **Танқидий фикрлаш ва тизимли фикрлаш** – Масалани англашда ва мураккаб қарорлар қабул қилишда пухта далиллар келтиришдан фойдаланиш; тизимлар ўртасидаги узвий боғлиқликни англаш
 - **Ахборот ва оммавий ахборот воситаларидан фойдаланиш кўникмалари** – Турли хил шаклларда ва воситалар орқали ахборотларни таҳлил этиш, баҳолаш, бошқариш ва янги маълумотлар яратиш

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, тажриба – синов даврида бошланғич синф Тарбия дарслари орқали ўқувчиларида ижтимоий-ҳукукий компетенцияларни шакллантиришга оид яратилган методика ва тавсиялар ғоявий-назарий, амалий-методик нуқтаи назардан тўғри танланган. Шунингдек, тадқиқотни мавжуд илмий-педагогик ва методик талабларни инобатга олган ҳолда ташкил этиш унинг самарадорлигини кафолатловчи омил сифатида эътироф этилди.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – 46 б.
2. Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 6 июлдаги 422-сон Қарорига 3-илова Умумий ўрта таълим муассасалари ўқувчилари учун «Тарбия» фани концепцияси.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 06.04.2017 йилдаги "Умумий ўрта ва ўрта махсус таълимнинг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида" 187-сонли Қарори.
4. Бошланғич синф 1,2,3,4-“Тарбия” дарсликлари. 2020 й.
5. Ҳакимова Н.С. Бошланғич синф тарбия дарсларида инновацион методлардан фойдаланиш орқали ўқувчиларни ижтимоий ҳаётга тайёрлаш /“Таълим жараёнига рақамли технологиялар ва замонавий усулларни жорий этишда таълим сифатини бошқариш муаммолари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. Қўкон 2022 й. 15 май.
6. Ҳакимова Н.С. Бошланғич синфларда ўқувчиларни ижтимоий ҳаётга тайёрлашда шарқ алломалари асарларидан фойдаланиш аҳамияти /«Замонавий узлуксиз таълимни рақамлаштириш: педагогика соҳасида замонавий тенденциялар ва ривожланиш омиллари» мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман материаллари. Андижон 2022 й. 12-13 апрель.

ШАВКАТОВА Дилбар Шавкатовна

Навоий давлат педагогика институти
магистранти

БЎЛАЖАК ҲЎҚИТУВЧИЛАРНИ КАСБИЙ ҲЗ-ҲЗИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ТИЗИМИ

Ушбу мақолада Ҳқитувчи шахсининг касбий такомиллашуви муаммоси тўғрисида сўз юритилади. Шунингдек, мақолада касбий-педагогик такомиллашувнинг асосий босқичлари очиб берилади.

Калит сўзлар: педагог, интеллектуал салоҳият, фаолият, касбий сифатлар, концептуал, мотивлаштириш, даража, адаптация, коммуникатив, мотивлаштириш.

СИСТЕМА ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО САМОРАЗВИТИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

В данной статье рассматривается проблема профессионального развития педагога. Также в статье раскрываются основные этапы профессионально-педагогического совершенствования.

Ключевые слова: педагог, интеллектуальный потенциал, деятельность, профессиональные качества, концептуальные, мотивация, уровень, адаптация, коммуникативная, мотивация.

SYSTEM OF PROFESSIONAL SELF-DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS

This article deals with the problem of professional development of a teacher. The article also reveals the main stages of professional and pedagogical improvement.

Key words: teacher, intellectual potential, activity, professional qualities, conceptual, motivation, level, adaptation, communicative, motivation.

Кириш. “Интеллектуал салоҳият асри” деб ном олган ХХІ асрда яшаб фаолият кўрсатаётган педагог-Ҳқитувчилар, улар қайси фан вакили бўлишларидан қатъий назар, жуда юксак масъулият ва оғир юкни зиммаларига олганларки, бу масъулиятли вазифани бажариш учун фақат олий таълимда олган билимлари ёки кундалик фаолият тажрибасининг Ҳзи кифоя қилмайди. Ҳз касбининг моҳир билимдони, устаси бўлиш учун, илғор, инновацион тажрибаларнинг асосчиси, тарғиботчиси бўлиши учун мунтазам равишда Ҳз-Ҳзини касбий такомиллаштириб бориш талаб этилади.

Ҳқитувчининг касбий Ҳз-Ҳзини такомиллаштириш жараёни касбий-педагогик фаолият меъёри ва асосий функцияларидан бири сифатида қаралганда унинг моҳияти ва лойиҳаланишига алоҳида эътибор бериш лозим бўлади.

Ҳқитувчи шахсининг касбий такомиллашуви – бу педагогик фаолиятнинг таркибий тузилмаси ва Ҳзига хос жиҳатларини яхлит ифода этадиган касбий аҳамиятга молик сифатлар мажмуини шакллантириш жараёнидир.

Бунда Ҳз-Ҳзини такомиллаштириш жараёни ижтимоий муҳит таъсирининг Ҳқитувчи шахси ривожланиши ички шарт-шароитлари орқали сингиб ўтиши билан кечади. Касбий ролини англаш, қабул қилиниши мумкин бўлган педагогик қарорларни ва уларнинг оқибатини англаш, Ҳз касбий фаолиятини умумлаштириш ва унинг истикболларини башорат қилиш, Ҳз-Ҳзини назорат қилиш ва такомиллаштириш малакалари – буларнинг барчаси уста-педагог ривожланишининг манбаи бўлиб ҳисобланади.

Асосий қисм. Касбий аҳамиятга эга бўлган сифатлар педагог шахсининг ижтимоийлашуви жараёнида шаклланади, Ҳзгаради, заифлашади ёки кучайиб боради (Ҳқитувчи шахсининг касбий ижтимоийлашуви – касбий тажриба ва маданиятни Ҳзлаштириш), индивидуаллашади (Ҳқитувчи шахсининг индивидуаллашуви – касбий муносабатларни Ҳзлаштиришнинг бетақдор шахсий усул ва шакллари). Бу жараёнда Ҳқитувчи бир вақтнинг Ҳзида ҳам касбий аҳамиятга молик сифатларни ташувчи ва олиб боровчи сифатида, ҳам ижтимоий шарт-шароит таъсири объекти ва шу билан бирга педагогик фаолият ва Ҳз-Ҳзини шакллантириш субъекти сифатида майдонга чиқади.

Ҳқитувчи шахсининг касбий такомиллашуви қуйидаги кўрсаткичларга эга: а) ички тузилиши – бу Ҳқитувчининг касбий фаолиятга киришуви изчиллиги билан белгиланади; б) йўналганлик – бу тизимли сифатлар бўлиб, касбга муносабат, касбий фаолият кўрсатишга эҳтиёж ва унга тайёрлик

билан белгиланади; в) зиддиятлар – бу касбий ривожланишнинг объектив ва субъектив омиллари ва асосини ташкил этади; педагог шахсини касбий такомиллашувидаги асосий зиддиятлар – бу шахснинг шаклланган сифатлари ва объектив мавжуд бўлган талаблар ўртасида пайдо бўладиган зиддиятлар бўлиб ҳисобланади; г) касбий аҳамиятга молик сифатларни шаклланишининг нотекислиги бўлиб, бу касбий такомиллашувнинг ҳар бир босқичида топшириқларнинг турличалиги – билув тошириқлари, ахлокий-маънавий, коммуникатив, меҳнат, кадриятли топшириқлар қўйилиши билан белгиланади; д) айна пайтдаги ривожланиш босқичи натижаларининг кейингисига акс таъсири; касбий шаклланиш ютуқларининг педагог шахсига таъсири уни янада такомиллаштиришнинг иккиламчи шарти сифатида майдонга чиқади.

Касбий қимматга эга сифатлар умумкасбийдан индивидуалга “кўчириш” орқали ривожлантирилади. Улар транзит хусусиятга эга бўлиб, касбий такомиллашувнинг бир босқичидан иккинчисига ўтиб боради. Унинг асосида педагог касбий фаолиятининг барқарор усул ва шакллари ва ҳулқ-атвори, унинг ҳаёт тарзи ётади. Касбий қимматга эга сифатларнинг шаклланганлик даражаси педагог шахси касбий такомиллашуви мезони бўлиб, у педагог касбий фаолият даражасига нисбатан қаралади ва бу фаолият меъёрларини қанчалик эгаллаганликни кўрсатади.

Ўқитувчининг мустақил тайёргарлиги жараёнини лойиҳалаш бир неча босқичларни ўз ичига олади:

1-босқич: мотивлаштириш – касб-корга оид мақсаднинг шаклланиши, касб танлаш;

2-босқич: концептуал – танланган касбнинг мазмун ва моҳиятини англаш, айна пайтдаги ривожланиш даражасини ташхис қилиб, касбий ўз-ўзини такомиллаштириш дастури лойиҳасини тайёрлаш;

3-босқич: лойиҳани амалга ошириш – ўз-ўзини такомиллаштириш бўйича амалий фаолият;

4-босқич: рефлексив-ташхислаш – оралик ва якуний ташхис, натижаларни таҳлил қилиш, ўз-ўзини такомиллаштириш дастурини коррекциялаш, профессионализм ва педагогик маҳоратни эгаллаш даражасига кўтарилиш.

Ҳар бир босқич шахснинг касбий такомиллашувида улкан сифат ўзгаришларини содир этиши кўзда тутилади. Ушбу босқичлар махсус вазифа ва мазмунга эга бўлади. Топшириқларни муваффақиятли бажариш психологик механизмлар ва касбий аҳамиятга эга бўлган сифатларнинг барқарорлашувига олиб келади. Шу тариқа педагог шахсининг касбий такомиллашуви касбий-педагогик топшириқларни ҳал этишдаги сифат кўрсаткичларининг юқори бўлишини ҳам таъминлайди.

Ўқитувчи шахсининг касбий такомиллашув жараёни (агар барча босқичлар тўла амалга оширилса) ё тўлақонли (гармоник) бўлади, ёки (агар ўқитувчи фақат бир неча босқичларнигина ўтаган бўлса) чегараланган бўлади.

Мотивлаштириш босқичида – касбий мақсаднинг шаклланиши – ўқувчилар (касб-ҳунар таълими босқичидаги) танланаётган касбнинг ижтимоий аҳамияти, касбий тайёргарлик шакл ва усуллари, ушбу касб эгасига қўйиладиган касбий талаблар тўғрисида тўлиқ тасаввур ҳосил қилишлари лозим бўлади.

Иккинчи босқичда касбий ўз-ўзини англаш жараёни кеча бошлайди. Бу жуда мураккаб ва узок давом этадиган жараён бўлиб, бунда шахс касб дунёсида ўз ўрнини қикдира бошлайди, муайян фаолият субъекти сифатида ўзига бўлган муносабати, ўз жисмоний, ақлий имкониятлари, қизиқишлари, майллари тўғрисидаги фикрлари шакллана бошлайди, индивидуал касбий тараққиёт траекторияси ривожланади.

Касбий такомиллашувнинг илк босқичларида ижтимоий вазиятлар ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлиб, улар педагог шахсида ижодий фаолликни таъминлайди.

Учинчи босқичда касбий-педагогик йўналганлик, касбий билим, кўникма ва малакалар тизими шаклланади, ўқитувчи типик педагогик топшириқларни ечиш усуллари эгаллайди. Касбий адаптация (мослашув) босқичи фаолият меъёрларини ўзлаштиришга йўналганлиги, касбий билим, кўникма ва фаолиятни бажаришдаги умумий усулларнинг эгалланганлиги билан характерланади.

Тўртинчи босқич ўз-ўзини ташхислашни ва касбий тайёргарликнинг бир қадар юқори даражасига кўтарилишни назарда тутди. Касбий шаклланишнинг ушбу босқичида меъёрий фаолиятнинг мўътадиллашуви, касбий позициянинг шаклланиши содир бўлади, шунингдек, шахсий сифатлар ҳамда билим, кўника ва малакаларнинг интегратив мажмуи шаклланади ва булар педагогик фаолиятни ижодий даражада бажара олишнинг самарали услуби пайдо бўлишига олиб келади.

Шахснинг интеграллашган касбий аҳамиятга молик хусусиятларининг таркиб топиб бориши маҳорат босқичида давом эта боради. Уларнинг тугал шаклланишида шахснинг ўз фаоллиги ҳал қилувчи ўрин эгаллайди. Меъёридан ортиқ фаолликни намоён қила туриб ўқитувчи ўзида мавжуд

бўлган фаолият усуллари ўзгартиради, уни такомиллаштиради, яъни ўз фаолият усуллари янада самаралироқ – ижодийлик даражасига кўтаради ва шахс фаоллигининг юқори кўрсаткичини намоён қилади.

Хулоса. Шунинг алоҳида таъкидлаш жоизки, касбий тараққиётнинг муайян босқичига кўтарилган шахс ўзини прогрессив ривожлантириш жараёни тўхтатиб қўйиши мумкин. Бунда стагнация¹ ҳолати бошланиш хавфи пайдо бўлади. Ўқитувчи шахси касбий такомиллашувидаги стагнация ҳолатининг асосий омили педагогик тизимнинг таълим жараёни билан чекланиб қолганлигида намоён бўлади. Бундай стагнация ҳолатини бартараф этиш учун ўқитувчи фақат ўқувчи шахси билан ишлашда чекланиб қолмасдан ўз шахси билан ҳам мунтазам ишлашни давом эттириб бориши лозим бўлади. Ўз-ўзини касбий такомиллаштиришнинг юқорида кўрсатилган босқичларини ўташдан кўзланган асосий мақсад фақат ўзида муайян касбий билим, кўникма ва малакаларни, касбий сифатларни ҳосил қилишгина бўлиб қолмай, балки, асосан, мунтазам ўз-ўзини такомиллаштириб бориш кўникмаларини шакллантириш ҳам бўлиб ҳисобланади.

Шунинг учун ҳам бугунги кунда Республикамизда узлуксиз равишда педагог кадрлар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш тизимини такомиллаштиришга катта эътибор қаратилмоқда. Галдаги вазифа ўқитувчи-педагогларнинг ушбу тизимга онгли муносабатини таркиб топтиришдан иборатдир.

Адабиётлар:

1. Боровиков Л.И. Как подготовить самоанализ профессиональной деятельности//Воспитание школьников. - 2004.- № 5.
2. Психологический словарь. – М., 1981. - С. 702.
3. Рогов Е.И. Личность учителя: теория и практика. - Ростов-на-Дону: «Феникс», 1996. – С. 174.
4. Степанов П.В., Григорьев Д.В., Кулешова И.В. Диагностика и мониторинг процесса воспитания в школе / Под ред. Н.Л.Селивановой, В.М.Лизинского. М.: 2003, с.74.

¹ Стагнация – (лот. *stagnare* - ҳаракатсизлантираман, тўхтатиб қўяман, лот. *stagnum* – турғун сув) инсоннинг ижтимоий ўсиши ва маданиятдаги турғунлик ҳолати ёки социум (халқ)нинг юқори лавозимдаги раҳбарият (ҳокимият) томонидан сунъий йўллар билан оммавий камситилиши деган маъноларни билдиради.

ЭЛОВ Зиёдулло Сатторович

Бухоро давлат университети
Психология ва социология кафедраси ўқитувчиси,
психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

**ДЕВИАНТ ХУЛҚ-АТВОРЛИ ЎСМИРЛАРДА КУЗАТИЛАДИГАН ПСИХОЛОГИК
ЎЗГАРИШЛАРИНИНГ ЁШ БИЛАН БОҒЛИҚ ХУСУСИЯТЛАРИ**
(Вояга етмаганларга ижтимоий ҳимоя кўрсатиш маркази тарбияланувчилари мисолида)

Мақолада девиант хулқ-атвори ўсмир шахсида кузатиладиган айрим психологик ўзгаришларнинг унинг ёши даври билан боғлиқ хусусиятларига тўхталиб ўтилган. Шунингдек, бугунги жамиятда, тарбияси оғир ўсмирлар муаммоси ва унинг ўзига хос хусусиятлари, девиант хулқ юзага келишининг айрим психологик сабабларига тўхталиб ўтилган бўлиб, ушбу муаммонинг илмий адабиётларда ўрганилиш жараёни ҳақида фикр юритилган. Шунингдек, мақолада девиант хулқ шаклланиш жараёнида ўсмир хулқ-атворида ўз жонига қасд қилиш сабаблари ҳақида фикр юритилган.

Калит сўзлар: девиант, ирсий, биологик, ижтимоий, тарбияси оғир, шахс, туғма касалликлар, инстинкт.

**ВОЗРАСТНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ,
НАБЛЮДАЕМЫХ У ПОДРОСТКОВ С ДЕВИАНТНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ**
(На примере воспитанников центра социальной защиты несовершеннолетних)

В статье акцентируется внимание на возрастных особенностях некоторых психологических изменений, наблюдаемых у подростка с девиантным поведением. Также была затронута проблема подростков с трудным воспитанием и ее специфические особенности, некоторые психологические причины возникновения девиантного поведения в современном обществе, обсуждены процессы изучения данной проблемы в научной литературе. В статье также рассматриваются причины суицидального поведения подростков в период формирования девиантного поведения.

Ключевые слова: девиантный, наследственный, биологический, социальный, тяжёлое воспитание, личность, врождённые заболевания, инстинкт.

**DEVARIANT BEHAVIOR - AGE-RELATED CHARACTERISTICS OF PSYCHOLOGICAL
CHANGES OBSERVED IN DEVIANT ADOLESCENTS**
(In the example of students of the center for social protection for minors)

The article focuses on the age-related characteristics of some psychological changes observed in an adolescent with deviant behavior. Also, the problem of teenagers with difficult upbringing and its specific characteristics, some psychological reasons for the emergence of deviant behavior were touched upon in today's society, and the processes of studying this problem in scientific literature were discussed. The article also discusses the causes of suicide in adolescent behavior during the formation of deviant behavior.

Keywords: deviant, hereditary, biological, social, difficult upbringing, personality, congenital diseases, instinct,

Кириш. Инсоният XXI асрда коинот ва табиат билан яхлит эканини янада кучлироқ ҳис этди. Цивилизация ривожланган сари инсоният тафаккуридаги ёндашув яққол кўзга ташланмоқда ва гуманистик ғояларнинг ҳимояга муҳтожлиги сезилмоқда.

Глобаллашув оқибатида турли маънавий таҳдидлар пайдо бўлдики, улар инсоният ҳавфсизлигини, давлатларнинг миллий манфаатларини, келгуси авлодларнинг барқарор келажагини таъминлаш йўлидаги жиддий хатарга айланди. Бугун ер юзида сиёсий, иқтисодий, ижтимоий мақсадлар кўзланган ана шундай уринишлар натижасида катта маънавий йўқотишлар юз бераётгани, миллатларнинг асрий қадриятлари, миллий тафаккури ва яшаш тарзи издан чиқаётгани, маънавияти жиддий ҳавф остида қолаётганини кузатиш мумкин.

Маънавий таҳдидлар – бу инсонларнинг маънавий олами, руҳиятини издан чиқаришга қаратилган турли шаклдаги ғоявий, мафкуравий, ахборот хуружларидир.

Маънавий таҳдиднинг ёрқин кўриниши оммавий маданиятдир. Ҳозирги даврга келиб оммавий маданият миллий давлатчилик тизимларига жиддий хавф сола бошлади. Инсонни маънавий юксалтирадиган ҳақиқий маънавиятдан фарқли равишда оммавий маданият шахснинг интеллектуал, эстетик, ахлоқий деградациясини кучайтиради.

Оммавий маданиятнинг қуйидаги ижтимоий шакллари мавжуд: индивидуализм, шахсий манфаатларни ҳар нарсадан устун қўйиш, эгоцентризм, эркин муҳаббат ғояси, зўравонликка асосланган компьютер ўйинлари, тижорат кинофильмлари, эстетик савияси паст бўлган, маънавий озик бермайдиган бадиий асарлар, жамият анъаналарига зид равишда либослар кийиш, пирсинг, татуаж, хорижда ишлаб чиқарилган миллий табиатимизга ёт бўлган қўғирчоқлар, ўйинчоқлар ва бошқалар. Ёшлар орасида кенг тарқалаётган хиппи, эмо, гот, неофашизм каби субмаданият турлари ҳам оммавий маданиятнинг салбий кўринишидир.

Ахлоқсизликни маданият деб билиш, асл маънавий қадриятларни менсимасликнинг бундай ҳолатлари ёшлар тарбиясига катта хавф солмоқда. Шунинг учун ҳам миллий ғоялар, ҳақиқий қадриятлар тизимини ривожлантириш мақсадга мувофиқ.

Маълумки, шахс маънавий камолотида оилавий тарбиянинг ўрни бекиёс. Оиланинг болаларга тарбиявий таъсир доираси ижтимоий таъсир доираси жуда муҳим ҳисобланади. Бироқ, кейинги пайтда оилада фарзандлар тарбиясида, уларни камол топтиришда бир қатор муаммоларга дуч келинмоқда. Ота-оналар ва фарзандлар ўртасидаги салбий муносабатлар болаларда хулқ оғиши ҳамда психосоматик касалликларнинг келиб чиқишига сабаб бўлиши мумкин.

Шахснинг оғишган хулқи ёки девиант ахлоқ (*deviatio* – латинча “оғишмоқ”) – бу умумий қабул қилинган ёки расман ўрнатилган ижтимоий меъёрларга мос тушмайдиган ахлоқ шаклидир.

Айнан мана шундай таъсирлар жараёни, бугун жамиятда тарбияси оғир ўсмирлар муаммосини келтириб чиқараётганлиги бу психологик тадқиқотлар самарасини янада оширади.

Тарбияси оғир болалар муаммоси азалдан энг долзарб муаммолардан бири бўлиб келган. Бу муаммонинг юзага келиш сабабларини чуқур таҳлил қилар эканмиз, энг аввало, туғилган боланинг уни дунёга келтирган шахсларнинг кимлиги, иккинчидан, у қандай ижтимоий муҳитда туғилиб вояга етиб, улғайётганлигига эътиборни қаратишимиз лозимдир.

Адабиётлар таҳлили ва мулоҳазалар. Собик Иттифоқ даврида шахс хулқ-атворига ирсий омиллар ва унинг табиий хусусиятларини таъсир қилиши ҳақидаги қарашлар инкор этилар эди. Бироқ, Н.П.Дубинин, В.П.Эфроимсон, Н.С.Канстонистов, Б.Ф.Сергеев ва бошқа генетикларнинг билдиришича, шахснинг генетик хусусиятлари, ундаги баъзи туғма касалликлар ва хусусиятлар ҳам шахс хулқ-атворининг шаклланишига бевосита ва билвосита таъсир этилишини эътироф этганлар. Кўпчиликнинг фикрига қараганда охириги пайтларда тарбияси оғир болалар билан боғлиқ муаммоларнинг тез-тез учраб туриши ва улар сонининг кескин ошганлиги таъкидланади. Шунингдек, бу муаммони бир қанча ташқи сабабларга боғлаш мумкин, яъни, ҳозирги вақтда ахборот оқимининг юқорилиги (узлуксиз телевизор кўриш, компьютердаги ҳар хил ўйинлар эпизотларига таклид қилиш, интернет тизимидаги норасмий сайтлар орқали ҳар хил номақбул ахборотларни ўзлаштириши) ёки катталарнинг эътиборидан четда бўлиши, оиладаги кризис ва бошқалар.

Бу омилларни инкор этмаган ҳолда, мазкур муаммонинг туб сабабларини боланинг психик тараққиётдан қидириш лозим. Ҳеч кимга сир эмаски, бугунги кун болалари ўзларининг йигирма йил олдинги тенгдошларидан фарқ қилишади. Ҳозирги ёшлар тез таъсирланувчан, мустақилликка мойиллиги юқорилиги ва шу билан бирга нисбатан бефарқ, ўз вақтларини мазмунли ижтимоий фойдали фаолиятга сарфлагилари келмайди. Ваҳоланки, инсон табитан ўзига хос осон ва кўнгил очар машғулотларга мойил бўлади. Инсон хулқ-атвори таркибининг аксарияти табиий инстинктлари тазйиқи остида бўлишини инобатга олиниши керак. Ушбу тазйиқларни тўғри мувофиқлаштириш инсондан иродавийликни талаб қилади. Бу ҳолатни замонавий техниканинг ривожланганлиги таъсири деб ҳам изоҳлаш мумкиндир.

Кўпчилик ҳолларда болалардаги бу ўзгаришларга эътиборсизлик ва бефарқлик уларнинг хулқ-атворида салбий оғишларининг бошланғич сабаби ва асоси бўлиши мумкин.

Инсоннинг табиатини ўзгартирадиган, унинг шахсини таркиб топишига таъсир қиладиган куч ижтимоий омиллар ёки бошқачароқ қилиб айтганда, жамият ишлаб чиқариш кучлари, ҳамда ишлаб чиқариш муносабатларининг ўсиши ва ўзгаришидир. Бундан ташқари яна инсон шахсининг таркиб топишига таъсир қилувчи кучли омил – инсон орттирган тажрибаларнинг тарбия воситаси орқали болаларга берилишидир. Шундай қилиб, инсон шахси жуда мураккаб психологик категория бўлиб, у кишининг индивидуал ҳаёти давомида маълум омилларнинг таъсири остида секин-аста таркиб топади. Илмий манбаларга қараганда инсон шахси учта факторлар таъсирида таркиб топади. Улардан биринчиси одам туғилиб ўсадиган ташқи ижтимоий муҳитнинг таъсири бўлса, иккинчиси одамга

узоқ муддат давомида системали бериладиган ижтимоий таълим-тарбиянинг таъсиридир ва ниҳоят, учинчиси одамга наслий йўл билан берадиган ирсий омилларнинг таъсиридир. Шундай қилиб, инсоннинг психик тараққиётида ва шахсий сифатларининг таркиб топишида ташқи ижтимоий муҳит ва тарбиянинг роли ҳал қилувчи аҳамиятга эгадир.

Лекин, инсон шахсининг таркиб топиши, юқорида айтиб ўтганимиздек, фақат шу иккита факторга эмас, балки учинчи бир факторга ҳам боғлиқдир. Бу фактор наслий йўл билан айрим анатомик ва биологик хусусиятларнинг таъсиридир. Одамга наслий йўл билан айрим анатомик ва биологик хусусиятлар берилади. Масалан: танасининг тузилиши, сочи ва кўзларининг ранги овози, гапириш услублари, айрим ҳаракатлари туғма равишда берилиши мумкин. Маълумки, одамга ҳеч вақт унинг психик хусусиятлари, яъни унинг ақлий томонлари билан боғлиқ бўлган сифатлари наслий йўл билан берилмайди, деб изоҳланади. Лекин, шуни ҳеч қачон эсадан чиқармаслик керакки реал ҳаётда кўпинча инсоннинг характер хусусиятидаги салбий оғишлар унинг наслий таркиби билан боғлиқ эканлигига амин бўламиз.

Хулоса. Таълим муассасаларида хулқ оғишига эга бўлган болалар ва ўсмирлар ўртасида олиб бориладиган тарбиявий тадбирларнинг самарадорлиги уларда фаол ҳаётий позицияни шакллантириш, ўқувчи ва ўқитувчи ўртасида ўзаро яқинлик ва соғлом муносабатни ўрнатишга боғлиқдир. Шунинг учун ўқитувчининг бераётган эътиборини, уларни ўзларига яқин олаётганлигини ва ёрдам бермоқчи бўлаётганлигини ўсмир ҳар доим ҳис қилиб туриши муҳим ҳисобланади.

Болаларга профилактик таъсир кўрсатишда ўсмирнинг шахс сифатидаги шаклланиши жараёнини, унинг ўзига хос хусусиятларини, характер хислатлари ва психологиясини ҳисобга олган ҳолда иш тутиш яхши натижа беришини унутмаслик лозим.

Инсоннинг шахс сифатида шаклланиши унинг биологик ва ижтимоий омилларига боғлиқ экан. Демак, болалар хулқ-атворининг салбий томонга оғишида ҳам бевосита ўзига хос юқоридаги икки омилнинг ўрни бор. Боланинг хулқ-атвори кўпинча ўз олдида қуйган мақсадлари, қизиқишлари, идеаллари ва эътиқодлари мажмуида яққол намоён бўлади. Хулқ-атвордаги ўзгаришлар бевосита ёш қоизис даврларининг кечиши билан боғлиқ юз бериши табиийдир. Шундай қилиб боладаги салбий иллатларни олдини олиш ва уларни бартараф этишда қуйидагиларга эътиборни қаратиш зарур:

- **биринчи ўринда**, ҳар бир ёш даврни ўзига хос психологик ривожланиш даражаларини аниқлаб олиш лозим.

- **иккинчи ўринда**, болани тарбиясидаги содир бўлаётган салбий ўзгаришларни ўрганиб чиқиш керак.

- **учинчи ўринда**, тарбияси оғир болаларнинг психологик ривожланишини меъёрлаштиришга йўналтирилган махсус тадбирларни ишлаб чиқиш лозимдир.

Олимлар томонидан таъкидланишича, инсон ёш даврларини таҳлил қилиш, уларнинг ҳар бир бола, ўсмир ва ўспирин ҳаётини чуқур ўрганишдан бошланади. Бу эса ёш даврларининг характер хусусиятларидаги ўзгаришларини психологик қонуният асосида амалга ошишини билиш мақсадга мувофиқдир. Америкалик психолог А.Гезелл ўсмир ёшининг даврланишига алоҳида эътибор қаратиб, ўзига хос хусусиятларни шарҳлаб ўтган эди. Масалан:

10 ёш ўсмирлар мувозанатли ҳаётни тез идрок этувчи, ишонувчан, ота-оналарига итоатли, ташқи қиёфага эътиборсиз бўлганлиги боис бу “олтин ёш” ҳисобланади.

11 ёш организмда қайта қуриш юз беради, болалар ғайри шуурли, негативликни намоён қилади, кайфияти тез ўзгаради, отаоналарига нисбатан норозилик билдирувчи.

12 ёш тез жазавага тушувчан, дунёга нисбатан ижобий муносабат шаклланади, ўсмирда оиласига нисбатан автономлик ва тенгдошларига таъсири ортади. Уларда ақллилик, ҳазил-мутуйибага мойиллик, чидамлилиқ, ташаббускорлик, ташқи қиёфа ва қарамақарши жинсдагиларга эътибори орта бошлайди.

13 ёш ўзининг ички дунёсига эътиборлик, интровертликка хос бўладики, улар ўзини ўзи танқид қилишга, ва танқидларга нисбатан таъсирланувчан, ота-оналарга танқидий муносабат билдирувчи, дўст танловчи, тўлқинланиш ва ҳаёжонланиш ортади.

14 ёш ўсмирлардаги интроверсия экстраверсияга алмашинади, шижоатли, хушмуомила, ўзига ишонч уйғонади, бошқаларга эътибори ортади ва улар ўртасидаги фарқни ажрата бошлайди.

15 ёш бу ёшдагилар учун мустақиллик ортади, бу эса уларнинг оила ва мактаб билан боғлиқ зўриқишларга дучор этади. Уларни гуруҳли ҳаракат қилишга ва гуруҳдагиларга мослашишга интилиш ортади.

16 ёш ўспиринлар ҳисобланиб, уларда мувозанатлашув, ҳаётдан қувониш, ички мустақиллик, эмоционал барқарорлик, муомалага мойиллик, келажакка интилувчанлик ортади.

Хулоса. Юқорида санаб ўтилган ҳолатлар билан ёш даврларни характерли жиҳатларини шарҳлаб ўтдик, чунки ёш хусусиятларининг психологик тавсифи, болаларни хулқ-атворидаги ўзгаришларини баҳолаш имкониятини беради.

Адабиётлар:

1. Норбек Тайлоқов. Вояга етмаганлар ўртасида суицид ҳолатларини олдини олиш. Методик қўлланма. Тошкент 2017 й.
2. Elov Z.S. Psychological influence of speech disorders and the causes that cause them on the child's psyche. *Academicia Globe: Inderscience Research*. volume 3 , Issue 1 , January-2022 39-42.
3. Elov Z.S. O‘smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta’siri. *Science and Education*. №3 442-447.
4. Элов З.С. Суицидал хулқ шаклланишининг илмий адабиётларда ўрганилиши: назарий таҳлиллар. // ЎзМУ хабарлари. 2016 269-271.
5. F.F.Usmonov. Z.S.Elov. Suicide—as a global problem facing humanity. // *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 3 (02), 349-354.
6. Berdiyeva D.Sh., Elov Z.S. Psychological reasons for suicide motivation in adolescents with deviant behavior. // *Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal*. Volume 2, Issue 2 February 2022. 1003-1009.

МУРОДОВА Раъно Буруновна

Преподаватель кафедры
«Информационные системы и цифровые
технологии» Бухарского государственного
университета

ЭШАНКУЛОВ Хамза Илхомович

Доцент кафедры «Прикладная математика и
технологии программирования» Бухарского
государственного университета

INFORMATION AND COMMUNICATION MEANS USED IN THE ORGANIZATION OF DISTANCE EDUCATION

This article analyzes modern information technologies, which are widely used in distance education today, about their elements and features. Today, the distance form of education is widely practiced all over the world. In this form of education, it is necessary to use information and communication technologies and software tools for high-quality and effective training of young students. Education is one of the fastest growing economic and social sectors in the world, and the use of new technologies is one of the main factors in the development of this education. Therefore, it is possible to improve the quality of education by applying new technologies to the educational process.

Keywords: virtual worlds, distance learning, audio, video, multimedia

ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫЕ СРЕДСТВА, ИСПОЛЪЗУЕМЫЕ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье анализируются современные информационные технологии, которые сегодня широко используются в дистанционном образовании, об их элементах и особенностях. Сегодня во всём мире широко практикуется дистанционная форма обучения. В этой форме обучения необходимо использование информационно-коммуникационных технологий и программных средств для качественной и эффективной подготовки студенческой молодёжи. Образование является одним из самых быстрорастущих экономических и социальных секторов в мире, и использование новых технологий является одним из основных факторов развития этого образования. Следовательно, можно повысить качество образования, применяя к образовательному процессу новые технологии.

Ключевые слова: виртуальный мир, дистанционное обучение, аудио, видео, мультимедиа

MASOFAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA TADBIQ QILINADIGAN AXBOROT KOMMUNIKATSION VOSITALAR

Ushbu maqolada bugungi kunda masofaviy ta'limda keng qo'llaniladigan zamonaviy axborot texnologiyalari ularning elementlari va xususiyatlari to'grisida tahlillar keltirilgan. Bugungi kunda ta'limning masofaviy shakli butun dunyoda keng qamrovlar asosida tatbiq qilib kelinmoqda. Ushbu ta'lim shaklida talaba yoshlarni sifatli hamda samarali o'qitish uchun, albatta, axborot kommunikatsion texnologiyalar hamda dasturiy vositalardan foydalanish zarur hisoblanadi. Ta'lim dunyodagi eng tez rivojlanayotgan iqtisodiy va ijtimoiy sohalaridan biri bo'lib, yangi texnologiyalardan foydalanish bu ta'limning rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun yangi texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq qilish orqali ta'lim sifatini oshirish mumkin.

Kalit so'zlar: virtual olam, masofaviy ta'lim, audio, video, multimedia

Introduction. Multimedia applications have long been popular on both the Internet and in combination with streaming audio and video podcasts, such as many music sites or video sites how youtube, are opening up another capabilities per teachers [1,2]. Audio chat using Skype has become commonplace, and web conferencing used per education as well as per creation podcasts [3,4]. Possibilities of using the new portable mobile phone of the third generation technologies are also studied along with blogs, wikis, learning objects, digital games, as well as virtual worlds [5,6].

Main part. Many of these applications blend seamlessly into the latest social networking sites such as Facebook, MySpace and Bebo. These places permit pupils, in classes or as informal students, to create an online community [7].

Multimedia on the our the Internet. Multimedia includes text, graphic arts, as well as audio and combines them with a computer. Nearly every personal computer built today is capable of playing

multimedia presentations for entertainment, advertising or education.

With the advent of *streaming media* in the last five or six years, however, large media files can now be delivered even via modem connections. Streaming media is internet data transfer method that facilitates the transfer of audio and video files from computer to computer in a "stream". Streaming media packages can be played as soon as the data begins to arrive at the receiving computer -users do not have to wait for the complete file to be downloaded. Streaming audio has proven to be more successful than video, which were limited to small size images or low resolution videos . projection , but as bandwidth increases, better quality, full screen video becomes possible.

Google Classroom. Google Classroom has become popular among many higher education institutions that provide distance learning to students. With this learning technology, teachers can create a "classroom" where employees can participate in various training sessions and access their assigned lectures. With resources and tools created by Google, you can assign a variety of creative projects and hands-on learning to engage students. Additionally, the app provides cross-software integration with your favorite third-party apps like Bakpax and BookWidgets, making it easy to share files and documents. Since the app is made by Google, it can easily be used with Google Meet, Google Docs and other apps for better usage.

WizIQ. WizIQ is a distance learning platform that provides you with a virtual classroom and LMS all in one place. You can use surveys, quizzes, and interactive whiteboards to increase student engagement. This online learning platform makes learning easy as all you need is to create your own learning portal and upload learning materials in any format. WizIQ also supports multimodal learning with real-time audio, video and text communication. In the virtual classroom, students can also attend classes in real-time using the WizIQ app, available on iOS and Android.

Broadcast audio. Audio was the first type of multimedia to be delivered over the Internet in a streaming format; concerts and live radio broadcasts were among the first examples of streaming audio appeared. A wide range of streaming audio formats are used on the Internet today, but each one is different in name, in base technology remains in same.

Streaming audio is currently being used as a supplement to classroom and delivering online courses , usually in the form of pre-recorded lectures, interviews with guests, student projects, samples of student activities interaction, or sound bytes from content relevant to in well from study. For courses in music or English composition it may be used by teachers or lecturers . cheniki to write down samples from them Work as well as do them accessible to in teacher as well as another pupils. Streaming on the requirement is becomes a key peculiarity in web interface education.

Tbroadcast video. The first came radio, as well as then TV. As well as on the in Internet, the first came streaming audio, as well as then streaming video. When a video sample is presented in electronic format, there are many more “layers” of data to be converted and compressed than just audio. As a result, when this is multimedia format is delivered above in Internet in a streaming delivery, you need to take additional technical and educational questions in consideration.

Size is the first issue. Video files are much larger than audio files . as well as video combined With audio is more Still . in ideo samples also requirement large processing power of the receiving computer. It's very easy to record sound, voice, or both . Recording video as well as preservation this is in electronic format, but, is more demanding on the Hardware as well as requires additional software. Due to size and other issues, the video took longer to become industry standard, as well as this is is stronger to find educational applications per streaming on the in web .

Audio chat as well as voice acting the Internet protocol. Text chat It has long was a popular peculiarity from in Internet. Within in In the last decade, audio chat has also emerged and become quite popular. Point-to-point audio connections can be established between almost any two computers on the Internet and some Internet service providers as well as online Services are currently sentence free in the Internet long distance service what connects faces call through a private a computer to in public telephone system.

Communication between a teacher or tutor and a student can be very opportunities to talk to each other, discuss task or complex concept without long-distance costs duties. Whiteboard can be used together with VoIP for synchronization. This practice is known as audiographic teleconferencing. Microsoft NetMeeting used in this is way.

Web conference. Internet conference is a the form from graphic arts teleconference, used in combined with VoIP as a single tool in common web applications , support real-time collaboration. The whiteboard function emulates write or draw on the board. Both teachers are at the blackboard and students can create, manipulate, view and update graphical information . Online in real time by participating in a lecture or discussion. Using an electronic stylus with a tablet or even a large electric tronic the size of a classroom board, users Can comment on writing, cutting and pasting or clicking, dragging and dropping. in

web conferencing, content can be saved and used in future presentations.

These audio as well as improved graphics net conference call Applications permit to simulate classroom activities. Students in different places can actively participate and cooperate with the teacher and other students in creating and adapting graphic information. This statement is especially corresponding per brainstorm sessions.

Manual as well as wireless technology. Imagine the power of the Internet in the palm of your hand using Portable Digital Assistant (PDA), third generation mobile phone (3G), or even an iPhone. Wireless technology, cellular modems and manual held devices are moving from high-end gadgets to the mainstream.

As accessible access to high throughput increases as well as in price from wireless devices what Can turn on all in Peculiarities from a PC decreases in educational opportunities are endless. It could mean the end of the papers and- based on teaching and learning, lost homework, missed tests and costly textbooks. In the Philippines, for example, people living in rural areas, even in communities without electricity, use their cell phones. telephones for exchanging text digital messages. New apps for small devices open up the possibility of using wireless communications to deliver graphic arts as well as video to users, No matter where they are. Education becomes everywhere available.

Fast file sharing. Perhaps the loudest Internet event in the last couple of years. It has was in controversy surrounding peer-to-peer, or file sharing, applies -cations. Peer -to-peer applications allow users, regardless of their location or connection speed to share files of almost any type with unlimited population of other Internet users. Unlike the current client- server model, where users retrieve information from centralized server, peer-to-peer model allows members of its "com- community" to broadcast files directly between users, without having to accessor to be limited on a centralized server.

it is light to do connections between education objects, smart educational systems and the peer-to-peer model. Research and more materials Can easily to be proposed online as well as "assembled" on a well thought out A P2P program that offers students or teachers extensive knowledge that power No otherwise to be accessible.

Blogs (web site magazines). Blogs are becoming very popular. As a rule, these are personal diaries, and whether newsletters that are updated more or less frequently by the owner. Most blogs are available to the general public. Blogging software exists so that people who are not technically savvy can serve one without difficulty.

Blogs have a lot of uses in education, including them importance per knowledge exchange in Any _ specific subject region, or With Another pupils, instructor or external experts. Blogging can also provide a clue net capabilities between pupils as well as With outside professional in the field. Blogs can also be used by teachers to assign courses, work, and serves as a place for students to present their work. Well announcements and annotated reading links as well as advice on how to approach learning can also be communicated through blogging. Blogs are successfully used in creative or reflective writing courses, as well as in courses that require journals or e- portfolios.

Virtual worlds. Virtual worlds are sometimes referred to as the 3D internet or *metaverse*. maybe in most famous example is *second life*, which the is used millions from people. BUT virtual World is a simulated Environment what existon the server and available to users via the Internet.

Virtual worlds Can to be exploited on teachers who are interested in flexible environments that are only limited by the imagination. Education can be promoted in these worlds using traditional methods such as lectures as well as other _ in class types from activities, or through computer simulations, new application, electronic games, as well as another forms from empirical education. students can try out new ideas in a safe environment and thus learn from them mistakes without adverse effects. Students as well as instructors from anywhere in in World can participate together in these simulated worlds.

Digital games. Educational games are becoming very popular. For the most part, education National games Today are used to strengthen education what It has was introduced in traditional ways. Games strengthen education on them ability to sentence -feedback and repeated satisfaction. Moreover, they can be used to support students who learn differently. They prolong interest students, keeping them in the task and reinforcing the learned concepts. Above all, games motivate students on manufacturing education enjoyable.

Conclusion. All levels education will benefit from what the Internet has to offer. Per teachers, net participation could range from simply put class notes and lecture materials online for absent students, integration of dynamic online survey systems, to prepare classes for upcoming tests and examinations, up to giving students the opportunity to participate in highly interactive, truth of life simulations as well as games.

With the advent of more user-friendly applications and interactive active content encapsulated in education objects, one need No to be a coding expert to take advantage of the learning opportunities that become - ing accessible on the in Web. A lot of instructors as well as students are already building

bridges in divide on using hybrid access as well as delivery models, full with internet component . Since the cost of hardware, software and telecommunications bows down even development countries can c watch forward to a future where access to the wealth of world knowledge is routine.

References:

- 1.ET. Lin, CI Podilchuk , EJ Delp , Detection of image alterations using semi-fragile watermarks, in: Proceedings of SPIE International Conference on Security and Water-marking of Multimedia Contents 11, vol. 3971, January 23e28, 2000, San Jose, CA, 2000, pp. 152e163.
2. Embun R, Royo-Crespo I, Diaz JLR, Bolufer S, Call S, Congregado M, et al. Spanish Video-Assisted Thoracic Surgery Group: method, auditing, and initial results from a national prospective cohort of patients receiving anatomical lung resections. Arch bronconeumol . 2020;56:718–24.
3. The concept of developing a web application - 2010 [Electronic resource] - Access mode. — URL: <http://thewalrus.ru/koncepciya-razrabotki-webprilozheniy-id35.html>.
4. Shasankar K. Development of web applications . St. Petersburg: Piter, 2014. - 208 p .
5. Kostikov A. N. Organization of distance learning based on video conferencing systems. // Bulletin of Herzen University. 2011.- No–Access mode:cyberleninka.ru/article/n/organizatsiya-distantsionno go-obucheniya-na-osnove-sistemvideokonferentsssvyazi.
6. Makhankova N. V. Pedagogical technologies for the development of critical thinking of students // Questions of Philology. M., 2011. S. 308–309.
7. Dauletbaev B.O. Asynchronous learning. - Almaty , 2011. - 43 p.

YULDASHOVA Shahlo Toyirovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti o'qituvchisi

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITISH USULLARI

Barcha universitetlar texnik yangiliklarni joriy etishlari kerak, aks holda ular taqdim etayotgan ta'lim endi zamon talablari va talabalar ehtiyojlariga javob bermaydi. Buning oldini olish uchun raqamli ta'limni rivojlantirish va uni an'anaviy ta'lim bilan uyg'unlashtirish zarur. Talabalar bilimini tayyorlashda o'quvchining bilimlarini o'zlashtirish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdagi umumiy maqsadli va tashkiliy faoliyati muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta'lim sharoitida ko'plab o'qitish usullari qo'llaniladi. Ular ma'lum bir asosda ta'lim usullari tizimini ifodalaydi. O'qituvchilar tomonidan qo'llaniladigan o'qitish usullarini uch turga bo'lish mumkin: passiv, faol va interaktiv - har birining o'ziga xos xususiyatlari va shartlari. Ta'limdagi innovatsiyalar ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish, ijodiy fikrlash, texnika va o'quv materiallarida integratsiyalashuv jarayonidir. Bugungi kunda innovatsion ta'lim faoliyati ta'lim faoliyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida.

Kalit so'zlar: ta'lim, o'qitish usullari, ijodiy fikrlash, diversifikatsiya, ko'nikmalar, innovatsiyalar, integratsiya.

МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Всем университетам необходимо внедрять технические новшества, иначе образование, которое они предлагают, перестанет отвечать вызовам времени и потребностям студентов. Чтобы этого не произошло, необходимо развивать цифровое образование и интегрировать его с традиционным. В подготовке обучения студентов важным является общая целенаправленная и организованная деятельность обучающегося по усвоению знаний и развитию навыков, умений. В современной образовательной среде используется большое количество методов обучения. Они представляют собой систему учебных методов по определённому признаку. Применяемые преподавателями методы обучения можно разделить по трём видам: пассивные, активные и интерактивные - каждый со своими характеристиками и условиями. Инновация в образовании - это процесс совершенствования образовательных технологий, интеграция в креативном мышлении, приемов и учебных материалов. В настоящее время инновационная образовательная деятельность является одной из важнейших составляющих образовательной деятельности, особенно в высших образовательных заведениях.

Ключевые слова: образование, методы обучения, креативное мышление, диверсификация, навыки, инновация, интеграция.

METHODS OF TEACHING IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

All universities need to introduce technical innovations, otherwise the education they offer will no longer meet the challenges of the time and the needs of students. To prevent this from happening, it is necessary to develop digital education and integrate it with traditional education. In the preparation of student learning, it is important to have a general purposeful and organized activity of the student in assimilating knowledge and developing skills and abilities. In the modern educational environment, a large number of teaching methods are used. They represent a system of learning methods on a certain basis. The teaching methods used by teachers can be divided into three types: passive, active and interactive - each with its own characteristics and conditions. Innovation in education is the process of improving educational technologies, integrating creative thinking, techniques and teaching materials. At present, innovative educational activities are one of the most important components of educational activities, especially in higher educational institutions.

Keywords: education, teaching methods, creative thinking, diversification, skills, innovation, integration.

Kirish. Ta'limning innovatsion tabiati boshqa ijtimoiy institutlar bilan raqobatning eng muhim vositasiga aylanmoqda. Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda yoshlarning bilim olishga ijobiy yo'nalishini

shakllantirish uchun nafaqat o'qitishning mazmuni, balki shakllari va texnologiyalari ham muhimdir. O'qitishning yangi uslublari va kanallarini rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. [2]

Ta'lim sifati, qulayligi, samaradorligi, uning uzluksiz va innovatsion xususiyatlarini oshirish, ijtimoiy harakatchanlik va yoshlar faolligining o'sishi, shuningdek, turli xil ta'lim muhitlariga qo'shilishi ta'lim tizimini O'zbekistonning milliy xavfsizligini ta'minlashning muhim omiliga aylantiradi, shuningdek, fuqarolar hayoti sifatining yaxshilanishiga kafolat beradi [3].

Asosiy qism. Ta'limdagi innovatsiya bu ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish jarayoni, bir qator metodlar, uslublari va o'quv materiallarini tushunishdir. Hozirgi kunda innovatsion ta'lim faoliyati bolalarga ta'lim beradigan har bir muassasa ta'lim faoliyatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir [1]. Va bu tasodif emas. Darhaqiqat, aynan innovatsion faoliyat nafaqat ta'lim xizmatlari bozorida ta'lim muassasasining raqobatdoshligi uchun asos yaratadi, balki o'qituvchining kasbiy rivojlanish yo'nalishini belgilaydi. Uning ijodiy ishlari talabalarining shaxsiy o'sishiga katta hissa qo'shadi. Shuning uchun innovatsiyalar o'qituvchilarning ilmiy-uslubiy ishlari va talabalarining o'quv-tadqiqot faoliyati bilan uzviy bog'liqdir.

Pedagogik jarayonda innovatsion o'qitish usullari o'qituvchilar va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatida o'qitish va tarbiyalashning maqsadlari, usullari, mazmuni va shakllariga yangiliklarni kiritishni nazarda tutadi. Ushbu yangiliklar maxsus ishlab chiqilishi yoki ta'lim tashabbusi doirasida qayta amalga oshirilishi mumkin. [4]

Muhokamalar va natijalar. Hozirgi kunda oliy o'quv yurtlarining asosiy vazifasi tez o'zgaruvchan dunyoda moslashtirilgan, moslashuvchan va o'z vaqtida yechimlarni ishlab chiqishga qodir mutaxassislarni tayyorlashdir. Aynan shu maqsadda talabalarni universitetda kelajak kasblariga tayyorlashda o'qitishning innovatsion uslublari foydalaniladi. Keling, ularning ayrimlarini ko'rib chiqaylik.

Portfolio usuli (Performance Portfolio yoki Portfolio Assessment) — bu o'quv va kasbiy faoliyat natijalarini ishonchli baholash uslubiga asoslangan zamonaviy ta'lim texnologiyasi. Ushbu usul ko'pincha ta'lim bilan o'zaro bog'liq, garchi atamaning keng ma'nosida u amaliyot bilan bog'liq har qanday faoliyatga nisbatan qo'llaniladi. Universitetning amaliy va samarali faoliyati turlariga ko'ra, o'quv va kasbiy portfellar ajralib turadi.

Muammoni hal qilish usuli — bu o'qituvchi turli xil manbalar va vositalardan foydalanib, vazifani belgilab beradigan, materialni taqdim etishdan oldin kognitiv vazifani shakllantiradigan va keyin dalillar tizimini aniqlaydigan, nuqtai nazarlarni, turli xil yondashuvlarni taqqoslab, muammoni hal qilish usulini ko'rsatadigan usuldir. Talabalar go'yo ilmiy izlanishlarning guvohi va sheriklariga aylanishadi.

Loyiha usuli - bu o'quvchilar asta-sekin murakkabroq amaliy vazifalar-loyihalarni rejalashtirish va bajarish jarayonida bilim va ko'nikmalarni egallaydigan o'quv tizimidir.

O'qitishning muammoli-qidiruv usullari (bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikmalarni rivojlantirish) o'quvchilarning qisman izlash yoki tadqiqot faoliyati jarayonida amalga oshiriladi; bu usul og'zaki, ko'rgazmali va amaliy o'qitish usullari yordamida amalga oshiriladi, muammoli vaziyatni o'rnatish va hal qilishda izohlanadi.

Talabalarining o'quv jarayoniga birlashtirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari - bu ish o'quv rejasiga muvofiq bajariladi; Ta'lim jarayonida ishtirok etayotgan talabalarining barcha turdagi tadqiqot faoliyatlari natijalari o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi va baholanadi.

Muammoli ta'lim:

1. Birinchi navbatda "qiziqishni rag'batlantirish"ga qaratilgan texnologiya. O'quv mashg'ulotlari muammoli vaziyatlarni yaratish, talabalarining optimal mustaqil ishi bilan va o'qituvchining umumiy rahbarligi ostida talabalar va o'qituvchilarning birgalikdagi faoliyati davomida bunday vaziyatlarni aniqlash va hal qilishdan iborat;

2. Talabalarining tadqiqot faoliyatini tashkil etish asosida, haqiqiy yoki ta'limiy qarama-qarshiliklarni aniqlash va hal qilish asosida rivojlanishda faol o'rganish. Muammoni o'rganishning asosi bu muammoni ilgari surish va asoslash (nazariy yoki amaliy xarakterdagi murakkab bilim vazifasi). [3]

Amaliy yo'naltirilgan loyihalar - ushbu turdagi loyihaning o'ziga xos xususiyati talaba uchun aniq, mazmunli natijani oldindan shakllantirish bo'lib, u moddiy ko'rinishda amaliy ahamiyatga ega. Ushbu turdagi loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish tuzilmani batafsil o'rganishni, ishtirokchilarning rollarini aniqlashni, oraliq va yakuniy natijalarni talab qiladi. Ushbu turdagi loyihalar koordinatori va loyiha muallifining qattiq nazorati bilan ajralib turadi. [6]

Ijodiy loyihalar o'ziga xosdir, chunki ular oldindan belgilangan va batafsil tuzilishga ega emas. Ijodiy loyihada o'qituvchi (koordinator) faqat umumiy parametrlarni belgilaydi va muammolarni hal qilishning eng yaxshi usullarini ko'rsatadi. Ijodiy loyihalarning zaruriy sharti talabalar uchun mazmunli, rejalashtirilgan natijaning aniq bayonidir. Ijodiy loyihalar o'quvchilarning bilim faolligini maksimal darajada faollashtirishni

rag'batlantiradi, hujjatlar va materiallar bilan ishlash ko'nikmalarini va ularni tahlil qilish, xulosalar chiqarish va umumlashtirish qobiliyatlarini samarali rivojlantirishga yordam beradi.

Ma'ruzalarni vizuallashtirish - ma'ruzalarni o'qiyotganda vizualizatsiya prinsipiga rioya qilinadi; Ma'ruza - bu vizual shaklga aylanadigan ma'lumot. Videoning sezilgan va ongli ketma-ketligi to'g'ri fikrlash va harakatni qo'llab-quvvatlashi mumkin. Video ketma-ketligi nafaqat og'zaki ma'lumotni tasvirlash, balki mazmunli ma'lumotni taqdim etish uchun ham mo'ljallangan. Ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rishda tarkibni vizual shaklga o'tkazish kerak. Vizual mantiqqa qat'iy rioya qilish, shuningdek materialni taqdim etish ritmini, dozasini, aloqa uslubini nazorat qilish muhimdir. [8]

Innovatsion usullar o'quvchilarning ijodiy izlanishlari uchun asos yaratib, nafaqat bilim tashuvchisi, balki ustozi bo'lgan o'qituvchining rolini o'zgartirishga imkon berdi.

Ta'limning ilmiy asoslari shu asos bo'lib, ularsiz zamonaviy ta'limni tasavvur qilib bo'lmaydi. Kelajakda bitiruvchining shaxsiy va kasbiy qadr-qimmatini oshiradigan, unga jamiyatning madaniy va ijtimoiy standartlarining muhim qismini o'tkazadigan ushbu ta'lim turi. Yuqori sifatli yuqori ta'lim natijasi nafaqat savodxonlik, ma'lum bir kasbga yaqinlik. Bu ta'lim va yurish-turish madaniyati, mustaqil va malakali fikrlash qobiliyatini shakllantirish, kelajakda esa mustaqil ravishda ishlash, o'qish va qayta tayyorlash qobiliyatini shakllantirish. Ta'limning tub mohiyati to'g'risida zamonaviy g'oyalar aynan shu narsaga asoslanadi [7].

Ta'lim jarayoni bu axborot tizimidir, chunki yangi avlodga ma'lumot, bilim va qadriyatlarni o'tkazish ta'limning asosiy funksiyalaridan biridir. Binobarin, u axborot jamiyatiga xos qonunlar bilan tartibga solinadi. Axborot va bilimlarning sezilarli darajada oshishi, kompyuter inqilobi zamonaviy jamiyat deb nomlangan zamonaviy jamiyatni xarakterlaydi. [8]

Axborot manbalari sonining ko'payishi tizimning yaxlitligini saqlab qolish uchun axborot pulsatsiyasining tezlashishiga olib keladi (O. Toffler). Boshqacha qilib aytganda, axborot jamiyati nazariyasiga ko'ra, ma'lumot va bilim manbai asosan o'qituvchilar va ruhoniylar bo'lgan, ammo hozir ular o'qituvchilar, ko'plab darsliklar va kitoblar, ommaviy axborot vositalari, Internet, o'quvchilarning o'zlari va boshqalar bo'lib, ular turli xil manbalardan ma'lumot va bilimlarni yaratadilar. Tizimning yaxlitligini saqlab qolish uchun uning almashinuvi tezlashadi. Axborotning uchta asosiy xususiyati: yangilik, dinamizm va xilma-xillik jamiyat va zamonaviy ta'limni tavsiflaydi.

Yangilik ta'lim paradigmatlarining yangilanishida; o'quv mazmunini yangilash - har bir fan uchun, ham yangi fanlarning paydo bo'lishi; modullarni va o'qitish usullarini yangilash.

Dinamizm bilimlarni yangilash tezligini, o'quv jarayonining o'zi tezlashishini, o'quv jarayonida ma'lumotlar almashinuvi va boshqalarni belgilaydi.

Turli xillik ta'limni diversifikatsiyalashni o'z ichiga oladi, bu ta'lim muassasalarini diversifikatsiyalashda, moliyalashtirish manbalarida, shuningdek o'quv rejalari, dasturlari va kurslarini diversifikatsiyalashda ifodalanadi. [5]

Yangilik, dinamizm va xilma-xillik ma'lumotlarning asosiy xususiyatlari sifatida o'qitish usullari va shakllariga bevosita ta'sir qiladi. Yangilik darslar va seminarlar mazmunini hamda o'qitish usullari va shakllarini doimiy ravishda yangilab turishni talab qiladi. Shu sababli, axborot texnologiyalari (IT) paydo bo'lishi va kompaniyalarning ochilishi bilan IT asosida yangilarining paydo bo'lishi va ularning xorijiy o'qitish metodlaridan sezilarli darajada kirib kelishi tufayli o'qitish usullari yangilanmoqda. O'quvchiga yaxshi o'zlashtirilishi uchun etkazilishi kerak bo'lgan ma'lumot miqdorining ko'payishi uning o'qituvchi va talaba o'rtasida almashinuvi faollashtirishni talab qiladi, bu esa axborot oqimlariga (o'qituvchi-talaba, o'qituvchi-talaba) bo'linib, savol-javob usullaridan tobora ko'proq foydalanishni anglatadi. “Talabalar guruhi - talabalar guruhi”, “talaba-talaba”- guruh ichida), teskari aloqani faollashtirish o'qituvchining axborot oqimlarini muvofiqlashtirishda, o'quvchilar guruhlar harakatlari va o'zaro munosabatlarini tartibga solishda rolini oshiradi. Endi men masofaviy ta'lim kabi ta'lim shakli haqida batafsilroq to'xtalib o'tmoqchiman. Menimcha, bu qandaydir faol va interfaol o'qitish usullarining kombinatsiyasi, albatta, interaktiv usul ustunlik qiladi, ko'plab shakllar mavjud, yuqorida tavsiflangan, ular mustaqil o'rganish uchun ishlatiladi o'quv materiallari va o'qituvchi va o'rtasida dialog almashinuvi tashkil etish talabalar. Bu shakl bizda unchalik keng tarqalgan emas edi mamlakat va butun dunyo. Yaqinda kasallanishning keskin o'sishi kuzatildi jiddiy oqibatlariga olib kelmaslik uchun COVID-19 koronavirus infeksiyasi barcha mumkin bo'lgan ta'lim muassasalarini ko'chirishga qaror qilindi deyarli barcha mamlakatlarda masofaviy ta'lim uchun. Bu butun jarayon masofaviy ta'limga o'tishning bir turi sifatida qaralishi mumkin ushbu turdagi treningni amaliyotda joriy etish bo'yicha butun dunyo bo'ylab eksperiment. Ushbu turdagi mashg'ulotlarga keskin o'tish tufayli muammolar paydo bo'ldi, bu pandemiya sharoitida samarali o'rganishga to'siq qildi. Qism ulardan ishonchli Internetga ulanish bilan bog'liq muammolar tufayli. Bu talabani yoki o'qituvchi ish joyining geografik joylashuvi bilan bog'liq. Shuningdek, masofaviy ta'limning muhim shartlaridan biri kompyuterga

doimiy kirish imkoniyatidir. Muammolarning aksariyati yaratilgan aloqa tizimlarida kechikishlar, davriy tizim tufayli muzlashadi yuqori tezlikdagi aloqa liniyalarining yetishmasligi va shaxsiy past tezligi kompyuterlar, eskirgan platformalar va operatsion tizimlar, kichik sinf o'quvchilarining shakllanmagan mustaqil ishlash ko'nikmalari kurslar, talabalarining mustaqillikka qiziqishi va motivatsiyasi past masofadan turib o'quv jarayonidagi faoliyat. Muammolardan biri edi kafedralarda ishlaydigan ko'pchilik o'qituvchilar uchun o'tishning murakkabligi keksa avlod va o'qituvchilarni masofadan turib to'liq tizimga o'tkazish o'rganish. Aksariyat hollarda bu ishlashga odatlangan o'qituvchilardir klassik ta'lim tizimi. Menimcha, eng katta kamchilik fikri, talabalar bilan amaliy mashg'ulotlar o'tkazishning qiyinligi. Ushbu tadbirlarning aksariyati maxsus jihozlarni talab qiladi, bu esa faqat ta'lim muassasasida bo'lishi mumkin. Endi masofaviy ta'limning ijobiy tomonlarini ko'rib chiqaylik. Vaziyat bo'lgan talabalar uchun ijobiy oqibatlar olib keladi qisqa muddatda mustaqil ta'lim olish imkoniyatini berdi. Talabalar yangi ta'lim formatlarini boshdan kechirishlari, boshqalardan o'tishlari mumkin edi ularni qiziqtirgan onlayn kurslar. Shuningdek, ko'plab Internet resurslari va kompaniyalar bepul foydalanish uchun o'z xizmatlarini taqdim etdi talabalar va ularning o'qituvchilarini qo'llab-quvvatlash. Talabalar ochildi har qanday vaqtda ko'rib chiqish uchun o'rganish tezligini tanlash qobiliyati ma'ruza materiallari, chunki an'anaviy trening davomida bunday imkoniyat yo'qolgan. Ijobiy tomoni: ta'limga bepul kirish Internetga ulangan har qanday elektron qurilmadan materiallar, eng qulay yashash sharoitlarida ta'lim olish imkoniyati. Talabalar o'z hissalari bilan qatnashadilar zarur topish jarayonida ushbu motivatsiyani shakllantirish o'qituvchi tomonidan qo'yilgan muammoni hal qilishga imkon beradigan ma'lumotlar; ehtiyojni his qilish, qiziqishni his qilish, o'quv faoliyati motivini tushunish. Masofaviy ta'lim bilan bog'liq qiyinchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi insoniyat rivojlanishining eng muhim momentida barqarorlik - ta'lim. Ta'limning bu shakli muqobil o'qitish usuli hisoblanadi. Agar biror kishi o'qishni munosib tugatmoqchi bo'lsa, u buni amalga oshiradi, har xil qiyinchiliklarni yengish. Faol va interaktiv usullar o'rtasida biroz farq bor o'rganish, birinchi usulda talaba darajasida muloqot mavjud - o'qituvchi, bu erda vaziyatlar o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ikkinchi holatda talaba-o'qituvchi, talaba-talabaning o'zaro aloqasi mavjud,

talaba - talabalar mavjud muammolarni o'zlari aniqlashlari mumkin bo'lgan kompyuter va ularni hal qilishning samarali usulini toping. Topish, rivojlantirish va o'qituvchilarning zamonaviy faoliyati ijodiy faollikni tezlashtiradigan yangi usullarni joriy etish o'quvchilarning fikrlashi ta'limni rivojlantirish uchun ajoyib turtki hisoblanadi.

Xulosa. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, innovatsiya - bu ta'lim, fan va ishlab chiqarishni birlashtirishning bevosita usuli. Shu bilan birga, innovatsiyalar barcha tashkiliy, uslubiy va amaliy jihatlarida ta'lim sifatini oshirishning eng muhim vositasidir. Topish, rivojlantirish va o'qituvchilarning zamonaviy faoliyati ijodiy faollikni tezlashtiradigan yangi usullarni joriy etish o'quvchilarning fikrlashi ta'limni rivojlantirish uchun ajoyib turtki hisoblanadi. O'quvchilarini yo'qotmaslik uchun ta'lim muassasalari bugungi kunda o'z faoliyatiga zamonaviy o'qitish usullarini joriy etishi kerak. Talabalarga onlayn platformalar taqdim eta oladigan imtiyozlarni berish ayniqsa muhim: o'rganishni moslashuvchan va mobil qilish, shuningdek, uni shaxsiylashtirish va sozlash qobiliyatini ta'minlash.

Adabiyotlar:

1. Qurbonova G.N. Yoshlarda ijodkorlik va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari. “Pedagogik mahorat” 3-son, 2019y 263-bet.
2. Иванова В. А., Левина Т. В. Педагогика: о'quv uslubiy majmua. [elektron resurs]. http://www.kgau.ru/distance/mf_01/ped-asp/01_01.html.
3. Qurbonova G.N. Tibbiy pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalari kasbiy tafakkurini rivojlantirishda pedagogik muloqotning ahamiyati. “Namangan davlat universiteti ilmiy axboroti”. Namangan. 2019. №7. 307-311 betlar.
4. А. М. Новикова — Профессиональная педагогика / под ред. [С. Я. Батышева] и Изд. 3-е, перераб. М.: Эгвес, 2017. 456 с.
5. Сластенин В.А. Педагогика: Учебное пособие для студентов педагогических учебных заведений / — М.: Школа — Пресс, 2010. — С. 40.
6. Toyirovna, Y. S. (2022). The importance of integrative and creative capabilities of students of medical institutes. Баркарорлик ва Етакчи Тадкикотлар онлайн илмий журнали, 2(1), 450-462.
7. Toirovna, Y. S. (2022). Integrative education of university students. // Баркарорлик ва етакчи тадқиқотлар, 2(3), 73-77.
8. Юлдашева, Ш. (2021). Основные Тенденции Интегративно-Креативных Возможностей студентов в Высшем Медицинском учебном Заведении и их Влияние на их Деятельность. Central Asian Journal of Medical and natural sciences, 2(3), 369-377.

ШАРАФУТДИНОВА Хадичахон
Гулямутдиновна

Термиз давлат университети доценти,
психология фанлари номзоди

ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАР ДЕСТРУКЦИЯСИНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ ВА РОЛИ

Мазкур мақола оилавий муносабатлар деструкциясини бартараф этишда миллий қадриятларнинг ўрни ва ролини таҳлил қилишга қаратилган бўлиб, унда ўзбек оиласининг ўзига хос қадриятлари ва уларнинг оилавий муносабатлар деструкциясини бартараф этишдаги аҳамияти ёритилган. Миллий урф-одатларга, қадриятларга муносабат ва уларнинг оилавий муносабатларга таъсири масаласи таҳлил қилинган. Миллий қадриятларни маънавий омил сифатида ёшлар қалбида меҳр-муҳаббат, оила ва Ватанни севиш, ҳаётни қадрлаш, оилавий муносабатларга конструктив ёндашув каби туйғуларни шакллантириши ҳақида фикрлар баён этилган.

Калит сўзлар: оила, қадрият, оилавий муносабат, деструкция, деструктив муносабат, тарбия, психологик тарбия.

РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ПРЕОДОЛЕНИИ ДЕСТРУКТИВНОСТИ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ

В данной статье анализируется роль национальных ценностей в устранении разрушения семейных отношений, в ней выделяются уникальные ценности узбекской семьи и их значение в устранении разрушения семейных отношений. Анализируется вопрос отношения к национальным обычаям, ценностям и их влияние на семейные отношения. Высказываются мнения о национальных ценностях как духовном факторе, формирующем в сердцах молодёжи такие чувства, как любовь, любовь к семье и Родине, понимание жизни, конструктивный подход к семейным отношениям.

Ключевые слова: семья, ценность, семейные отношения, деструкция, деструктивные отношения, воспитание, психологическое воспитание.

THE ROLE OF NATIONAL VALUES IN OVERCOMING DESTRUCTIVE FAMILY RELATIONS

This article analyzes the role of national values in eliminating the destruction of family relations, it highlights the unique values of the Uzbek family and their importance in eliminating the destruction of family relations. The question of attitude to national customs, values and their influence on family relations is analyzed. Opinions are expressed about national values as a spiritual factor that forms in the hearts of young people such feelings as love, love for the family and the Motherland, understanding of life, and a constructive approach to family relations.

Keywords: family, value, family relations, destruction, destructive relations, education, psychological upbringing.

Қириш. Мамлакатимизда ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, маънавий-маърифий, маданий соҳаларда мазмунан бой ишлар амалга оширилмоқда. Буларнинг барчаси негизида инсон, мамлакатимиз фуқаролари ва ёшларнинг ҳуқуқ-манфаатларини ҳар томонлама муҳофаза қилиш ётади. Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг “Маълумки, ёш авлод тарбияси ҳамма замонларда ҳам муҳим ва долзарб аҳамиятга эга бўлиб келган. Аммо биз яшаётган XXI асрда бу масала ҳақиқатан ҳам ҳаёт-мамот масаласига айланиб бормоқда. “Тарбия қанча мукаммал бўлса, халқ шунча бахтли яшайди”, дейди донишмандлар. Тарбия мукаммал бўлиши учун эса бу масалада бўшлиқ пайдо бўлишига мутлақо йўл қўйиб бўлмайди”¹, деган таъкиди, юртимизда ёшлар тарбиясига, айниқса, оила, оналик ва болаликни ижтимоий муҳофаза қилишга алоҳида эътибор берилаётганининг далолатидир.

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Қамолот» ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойидаги нутқи. 1 июль, 2017 й.

Асосий қисм. Оила шундай муқаддас маконки, унда ҳаётнинг давомийлигини таъминловчи шахс шаклланади, этник маданият, урф-одатларимиз, ахлоқий ва маънавий қадриятларимиз сақланади, ривожлантирилади, жамият тараққиётини белгиловчи иқтисодий ва маданий ҳаёт пойдевори мустаҳкамланади. Оиланинг асосий ижтимоий, маънавий, ахлоқий ва психологик вазифаларини қисқача таҳлил қилиб кўрадиган бўлсак, болада шаклланадиган барча ҳиссий, рухий туйғулар: меҳрибонлик, оқибатлилик, ўзига ва атроф-муҳитга нисбатан масъулиятлилик куртаклари оилада намоён бўлади. Оила ўз вазифасини лозим даражада амалга ошириши учун уни тегишлича, маърифий-методик қуроллантириш, ижтимоий-маънавий тадбирларни ўтказиш йўли билан унга ёрдам бериб бориш зарур.[5, 5 б]

Ўзбекистонда оила азалдан асосий қадриятлардан бири бўлиб келган. Оиланинг мавқеи мамлакатимизда юксак ва таъсирчандир. Юртимизда оилалар, айниқса, қишлоқ жойларида, асосан, кўп бўғиндан иборат бўлиб, уларда кўплаб аъзолар – болалар ва қариялар борлиги билан ажралиб туради. Ўзбек оилалари кўп фарзандли бўлиб, бир неча авлодлар бир том остида яшаши кўпинча оиладаги низола ва оилавий муносабатлар деструкциясининг асосий сабаби деб қаралади. Аммо бу оиладаги низо ва оилавий муносабатлар деструкциясининг ягона сабабчиси эмас.

Оилавий муносабатлар деструкциясини ўрганиш бўйича олиб борган тадқиқотларимиз асосида унинг ҳам ирсий, ҳам ижтимоий асосларга эгалиги ҳақида хулосага келдик [2, 271-275б.]. Ўзбекларда “Қазисан қартасан асли наслингга тортасан.” каби мақоллар шахс характерининг ирсий шартланганлигини англатса, “Онасини кўриб қизини ол!” каби мақоллар эса она тарбиясининг фарзанд хулқи ва характери шаклланишига ижтимоий таъсирини кўрсатади. Бизнинг назаримизда деструктив муносабатлар деструктив шахс туфайли келиб чиқади. Деструктив шахснинг шаклланиши эса чуқур илдизга эга бўлади. Аниқроқ айтганда киши бир зумда, бир юмалаб деструктив шахсга айлана олмайди. Деструктив шахс деструктив индивидуал муносабатлар стили сифатида шаклланади [3,Б.14]. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида» 2020 йил 18 февралдаги ПФ-5938-сон Фармони ҳамда “Ўзбекистон Республикаси Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида” 2020 йил 18 февралдаги ПҚ-4602-сон Қарори ижросини таъминлаш мақсадида 2020 йил 30 декабрдаги Вазирлар Маҳкамасининг 820-сонли қарорида – “Оила институтини янада ривожлантириш ва ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш чора-тадбирлари тўғрисида” оила институтини мустаҳкамлаш бўйича, энг аввало, «Соғлом оила — соғлом жамият» ғоясини ҳаётга татбиқ этишга йўналтирилган ягона давлат сиёсатини юритиш, нотинч ва муаммоли оилаларга манзилли кўмаклашишни ташкил этиш соҳасида: оилалардаги ижтимоий-маънавий муҳитни ўрганиш ҳамда соғломлаштиришга қаратилган чора-тадбирларни амалга оширишда фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларининг давлат ҳамда жамоат ташкилотлари билан ўзаро ҳамкорликдаги фаолиятини таъминлаш; нотинч ва муаммоли оилаларни аниқлаш, уларнинг манзилли рўйхатларини тузиш, маънавий-ахлоқий муҳитни соғломлаштириш, низоли ҳолатларнинг олдини олиш, оилавий муносабатларни мустаҳкамлаш ва миллий менталитетга зид бўлган ёт хавф-хатарларга қарши курашиш мақсадида улар билан тўғридан-тўғри ишлашни ташкил этиш; ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш, уларга оиладаги низоли ҳолатларни ҳал қилишнинг ҳуқуқий ва психологик асосларини ўргатиш, оилаларни мустаҳкамлаш, эрта никоҳ ва оилавий ажралишларнинг олдини олиш бўйича таклифлар ишлаб чиқади ва тегишли чора-тадбирларни амалга ошириш каби муҳим вазифалар белгилаб қўйилган.

Бундан кўриниб турибдики, мамлакатимизда оила ва оилавий муносабатлар муаммоси давлат сиёсати даражасидаги муҳим ижтимоий аҳамиятга молик масаладир. Дарҳақиқат, бугун юртимизда оилани мустаҳкамлаш, унинг маънавий ва моддий ривожланиши учун амалга оширилаётган ишлар таҳсинга лойиқ. Аммо инсоннинг тинчлиги, саломатлиги, оиласининг мустаҳкамлиги, энг аввало, унинг ўзига боғлиқ бўлади. Жисмоний, рухий, маънавий, ақлий камолоти меъёрида бўлган, тўғри тарбия кўрган ва булар таъсирида жамиятда узоқ тараққиёт натижасида шаклланган, аждодларимизнинг ақли-шуури меваси бўлган, инсониятнинг ҳаётини тизимга солиб турувчи қоидаларни англаш, уларга амал қилишдек ижтимоий масъуллик хусусияти шаклланади. Энг аҳамиятлиси бундай ҳислат болалик даврида, оила кўйида, оилавий муносабатлар негизида аста секинлик билан таркиб топади ва кишининг ижтимоий хулқи даражасида намоён бўлади.

Ўзбек халқининг асрлар давомида яратган миллий урф-одатларини қайта таклаш ва ёшлар онгига синдириш бугунги кунда долзарб масалага айланган. Яқин кунларгача айрим миллий урф-одатларимизга диний, эскилик саркити сифатида қаралди. Бугун эса, аждодларимиз қолдирган маънавият хазинасидан умид билан камол топаётган ёшларимизни баҳраманд этиш давр талабига

айланди. Маънавият, мафкура, анъана-олмосдек серкирра, сержило бўлиб, унинг асл мазмуни, илдизи инсон кўрки, беағи бўлган одоб-ахлоқига бориб тақалади.

Миллий кадриятларни шакллантирадиган асосий мезонлар миллатнинг тарихи, урф-одати, анъанаси, ҳаётий кадриятлари билан бирга маънавий мероси, маданий бойликлари ва кўхна тарихий ёдгорликларидир. «Урф-одат - анъаналар сифатида умумхалк томонидан қабул қилинган тартиб-қоида; расм-русум, тамойил» [1, Б. 416] лар жамият ҳаётининг барча соҳаларини камраб олиб, уларда ўз ифодасини топади. Жамиятни бошқаришнинг маънавий омили сифатида ёшлар қалбида меҳр-муҳаббатли бўлиш, оила ва Ватанни севиш, аждодлар меросидан баҳра олиш ва ҳаётни қадрлаш каби туйғуларни шакллантиради.

Ўзбек халқи ҳаётида оилада фарзанд туғилиши, унинг тарбияси, тўй-томоша қилиш муҳим роль уйнайди. “Бешик тўйи” (беш кеча ҳам дейилади) - урф-одат бўйича чақалок туғилишининг бешинчи куни келиннинг ота-онаси ясалган бешик ва чақалокқа керакли нарсалар ва ўйинчоқлар олиб келишади. Анъана бўйича меҳмонлар дастурхон атрофида тантана қилишаётганда болалар хонасида ёши катта аёллар чақалокни урф-одатлар бўйича бешикка белашади ва бешик устига ширинликлар сочишади. Илк фарзандини бағрига олган ёш ота-она учун бу каби тадбирлар оилага, фарзанд тарбиясига ва ўзаро муносабатларига ижобий таъсир кўрсатади. Қалбида оиласига, фарзандига, аҳли аёлига нисбатан меҳр, самимийлик каби туйғулар жўш уради.

Шунингдек, ёш оиланинг мустақамлиги, ўзаро муносабатларнинг ижобий бўлишида никоҳ тўйлари жараёнида амалга ошириладиган урф-одатларнинг роли ниҳоятда катта. Ўзбекларда никоҳ тўйлари жараёнида юзга яқин урф-одатни бажариш азалий кадрият ҳисобланади. Никоҳ тўйи «унаштириш», «нон синдириш», «куёвга тўй сарпоси», «келинга тўй сарпоси», «қудалар тўй сарпоси», «никоҳ ўқиш», «эрталабки ош», «келинни уйдан олиб келиш», «келин-куёвни оловдан уч марта айлантириш», «чимилдиққа кириш», «ким чиройли», «остонани улуғлаш», «келин салом», «келинни янги оилага қабул қилиш», «совғалар билан келинни кўриш», «юз очди», «кампир ўлди», «қудаларга ширин чой ичириш», каби куплаб маросимларни ўз ичига олади. Бу каби маросимлар эндигина оила қурган ёшларнинг кўринмас ришталар билан боғлайди. Келажак турмушининг гўзал бўлишига умид ва ишончини ўйғотиб, турли майда чуйда оилавий муаммоларнинг таъсиридан ҳимоялашга хизмат қилади.

Дарҳақиқат, урф-одатда инсоннинг чин инсон бўлиб яшамоғи учун барча соҳалар кенг камраб олинганки, унда турмуш тарзи, яшаш одоби, муомала маданияти, оила ва ватанни муқаддас деб билиш, инсонни қадрлаш, тирик жонга муносабат, ота-онага ҳурмат ва ҳақозолар ўз аксини топган. Урф-одатлар доим ўз даврининг қонуни вазифасини бажарган. Шунинг учун ҳам француз олими Ж. Жумбер «яҳши қонунлар урф-одатлардан туғилади» деб бежиз айтмаган.

Соҳибқирон Амир Темур ўз ҳукмронлиги даврида урф-одатларга риоя қилишни каттиқ талаб қилган, уни бузган, бўйсунмаган кишиларни беаёв жазолаган. Урф-одатни бошқариб турувчи махсус қозиси бўлган. Уни Аҳдас қозиси дейилиб, у урф-одатларни назорат қилиб, бировни ноҳақ хафа қилган, тошу тарозидан урган, шароб ичган, зино ишлар қилганларни қаттиқ жазолаган.

Насафийнинг “Зубдат-ул ҳақойиқ” асаридаги бир қатор насиҳатлар инсонни саховатли ва ҳимматли бўлишга, ёлғон, қаллобликлик нуқсонларидан узоқ юришга ундайди. “Сенинг қалбинг ҳақгуйлик ва эзгулик билан безансин, токи инсон деган улуғ номга муносиб бўлсанг дузах азобларидан қутиласан, илло агар буни эҳтиёж юзасидан қилсанг жойинг дузахда бўлсин. Шундай бўлгинки сендан беитиёр ҳамиша яхшилик ва саховат ёғилиб турсин, ҳамма вақт ёвузлик ва ҳақорат ёғдирадиган кишилардан бўлма. Чунки уларнинг ҳақиқати (табиати) ҳамиша ноҳақлик ва зулм, нохушлик ижод қилишдир. Сенинг ҳақиқатинг (моҳиятинг) тўғрилиқ ва хайрли ишлар ижод қилиш бўлсин”. [3]

Азизиддин Насафийнинг фалсафий фикрларидан англаймизки, ёлғон ва қаллоблик ёвузликнинг бир қисми бўлиб, инсонни жаҳолат ва гуноҳга йўллайди, ахлоқсизликка йўл очади. Шу сабабли аллома бу ҳақда огоҳлантиради. Бундайларнинг қилмишлари, касблари “ижод” қилиш бўлиб, кишиларга озор беришдан завқланиб яшайдилар. Бу кабилар асло ҳаққа яқинлаша олмаслар, яъни яхшилик йўлидан юрмайдиганлардир. Бу каби ёмон ижоддан тийилишнинг муҳим омилларидан бири сифатида эса аллома ёвузликка ошно бўлганлардан йироқ бўлишга ва ҳамиша ноҳақликка қарши курашишга, инсонларга зулм қилмасликка, доимо шарафли бўлишга, ёмонликларга хушёр муносабат билдиришга ундайди.

Азизиддин Насафий фикрларида кўп эътироф этиладиган ахлоқий тушунчалар яхшилик, саҳийлик, тўғрисўзлик ва бошқалар кишиларнинг маънавий камолотидаги ривожланиш жараёнларини акс эттиради. Насафий ҳар бир инсонни ёмонликдан узоқ бўлишга, ўзини ёмонликдан асрашга ва маънан комилликка эришишга даъват этади: “кимки ҳамиша одамларга фароғат тиласа ва

одамлар учун фароғат келтирса ўша саховатли қалб эгасидир. Бундай одам ҳеч кимга хизматини дариғ тутмайди. Тили, қўли, моли билан ўзгалар ёрдамига шошилади. Ҳамма вақт одамларни қийнашни одат қилган, одамларга азобу зулмни раво кўрувчи, тили, қўли билан одамларга озор берувчилар қалби нуқсонли одамлардир”.

Насафий ҳикматларида тарбиянинг кучига ниҳоятда катта баҳо берилиб, у жамаки ахлоқий сифатларни жамият ва ўз мақсади йўлида фойдаланишга қаратиш лозимлигини уқтиради. Тарбия жараёнда инсон ривожланиб, қалб ва руҳ тозаллигини таъминлайди. Лекин бунинг акси бўлганда, ахлоқий сифатларнинг зиддига эга бўлган кишиларга тарбия беришнинг фойдасизлигини шундай ифодалайди: “Тарбиясиз ёки ёмон хулқли одамларга яхшилик қилиш тузли жойга дон экишга ўхшайди. Ёмон хулқли кишига яхшилик йўлини кўрсатиш, сўқир одам олдида шам тутиш билан баробардир.”[3]

Миллий ахлоқ ва тарбияда аجدодларимизнинг тарихий тажрибалари, даврлар синовидан ўтган ҳаёт сабоқлари ва ўғит, кўрсатмалари жамулжамдир. Ана шу туфайли миллий, ахлоқий кадриятларимиз асрлар оша яшаб келмоқда. Ҳар қандай ахлоқий фазилат у ёки бу йўсинда инсоннинг хатти-ҳаракати тартибга солинишининг ифодаси бўлиб, инсонга бўлган ҳурмат-эътибор, меҳр-муҳаббатни билдирар экан, у умумбашарий мазмунни беради. Зотан, ҳар қандай шахс одамзотнинг бир зарраси экан, унда бутун башариятнинг моҳияти мужассам, шунинг учун ҳам у бутун инсониятга мансубдир. Шунга кўра, ҳар бир ота-она ўз фарзанди тарбиясида, унинг баркамол шахс бўлишида умуминсоний маъно ва мазмунни кўрмоғи лозим. Боланинг ахлоқий фазилатлари умуминсоний характер касб этиб, умумбашарий кадриятга айланишини англаб етган ота-она фарзандлари тарбиясидаги масъулиятни чуқур ҳис қилмоқлари мақсадга мувофиқдир.

Таниқли аллома ва педагог Абдулла Авлоний ҳам оилада болалар тарбияси тўғрисида муҳим аҳамиятга эга бўлган ажойиб фикрларни баён қилган. У ўзининг “Яшнаган ўлка ва ахлоқ” китобида ёзганидек, боланинг соғлиғи ва бахти, аввало, унинг яхши тарбияланишига, баданининг тозаллигига, эътиқод ҳосил қилишига, яхши хулққа эга бўлишига, уни ғайриахлоқий хатти-ҳаракатлардан огоҳлантирилишига боғлиқ.[5, 13 б.]

Шахс ижтимоий муносабатлар қуршовида бўлиб, ижтимоий муносабатлар ва жараёнларнинг шахсга таъсири ҳар доим ҳам ижобий бўлавермайди. Мазкур жараёнларнинг салбий кўринишда бўлиши деструкцияга олиб келиши мумкин. Шу ўринда таъкидлаш жоизки, инсонга ижтимоий жараёнларнинг ижобий ёки салбий таъсир этиши, биринчидан, шахснинг индивидуал-психологик хусусиятларига боғлиқ бўлса, иккинчидан, ижтимоий муҳит воқеа-ҳодисалари хусусиятлари ва шарт-шароитлари мазмунига, учинчидан, психологик тарбияланганлик хусусиятига кўра намоён бўлади. Яъни ижтимоий муҳитнинг соғлом ёки носоғломлиги ва унинг таъсирчанлик даражасига кўра, индивидга у ёки бу кўринишда таъсир этиб, оилада конструктив ёки деструктив муносабатларнинг келиб чиқарилиши.

Оилавий муносабатлардаги деструкция оила муҳитининг ўзига хос жиҳатлари, яъни соғлом ва носоғломлигига, оила аъзоларининг феъл-атвори, характер хусусиятлари, ижтимоий меъёрлар ва улар ўртасидаги зиддиятлар ҳамда уларнинг зўрайиб бориши қабилига боғлиқ бўлади. Оила аъзоларининг дунёқараши, яъни кадриятлар ориентацияси, ижтимоийлашуви ва индивидуал хиссиётларининг ижобий тарзда шаклланиши ва намоён бўлиши уларни оила учун фойдали бўлган хатти-ҳаракатларга ундайди.

Таъкидлаш жоизки, ташқи муҳит ёки ижтимоий воқеа-ҳодисалар ҳар доим ҳам деструктив муносабатлар келиб чиқиши учун асос бўлмайди. Оила муҳити ва унинг аъзолари ўртасида қарама-қаршилик ва зиддиятлар юзага келса, оилада ҳукм сураётган ижтимоий меъёрлар унинг вакиллари томонидан қабул қилинмаса ҳамда шахс психологик тарбиясида нуқсонлар мавжуд бўлса, деструктив муносабатлар келиб чиқиши табиий ҳолдир.

Педагогика ва психологияда оиланинг тарбиявий функцияси сифатида жисмоний тарбия, маънавий тарбия, ахлоқий тарбия, меҳнат тарбияси қабилад мавжуд. Тарбиянинг ҳар бир турида психологик элементлар мавжуд бўлса-да, алоҳида психологик тарбия тури киритилмаганлиги муҳим муаммо ҳисобланади. Бизнинг назаримизда бугунги глобаллашув жараёнлари, ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, технологик жараёнлардаги жадаллашув тарбияга янгича ёндашувни талаб қилади. Шу туфайли психологик тарбия мезонини киритиш мақсадга мувофиқдир.

Хулоса. Психологик тарбия ўзига хос тарбиявий тизим бўлиб, шахс сифатида шаклланишида алоҳида психологик компонентларнинг меъёрда ривожлантиришни назарда тутди. Психологик тарбия тизимига барча психик функцияларни тарбиялаш, жумладан, билиш жараёнлари (сезги, идрок, диққат,хотира, тафаккур, нутқ, ҳаёл қабилад), мотивация ва ҳиссий-иродавий соҳа (ирода, ҳиссиёт,

мотивация), индивидуал психологик хусусиятлар (темперамент, характер, қобилият)ни тарбиялаш кабилардан иборат.

Адабиётлар:

1. Фалсафа комусий луғат. - Т., «Шарк», 2004 йил. 416-бет
2. Шарафутдинова Х.Г. Ижобий кайфият ва инсон руҳияти хусусиятлари Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами Тошкент 2020 й. 25 май, 271-275 б.
3. М.Казакова Азизиддин Насафийнинг илмий-методологик фикрларини дидактик талҳини Таълим, фан ва инновация Маънавий-маърифий, илмий-услубий журнал 4/2019.
4. Оилада баркамол авлод шахси шаклланишининг мезонлари Оилавий муносабатларда миллий кадриятларнинг ўрни Республика илмий-амалик конференцияси материаллари Термиз 2019 й 5 декабрь 14 б.
5. Умаров, Баҳриддин “Оилавий тарбия сабоқлари” (Оилада фарзандлар тарбиясига оид психологик чизгилар) Илмий-услубий қўлланма. – Тошкент: “Tasvir nashriyot uyi”, 2019, 52 бет.



A'ZAMOVA Maxliyo Abduraximovna
Buxoro davlat universiteti
Psixologiya va sotsiologiya kafedrası o'qituvchisi

MASOFAVIY TA'LIMNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim jarayoni tushunchalardan asosiylari keltirilib, ularga ta'riflar berib o'tilgan. Masofaviy ta'lim – masofadan turib o'quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o'qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi ta'lim kompleksidir. Demak, masofaviy o'qitish masofaviy ta'lim kompleksidagi jarayon ekan. Masofaviy o'qitishning va masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik tizimi, zarurligi va maqsadi mavjud. Masofaviy o'qitish – eng yaxshi an'anaviy va innovatsion metodlar, o'qitish vositalari va formalarini o'z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta'lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim formasidir.

Kalit so'zlar: o'qitish, ta'lim, masofaviy o'qitish, masofaviy o'qish, innovatsion metodlar, moslashuvchanlik, modullilik, parallellik, uzluksiz ta'lim.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье представлены основные понятия современного образовательного процесса и даны их определения. Дистанционное образование представляет собой образовательный комплекс, основанный на средствах обмена учебной информацией дистанционно, преподаватель оказывает образовательные услуги всем слоям населения и иностранным студентам с помощью специальной информационной среды. Итак, дистанционное образование – это процесс в дистанционном образовательном комплексе. Дистанционное образование и дистанционное обучение имеют свои особенности, педагогическую систему, необходимость и цель, является формой обучения, основанной на информационных и телекоммуникационных технологиях, подобно очной форме обучения.

Ключевые слова: преподавание, образование, дистанционное обучение, инновационные методы, гибкость, модульность, параллелизм, непрерывное образование.

PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS FOR THE FORMATION OF DISTANCE EDUCATION

This article presents the basic concepts of the modern educational process and their definitions. Distance education is an educational complex based on the means of exchanging educational information remotely, the teacher provides educational services to all segments of the population and foreign students using a special information environment. Distance education and distance learning have their own characteristics, pedagogical system, necessity and purpose, it is a form of education based on information and telecommunication technologies, similar to full-time education.

Key words: teaching, education, distance learning, innovative methods, flexibility, modularity, parallelism, continuous education.

Kirish. Hozirgi kunda kompyuter va axborot texnologiyalari jadal sur'atlar bilan yangilanib, rivojlanish bilan birga kundalik turmushimizning asosiga aylanib qolmoqda. Jumladan, fan va texnikada, ishlab-chiqarish, bank tizimi va matlubot, radio-televideniye, maishiy xizmat ko'rsatish, savdo-sotiq, huquqni muhofaza qilish organlari, meditsina va boshqa barcha sohalarida kompyuterlar shu soha xodimlari uchun asosiy ish quroli-vositasi bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, internetning paydo bo'lishi bu o'zgarishlar ichida alohida o'rin tutadi.

Internet multimedia ma'lumotlarni, axborotlarni uzoq masofalarga uzatish va qabul qilish vositasidir. Dunyoning bir chekkasida yuz bergan hodisalar haqidagi yangiliklar, ma'lumotlar internet vositasida boshqa mamlakatlarga oniy lahzalarda yetib boradi. Xuddi shu imkoniyatlarga ko'ra internet sayyoramizda siyosiy-

iqtisodiy, moliyaviy, ta’lim va boshqa sohalarda xalqaro hamkorlik aloqalarini jadallashtirishga bebaho hissa qo’shmoqda.

Shularni hisobga olgan holda, bu sohadagi muammolarni zamonaviy kompyuter va kommunikatsiya imkoniyatlaridan foydalangan holda ijobiy hal qilish mumkin.

Hozirgi zamon ta’lim jarayoniga an’anaviy tushunchalar qatorida yangidan yangi tushunchalar kirib kelmoqda. Quyida shu tushunchalardan asosiylari keltirilib, ularga ta’riflar berib o’tilgan. O’qitish – bu ma’lum bir maqsadga yo’naltirilgan tizimli bilim va ko’nikmalar bilan qurollangan jarayondir. Ta’lim – bu o’qitishning natijasi bo’lib, shaxsiyatni tarbiyalash va rivojlantirishdir. Masofaviy o’qitish – eng yaxshi an’anaviy va innovatsion metodlar, o’qitish vositalari va formalarini o’z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta’lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta’lim formasidir. Masofaviy o’qish – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta’lim tizimidir. U ta’lim oluvchiga ma’lum standartlar va ta’lim qonun-qoidolari asosida o’quv shart-sharoitlari va o’qituvchi bilan muloqotni ta’minlab berib, o’quvchidan ko’proq mustaqil ravishda shug’ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o’qish jarayoni ta’lim oluvchining qaysi vaqtda va qaysi joyda bo’lishiga bog’liq emas.

Asosiy qism. Masofaviy ta’lim – masofadan turib o’quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o’qituvchi maxsus axborot muhiti yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta’lim oluvchilarga ta’lim xizmatlarini ko’rsatuvchi ta’lim kompleksidir. Demak, masofaviy o’qitish masofaviy ta’lim kompleksidagi jarayon ekan. Masofaviy o’qitishning va masofaviy ta’limning o’ziga xos xususiyatlari, pedagogik tizimi, zarurligi va maqsadi mavjud.

Masofaviy ta’lim an’anaviy ta’lim turidan quyidagi xarakterli xususiyatlari bilan farqlanadi. Moslashuvchanlik – ta’lim oluvchiga o’ziga qulay vaqt, joy va tezlikda ta’lim olish imkoniyati mavjudligi. Modullilik – bir biriga bog’liq bo’lmagan mustaqil o’quv kurslari to’plamidan - modullardan individual yoki guruh talabiga mos o’quv rejasini tuzish imkoniyati mavjudligi. Parallellik – o’quv faoliyatini ish faoliyati bilan birga parallel ravishda, ya’ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borish imkoniyati mavjudligi. Keng qamrovlilik – ko’p sonli o’quvchilarning bir vaqtning o’zida katta o’quv (elektron kutubxona, ma’lumotlar va bilimlar bazasi va boshqalar) zahiralari murojaat qila olishi. Bu ko’p sonli o’quvchilarning kommunikatsiya vositalari yordamida o’zaro va o’qituvchi bilan muloqotda bo’lish imkoniyati. Iqtisodiy tejamkorlik – O’quv maydonlari, texnika vositalari, transport vositalari va o’quv materiallaridan samarali foydalanish, o’quv materiallarini bir joyga yig’ish, ularni tartiblangan ko’rinishga keltirish va bu ma’lumotlarga ko’p sonli murojaatni tashkil qilib bera olish mutaxassislarni tayyorlash uchun ketadigan xarajatlarni kamaytiradi. Ijtimoiy teng huquqlilik – Ta’lim oluvchining yashash joyi, sog’lig’i va moddiy ta’minlanish darajasidan qat’iy nazar hamma qatori teng huquqli ta’lim olish imkoniyati. Internatsionallilik – Ta’lim sohasida erishilgan jahon standartlariga javob beradigan yutuqlarni import va eksport qilish imkoniyati. O’qituvchining yangi roli – Masofaviy o’qitish o’qituvchining o’qitish jarayonidagi rolini yanada kengaytiradi va yangilaydi. Endi o’qituvchi o’zlashtirish jarayonini muvofiqlashtirishi, yangiliklar va innovatsiyalarga mos ravishda berayotgan fanini muntazam mukammallashtirishi, saviya va ijodiy faoliyatini yanada chuqurlashtirishi talab etiladi. Sifat – Masofaviy o’qitish usuli ta’lim berish sifati bo’yicha kunduzgi ta’lim turidan qolishmaydi. Balki, mahalliy va chet ellik dars beruvchi kadrlarni jalb qilib, eng yaxshi o’quv-metodik darsliklar va nazorat qiluvchi testlardan foydalangan holda o’quv jarayonini tashkil etish sifatini oshirishi mumkin.

Ta’lim maskanlariga talaba qabul qilish sonining cheklanganligi. - Ta’lim olishni xohlovchilar sonining oshishi. - Sifatli axborot texnologiyalarining paydo bo’lishi va rivojlanishi. - Xalqaro integratsiyaning kuchayishi. Yuqorida sanab o’tilgan sharoit va imkoniyatlar masofaviy o’qitishga ehtiyoj borligini ko’rsatadi. Umuman olganda masofaviy ta’limning maqsadiga quyidagilar kiradi: 1) Mamlakat miqyosidagi barcha hududlar va chet eldagi barcha o’quvchilar, talabalar, ta’lim olishni xohlovchilarga birdek ta’lim olish imkoniyatini yaratib berish. 2) Yetakchi universitetlar, akademiyalar, institutlar, tayyorlov markazlari, kadrlarni qayta tayyorlash muassasalari, malaka oshirish institutlari va boshqa ta’lim muassasalarining ilmiy va ta’lim berish potentsiallaridan foydalanish evaziga ta’lim berishning sifat darajasini oshirish. 3) Asosiy ta’lim va asosiy ish faoliyati bilan parallel ravishda qo’shimcha ta’lim olish imkoniyatini yaratib berish. 4) Ta’lim oluvchilarni ta’lim olishga bo’lgan ehtiyojini qondirish va ta’lim muhitini kengaytirish. 5) Uzluksiz ta’lim imkoniyatlarini yaratish. 6) Ta’lim sifatini saqlagan holda yangi prinsipal ta’lim darajasini ta’minlash. Yuqoridagilarni xulosa qilib shuni aytish mumkinki, masofaviy ta’lim kompleksini ta’lim muassasalariga joriy etilishi har tomonlama foyda keltiradi. Oliy ta’lim tizimida bu kompleksni joriy qilish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Respublika miqyosidagi barcha Oliy ta’lim maskanlari (OTM) kompyuter, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bilan yaxshi ta’minlangan. Ularning barchasi Internet tarmog’iga ulanganlar. Ushbu texnologiyalarni ta’lim tizimiga keng joriy etish

OTMlari oldiga qo'yilgan ko'p muammolarni o'z paytida hal etishga yordam beradi. Masofaviy o'qitish nima? Darhaqiqat, masofaviy o'qitish nima, undan uzluksiz ta'lim tizimida qanday foydalanish mumkin. Uning qanday shakl va modellari mavjud? Insoniyat yigirmanchi asr nihoyasida bir turkum muammolarga duch keldikim, ular bevosita axborot telekommunikatsiya sohasidagi jiddiy o'zgarishlar, xususan, axborot texnologiyalarining jadal sur'atlar bilan rivojlanishiga bog'liq. Ta'lim, ishlab chiqarish va kishilik jamiyatining turli jabhalariga yangi axborot kommunikatsiya vositalari kirib kela boshladi. Internet global kompyutertarmog'ini rivojlanishi butun dunyo ta'lim tizimini takomillashtirishning yangi yo'nalishlarini ochilishiga sabab bo'ldi. Birinchidan, o'quv muassasalarining texnik ta'minotini keskin o'zgarishi, dunyoviy axborot resurslarga keng yo'l ochilishi o'qitishning yangi shakl va usullaridan foydalanish zaruratini keltirib chiqardi.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta'lim jarayoniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli - masofaviy o'qitish yaratilishiga omil bo'ldi. Masofaviy ta'limda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo'ladilar. Internet texnologiyasini qo'llashga asoslangan masofaviy o'qitish jahon axborot ta'lim tarmog'iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o'zaro aloqa tamoyiliga ega bo'lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi. Masofaviy o'qitish barcha ta'lim olish istagi bo'lganlarga o'z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o'qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o'quv-uslubiy materiallarni o'zlashtiradi, nazoratdan o'tadi, o'qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa «vertikal o'quv guruhi» talabalari bilan muloqotda bo'ladi. Ma'lum sabablarga ko'ra, ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limlarida tahsil olish imkoniyati bo'lmagan, masalan, sog'ligi taqazo etmaydigan, mutaxassisligini o'zgartirish niyati bo'lgan yoki yoshi katta, malakasini oshirish niyati bo'lgan kishilar uchun masofaviy o'qitish qulay o'qitish shakli hisoblanadi. Masofaviy o'qitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi, ya'ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog'liq. Masalan, an'anaviy bosma usuliga asoslangan o'qitish vositalari (o'quv qo'llanma, darsliklar) talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferensiyalar ma'lum vaqt orasida o'zaro muloqotda bo'lishga, elektron pochta to'g'ri va teskari aloqa o'rnatishga, ya'ni xabarlarni jo'natish va qabul qilishga mo'ljallangan. Oldindan tasmaga muhrlangan videoma'ruzalar talabalarga ma'ruzalarni tinglash va ko'rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish talabalarga o'zaro teskari aloqa orqali o'qitish imkonini beradi. Yuqoridagilarga asoslanib, ta'lim jarayonida ayni vaqtda qayta-qayta tilga olinayotgan ayrim terminlar tavsifi va ta'riflarni keltirib o'tamiz.

Masofaviy ta'lim - masofaviy o'qitishga asoslangan ta'lim Masofaviy o'qitish – o'zaro ma'lum bir masofada Internet texnologiyasi yoki boshqa interaktiv usullar va barcha o'quv jarayonlari komponentlari – maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakllar va o'qitish usullariga asoslangan talaba va o'qituvchi o'rtasidagi munosabat. Masofaviy o'qitish tizimi – masofaviy o'qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o'qitish tizimi. Barcha ta'lim tizimlari singari masofaviy o'qitish tizimi o'zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega. Masofaviy o'qitishning pedagogik texnologiyalari – tanlangan o'qitish konsepsiyasiga asoslangan masofaviy ta'limning o'quv-tarbiyaviy jarayonini ta'minlovchi o'qitish metodi va uslublar majmuasi. Keys-texnologiya – masofaviy o'qitishni tashkil qilishning shunday uslubiki, masofaviy ta'limda matnli, audiovizual va multimediali (keys) o'quv uslubiy materiallar majmuasi qo'llanishga asoslanadi. TV-texnologiya – masofaviy o'qitishni tashkil qilishning shunday uslubiki, u talabalarga o'quv-metodik ma'lumotlarni televideniye vositasi yordamida yetkazishga xizmat qiladi va tashqi aloqali ixtiyoriy interaktiv usullardan biri bilan o'rnatishga asoslanadi. Masofaviy o'qitishning ta'lim tizimida bir-biridan farqlanuvchi model va shakllari mavjud bo'lib, ular quyidagi qo'llanish shartlari bilan farqlanadi: - geografik shartlar (masalan, mamlakat territoriyasi, markazdan uzoqlikda joylashuvi, iqlimi); - mamlakatning axborotlashuvi va kompyuterlashtirish umumiy darajasi; - kommunikatsiya va transport vositalarining rivojlanish darajasi; - ta'lim jarayonida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining qo'llanish darajasi; - ta'limda qo'llaniladigan an'analari; - masofaviy o'qitish tizimi uchun ilmiy pedagog kadrlar mavjudligi va ularning salohiyati va boshqalar. Bugungi kunda taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda va juda tez o'zgarimoqda. Deyarli har daqiqada sayyoramizning turli burchaklarida o'zgarishlar, yangilanishlar va kutilmagan voqea-hodisalar sodir bo'lmoqda. Har bir kunimiz kuchli axborot oqimi ostida kechmoqda. Axborot oqimi bizni uyda, ishxona va ta'tilda ta'qib etadi. Inson informatsiya ta'siridan xoli normal faoliyat yurita olmaydi. Hayotni anglash, uni o'rganish informatsiyalarni yig'ish va o'zlashtirish orqali kechadi. Insonning bilimlilik darajasi ham ma'lum davr ichida shaxs tomonidan o'zlashtirilgan informatsiyalarning ko'p yoki ozligi bilan belgilanadi. Shuning uchun zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish, ta'limotni takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalardan unumli foydalanish -bugungi kunning talabiga aylandi.

Vaholanki, ta’lim tizimida sezilarli o’zgarishlar ro’y bermoqda. Ta’lim tizimida Masofadan o’qitish uslubi shakllari qo’llanilmoqda. Masofadan o’qitish uslubi - bu sirtqi o’qishning yangi shaklidir. Masofadan o’qitish bu mustaqil o’qishdir. Mustaqil o’qish insonning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa va bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masofadan o’qitishning yana bir afzalligi shundaki, unda o’quvchi o’ziga qulay vaqtida va hattoki ishdan ajralmagan holda o’qishi mumkin. Aynan shu afzalliklari tufayli bu uslub dunyoda hozirgi kunda keng tarqalgan. Ko’pgina yirik korxonalar mutaxassislari malakasini oshirish yoki o’zgartirish uchun shu uslubdan foydalanib, yiliga millionlab dollarlarni tejamoqdalar.

Masofadan o’qitishning yana bir afzallik tomoni unda o’qish muddatini o’quvchi o’zi belgilaydi, ya’ni talaba ixtiyoriy paytda o’qishni boshlaydi, materiallarni o’qituvchi nazoratida o’zlashtiradi. O’zlashtirish topshiriqlarni, testlarni bajarishiga qarab aniqlanadi. O’quvchi berilgan programmani qanchalik tez o’zlashtirsa, shunchalik tez o’qishni tugatadi va guvohnoma oladi. Dasturni o’zlashtira olmasa, unga mustaqil ishlab, o’qishni davom ettirishga imkoniyat beriladi. Masofadan o’qitishda odatda ishlayotganlar onalar, o’qiyotganlar biror mutaxassislikni egallash yoki malakasini oshirish maqsadida o’qiydi. Bu uslub nogironlar uchun juda qulaydir. Masofadan o’qitishda hattoki maxbuslar ham o’qish imkoniga ega. Masofadan o’qitish uchun talabalar uchun auditoriyalar, yotoxonalar zarur emas. Masofadan o’qitishda moliyaviy harajatlar asosan o’quv uslubiy materiallar tayyorlash uchun, maxsus auditoriyalar uchun sarflanadi. Bu xarajatlarning asosiy qismi bu jarayonni tashkil etish bosqichida sarflanadi. Keyinchalik moliyaviy harajatlar kamayadi. Shuning uchun talabalar sonini oshishi bilan o’qish narxi ham pasayadi. Masofadan o’qitishda asosiy e’tiborni o’quv-uslubiy materiallarni tayyorlashga qaratish darkor. Chunki o’quvuslubiy materiallarning sifati masofadan o’qitish sifatining eng asosiy omillaridan biridir. O’quv-uslubiy material qanchalik tushunarli va batafsil bo’lsa, shunchalik u o’quvchiga foydali bo’ladi.

Xulosa. Olimlarning aniqlashicha, talabalar oyoq va qo’l chigalini yoyish uchun dam olib tursalar, yaxshi natijalar ko’rsatar ekanlar. Biror mavzuni o’zlashtirayotganingizda to’xtovsiz uni o’qimang. Sababi o’zlashtirgan materiallaringizni hali eslab qolishga ham ulgurishingiz kerak. O’rganyotgan mavzuingizni 30-45 daqiqalik sessiyalarga bo’lib oling. Har bir sessiyadan so’ng 5 daqiga dam oling. Bu 5 daqiqada nimani o’rganganingizni tahlil qiling. Bunda hatto qog’oz, ruchka olib, kerakli ma’lumotlarni termin tariqasida yozib qo’yish bilan shug’ullanishingiz mumkin. Masofadan turib tahsil olayotgan talabalarga yuqorida kelitirilgan tavsiyalar bugungi kunda asqotadi deb o’ylaymiz. Masofaviy ta’lim talabadan ko’proq mustaqil o’qib izlanishni talab qiladi. Mulohaza uchun quyidagi fakt bilan maqolani tugatmoqchimiz. Ma’ruzachini bir marta eshitgan talaba ertasi kuni materialning 10% ni eslab, tushunishi mumkin. Talaba o’zi mustaqil o’rganib, tadqiq qilganda bu ko’rsatkich 30% ga oshar ekan. Shunday ekan, masofaviy ta’limning o’ziga yarasha ijobiy tomonlari bor. Bu borada sizlarga ulkan omadlar tilab qolamiz!

Adabiyotlar:

1. A’zamova Makhliyo Abdurakhimovna, Психологические трудности младшего школьного возраста “XXI asr psixologiyasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to’plami 1. 40-42.
2. A’zamova Makhliyo Abdurakhimovna Махаллада психологик хизмат кўрсатишнинг эмпирик асослари psixologiya. 4 (4), 62-66 2021
3. A’zamova Makhliyo Abdurakhimovna Понимание психологического благополучия личности в суфизме и современной психологии // Вестник интегративной психологии 23 (23), 38-41.
4. A’zamova Makhliyo Abdurakhimovna Жизненные стратегии современной молодежи // Вестник интегративной психологии. - 22 (22), 24-26.
5. A’zamova Makhliyo Abdurakhimovna Махаллада психологик хизмат кўрсатишнинг амалиёти. // Tafakkur va talqin ilmiy maqolalar to’plami 1 (1), 623-625.
6. A’zamova Makhliyo Abdurakhimovna Махаллада психологик хизмат ташкил этилишининг эмпирик асослари // Психология. 4 (4), 159-162
7. A’zamova Makhliyo Abdurakhimovna Индивидуализация как главная характеристика личности // Вестник интегративной психологии. 19 (19), 415-418
8. Hakimova Fazolat Khoshimovna Психология: происхождение и структура научного факта // Вестник интегративной психологии. 19 (2), 115-119
9. Hakimova Fazolat Khoshimovna Мактабгача ёшдаги болаларнинг ижтимоий психологик мослашув шаклланишида сикхоккорекция методларининг урни. // Психология. 4 (5), 128-130.
10. Hakimova Fazolat Khoshimovna Мактабгача ва кичик мактаб ёшидаги болаларда мослаша олмасликнинг турли курунишларини психологик хусусиятлари. // Тафаккур ва талкин. 5 (2), 776-779.
11. Hakimova Fazolat Khoshimovna Бола шахсининг шаклланишида оиланинг урни // Тафаккур ва талкин. 3 (2), 452-455
12. Hakimova Fazolat Khoshimovna Мослаша олмаслик хусусиятларининг мактабгача ва кичик мактаб ёшидаги болаларда турли психологик кўрунишлари // Психология. 4 (21), 89-91.

JUMANOVA Nasiba Sherbaevna

Jizzax davlat pedagogika universiteti katta
o‘qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar, ularning axloqiy xulq-atvorini shakllantirishning ilmiy nazariy va uslubiy muammolari, axloqiy munosabatlar haqida hamda maktabgacha yoshdagi bolalarda faoliyat jarayonlarida: mashg‘ulotda yoki o‘yin faoliyatida ijobiy yoki salbiy axloqiy fazilatlar namoyon bo‘lishi haqida fikr yuritilgan. Maqolada, shuningdek, bolalarda axloqiy me‘yorlar kattalar bilan munosabatda shakllanishi ham yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: axloq, ong, axloqiy va madaniy bilimlar, xulq-atvor, ijobiy munosabat, ehtiyoj, me‘yor, munosabat, inson kamoloti.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЯСТВЕННЫХ УСТАНОВОК У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

В статье рассматриваются научно-теоретические и методические проблемы формирования нравственного поведения дошкольников, нравственных отношений, проявления положительных или отрицательных нравственных качеств дошкольников в процессе деятельности: учебной или игровой. Также в статье освещается формирование нравственных норм детей в отношениях со взрослыми.

Ключевые слова: этика, сознание, нравственно-культурные знания, поведение, позитивное отношение, потребность, норма, отношение, человеческая зрелость.

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF MORAL ATTITUDES IN PRESCHOOL CHILDREN

The article deals with scientific, theoretical and methodological problems of the formation of the moral behavior of preschoolers, moral relations, the manifestation of positive or negative moral qualities of preschoolers in the process of activity: educational or playing. The article also highlights the formation of moral standards of children in relations with adults.

Key words: ethics, consciousness, moral and cultural knowledge, behavior, positive attitude, need, norm, attitude, human maturity.

Kirish. Insoniyat madaniyatining tarixiy rivojlanishi jamiyatdagi munosabatlarning insonparvarlashuv darajasi, odamlar hayotida ma’naviy axloqning ta’sir doirasi kengayishi bilan baholanadi.

“Axloq” so‘zining ma’nosi odamlar o‘rtasida vujudga keladigan, umume’tirof etilgan me‘yorlarga muvofiq yaxshilik va yomonlik nuqtayi nazaridan baholanadigan haqiqiy munosabatlar yig‘indisi” sifatida izohlanadi. Axloq - bu inson tomonidan odatlar, ijtimoiy muhit, ta’lim va xulq-atvor tajribasiga muvofiq ishlab chiqilgan ehtiyoj, atrof-olamga, odamlarga va o‘ziga nisbatan munosabatning axloqiy me‘yori tushuniladi.

Axloq - inson va tabiat bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladigan ezgulik, adolat, burch, or-nomus ideallariga asoslangan insonning ichki (ma’naviy va ruhiy) fazilatlaridir. Axloq deganda kishilarning xulq-atvorini, jamiyatga munosabatini tartibga soluvchi me‘yorlar yig‘indisi tushuniladi. Inson xatti-harakatlarini tartibga solish va nazorat qilish uchun mo‘ljallangan barcha normalar axloqiy xususiyatga ega. Har qanday axloq normasi shaxsning jamiyatga munosabatini ifodalaydi va tartibga soladi. Ko‘pincha shaxs manfaatlari jamiyat, siyosat, davlat manfaatlari bilan to‘liq mos kelmaydi va natijada ko‘pincha qiyinchiliklar paydo bo‘ladi. Kishilar bu me‘yorlarni atrof-dagi odamlardan o‘rganadi va ularni o‘zining ijtimoiy xulq-atvorining tartibga soluvchisiga aylantiradi.

Asosiy qism. Binobarin, inson kamoloti, shubhasiz, uning gavdalanishi va axloqiy qoidalar asosida shakllanishi bilan xarakterlanadi. S.I.Ojegovning lug‘atida axloqiy tarbiyaning ta’rifi: "Inson tomonidan boshqariladigan ichki ma’naviy fazilatlar va axloqiy me‘yorlarni tarbiyalash ushbu fazilatlar bilan belgilanadigan xatti-harakatlar qoidalari bilan belgilanadi.

Axloqiy munosabatlarni shakllantirish vazifasi kattalar uchun jamiyatning ijtimoiy zaruriy ehtiyojlarini har bir bolaning shaxsiyati uchun burch, or-nomus, vijdon va qadr-qimmat kabi ichki rag'batlarga aylantirishdir. Shaxsning axloqiy fazilatlarining shakllanishi tug'ilishdan boshlanadi, maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy elementlar mavjud, birinchi his-tuyg'ular va g'oyalar maktabgacha yosh davridan paydo bo'ladi, axloqiy xatti-harakatlarning eng oddiy qobiliyatlari rivojlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti maktabgacha yoshdagi bolalarning xatti-harakatlarida va kattalar hamda tengdoshlari bilan munosabatlarida eng oddiy axloqiy bilim va tuyg'ular, axloqiy xatti-harakatlar, ong, his-tuyg'ular, munosabatlarning yangi shakllari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun bolalarning ijobiy axloqiy tajribasi axloqiy tarbiya uchun muhim ahamiyatga ega. Ta'lim, birinchi navbatda, kundalik hayotda davom etadi, bunda bola axloqiy me'yorlar, qoidalar, tamoyillarga rioya qilishga odatlanib qoladi va ularning zarurligiga ishonch hosil qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xatti-harakatlari boshqalarning jamoat manfaatlariga, shuningdek, jamoat hayotiga bog'liq bo'lsa ham, axloqiy hisoblanadi. Shunday qilib, axloqiy tamoyil bolaning butun ko'p qirrali amaliy faoliyatiga, uning hissiy va intellektual sohalariga kiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda faoliyat jarayonlarida: mashg'ulotda yoki o'yin faoliyatida ijobiy yoki salbiy axloqiy fazilatlar namoyon bo'ladi. Biroq, bolaning axloqiy me'yorlarini bilish uning tarbiyaviy xususiyatlarini hali to'liq aks ettirmaydi. Yaxshi tushunilgan axloqiy me'yorlar har bir bolaning xatti-harakatining motiviga aylanishi juda muhim, shunda bola umumiy qabul qilingan me'yorlar va xatti-harakatlar qoidalariga mos keladigan har qanday vaziyatda ikkilanmasdan to'g'ri qaror qabul qiladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda turli metod va usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Axloqiy tarbiya metodlari deganda, bolalarning axloqiy tasavvur va bilimlarni egallab olishga, ularda madaniy xulq va ijobiy munosabatlarni, shaxsning axloqiy his-tuyg'ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat usulidir.

Axloqiy tarbiya metodlarini shartli ravishda quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Axloqiy ongni shakllantirish metodlari: hikoya, tushuntirish, etik suhbat, izohlash, nasihat, o'git, ko'rsatma, namuna va boshqalar.
2. Axloqiy xulq-atvorni shakllantirish metodlari: mashq, o'rgatish, pedagogik talab, tarbiyalovchi vaziyat, topshiriq va hokozolar.
3. Axloqiy motivatsiyani hosil qilishga doir metodlar: rag'batlantirish, musobaqa, tanbeh berish kabilar

Axloqiy mazmundagi hikoya samaradorligini ta'minlash uchun quyidagi shartlarga rioya qilinishi zarur:

1. Hikoya maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning ijtimoiy tajribasiga mos kelishi lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun hikoyaning qisqa, emotsional, tushunarli bo'lishi maqsadga muvofiq.
2. Hikoyaning rasmlar bilan, musiqa jo'rligida bayon qilinishi uning yaxshi idrok qilinishini ta'minlaydi.
3. Axloqiy mavzudagi hikoyaning yaxshi idrok qilinishi uchun unga mos muhitning yaratilganligi muhim ahamiyatga ega.
4. Hikoyadan ko'zlangan maqsadga erishish uchun uni mohirona bayon etib bera olish lozim. Ishonarsiz, bir xil ohangda hikoya qilish orqali buni amalga oshirib bo'lmaydi.

Tushuntirish metodi esa, bolalarga yangi axloqiy tushuncha, me'yor va qoidalarni bayon qilib berilayotganda ishlatiladi. Tushuntirish kattalarning jonli so'zi va namunasiga asoslaniladi. Masalan, ro'paradan kelayotgan tanish kishiga xushmuomalalik bilan salom berish uchun biroz to'xtab u kishining yuziga qarab, kulimsirab “Assalomu alaykum” deyish, keyin yo'lda davom etish kerak. Tushuntirish va ko'rsatish tabiiy bo'lmog'i lozim.

Axloqiy mavzudagi suhbatni maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning barcha guruhlarida qo'llash mumkin. Axloqiy mavzulardagi suhbatlar orqali bolalar axloq me'yorlari va qoidalarini, ijobiy xulq shakllarini egallabgina qolmay, shu bilan bir qatorda ularda axloq qoidalari va me'yorlariga nisbatan talab yuzaga keladi. Suhbat jarayonida bolalarning axloqiy tajribalarini kengaytirib borish, xulqning axloqiy sabablarini aniqlab berish kerak. Suhbat vaqtida bolalar o'z fikrlarini erkin aytishlariga keng imkon berish lozim. Shunda ular har bir xatti-harakatlarini ongli ravishda, axloq me'yorlari va qoidalari asosida bajarishga urindilar.

Izohlash – tarbiyalanuvchilarga og'zaki-emotsional ta'sir ko'rsatish metodi. Milliy tarbiyamizda mazkur metod “ta'birlamoq” tarzida ham ishlatiladi. Ta'birlamoq – bolada, bolalar guruhida uchrab turuvchi xatti-harakatlarni sifatla-moqdir. Tushuntirish va hikoyadan farqli ravishda izohlashning muhim jihati biror yosh guruhi yoki alohida bolaga ta'sir etishga yo'nalganligidadir. Mazkur metodni qo'llashda maktabgacha yosh guruhi va bolalar guruhining shaxsiy sifatlariga asoslaniladi. Maktabgacha yosh guruhida sodd

izohlash ko‘rinishidan foydalaniladi: “Mana bunday qilish kerak”, “hamma shunday qiladi” va boshqalar. Izohlash metodi yangi axloqiy sifatlar yoki xulq-atvor shakllarini shakllantirish hamda tarbiyalanuvchilarda ma’lum bir xatti-harakatlarga to‘g‘ri munosabatni tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda nasihat qilish muhim o‘rin tutadi. Nasihat – sokin, xayrixoh vaziyatda bolani yaxshi yo‘lga solish, ta’lim berish maqsadida aytilgan gap, maslahat, pand, o‘git. Aynan nasihat tinglash va unga rioya etish mazkur yosh guruhi uchun xosdir. Nasihat orqali bola psixikasiga tizimli ta’sir ko‘rsatilib, unda ma’lum bir faoliyat motivlari va ustanovkalar hosil qilinadi.

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy ongini shakllantirishda ko‘rsatma berishdan ham foydalaniladi. Ko‘rsatmoq – bolaga, bolalarga o‘rnak yoki ibrat olishlari yoki ularda yangi tushuncha, bilim hosil qilish maqsadida biror narsaga diqqat-e’tiborlarini jalb qilishdir.

Ishontirish – bolalarni axloqiy tarbiyalashda katta yordam beradi (“Kasal bo‘lmaslik uchun ovqatlanishdan oldin qo‘lni yuvish kerak”, “O‘rtog‘ini urish yomon”). Ishontirish o‘z navbatida namuna ko‘rsatishni talab etadi. Namuna bolaning birinchi signal tizimiga faol ta’sir ko‘rsatib, harakatlanish uchun aniq timsolni hosil qiladi va o‘z navbatida bolada axloqiy ong, his-tuyg‘u, ishonchni tarkib toptirib, uning faolligini oshiradi.

Bolalarning faol ijtimoiy pozitsiyasi hali to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, mustaqillik boshqa yoshdagi bolalardan o‘zini o‘zi boshqarishi va o‘zini namoyon qilishi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, yoshlarni o‘rganish bo‘yicha asosiy amaliy ishlar F. Akramova, Z. Nishonova, M. Zufarova, E. G‘oziev kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘rganilgan.

Bolaning rivojlanishida faol jarayonlarining paydo bo‘lishi uning axloqiy me’yorlarga hissiy munosabatda va qoidaga o‘xshash xatti-harakatlarning shakllanishida paydo bo‘lishini ko‘rsatdi. Maktabgacha yoshdagi eng muhim yangiliklar orasida: vizual fikrlash, tasavvur, motivlarning bo‘ysunishi, o‘zboshimchalik va aks ettirish elementlari hisoblanadi. 3 yoshida "Men" kontsepsiyasining paydo bo‘lishi va kattalar tomonidan qo‘llab quvvatlanishi maktabgacha yoshdagi bolaning ruhiy tuzilishida muhim yangi shakllanishlarga olib keladi - o‘zini o‘zi qadrlash va o‘zini o‘zi anglash, bu bola hayotining boshida chinakam faol pozitsiyasini ta’minlaydi. Tarbiyachining birinchi navbatdagi vazifasi bolani kattalardan ajralib, o‘zining "men" ini ochib berishga yordam berishidir. Umuman olganda, ontogeneznining ushbu bosqichining funksional tizimi bolaning aqliy, motivatsion, hissiy, axloqiy va irodaviy tabiatining jadal rivojlanishidan iborat.

O‘yin va muloqotning tobora murakkab shakllari kommunikativ sohada sezilarli o‘zgarishlarga yordam beradi. Ruhiy jarayonlar va xatti-harakatlarda paydo bo‘ladigan o‘zboshimchalik qiladigan vaziyatlarda o‘z-o‘zidan reaksiyalar nisbati pasayishiga, axloqiy hg’atti-harakatlar me’yorlari vositachiligidagi motivlarga bo‘ysunishga olib keladi. E.Eriksonning epigenetik rivojlanish nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshning oxiriga kelib, uchta ijobiy komponent: dunyoga asosiy ishonch, shaxsiy avtonomiya va maqsadga erishishda qat’iyatlilikka asoslangan tashabbus kabi sifatlar shakllanadi. M. Qoplonovanning fikricha, bolada o‘z-o‘zini hurmat qilish va o‘zini o‘zi anglash kattalar uchun ideal model bilan muloqot qilish (avval vaziyat-kognitiv, keyin esa tashqi vaziyat-shaxsiy) taqqoslash orqali shakllanadi.

I.V.Sushkovaning “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 6-7 yoshli bolalarning axloqiy ongini shakllantirish” dissertatsiyasida ta’kidlanganidek, tarbiyachiga nisbatan emotsional ijobiy munosabat ijobiy axloqiy me’yorga rioya qilishga qaratilgan. Umuman olganda, ontogeneznining ushbu bosqichining funksional xususiyati bolaning aqliy, motivatsion, hissiy, axloqiy va irodaviy fazilatlarini jadal rivojlantirishdir. O‘yin va aloqaning tobora murakkab shakllari kommunikativ sohada sezilarli o‘zgarishlarga yordam beradi.

Ruhiy jarayonlar va xulq-atvorda yuzaga keladigan o‘zboshimchalik vaziyatga o‘z-o‘zidan reaksiyalar nisbati pasayishiga, xatti-harakatlarning axloqiy me’yorlari vositachiligidagi motivlarga bo‘ysunishga olib keladi. Bunda his-tuyg‘ular alohida rol o‘ynaydi, bolaga ma’lum bir maqsadning mumkin bo‘lgan oqibatlarini oldindan ko‘rishga yordam beradi (A.V. Zaporozets buni "hissiy tasavvur" deb atagan). Bilvosita ehtiyojlar "qabul qilingan niyat" (L.I. Bojovich) fenomeni bilan bog‘liq bo‘lib, u insoniy axloqiy munosabatlarning rivojlanishi uchun juda muhimdir.

I.V.Sushkova to‘g‘ri ta’kidlaydiki, "ixtiyoriy xulq-atvorning paydo bo‘lishi individual axloqiy ongni shakllantirish uchun zarur, ammo yetarli emas, chunki axloqiy talablarga rioya qilish, birinchi navbatda, ma’qullash zarurati bilan bog‘liq". Z.Nishonovanning fikricha, bolalarni axloqiy xulq-atvoriga undashning birinchi sabablaridan biri bu kattalarning roziligidir. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining burch tuyg‘usiga muvofiq axloqiy harakat qilishi - bu asosiy axloqiy motivdir.

Zamonaviy tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolaning axloqiy xulq-atvorining motivatsion yo‘nalishini tashkil etuvchi tarkibiy qismlarni aniqlaydi: axloqiy ehtiyojlar va motivlar, axloqiy o‘zini-o‘zi anglash va o‘zini-o‘zi qadrlash, his-tuyg‘ular va tajribalar, shuningdek, ijtimoiy tuyg‘ular. Ko‘pgina

tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolani ijtimoiy xatti-harakatlarning paydo bo'lishida eng sezgir davr deb ta'riflaydi. L.S. Vygotskiyning fikriga ko'ra, "ichki axloqiy holatlar" maktabgacha yoshda paydo bo'ladi.

Xorijiy tadqiqotchilar ham maktabgacha yosh bolaning axloqiy rivojlanishi uchun eng qulay davr deb hisoblashadi. E.G'oziyev maktabgacha ta'limning muayyan ta'sirlarga alohida ochiqlik va ularni qabul qilishga ichki tayyorlik davri ekanligini ta'kidlaydi hamda maktabgacha yoshdagi bolalarda ongning rivojlanayotgan axloqiy va baholash faoliyati asosida axloqiy tanlov qilish qobiliyati rivojlanadi, bu esa o'z navbatida tan olish zarurati bilan bog'liq ekanligini uqtiradi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining "axloqiy qiyofa" toifasidan bolalarning axloqiy sifatlarini rivojlantirishda foydalanish muhimdir. Bu o'z o'rnida bolaning axloqiy fazilatlarini, imkoniyatlari namoyon bo'lishi, ularga nisbatan shaxsiy munosabati haqidagi g'oyalarni o'z ichiga oladi va bolaning axloqiy ishini tanlash va bajarish istagini oldindan belgilaydi. Shunday qilib, biz axloqiy munosabatlarni shakllantirish, ayniqsa, maktabgacha yoshda qanchalik muhimligini ko'ramiz, chunki aynan shu davrda u tarbiyaning asosini tashkil qiladi. Bundan kelib chiqadiki, bolaning axloqiy munosabatlarini shakllantirishga ta'limning alohida bo'limi va boshqa har qanday bo'lim sifatida qarash kerak. Shunday qilib, biz "axloqiy munosabat" tushunchasining mohiyati maktabgacha yosh davrida amalga oshiriladigan ta'lim jarayonini o'z ichiga oladi, bolalar hayotini tashkil etishda tizimlashtiruvchi omil sifatida organik komponent bu yerda axloqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyati bo'lishi kerak degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Psixologik maslahat R. Abdurasulov va G Qarshiboeva O'quv qo'llanma Bayoz-Toshkent 2022 yil
2. Nasiba Jumanova, Цели и задачи активации, ускорения педагогических технологий // Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: Том 1 № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari
3. Jumanova, N. (2021). Профилактика психологических дефектов в развитии личности. // Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1365>
4. Jumanova, N. (2021). Характеристики пробуждения большой группы детей любовь к литературе. // Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1366>
7. Атамуродова, Р. К., Жуманова, Н. Ш., & Алимкулов, С. О. У. (2016). Взгляды учёных средневековья о душе человека. Проблемы педагогики, (8 (19)).
8. Sherboevna, N. J. (2020). The use of integrated technologies in the cultivation of children's speech in preschool education. // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(2).

TEMIROVA Kumushoy Sadriddinovna

Buxoro davlat Pedagogika instituti Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang’ich ta’lim) yo’nalishi magistranti, Buxoro shahar 12-IDUM ning boshlang’ich sinf o’qituvchisi

BOSHLANG’ICH SINFI O’QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Bu maqolada kompetensiyaning mazmun-mohiyati turlari, insonning butun hayoti davomida shakllanib hamda rivojlanib borishi va ularni faoliyat turi yoki fan tarmog’i bo’yicha chegaralab bo’lmashligi, kompetensiyaning shakllanishiga ma’lum bir vaqt davomida to’plangan bilim va malakalar zamin yaratib borishi haqida fikr va mulohazalar keltirib o’tilgan. Ona tili fanini o’qitishning asosiy vazifasi sifatida “o’quvchi shaxsini fikrlashga, o’zgaralar fikrini anglashga, o’z fikrini og’zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish, o’quvchida grammatikaga oid o’zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, so’zning tarkibi, so’z yasash, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish, ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to’g’ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat” ekanligi belgilangan.

Bundan tashqari yangi o’quv dasturi asosida yaratilgan ona tili va o’qish savodxonli darsligidagi nutqiy kompetensiyalarning o’rni va ahamiyati, undagi nutqiy mavzular doirasida qanday malaka talablari qo’yilgani, bunda qaysi jihatlarga e’tibor berish lozimligi, rejada ajratilgan soatlarga muvofiq darslarni tashkil etish bo’yicha tavsiyalar, darslikdagi mashq, topshiriqlarning bajarishdagi maqsad va vazifalar bayon qilingan.

***Kalit so’zlar:** nutq, og’zaki va yozma savodxonlik, nutqiy ko’nikma, nutqiy kompetensiya, mashq, o’quv topshirig’i, matn ustida ishlash.*

ФОРМИРОВАНИЕ РЕЧЕВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

В данной статье рассматриваются виды содержания и сущности компетентности, формирование и развитие человека на протяжении всей его жизни, а также то, что они не могут быть ограничены родом деятельности или отраслью науки, знаниями и умениями, накопленными за определённый период времени создают основу для формирования компетентности. В качестве основной задачи обучения родному языку «формирование речевой компетенции, направленной на мышление личности учащегося, понимание чужого мнения, умение выражать своё мнение в устной и письменной форме, приобретение у учащегося грамматических знаний» (фонетика, лексикология, письмо, структура слова, словообразование, морфология, синтаксис, письмо и орфография, пунктуация, стили речи, стилистические понятия) развитие, используя широкие возможности родного языка правильно и определяется, что оно состоит из формирования языковых компетенции, направленные на развитие беглости.

Кроме того, рассматриваются роль и значение речевых компетенций на родном языке и грамотности чтения учебника, созданного на основе новой учебной программы, какие требования к навыкам установлены в рамках речевых предметов в нем, на какие аспекты следует обратить внимание, отведённые часы в плане описаны рекомендации по организации соответствующих занятий, упражнения в учебнике, цели и задачи при выполнении заданий.

***Ключевые слова:** речь, устная и письменная грамотность, разговорные навыки, компетенция, упражнение, задание, работа над текстом.*

FORMATION OF SPEECH COMPETENCES OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS

This article discusses the types of content and essence of competence, the formation and development of a person throughout his life, as well as the fact that they cannot be limited by the type of activity or branch of science, knowledge and skills accumulated over a certain period of time create the basis for the formation of competence. As the main task of teaching the native language, “the formation of speech competence

aimed at thinking of the student's personality, understanding the opinions of others, the ability to express one's opinion orally and in writing, acquiring grammatical knowledge from the student" (phonetics, lexicology, writing, word structure, word formation, morphology, syntax, writing and spelling, punctuation, styles of speech, stylistic concepts) development, using the wide possibilities of the native language correctly and is determined that it consists of the formation of language competencies aimed at developing fluency.

In addition, the role and importance of speech competencies in the native language and the literacy of reading a textbook created on the basis of the new curriculum, what skills requirements are established within the framework of speech subjects in it, what aspects should be paid attention to, the allotted hours in the plan, recommendations for organizing relevant classes, exercises in the textbook, goals and objectives in completing assignments.

Keywords: speech, oral and written literacy, speaking skills, speaking competence, exercise, task, work on the text.

Kirish. Mamlakatimizda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarga innovatsion, ilg'or usullar va metodlarni qo'llab, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta'lim berish hamda o'quvchilarning ta'limdagi sifat samaradorligini oshirish, yoshlarni raqobatbardosh qilib tarbiyalash ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 187-sonli qarori, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonlarida belgilangan qator vazifalar o'quvchilarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga zamin hozirlaydi. Shu bois ilm berishda sharq allomalari mustaqil fikrlash, fikrni bayon qilish, nutq tuzish jarayonidagi muhim jihatlarni qamrab oluvchi ilmiy qarashlarini qayd qilganlar va shu bilan bir qatorda, nutqning ilmiy- nazariy tomoni lug'atlarda, darslik va o'quv, metodik qo'llanmalarda izoh berilib, atroflicha yoritilgan.

Farobiyning fikricha, qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganda, bu haqdagi ilmlarning eng birinchisi jismlarga, ya'ni substantsiya va aksidentsiyalarga ism beruvchi til haqidagi ilmdir. Ikkinchi ilm grammatikadir. U jismlarga berilgan ism (nom)larni qanday tartibga solishni hamda substantsiya va aksidentsiyaning joylashishiga va undan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so'zlarni va nutqni qanday tuzishni o'rgatadi. Uchinchi ilm mantiqdir. U ma'lum xulosalar keltirib chiqarish uchun mantiqiy figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o'rgatadi. Bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz, hamda nima to'g'ri va nima yolg'on ekanligi haqida hukm chiqaramiz". O'quvchilar nutqida mantiq ilmiga asoslanib fikr-mulohaza bildirish maqsadga muvofiq. Shu bois ular xotirasidagi so'z zahirasini o'z nutqi orqali harakatga keltiradi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi sifatida "o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish, o'quvchida grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish, ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat" ekanligi belgilangan.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim – o'quvchilarning egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish imkoniyatidir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantirdi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch va fanga oid (nutqiy va lingvistik) kompetensiyalarning shakllantirilishi belgilab berilgan.

Kompetensiya – fan bo'yicha egallagan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir.

Kompetentlik tushunchasi deganda, ma'lum bir sohada talaba (masalan, bo'lajak o'qituvchi) tomonidan egallangan Kompetensiya, ya'ni ma'lum bir sifatlarning to'liq shakllangan majmui tushuniladi.

Kompetentlilik tushunchasi (lotinchadan *competentia*, *competere* soʻzidan olingan boʻlib — “birgalikda erishaman, qozonaman, mos kelaman, toʻgʻri kelaman” degan maʼnoni bildiradi) lugʻatlarda esa “nimadir toʻgʻrisida fikr yuritishga yoʻl beradigan bilimlarga ega boʻlish”, “xabardor boʻlmoq, huquqli boʻlmoq” degan maʼnoni bildiradi. Amalda barcha lugʻat tuzuvchilar “kompetentlik” va “kompetensiya” kategoriyalarini chegaralab qoʻyadi. Kompetentlik taʼrifi oʻxshash va bir-birini oʻrnini egallaydi (toʻldiradi), shu bilan bir vaqtda Kompetensiya soʻzi uchun yagona izohlash yoʻq, bu tushuncha “vakolatlar yigʻindisi (huquq va majburiyatlar) qandaydir organ yoki lavozimli shaxsning qonun, nizomlar bilan belgilab qoʻyilgan ushbu organ yoki boshqa holatlar”, “nimanidir toʻgʻrisida fikr yuritishga yoʻl beradigan bilimlarga ega boʻlish (egallik qilish)”, “kimdir yaxshi xabardor boʻlgan savollar toʻplami (sohasi)” tushuniladi.

Kompetentlik tushunchasi taʼlim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik “noanʼanaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning oʻzini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan oʻzaro munosabatlarda yangi yoʻl tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga toʻla maʼlumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yoʻnalish boʻyicha integrativ bilimlar va harakatlarning oʻzlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, Kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni oʻrganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi maʼlumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va oʻz faoliyatida qoʻllay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarining mohiyati quyidagicha yoritiladi:

Kompetensiya - u yoki bu soha boʻyicha bilimdonlikdir. “Kompetensiya” (lot. *competo* - erishyapman, munosibman, loyiqman) 1) muayyan davlat organi (mahalliy oʻzini oʻzi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba. Kompetensiya soʻzining 16 xil maʼnolarini psixologlar tomonidan 7 xil baholash shkalasidan foydalanishdi. Ekspertlar tomonidan qayd etilgan tushunchalar quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish masalalarini yecha olish qobiliyati;
- aniq vaziyatlarda bilim va koʻnikmalarni qoʻllay olish qobiliyati;
- kasbiy standart tavsifiga mosligi;
- tashkilot tomonidan subyektning sifatli faoliyatini shakllantirish maqsadida ishchiga qoʻyiladigan talab;
- ishchining xulq-atvor meʼyorlari tashkilotga mosligi;
- bilim, koʻnikma va malakalar (BKM), qobiliyat, motiv, shaxs, kommunikativ sifatlar va boshqa tushunchalarning umumiy yigʻindisi;
- sifatli ishga tayyorgarligi va koʻnikmasi;
- lavozim vazifalariga masʼulligi va vakolati;
- BKM+kasbiy muhim sifatlar;
- Kompetensiyaning turli jihatlar;
- kasbiy muhim sifatlar tashkilotchilik konteksti bilan birgalikda;
- kasbiy tajribani chuqur anglanishi;
- shaxsiy xususiyat, individuallik;
- muvaffaqiyatli faoliyatda inson omili;
- samarali ishlab chiqarish faoliyati mezonlari;
- ijodkorlik;
- aniq tashkilotlarda ishlab chiqarish vazifalari.

1. Ijtimoiy kompetentlik - ijtimoiy munosabatlarda faollik koʻrsatish koʻnikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subʼektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik-kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish boʻlib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik koʻzga tashlanadi.

3. Shaxsiy kompetentlik - izchil ravishda kasbiy oʻsishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda oʻz ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

4. Texnologik kompetentlik - kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilgʻor texnologiyalarni oʻzlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

5. Ekstremal kompetentlik -favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, toʻgʻri harakatlanish malakasiga egalik.

2020-yildan boshlab Milliy o‘quv dasturi loyihasi doirasida xalqaro tajriba hamda mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda, umumta’lim maktablari uchun 22 ta fandan, xususan, “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fanidan zamonaviy ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari hamda ilg‘or metodikalarni, baholash tizimini ishlab chiqish maqsad qilingan.

Milliy o‘quv dasturi asosida 2020-2021-yildan boshlab umumta’lim maktablarida Ona tili va O‘qish fanlarining birlashuvi natijasi “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fani joriy etildi. Ikki fanning birlashuviga asosiy sabab ona tilini o‘qitishdagi yondashuvning o‘zgarishi bo‘ldi. Endilikda grammatika va yodlashga asoslangan ta’limdan tinglab tushunish, o‘qib tushunish, fikrni og‘zaki va yozma bayon qilishdan iborat til o‘rgatishning 4 ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim shakliga o‘tildi.

Ona tili fani asosida o‘quvchida shakllantiriladigan ko‘nikmalardan biri bu o‘qib tushunishdir. Natijada o‘quvchi darslikda qoidalar o‘rniga ko‘proq matnlar bilan ishlaydi va ularda o‘qib tushunish ko‘nikmasi rivojlanadi. O‘quvchida o‘qib tushunish ko‘nikmasini Ona tili fani rivojlantirishi hisobiga o‘z-o‘zidan O‘qish faniga zarurat qolmaydi.

2020-yildan boshlab Milliy o‘quv dasturi loyihasi doirasida xalqaro tajriba hamda mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda, umumta’lim maktablari uchun 22 ta fandan, xususan, “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fanidan zamonaviy ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari hamda ilg‘or metodikalarni, baholash tizimini ishlab chiqish maqsad qilingan.

Milliy o‘quv dasturi asosida 2020-2021-yildan boshlab umumta’lim maktablarida Ona tili va O‘qish fanlarining birlashuvi natijasi “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fani joriy etildi. Ikki fanning birlashuviga asosiy sabab ona tilini o‘qitishdagi yondashuvning o‘zgarishi bo‘ldi. Endilikda grammatika va yodlashga asoslangan ta’limdan tinglab tushunish, o‘qib tushunish, fikrni og‘zaki va yozma bayon qilishdan iborat til o‘rgatishning 4 ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim shakliga o‘tildi.

Ona tili fani asosida o‘quvchida shakllantiriladigan ko‘nikmalardan biri bu o‘qib tushunishdir. Natijada o‘quvchi darslikda qoidalar o‘rniga ko‘proq matnlar bilan ishlaydi va ularda o‘qib tushunish ko‘nikmasi rivojlanadi. O‘quvchida o‘qib tushunish ko‘nikmasini Ona tili fani rivojlantirishi hisobiga o‘z-o‘zidan O‘qish faniga zarurat qolmaydi. Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligida berilgan bo‘lim va mavzular real hayotga asoslangan bo‘lib, o‘quvchini nafaqat o‘qish va savodxonlik ko‘nikmalarini balki, ularni atrofidagi voqea va hodisalarni anglashga, muayyan ijtimoiy vaziyatlar uchun kerakli bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga asos bo‘lmoqda.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda asosiy e’tibor o‘quvchida tilga doir to‘rt ko‘nikma: o‘qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so‘zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o‘rgatish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili va o‘qish savodxonligi fani ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda quyidagi tamoyillarga tayaniladi:

1. Ta’lim berishda kommunikativ yondashuv, ya’ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Shuningdek, integrativ, faoliyatga yo‘naltirilgan, onglik, kashfiyotchilik, farqli va tanqidiy yondashuvlar e’tiborda bo‘lishi lozim.

2. Tilni amaliyotda qo‘llash, ya’ni matnni o‘qish orqali ham grammatika, ham uning qo‘llanishini o‘rgatishga asoslaniladi.

3. Grammatik savodxonlik doirasida o‘quvchining so‘z boyligini oshirish, so‘zlarning ma’no nozikliklari, farq va o‘xshashliklarini his qilish va anglab yetish, bexato talaffuz qilish va yozish, so‘zlarni bog‘lab gap, gaplardan esa matn tuza olish, birikmalardagi ma’noviy va grammatik, matndagi mantiqiy xatoliklarni topish va tuzatish, o‘zgalar fikrini to‘g‘ri anglash, bir fikrni turli shaklda ifodalash, uzilgan fikrning davomini tiklash kabi qator mantiqiy operatsiyalarni bajarish, nutq vaziyatini to‘g‘ri baholash va til imkoniyatlaridan unga mos ravishda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish va malakasini o‘stirishga e’tibor qaratiladi.

4. O‘qish savodxonligi doirasida o‘quvchida to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o‘quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish; o‘qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish; tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; har qanday uslubdagi matnni o‘qish va uni anglash, tanqidiy va kreativ fikrlash ko‘nikmasini oshirish nazarda tutiladi.

4. Barcha uslubdagi turli sohalariga oid matnlar bilan tanishish barobarida mashq va topshiriqlar orqali fanlararo integratsiya amalga oshiriladi.

5. O‘quvchining o‘qib, eshitib tushunish, og‘zaki va yozma nutq malakasini umumiy holda rivojlantirish maqsadida ularning har biriga alohida e’tibor qaratiladi.

6. Badiiy matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, tilning ifoda imkoniyatlarini tushunishi va his eta olishi, “so'zni hazm qila olish” imkoniyatlari e'tiborga olinadi.

7. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali ijodiy tafakkuri, fikrlash doirasi shakllantirib boriladi.

8. Yozma nutq bilan bog'liq beriladigan topshiriqlarda yozish strategiyalari taqdim etiladi. (Odatda bolaning bog'lanishli nutqini o'stirish, matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirish maqsadida savollar, rasmlar yoki kuzatuvlar asosida matn tuzish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar berib boriladi, ammo bu jarayonda qanday qilib yozish masalasi e'tibordan chetda qoladi. “Ona tili va o'qish savodxonligi” darsligida ushbu jihatlarga e'tibor qaratilgan: noto'liq matnni to'ldirish, berilgan namuna asosida yozish, taqdim etilgan tanlovlar asosida yozish; savollarga ketma-ketlikda javob yozish; syujetli rasmlar asosida matn yozish kabi).

9. Har bir mashg'ulot tilni o'zlashtirishning tabiiy laboratoriyasi sifatida tashkil etiladi. Ya'ni mashq daftari orqali o'quvchular bilimlarini zanada mustahkamlaydilar

Mashq daftarida darslikda ishora qilingan, maxsus belgi bilan ajratilgan topshiriqlar bajarib boriladi. O'quvchilar daftarga yozishlari, chizishlari, bo'sh o'rinlarni to'ldirishlari, o'qib va tinglab tushunish, matn tuzish bilan bog'liq topshiriqlarni bajarishlari hamda rasmlarni bo'yashlari mumkin. Amaldagi boshlang'ich sinf ona tili darsliklari asosida o'quvchilardagi quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish): -O'qituvchi nutqini, video va audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarni tinglab tushuna oladi; rasmlar asosida va o'qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida o'zlashtirgan yangi so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi; mashq matnidagi so'zlarni qo'shib o'qiy oladi, gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o'qiy oladi, harflar birikmasi ishtirok etgan so'zlarni o'qiy oladi; so'zda nechta tovush bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'lishini bir unli tovush bo'g'in hosil qilishini, ya'ni o-na, u-ka, a-ka kabi bo'g'inga bo'la oladi, harflar birikmalari ishtirok etgan so'zlarni bo'g'inga bo'la oladi, x va h tovushli so'zlarni to'g'ri yoza oladi, bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi, mash'al, ma'qul, ta'lim, Jur'-at, ta'-zim kabi tutuq belgili so'zlarni bo'g'inga bo'lib yoza oladi, lug'at, izohli, eshituv, yoddan yozuv, rasmlari diktant yoza oladi hamda gaplarni rasmlar tartibida ko'chira oladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili o'qitishning asosiy maqsadi turli vaziyatlarda o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, og'zaki va yozma savodxonlik malakalariga ega bo'lgan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish ekanligi ko'p bora ta'kidlanadi.

Sizningcha, muallifning ushbu audiomatnni yaratishdan maqsadi nima?



- A Tandirdan qanday foydalanishni o'rgatish
- B Tandir qanday paydo bo'lgani haqida ma'lumot berish
- D Tandir o'zbek milliy oshxonasining ramzi ekanini tushuntirish

Demak, ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi o'quvchini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish; o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtirilgan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, talaffuz va imlo me'yorlariga oid tushunchalarni) rivojlantirish; tilning keng imkoniyatlaridan unumli foydalanish holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltiriladi. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda, bugungi kunda ona tili ta'limining mazmuni o'zgarmocda. Biz yillar davomida ona tili ta'limi orqali o'quvchilarga grammatik qonun-qoidalarni, nazariy bilimlarni o'rgatib keldik. Endilikda grammatika bilan bir qatorda o'quvchilardagi nutqiy kompetensiyani, ya'ni tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish kabi amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga ko'proq e'tibor berishimiz lozim. Bu maqsadga erishishda ona tilining nutqiy kompetensiya elementlari (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish) ni har bir darsda amaliy qo'llash va o'quvchida bunga nisbatan ko'nikma shakllantirish darkor. Ana shu fikrlarning isboti sifatida umumta'lim muassasalarining 2-3-sinflari uchun 2022-yilda nashrdan chiqqan “Ona tili va o'qish savodxonligi” darsligini keltirish mumkin. Avvalo, mazkur darsliklar hozirgi zamon bola psixologiyasiga mos ravishda tuzilgan: mashqlardan qonuniyat

yaratilishiga e’tibor qaratilgan. O’quvchi matn bilan tanishgach, o’z fikr-mulohazalari asosida xulosaga olib kelingan va nazariy matn berilgan. Mavzularni kundalik hayotga yaqinlashtirish barobarida muomala madaniyati, odob-axloq me’yorlari, milliy qadriyatlarni ulug’lovchi o’zbekona dunyoqarash bilan uyg’un matnlar berilgan. Masalan, 2-sinf darsligidagi “Oshxonamiz ramzi” audiomatni (6-bet). Ushbu audiomatndan so’ng o’quvchilarning fikrlashga, o’ylashga undovchi topshiriq berilgan.

Bu orqali o’quvchi eshitgan ma’lumotidan xulosani o’zi chiqaradi.

“Chumolining jasorati” (3-mashq), Bu mashq orqali o’quvchilarning o’qib tushunish malakalari rivojlantiriladi. Bunda ular bir vaqtning o’zida ham maqollarning mazmuni haqida, ham ulardan qaysi biri hikoya g’oyasiga mosligi haqida fikr yuritadilar.

Ona tili va o’qish savodxonligi darslari jarayonida o’quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda, o’quvchilarning nutqini o’stirish maqsadga muvofiqdir. O’qish fanidan qiziqarli savol-topshiriqlar tuzish va o’tiladigan mavzular bo’yicha mustahkamlashdan iborat. Bu boshlang’ich sinf o’quv -chilarining o’qishiga bo’lgan qiziqishlarini oshirish, ularning fikrlash qobi-liyatlarini o’stirish, mustaqil fikrlashga o’rgatish, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish kabi ijobiy xislatlarni shakllantirishgan iborat.

Xulosa. Boshlang’ich sinf o’qish darslarida o’quvchilar bilim, ko’nikma va malakalarini nazorat qilishning har xil usullari va shakllarini topish va uni tatbiq etish ilmiy tadqiqotning ko’zlangan asosiy maqsadidir.

Dunyo bo’ylab yuz berayotgan o’zgarishlar, axborotga ega bo’lishning ochiqligi ta’lim sohasiga ham o’z ta’sirini ko’rsatib, o’qitish usullari, mazmuni, uni tashkil etishning pedagogik-psixologik maqsadini ham o’zgartirish, o’quvchilarni mustaqil faoliyat ko’rsata olish, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o’rgatishni talab etmoqda. Shundan kelib chiqqan holda bugungi kun o’qituvchisi tayyor elektron resurslardan foydalanib dars o’tish bilan chegaralanmasdan, ta’limiy resurslarni yaratish hamda ularni amalda qo’llovchi o’qitishning zamonaviy texnologiyalaridan samarali foydalanishi, fan va uning tarkibiga kiruvchi bilimlar mazmunini o’quvchilarga yetkazish malakasiga ega shaxs sifatida faoliyat olib borishi, o’quvchilarni bilim olishga qiziqtirishi, ularning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirib, o’z-o’zini tahlil qilish, o’z ustida ishlash va bilimlarini takomillashtirishni o’rgatishi zarur. Chunki zamonaviy texnika bilan ishlash qobiliyatiga ega, zamonaviy ta’lim jarayonining mohiyatini to’laqonli tushuna olgan, faoliyati jarayonida ro’y beruvchi vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni hal eta oladigan, yetarlicha ko’nikmaga ega va zamonaviy mutaxassisni tayyorlashga bo’lgan ehtiyoj ta’lim jarayonini texnologik asosda tashkil etishni taqozo etadi. Buning uchun o’quv jarayoniga keys, WEB, kommunikatsion axborot, interfaol, multimedia, telekommunikatsiya yoki elektron o’qitish, Smart Education (aqlli ta’lim) kabi texnologiyalar joriy etilmoqda. Hozirda multimediya dasturlari hamda elektron darsliklar turli ishlarni tez va qisqa fursatda amalga oshirishi, turli tasvirlarni namoyish qila olishi, didaktik jihatdan ustunligi bilan bilimni axborotlashtirishning eng asosiy omillaridan biri bo’lib qolmoqda.

Boshlang’ich ta’lim umumiy o’rta ta’limning poydevori hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda boshlang’ich ta’lim sifatini oshirishga alohida e’tibor berilmoqda. O’qituvchilar darsda ilg’or pedagogik texnologiyalar va o’qitishning interfaol usullaridan keng foydalanmoqda. Har bir ta’lim muassasasida boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun qiziqarli o’quv-metodik adabiyotlar, jumladan, elektron resurslarning katta zahirasi mavjud. Sifatli ta’limiy faoliyatni multimedia materiallari orqali tashkil etish an’anaviy uslublarga nisbatan afzalligini o’qituvchilar anglab yetdi.

Boshlang’ich sinflarda ona Vatanga muhabbat va sadoqat, ona tilini o’qitishda tilga hurmat, shu bilan birga o’zbek tilining qanchalik boy til ekanligini anglash, o’qish va orfografik til me’yorlariga amal qilishni dars jarayonida tatbiq etish lozim. Ona tili va O’qish fanlarining qiziqarli o’tishi, interaktiv metodlarning dars jarayonida foydalanishda kompetensiyaviy yondashish lozim.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон.2016. – 146
2. Маҳмудов М.Болаларнинг ўқув мақсади– таълимни илмий лойиҳалаш омили//Халқ таълими. –2005. –№ 5. – 49 б.
3. Сариев Ш.У.Бошланғич синф ўқиш дарсларида матн устида ишлаш орқалинута ўстириш назарияси ва амалиёти (1-, 2-синф материаллари мисолида) Пед.фан. номз. дисс. –Т.:2020.
- 4.Юсупова Ш.Ж. Она тили таълими самарадорлигини ошириш ва илғорпедагогик технологияларни жорий этиш. Пед. Фан. Ном-ди дисс. - Тошкент:ТПДИ, 1998.
- 5.Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. – Т.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2011. – 275 б.

6. Абдукодиров А.А., Бегматова Н.Х. Мактабгача таълим муассасаларида мультимедиа технологиясидан фойдаланиш услубиёти (ўқув-услубий қўлланма). – Қарши: Насаф, 2011. – 257 б.
7. Pirniyazova A.Q., Pirniyazov Q., Bekniyazov Q. Boshlang'ich sinflarda ona tili oqitish metodikasi. -Toshkent: Sano-standart, 2018. – B. 239.
8. Qosimova K., Matchonova S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyeva Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Nosir, 2009. – B. 311.
9. A'bdinazimov Sh., Qutlimuratov B., Ismaylova Z., Salieva P., Qutlimuratova G. Ana tili ha'm oqiw sawatlilig'i 1-bo'lim. – Tashkent: Respublika bilimlendiriw orayi, 2021. – B. 10.
10. A'bdinazimov Sh., Qutlimuratov B., Ismaylova Z., Salieva P., Qutlimuratova G. Ana tili ha'm oqiw sawatlilig'i 1-bo'lim. – Tashkent: Respublika bilimlendiriw orayi, 2021. – B. 66.

БЕРДИЕВА Мухаббат Мейлиевна

Термиз давлат педагогика институти Мактабгача
таълим назарияси кафедраси мудири, PhD

МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ОМИЛЛАРИ

Ушбу мақолада мактабгача ёшдаги болаларнинг интеллектуал ривожланиши, уларга бериладиган таълим-тарбиянинг шакллари ҳақида билиб олишимиз мумкин. Болаларнинг интеллектуал жараёнларида оилада ва мактабгача таълим ташиқлотлари педагог ходимлари нималарга эътибор бериши кераклиги ҳақида ёритилган. Бу жараёнда мактабгача ёшдаги болаларнинг ақлий операция усуллари, ўзгарувчан фикрлаш, тасаввур, ижодий қобилиятларни ривожлантириш, тенгдошлар ва катталар билан муносабат ўрнатиш лозимлигини, аجدодлар томонидан яратилган бой маданий меросни ўрганишни, шу билан бирга меҳнат малакалари ва нутқ маданиятига эътибор беришга ўргатади. Боланинг таъсирчанлиги ва ҳаракатчанлигининг ижодий фаолиятига ижобий таъсир воситалари ҳақида билиш мумкин.

Калит сўзлар: таълим-тарбия, ўзлаштириш, элементар гигиена, маданий ва меҳнат малакалар, нутқни ривожлантириш, ижтимоий ахлоқ, эстетик дид, ўйин, интеллектуал.

ФАКТОРЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

В этой статье мы можем узнать об интеллектуальном развитии детей дошкольного возраста, формах обучения, которые им даются. В интеллектуальных процессах детей разъяснено, на что следует обратить внимание педагогам в семейных и дошкольных организациях образования. В этом процессе способы умственной работы дошкольников, развитие вариативного мышления, воображения, творческих способностей, потребность наладить отношения со сверстниками и взрослыми, изучить богатое культурное наследие, созданное предками, одновременно учит обращать внимание на коммуникативные навыки и культуру речи, можно узнать о средствах положительного влияния на творческую деятельность ребёнка.

Ключевые слова: воспитание, усвоение, элементарная гигиена, культурно-трудовые навыки, развитие речи, социальная этика, эстетический вкус, игра, интеллектуальность.

FACTORS OF INTELLECTUAL DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN

In this article, we can learn about the intellectual development of preschool children, the forms of education that are given to them. In the intellectual processes of children, it is explained what teachers should pay attention to in family and preschool educational organizations. In this process, the ways of mental work of preschoolers, the development of variant thinking, imagination, creativity, the need to establish relationships with peers and adults, to study the rich cultural heritage created by the ancestors, at the same time teaches to pay attention to communication skills and speech culture, you can learn about the means of positive influence on the creative activity of the child.

Keywords: education, mastering, elementary hygiene, cultural and labor skills, speech development, social ethics, aesthetic taste, play, intellectual.

Кириш. Мактабгача таълим ёшдаги болаларга бериладиган таълим-тарбия, уларнинг мураккаб ҳаракатларини ўзлаштириш, элементар гигиена, маданий ва меҳнат малакаларини шакллантириш, нутқни ривожлантириш ҳамда ижтимоий ахлоқ ва эстетик дидининг дастлабки кўринишларини ҳосил қилиш асосида интеллектуал ривожлантириш давридир.

Бола интеллектуал ривожланиш жараёнида ўз аجدодлари томонидан яратилган ижтимоий тажрибани ўзлаштиради, атроф-муҳитдаги нарса ва ҳодисалар билан мулоқотга киришади. Бу болада фаолият майлларининг ривожланиши ёрдамида амалга ошириладиган хатти-ҳаракатлар, тил бойликлари, одамлар орасидаги муносабатларни эгаллаб олиши, қобилиятларнинг ўсишида намоён бўлади. Бу жараёнда уларга оила аъзолари ва тарбиячилар яқиндан ёрдам берадилар.

Болалар билан ишлашда ўқитувчининг асосий вазифаси ҳар бир болага ўз олдига амалга оширилиши мумкин бўлган вазифаларни қўйишга ёрдам бериш, уларни ҳал қилиш усулларини ўзлаштириш ва унинг фаолияти натижаларига ариза топишга ёрдам беришдир.

1. Мактабгача ёшдаги болаларнинг ақлий операциялари усулларини шакллантириш (таҳлил, синтез, таққослаш, умумлаштириш, таснифлаш, аналогия), ўз ҳаракатларини фикрлаш ва режалаштириш қобилияти.

2. Болаларда ўзгарувчан фикрлаш, тасаввур, ижодий қобилиятларни ривожлантириш, ўз баёнотларида баҳслаша олиш, энг оддий хулосалар чиқариш.

3. Болаларнинг ихтиёрий саъй-ҳаракатларини мақсадли бошқариш, тенгдошлар ва катталар билан тўғри муносабатларни ўрнатиш, ўзини бошқаларнинг кўзи билан кўриш қобилиятини ривожлантириш. Болалар билан ишлашни ташкил этишнинг асоси куйидаги дидактик тамойиллар тизимидир: яратилган таълим муҳити, барча стрессни яратувчи омилларни олиб ташлашни таъминлаш таълим жараёни (психологик қулайлик принципи); янги билимлар тугалланган шаклда эмас, балки болалар томонидан мустақил равишда "кашф этилиши" орқали киритилади (фаолият принципи);

Асосий қисм. Мактабгача таълим ёшидаги болаларнинг кўзга ташланиб турувчи хусусиятларидан бири, уларнинг ҳаракатчанлиги ва тақлидчанлигидир. Бола табиатининг асосий қонунини шундай ифодалаш мумкин: бола узлуксиз фаолият кўрсатишни талаб қилади, лекин у фаолият натижасидан эмас, балки фаолиятнинг бир хиллиги ва сурункалигидан толиқади. Ҳар бир болани ўз тезлигида ривожлантириш имконияти таъминланади (минимал принципи); янги билимларнинг киритилиши билан унинг атрофдаги дунё объектлари ва ҳодисалари билан алоқаси очилади (дунёни яхлит кўриш принципи); болалар ўз танловини қилиш қобилиятини ривожлантиради ва уларга тизимли равишда танлаш имконияти берилади (ўзгарувчанлик принципи); ўқув жараёни болаларни ўзлаштиришга қаратилган ўз тажрибаси ижодий фаолият (ижодкорлик принципи); таълимнинг барча даражалари ўртасида кетма-кет алоқалар таъминланади (узлуксизлик принципи). Юқорида баён этилган тамойиллар ривожлантирувчи таълимни ташкил этиш асосларига оид замонавий илмий қарашларни мужассамлаштириб, интеллектуал ва интеллектуал ривожланиш муаммоларини ҳал қилишни таъминлайди.

5 ёшда болаларда эшитиш ва кўриш органлари фаол ривожланади. Бу болаларнинг мантикий фикрлаш қобилиятини, шунингдек, мусиқа асарларига мойиллигини "белгилаш" учун идеал вақт. Бунга эришиш учун бола билан ўқув ўйинларини ўйнаш, конструкторларни тўплаш ва мантикий жумбоқларни ҳал қилиш керак. Болаларни ақлий тарбиялашнинг нутқ модели болаларнинг эшитиш орқали маълумотни ёдлашнинг табиий қобилиятини ривожлантиришни таклиф қилади. Мисол учун, мактабгача ёшдаги бола чет тилини ҳар қандай катталарга қараганда анча осон ва тезроқ ўрганиши мумкин. Шундай экан, таълим жараёнида бундай истеъдодни ривожлантириш ва рағбатлантириш зарур. Бу китоб ўқиш, берилган мавзуларда суҳбатлашиш, шеърлар ва қўшиқларни ўрганиш бўлиши мумкин.

Катталар ва тенгдошлари билан бўлган мулоқот орқали бола ахлоқ меъёрлари, кишилар орасидаги меъёрларни англайди, шунингдек, ижобий ва салбий муносабатлар билан таниша бошлайди. Бу даврда боланинг нутқи жадал ривожланади. У янгиликларни эгаллашга нисбатан ўзи билганларини мустаҳкамлашга эҳтиёж сезади. Ўзи билган эртагини қайта-қайта эшитиш ва бундан зерикмаслик, шу ёшдаги болаларга хос хусусиятдир.

Мактабгача таълим ёшидаги болаларнинг эҳтиёжлари ва қизиқишлари жадал равишда ортиб боради. Бу аввало кенг доирага чиқиш эҳтиёжи, мулоқотга киришиш, ўзлигини намоён қилиш, ўйнаш эҳтиёжларининг мавжудлигидир. Мактабгача таълим ёшидаги болалар нутқни бир мунча тўла ўзлаштирганлари ва ҳаддан ташқари ҳаракатчанликлари туфайли, уларда ўзларига яқин бўлган катта одамлар ва тенгдошлари билан мулоқотга киришиш эҳтиёжи кучаяди. Улар тор доирадан кенгрок доирадаги муносабатларга интила бошлайдилар.

Мактабгача таълим ёшидаги болаларнинг интеллектуал ривожланишида қизиқишлар катта аҳамиятга эга. У болани интеллектуал ривожланиш сари ундовчи омиллардан биридир. Мустақил ҳаракат қилиш имконияти ошган сари, қизиқувчанликлари туфайли атрофидаги нарса ва ҳодисаларга оид дунёқараши кенгайиб боради.

Болаларнинг интеллектуал ривожланишида индивидуал хусусиятларини жамоавий ўйинлари орқали кузатиш қулайдир. Ўйин жараёнида болалар шахслараро муносабатларни акс эттирадилар. Бу эса, боладан ўзининг бутун қобилиятини ишга солишни талаб этади. Маълум ролларга бўлинган жамоавий ўйин фаолияти болалардан қатъий қоидаларга бўйсунгани ва айрим

вазифаларни талаб доирасида бажаришни тақозо қилади. Шунинг учун жамоавий ўйинлар болаларни интеллектуал жиҳатдан ривожлантиришда катта аҳамиятга эга.

Мактабга тайёрлаш жараёнида болаларни интеллектуал ривожлантиришда сюжетли-ролли ўйинлар муҳим аҳамият касб этади. Улар ўз мавзусининг бойлиги ва хилма-хиллиги билан бола дунёсини бойитади. Ўйинлар жараёнида болаларда сардорлик хусусияти юзага келади, ташкилотчилик кўникмалари ривожланади.

Муҳокамалар ва натижалар. Мактабгача таълим жараёнида болаларни интеллектуал ривожлантиришда тасвирий фаолият катта аҳамиятга эга. Бола тасаввурининг характериға кўра, унинг атроф-муҳитни қандай идрок этиши, хотира, тасаввур ва тафаккур хусусиятларига баҳо бериш мумкин. Мактабга тайёрлаш гуруҳи болалари чизган расмлар уларнинг ички кечинмалари, рухий ҳолатлари, орзу, умид ва эҳтиёжларини ҳам акс эттиради. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёев 2017 йил 30 сентябрда ПФ5198 - сонли “Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони қабул қилиниб, унда мактабгача таълим муассасаларининг давлат ва нодавлат тармоқларини янада кенгайтириш, давлат ва нодавлат мактабгача таълим муассасалари ўртасида соғлом рақобат муҳитини шакллантириш шароитларини яратиш, давлат ва хусусий сектор шериклиги шартларида мактабгача таълим муассасаларининг янги шакллари жорий этиш, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирлиги фаолиятини самарали ташкил этишни таъминлаш асосий мақсад қилиб белгиланган. Мактабгача тарбия ёшидаги болаларнинг интеллектуал салоҳиятининг ривожланишида улардаги туғма қобилият ва истеъдод муҳим аҳамиятга эга. Туғма қобилиятга эга бўлган болаларимиз катталарнинг ҳар бир таълимий, тарбиявий ва касбий таълимотларини тез илғаб оладилар ва тез ўзлаштириб, ҳаётга татбиқ этадилар.

Мактабгача ёшдаги болаларнинг интеллектуал салоҳиятини ривожлантириш бу фикрий фаолиятнинг кўرғазмали-ҳаракатли, кўрғазмали-образлидан абстракт, назарийга ўзгаришидир. Болада тушунчалар ва тушунчалар тизими мунтазам шаклланиб боради. Боланинг англаш ва фикрлаш ривожланиши даражаси қанча юқори бўлса, у ўзлаштирган, фойдаланаётган тушунчалар шунча мураккаб бўлади. Шу тарзда, умумий ҳолда бола психик ривожланиши жараёнини уч асосий йўналишга бўлиш мумкин:

- 1) таълим жараёнида билим ва фаолият усуллари ривожланиши;
- 2) ўзлаштирилган усуллар қўллаш психологик механизмларининг ривожланиши;
- 3) шахснинг умумий хусусиятлари ривожланиши. Ушбу мавзу юзасидан давра суҳбатлари ўтказилди. Мактабгача таълим ташкилотлари психологлари билан тажрибалар алмашилди.

Болада интеллект она қорнидан ривожланишни бошлайди. Болаларда асосий интеллектуал ривожланиш босқичи мактабгача ва мактаб ёшига туғри келади. Генетика ва ирсият интеллектуал салоҳиятга ўз таъсирини кўрсатади. Кимдир табиатан тез ҳисоблайди, кимдир туғилганидан бошлаб математикани яхши куради, кимдир гапиришдан олдин куйлайди.

Бу ёшдаги болалар расм чизишга ниҳоятда қизиқади. Расм чизиш болалар учун интеллектуал ривожланишнинг ўзига хос бир шакли бўлиб ҳисобланади. Бола аввало кўраётган нарсаларини, кейинчалик эса ўзи биладиган, хотирасида сақлаган ва ўзи ўйлаб топган нарсаларни чизади.

Мактабга тайёрлаш гуруҳи болаларининг интеллектуал ривожланишларида мусобақа катта аҳамиятга эга бўлиб, айнан шундай ўйинларда муваффақиятга эришиш уларга завқ-шавқ бағишлайди. Бу даврда конструкторлик ўйинлари аста-секинлик билан меҳнат фаолиятига айланиб боради. Ўйин жараёнида болалар оддий меҳнат кўникмаларини эгаллай бошлайдилар, нарсаларнинг хусусиятларини англашга ҳаракат қиладилар, уларда амалий тафаккур элементлари ривожланади.

3-6 ёшли болаларнинг рухий-интеллектуал ривожланишида мусиқа ҳам катта аҳамиятга эга. Мусиқа орқали болалар ашула айтишга, мусиқа оҳангига мос ритмик ҳаракатлар қилишга ўрганадилар. 3-6 ёшлик даврида болаларнинг асосий фаолияти куйидаги изчилликда кечади:

- нарсаларнинг номини ўрганиш;
- индивидуал предметли ўйинлар, жамоавий сюжетли-ролли ўйинлар;
- индивидуал ва гуруҳли ижодий фаолият;
- мусобақалар;
- мулоқотлар;
- шеърлар ёдлаш, эртакларни қайта сўзлаш шулар жумласидандир.

Мактабгача таълим ёшидаги болаларнинг ўйин фаолиятлари ҳақида фикр юритилганда, уларнинг ўйинчоқлар билан боғлиқ фаолиятини ҳам назарда тутиш лозим. Болаларга

ўйинчоқларни беришда уларнинг ёш хусусиятлари, тараққиёт даражалари ва кўпроқ нималар қизиқтиришини ҳисобга олиш керак.

Мактабгача таълим ёшидаги болалар катталарнинг ёрдами билан расмларни таҳлил қилиш асосида идрок қилиш қобилятига эга бўладилар. Болалар расмларни идрок қилаётганларида тарбиячилар ва ота-оналар турли хил саволлар бериб уларни таҳлил қилишга ўргатишлари лозим. Бунда тарбиячилар болалар диққатини:

1. Расмларда ифодаланган ҳодисаларнинг мазмунини англашга;
2. Расмда акс эттирилган нарсаларнинг ўрнини идрок этишга;
3. Тасвирланган нарсалар ўртасидаги алоқадорликни фаҳмлашга жалб қилишлари лозим.

Диққат ҳар қандай фаолиятнинг асосини ташкил қилади. Шунинг учун диққатнинг бола ҳаётидаги аҳамияти катта. Мактабгача таълим ёшидаги болалар диққати асосан ихтиёрсиз бўлади. Бу ёшда ихтиёрий диққатнинг таркиб топиши учун ўйиннинг роли жуда катта. Ўйин пайтида болалар диққатларини бир жойга тўплаб, ўз ташаббуслари билан маълум мақсадларини илгари сурадилар.

Мактабгача ёшдаги боланинг хотираси янги фаолиятлар ва унинг ўз олдига қўйган янги талаблари асосида такомиллаша боради. Болалар ўзлари учун аҳамиятли бўлган, кучли таассуротлар қолдирадиган ва қизиқтирадиган нарсаларни беихтиёр эслаб қоладилар.

Болалар тафаккурининг ривожланиши ўзига хос характерга эга. Мактабгача ёшдаги болаларнинг тафаккури жадал ривожланади. Ижтимоий тажриба ортиши, нутқининг самарали ривожланиши, эркин ва мустақил ҳаракатлар қилиш имкониятига эгаликлари унинг асосий сабабларидир.

Хулоса. Мактабгача таълим ёшидаги болаларда турли соҳага доир саволларнинг туғилиши улар тафаккурининг фаоллашганлигидан дарак беради. Болалар саволларига ўз вақтида жавоб топа олмасликлари ёки катталарнинг саволига аҳамият бермасликлари туфайли қизиқувчанликлари сўна бошлайди. Фаолиятнинг умумий тури аниқлангач, болалар томонидан айрим усуллар турли даражада қўлланилиши мумкин. Ўқувчилар фаолиятнинг нисбатан юқори шакллари ва турларига (шунингдек, аклий) масалан, аниқ ва абстракт билимларни боғлай олиш ва ўзаро нисбатини аниқлай билишга ўргатилиши лозим. Боланинг фикрини ҳам тез-тез инобатга олиб турилса, унинг ўз-ўзига бўлган ишонч ҳисси ортади. Ривожланиш жараёнида фақат билим ва фаолият усулларининг ўзгариши ва мураккаблашиши содир бўлиб қолмайди. Боланинг психик ривожланиши унинг бутун шахсидаги ўзгаришларни, яъни шахс умумий хусусиятларининг ривожланишини ўз ичига олади. Ривожланиш жараёнида болалар психик фаолиятининг турли жиҳатлари ўзгаради, усуллар йиғилиши ва ўзгариши содир бўлади. Бола кўп миқдордаги турли ҳаракатларни бажара олади, билим ва тасаввурлари ўзгаради. Қизлар ва ўғил болалар етук ва комил шахс бўлиб вояга етиши учун яна бир муҳим омил ҳаёт тарзига айланиши зарур. У ҳам бўлса замонавий ахборот технологияларидан оқилона фойдаланишидир. Бунда ота-она, оила муҳити муҳим ўрин эгаллайди. Ўргимчак тўридек дунёни эгаллаб олган электрон олам болаларнинг онгу шуурини бутунлай эгаллаб олмасидан олдинроқ уларда ҳаётда ҳар бир нарсанинг меъёрини билиш кўникмасини ҳосил қилишимиз ва бунга ўзимиз ҳам амал қилишимиз жуда зарур. Зеро бола айтганни эмас, кўрганини қилади. Мактабгача тарбия ёшидаги болаларнинг интеллектуал салоҳиятини ривожлантириш орқали юксак интеллект соҳибларини тарбиялашимиз бизнинг асосий мақсадларимиздан ҳисобланади.

Одатда, ҳар қандай тафаккур жараёни бирор нарсадан таажжубланиш, ҳайратланишлари натижасида уларда турли саволларнинг туғилиши туфайли ҳосил бўлади. Кўпгина ота-оналар ва айрим тарбиячилар болалар ортиқча савол бериб юборсалар, «*кўп маҳмадона бўлма*», «*сен бундай гапларни қаердан ўргандинг*», деб қойиб берадилар. Натижада бола ўқсинади ва саволларига ўзи жавоб топишга ҳаракат қилади. Айрим тортинчоқ болалар эса мутлақо савол бермайдилар. Бундай болаларга машғулотлар ва саёҳатлар даврида тарбиячилар турли савол бериб, уларни фаоллаштиришлари лозим.

Ҳар қандай тафаккур, одатда бирор нарсани таққослаш, таҳлил қилиш ва умумлаштиришдан бошланади. Саёҳатлар болалардаги тафаккур жараёнини фаоллаштириш ва ривожлантиришга ёрдам беради. Болалар табиат бағрига қилинган саёҳатларда турли нарсаларни бир-бири билан таққослайдилар, таҳлил қиладилар ҳамда умумлаштирадилар. Агар 2 яшар боланинг сўз бойлиги тахминан 250 тадан 400 тагача бўлса, 3 яшар боланинг сўз бойлиги 1000 тадан 1200 тагача, 6 яшар боланинг сўз захираси эса 4000 тага етиши керак. Бу шундан далолат берадики, мактабга тайёрлов жараёнида боланинг нутқи миқдор ва сифат жиҳатдан ортади. Бу эса, унинг интеллектуал тараққиётини жадаллаштиради.

Тарбиячилар болалар нутқини бойитиш билан шуғулланар эканлар, улар баъзи ҳолларда ўзлари қўллаган сўзларнинг маъносини тўлиқ англаб етмасликларини эътибордан четда қолдирмасликлари керак. Шу билан бир қаторда, болаларда мураккаб нутқ товушларини бир-

биридан фарқ қилиш кўникмаси ҳам тўла такомиллашмаган бўлади. Бола нутқининг равон бўлишини таъминлаш учун у билан тўғри мулоқот ўрнатиш керак.

Мактабгача таълим жараёнида болаларнинг интеллектуал ривожланиши қуйидаги кўринишларга эга:

- Интеллектуал ривожланишнинг дастлабки муҳим даври - 3-4 ёш орасида амалга ошиб, бу даврда бола ҳиссий жиҳатдан ўз-ўзини бошқаришнинг мустақамланишига эришади;

- Иккинчи босқич 4-5 ёш орасида кечади. Бунда бола ахлоқий жиҳатдан ўз-ўзини бошқариш кўникмасига эга бўлади;

- Интеллектуал ривожланишнинг учинчи даври эса болаларда шахсий ишчанлик ва тадбиркорлик хусусиятининг шаклланиши билан характерланади.

Адабиётлар:

1. Qayumova N.M. “Maktabgacha pedagogika” TDPUnashriyoti -T.: 2017 y.
2. F.Qodirova va boshqalar “Maktabgacha pedagogika” Toshkent 2019 yil.
3. M Berdiyeva Intellectual Development In Preschool Education.- // Theoretical & Applied Science, 2020 - elibrary.ru.
4. M Berdiyeva, S Bo'Ranova Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda nutq o'stirish mashg'ulotlari orqali bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning samarali usullari - // Science and Education, 2021 - cyberleninka.ru.
5. B.M. Meyliyevna Maktabgacha Yoshdagi Bolalar Nutqini Rivojlantirishning Psixologik Xususiyatlari: Berdiyeva Muhabbat Meyliyevna, Terdu Pedagogika ...- Научно-практическая конференция, 2021 - interscience.uz.

FILOLOGIYA VA TILLARNI O‘QITISH

ASHUROVA Dildora Gafurovna

Buxoro davlat pedagogika instituti Xorijiy tillar
kafedrası o‘qituvchisi

CHET TILINI O‘QITISH JARAYONIDA IJTIMOY VA HAMKORLIKDA O‘RGANISH STRATEGIYALARINING AHAMIYATI

Ushbu maqolada chet tilini o‘qitishni kerakli darajada va sifatli amalga oshirish uchun ijtimoiy va hamkorlikda o‘rganish strategiyalari va ularning ingliz tili fanini o‘qitishdagi zaruriyati haqida ma’lumot beriladi. Til o‘rganish jarayonida o‘qituvchi foydalanishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy strategiyalar aniq misollar bilan tushuntirilgan. Talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida ijtimoiy munosabatlarning o‘rnatilishi va motivatsiyaning oshishida hamkorlik strategiyalarining ahamiyati tushuntirilib berilgan. Bu ikkala strategiyani qo‘llashning muhimligi shundan iboratki, ular o‘quv jarayonini tashkil etishda talabani markaziy mavqega olib keladi. Bu o‘z o‘rnida butun dunyoda tan olinayotgan samarali usuldir.

Kalit so‘zlar: strategiya, usul, ijtimoiy jarayon, hamkorlikda o‘rganish, motivatsiya, ta’lim samaradorligi.

ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-КООПЕРАТИВНЫХ СТРАТЕГИЙ ОБУЧЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

В данной статье представлена информация о социальных и кооперативных стратегиях обучения и их необходимости в обучении английскому языку для эффективной и качественной реализации обучения иностранному языку. Социальные стратегии, которые учитель может использовать в процессе изучения языка, объясняются на конкретных примерах. Объясняется важность стратегий сотрудничества в установлении социальных отношений между учениками и учителями и повышении мотивации. Важность использования обеих этих стратегий заключается в том, что они ставят учащегося на центральное место в организации учебного процесса. Это эффективный метод, который получил признание во всём мире.

Ключевые слова: стратегия, метод, социальный процесс, кооперативное обучение, мотивация, эффективность обучения.

THE IMPORTANCE OF SOCIAL AND COOPERATIVE LEARNING STRATEGIES IN THE PROCESS OF LEARNING A FOREIGN LANGUAGE

This article provides information about social and cooperative learning strategies and their need for teaching English for the effective and high-quality implementation of teaching a foreign language. The social strategies that a teacher can use in the process of learning a language are explained with concrete examples. The importance of cooperation strategies in establishing social relations between students and teachers and increasing motivation is explained. The importance of using both of these strategies lies in the fact that they put the student at the center of the organization of the educational process. This is an effective method that has gained recognition all over the world.

Key words: strategy, method, social process, cooperative learning, motivation, learning efficiency.

Kirish. Chet tilini o‘rgatish va o‘rganish talabalar uchun ham, o‘qituvchilar uchun ham murakkab jarayon. Ushbu jarayonni yengillashtirish va qisqa vaqt ichida eng samarali tarzda amalga oshirishni ta’minlash uchun til o‘rgatuvchi turli xil strategiyalardan foydalanishi kerak.

Til o‘rganish strategiyasi nima? Umumiy ma’noda, "strategiya" atamasini ma’lum bir maqsadga erishish uchun bosib o‘tiladigan yo‘l deb ta’riflash mumkin. "Bu qaror qabul qilish, to‘siqlarni yengib o‘tish, to‘g‘ri sharoitlarni yaratish, eng mos usullarni qo‘llash kabi ma’nolarni ham o‘z ichiga oladi" [1].

Til o‘rganish strategiyasining eng muhim xususiyati bu til o‘rganish jarayoniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etishi va bu strategiyalarni o‘quvchilarga o‘rgatish mumkinligidir. Uning yana bir xususiyati shundaki, u talabalarining individual o‘rganish xususiyatlariga bog‘liqdir; chunki har bir talabada o‘z ta’lim strategiyasi bo‘ladi.[2] Ta’lim strategiyalari o‘rganishni rejalashtirish va baholashni, o‘rganilayotgan materialni nazorat

qilishni, o'quv jarayoni bilan bog'liq qarorlar qabul qilishni va qiyinchiliklar yuzaga keladigan sohalaridagi muammolarni aniqlashni ta'minlaydi.

Bundan tashqari, o'quv jarayonida talaba tomonidan ongli ravishda qo'llaniladigan strategiyalar, kelajakda boshqa sohada bilim olishda ham qo'l keladi. Til strategiyalarining tasnifi quyida ko'rsatilgan:

1. To'g'ridan-to'g'ri strategiyalar:

(a) Xotira strategiyasi (b) Kognitiv strategiya (c) Kompensatsiya strategiyalaridir

2. Bilvosita strategiyalar:

(a) metakognitiv strategiya (b) affektiv strategiya (c) ijtimoiy strategiyalardir.[4]

Asosiy qism. *Til o'rganishning ijtimoiy strategiyalari va ularning o'qitishda foydalanish prinsiplari.* Chet tilini o'qitishda ijtimoiy strategiyalarning eng muhim vazifalaridan biri talabalarni shu tilda gapiradigan odamlar bilan muloqot o'rnatishga rag'batlantirish va undashdir. Ijtimoiy strategiyalarning funksiyalari orasida chet tilida savollar berish, javoblar olish, xatolarni tuzatish, hamkorlik o'rnatish, o'sha tilda gaplashuvchi insonlarning his-tuyg'ularini va fikrlarini o'rganishga harakat qilish kiradi. [3] Chet tilida samarali muloqot qilish uchun, og'zaki nutqni rivojlantirishga ehtiyoj bor. Ijtimoiy strategiyalarning eng katta hissi shundaki, u til o'rganish jarayonida ijtimoiy muhitning ahamiyatiga urg'u beradi va og'zaki muloqotni rivojlantirishga ahamiyat qaratadi.

Ta'lim va o'qitish muhiti bu ijtimoiy jarayondir. Bu jarayonda o'qituvchi talabalar o'rtasida aloqa o'rnatish muhitini yaratishda juda katta rol o'ynaydi. Til o'qitishda muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillaridan biri bu talabalarda o'z-o'zini hurmat qilish haqidagi tasavvurlarga erishilganligi va ular o'rganadigan tilga qanchalik moslashganligi bilan belgilanadi. Talabalar o'z bilimlarini o'qituvchi va boshqa talabalar bilan baham ko'rganlarida osonroq o'rganishlari mumkin. Bundan tashqari, talabalar o'rtasidagi hamkorlik ko'nikmalarini o'rgatish va rivojlantirish mumkin. Chet tilini o'rganishda o'qituvchi foydalanish mumkin bo'lgan ba'zi ijtimoiy strategiyalar:

1. Aniqlikka erishish bu til o'rganish jarayonida tushunilmagan yoki to'liq tushunilmagan ma'lumotlarni tushuntirish va ma'lumotlarga ta'rif berish tushuniladi. Talabalarning hamkorlikda ishlash davomida vazifalarni tushunganlik darajasini aniqlash uchun guruhlarda vizual tarzda "Mushtingizdagi besh" usulini qo'llash mumkin. Masalan, mashg'ulot oxirida siz o'quvchilardan qo'llarini yuqoriga ko'tarishlarini so'rashingiz mumkin. 0 dan 5 gacha bo'lgan shkalada ular topshiriqni qanday tushunganliklarini ko'rsatishlarini so'rang. 5- butunlay tushundim va hech qanday savol yo'q degan ma'noni anglatadi. 4 - loyihadagi topshiriqlarning deyarli barchasini tushunarli ekanligi yoki o'z guruhi bilan har qanday savolga aniqlik kiritishlari mumkinligini bildiradi. 3- loyihani qisman tushunganliklarini va o'qituvchidan yordam kerak bo'lishi tushuniladi. 2- ularda aniqlashtirish kerak bo'lgan bir nechta savollar borligini anglatadi, 1-ular juda kam tushunishganligini, musht esa ular umuman tushunmaganligini bildiradi. Musht, 1 yoki 2 sonini ko'rsatgan har qanday talaba birinchi yordam olishi kerak va undan so'ng 3 yoki 4 ko'rsatganlarga yordam ko'rsatishingiz mumkin. Loyihalar va faoliyatlar davomida "Mushtingizdagi besh" strategiyasidan foydalanish sizga talabalarning vazifani tushunishlarini tezkor aniqlash imkoniyatini beradi. Ayniqsa sizda katta sinf hajmi bo'lsa, shunda kimga ko'proq yordam kerakligini ko'rishingiz mumkin.

2. Bilimni tasdiqlash: Tuzatish, turli manbalar yordamida talabalar ishonch hosil qilmagan va xatolar qiladigan vaziyatga ta'rif berish, namunaviy misollar berish orqali bilim olishga ko'maklashishdir. "Ko'maklashish"(Scaffolding) o'quvchilarni har qanday turdagi qo'llab-quvvatlovchi tuzilma bo'lib, talabalarni vazifani mustaqil bajara olishiga ko'maklashadigan strategiyadir. G'oya shundan iboratki, talabalar avvalo topshiriqni muvaffaqiyatli bajarish uchun yordamchi vositalardan o'z ko'nikmalarini shakllantirish uchun foydalanadilar va keyin talabalar topshiriqni o'zlashtirib muvaffaqiyat ko'rsatganlaridan so'ng bu tayanch vositalari olib tashlanadi. Xuddi katta bino qurishda ishlatiladigan tayanch uskunlar kabi. Talabalar loyihada ishtirok etishlari uchun kerak bo'ladigan tilni namunaviy misollar berish orqali o'rgatish, kichik guruhda yoki sheriklik faoliyatida ularning muvaffaqiyati va nutqni davom ettirish qobiliyati uchun juda muhimdir. Talabalarda aynan shu faoliyat uchun kerakli til va ko'nikmalarni amaliyotda foydalanishlari uchun o'qituvchidan puxta rejalashtirishni va aniq ko'rsatmalarni talab qiladi. Aks holda, talabalar topshiriq davomida o'z ona tilida gapirishga qaytishi va umidsizlikka tushish ehtimoli bor. Xo'sh, til o'rganish darsida "ko'maklashish" qanday ko'rinishda bo'lishi mumkin? Bu guruh yoki hamkorlikda ishlashni boshlashdan oldin sinf oldida vazifaning namunasini modellashtirish bo'lishi mumkin. Misol uchun, agar o'quvchilar uchun topshiriq, restorandagi taomga buyurtma berishda server bilan qanday qilib muloqot qilinishi haqida dialog yaratish bo'lsa, talabalardan ikkitasi siz taqdim etgan ko'rsatmalardan foydalangan holda dialogni taqdim etish uchun taklif qiliniladi. Bitta talaba mehmon, ikkinchisi esa server rolini o'ynaydi.

3. Hamkorlikni yo'lga qo'yish: Til o'rganish jarayonida talabalar uchun o'rganilayotgan tilni ularning hayotining bir qismiga aylantirish, o'sha tilda yetarlicha bilim va malakaga ega bo'lgan kishilar bilan hamkorlikni o'rnatish orqali erishiladi. Shu o'rinda til o'rganuvchilar uchun "Speaking

club”(Gaplashish klub)larda muntazam qatnashish, o’rganilayotgan tilda radio va teleko’rsatuvlar, podkastlar tinglash tavsiya etiladi.

4. Madaniy sezgirlik: talabalarning turli madaniyatlarga mansub do'stlarining til o'rganish jarayonidagi fikrlari va his-tuyg'ularini o'rganishga urinishi tushuniladi.

Hamkorlikda o’rganish va o’qitish prinsiplari.

O'rganish ham individual, ham ijtimoiy jarayondir. Shuning uchun hamkorlikda ishlaydigan talabalarning ijtimoiy qobiliyatlarida o'sish borligi doim ta'kidlanib kelinadi. [1]. Chet tili o'rgatiladigan sinf xonasida, hamkorlikda o'rganish usulidan foydalanish talabalar o'rtasida muloqotning samarali bo'lishiga olib keladi. O'qitishda hamkorlikda o'rganishning umumiy maqsadi bu talabalar va o'qituvchilar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarning o'rnatilishidir. Bunday munosabatlar yordamida o'rganish mas'uliyati talabalarning o'zlarining zimmasiga yuklanadi. Talabalarda o'rganilayotgan tildan foydalanish muhitidagi o'rganishni boshqarish rag'batlantiriladi. Shu sababli hamkorlikda o'rganishning usullari sanalgan jamoaviy ishlash, munozara guruhlari, va savollar so'rash va javob berish, muammolarni hal qilish usullaridan til o'rganish jarayonlarida foydalanish katta ahamiyatga ega.

Hamkorlikdagi ta'lim jarayoni - bu guruhlarda o'rganish jarayonidir. Guruhlar sheriklikda o'rganishni o'rnatish maqsadida tuzilgan bo'lib, barcha talabalar bunday muvaffaqiyatli o'rganishdan foyda ko'radilar. Guruh a'zolari bir-birlarini mavzuni ko'proq va yaxshiroq tushunishga rag'batlantiradilar. Shunday qilib, barcha guruh a'zolari individual o'rganish orqali erishish mumkin bo'lganidan ko'ra bir-biridan o'rganish orqali ko'proq muvaffaqiyatga erishadilar [4]. Barcha talabalarni guruh faoliyatida ishtirok etishga undashning yana bir usuli bu talabalarga guruhda ishlash vaqti davomida rol yoki vazifa berishdir. Bu ularga egalik va javobgarlikni his qilishni ta'minlaydi. Misol uchun, "rollar" quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin: rag'batlantiruvchi, menejer, vaqtni hisoblovchi, kotib va muxbir. Guruh faoliyati uchun javobgar bu jamoa sardoridir. Jamoa sardori:

- Barcha jamoa a'zolarini ishtirok etishga undaydi
- Jamoadagi har bir kishi guruh me'yorlariga rioya qilishiga ishonch hosil qiladi
- Guruh a'zolari kelishmovchiligi bo'lsa, murosa topishga yordam beradi
- Yo'q bo'lgan jamoa a'zosining rolini to'ldiradi

Fasilitator:

- Jamoani darhol vazifani bajarishga undaydi.
- Hamma topshiriqning ko'rsatmalarini tushunishiga ishonch hosil qiladi.
- Materiallarni to'playdi va jamoaga tarqatadi
- Vazifani hamma ishtirok eta oladigan tarzda tashkil qiladi.

Talabalarda har bir rolda foydalanish uchun iboralar va lug'atlar banki mavjudligi muvaffaqiyatga eltuvchi yo'ldir. Bu o'yin paytida ishlatiladigan iboralar ro'yxatini tuzish o'ziga xos qiziqarli faoliyat bo'lishi mumkin. Masalan, "rag'batlantiruvchi" guruh a'zolariga faoliyati davomida nima deyishi mumkin? Rag'batlantiruvchi: "Bu yaxshi fikr!", "Yaxshi ish" yoki "Juda yaxshi." kabi iboralarni aytishi mumkin. Ushbu iboralarni o'quvchilarga dars davomida butun guruhga ko'rinadigan langar jadvaliga yozib qo'yish maqsadga muvofiqdir.[5]

Muvaffaqiyatga erishish uchun hamkorlik qilish juda muhimdir. Hamkorlikda til o'rganish davomida, guruhdagi har bir talaba o'z guruhidagi boshqa talabalar bilan birgalikda ishlashdan tashqari boshqa guruhlardagi talabalar bilan birgalikda ishlashi kerak. Butun jamoaviy ish davomida amaliyotda o'quvchilar yangi nuqtai nazarga ega bo'ladilar va muloqot qobiliyatlari va do'stona munosabatlarni rivojlantiradilar. [2]

Chet tillarini o'rganish jarayonida, hamkorlikdagi ta'lim ijtimoiy aloqalarni rivojlantiradi va talabalarda motivatsiyani oshiradi. Ijtimoiy aloqalarni o'rnatish jarayonida tegishli guruh a'zolari o'rtasida ijobiy munosabatlar o'rnatiladi. Bu bog'lanish sinf ichidagi muvofiqlikni oshirishga olib keladi va talabalarni faolroq ishtirok etishga undaydi. Bundan tashqari hamkorlikda ishlash chet tilida muloqot qilishni rivojlantirishda shuningdek so'zlashuvdagi ma'nolar boyligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Hamkorlik va ijtimoiy faoliyatga asoslangan til o'rganish nazariyalari talabalarning lug'at boyligini rivojlantirishga hissa qo'shganligini kafolatlaydi. Hamkorlikdagi ta'lim faoliyatida o'qituvchilar va talabalar tomonidan ishlatiladigan til boyligi aks ettiriladi. Bunday harakatlar esa chet tilida so'zlashishda ishlatiladigan so'zlarning xilma-xilligini oshiradi va bu o'z navbatida tilning funktsiyalarini o'rganishni samaraliroq qiladi. Talaba o'zining sa'y-harakatlari bilan til ko'nikmalarini rivojlantirish orqali nafaqat o'zining rivojlanishiga balki guruhdagi boshqa shaxslarning ham rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi. Bundan tashqari, hamkorlikdagi ta'lim o'quvchilarda tashqi dunyoga ko'proq ochiq bo'lishni, ularning tinglash qobiliyatlarini rivojlantirib boshqalarni tushunish malakalarini faollashtiradi. [4]

Hamkorlik strategiyasiga asoslangan ta'lim sistemasida ilm olgan talaba o'zining va guruh a'zolarining rivojlanish bosqichidan xabardor bo'ladi. Talabalar uchun o'quv faoliyati faqat sinf xonasida

tegishli bo'lmaydi; ular turlicha ijtimoiy hayotning sohalariga tarqalib ketadi. Shuning uchun, talabada o'z tajribalarini haqiqiy hayotga o'tkazish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Muhokama va natijalar. **Ijtimoiy til o'rganish strategiyasini qo'llashning muhimligi.** Chet tilini o'rganishda hamkorlikdagi ta'lim strategiyasi o'quv jarayonini tashkil etishda talabani markaziy mavqega olib keldi. Bundan tashqari bu strategiya o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi ta'lim jarayoni davomida ijtimoiy munosabatlar o'rnatish uchun juda ahamiyatlidir. Agar pedagogik faoliyat ijtimoiy va hamkorlik strategiyalariga muvofiq ravishda rejalashtirilgan va dars davomida mos usullar, texnikalar va materiallardan foydalanishga asoslangan bo'lsa, bu talabalar uchun o'rganish jarayonini osonlashtiradi. Til o'rganish jarayoni davomida talabalar duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarga amaliy yechimlarni topa olishga va samarali o'quv jarayonini o'rnatishga olib keladi. Ijtimoiy va hamkorlikda tilni o'rganish strategiyalarida talabalar uchun ta'lim faqat sinf ichidagi faoliyat bilan cheklanmaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, talabalarning til amaliyoti va imkoniyatlaridan faol foydalanishida ijobiy rivojlanish va o'sish boladi.

Ijtimoiy va hamkorlikda tilni o'rganish tamoyillariga ko'ra, har bir talaba o'zi uchun javobgar bo'lgan darajada sinfdoshlarining o'qishiga ham ta'sir etadi. Shaxsiy ta'limda muvaffaqiyat va talabani unga olib keladigan strategiyalar ijtimoiy ta'lim samaradorligida ham samarali vositani shakllantiradi.

Biroq, ko'p hollarda talabalar ularning ortida yotgan samarali ta'lim strategiyalari haqida to'liq xabardor bo'lmashligi mumkin. Shuning uchun ham talabalarga muvaffaqiyatli o'rganish yo'llarini o'rgatish kerak va buning uchun o'rganish strategiyalari chizib chiqish muhimdir. Har bir talaba o'zida qanday ijtimoiy strategiyalarni rivojlantirayotganini payqashi va dars davomida boshqa talabalar va o'qituvchisi bilan shu strategiyalarni baham ko'rishiga imkoniyat yaratish kerak.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, til o'rganishdan asosiy maqsad, uni turli ijtimoiy hayot sohalarida muloqotda foydalana olishdan iboratdir. Ijtimoiy va hamkorlikda o'rganish strategiyalari ana shu darajaga erishish uchun samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Dollman L, Morgan C, Pergler J, Russell V, Watts J (2007). Hamkorlikdagi ta'limdan foydalanish orqali ijtimoiy ko'nikmalarni yaxshilash.

Sent-Xavier universiteti o'qitish va yetakchilik fanlari magistrarlari, Chikago, Illinoys.
<http://files.eric.ed.gov/fulltext/ED496112.pdf>.

2. Jonson DW, Jonson RT, Stanne MB (2000). Kooperativ ta'lim usullari: Meta-tahlil. Minnesota universiteti, Minneapolis, Minnesota

<https://jamyang.wikispaces.com/file/view/Cooperative+Learning+Methods.doc>

3. Oksford RL, Lavine RZ, Crookall D (2008). Til o'rganish strategiyalari, kommunikativ yondashuv va ularning sinfdagi oqibatlari. Chet til yilnomalari, 39-b.
<http://dx.doi.org/10.1111/j.19449720.1989.tb03139.x>

4. Slavin RE (1988). Boshlang'ich sinflarda guruhlash bo'yicha tadqiqotlar sintezi va o'rta maktablarda ta'lim. Chet tili yilnomasi, 46 b.

http://www.ascd.org/ASCD/pdf/journals/ed_lead/el_198809_slavin.pdf

5. Grahn L. & Mc Alpine D. (2017). The keys to strategies for language instruction: Engagement, relevance, critical thinking, collaboration. The American Council on the Teaching of Foreign Languages.

КУШИЕВА Нодира Хабибжоновна

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари
университети докторанти (DSc)

МАКТАБГАЧА, УМУМИЙ ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ИНГЛИЗ ТИЛИ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИ

Ушбу мақолада узлуксиз таълим тизимининг мактабгача, бошлангич синфларида хорижий тилларни, хусусан инглиз тилини ўқитиш методикаси бўйича илмий изланишлар кўрсатилди. Узлуксиз таълим тизимининг мактабгача, бошлангич синфларига инглиз тилини ўқитишда кластерли ёндашув асоси ҳисобланган STEAM технологияси асосида ўқитиш ўқувчиларнинг тилни ўрганишига қизиқишини ва инглиз тилидаги билимини оширишига ёрдам беради. Замонавий таълимнинг илгор йўналишларидан бири - бу STEAM таълимидир. Унинг мазмун-моҳияти шундан иборатки, у боланинг шахсиятини, унинг ақл-идрокини, тадқиқот қобилиятини, илмий усулларга асосланган муҳандислик тафаккурини, техник қўлланмаларни, математик моделлаштиришни, муҳандислик дизайнини ва бошқаларни ривожлантиришига имкон беради.

Калит сўзлар: узлуксиз таълим тизими, инглиз тили, мактабгача таълим, бошлангич синф, STEAM технологияси.

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ В СИСТЕМЕ ДОШКОЛЬНОГО, ОБЩЕГО СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье показаны научные исследования по методике обучения иностранным языкам, в частности, английскому, в дошкольных учреждениях, начальных классах системы непрерывного образования. Обучение на основе технологии STEAM, лежащей в основе кластерного подхода к обучению английскому языку в дошкольных и начальных классах системы непрерывного образования, способствует повышению интереса учащихся к изучению языка и их знаниям английского языка. Одним из передовых направлений современного образования является STEAM-образование. Суть его в том, что он позволяет развивать личность ребёнка, интеллект, исследовательские способности, инженерное мышление на основе научных методов, технических приложений, математического моделирования, инженерного проектирования и т. д.

Ключевые слова: система непрерывного образования, английский язык, дошкольное образование, начальный класс, технология STEAM.

METHODOLOGY OF ENGLISH LANGUAGE TEACHING IN PRESCHOOL, GENERAL SECONDARY SPECIAL EDUCATION SYSTEM

In this article, scientific research on the methodology of teaching foreign languages, especially English, in pre-school, elementary classes of the continuous education system was presented. Teaching on the basis of STEAM technology, which is the basis of a cluster approach to teaching English to preschool and elementary classes of the continuing education system, helps to increase students' interest in learning the language and their knowledge of English. One of the advanced directions of modern education is STEAM education. Its essence is that it allows the development of the child's personality, intelligence, research ability, engineering thinking based on scientific methods, technical applications, mathematical modeling, engineering design, etc.

Key words: continued educational system, English language, preschool education, primary class, STEAM technology.

Кириш. Дунёдаги илгор илмий марказлар, тадқиқотчилар томонидан узлуксиз таълим ва ишлаб чиқариш интеграцияси тизимида кадрлар тайёрлаш жараёнини халқаролаштириш бўйича илмий изланишлар олиб борилмоқда. ЮНЕСКОнинг таълим тўғрисидаги Глобал конвенциясида (2019) белгиланган вазифаларга кўра таълим муассасаларида хорижий тилни кластерли тизим асосида ўрганишга алоҳида эътибор берилиши назарда тутилган. Бунда таълим олувчи ёшларни креатив фикрлаш кўникмалари ва инновацион ривожланишни таъминлаш имконини бериши кўрсатиб ўтилган. Шунга кўра узлуксиз таълим, фан ва ишлаб чиқариш интеграциясини ривожлантириш билан боғлиқ

холда узлуксиз таълим тизимида инновацион кластернинг илмий-назарий асосларини шакллантириш механизмларини такомиллаштириш бўйича истиқболли йўналишларда илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги “Таълим - тарбия тизимини янада такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4884-сонли қарори иловасининг 4-бандига кўра “Мактабгача, умумий ўрта, профессионал ва олий таълим ўқув дастурлари ва фанларнинг узлуксизлигини таъминлаш” вазифаси белгиланган [1].

Асосий қисм. Узлуксиз таълим тизимида белгиланган мақсад ва вазифалардан келиб чиққан холда ўқимишли, замонавий фикрловчи ёш авлодни тарбиялаш - Республиканинг жаҳон ҳамжамиятига янада интеграциялашувига йўналтирилган тизим яратишда муҳим аҳамиятга эгадир [2]. Бу ўринда таълим босқичларига мос холда чет тилини ўқитиш мезонларини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ. Сўнгги йиллари таълим технологиялари бозорида инглиз тилини ўқитишда жуда кўп таклифлар мавжудлигини инобатга олсак, бу ўринда умумэътироф этилган Европа Кенгашининг “Чет тилини билишнинг умумевропа компетенциялари: ўрганиш, ўргатиш ва баҳолаш” (CEFR) талабларига таянган холда ишлаб чиқиш - кўпчилик мутахассисларнинг диққат эътиборидадир [4; 261-б.].

Давлат таълим стандарти умумий ўрта таълимнинг ўқувчилар умумтаълим тайёргарлигига, савиясига қўйиладиган мажбурий минимал даражани белгилаб берувчи ҳужжатдир. Давлат таълим стандарти таълим мазмуни, шакллари, воситалари, усуллари, унинг сифатини баҳолаш тартибини белгилайди. Таълим мазмунининг ўзаги ҳисобланган ушу ҳужжат мамлакат ҳудудида фаолият кўрсатаётган турли муассасаларда (давлат ва нодавлат) таълимнинг барқарор даражасини таъминлаш шарти амалга оширилади. Давлат таълим стандарти ўз моҳиятига кўра ўқув дастурлари, дарсликлар, қўлланмалар, низомлар ва бошқа меъёрий ҳужжатларни яратиш учун асос бўлиб хизмат қилади.


Бугунги кунда Республикамизда инглиз тилини мактабгача таълим тизимидан ривожлантириш кенг йўлга қўйилган. Узлуксиз таълим тизими боғча, мактаб, ўрта махсус ва олий таълим тизимини камраб олади. Шунга кўра тадқиқотларимиз давомида инглиз тилини мактабгача таълим тизимидан то олий таълим тизимига қадар ўқитиш моделини ишлаб чиқдик.

Ушбу тадқиқот инглиз тили фани бўйича узлуксиз таълим тизимининг модели, умумий ўрта таълимнинг ўқув дастури, академик литсей учун 2 йиллик тизим ва олий педагогик таълимнинг ўқув тизимидан таркиб торган “Инглиз тили фани бўйича Узлуксиз таълим модели” ҳисобланади.

Шунингдек, тадқиқотларимиз давомида, инглиз тилини узлуксиз таълим жараёнида ўқитишни такомиллаштириш бўйича чет тилини ўрганиш ва ўқитишнинг умумевропа компетенциялари (CEFR) талаблари, Финляндия, АҚШ, Россия тажрибаси ўрганиб чиқилди ва тадқиқотимиз вазифалари белгилаб олинди.

Тадқиқотимизда белгиланган вазифаларга кўра, юқори (10-11) синфлар, академик лицей ўқувчилари ҳамда нофилологик таълим йўналиши (биология) талабаларига инглиз тили кластерли ёндашув асосида ўқувчи ва талабаларнинг танлаган соҳаларига мос равишда ўқитилади. Инглиз тилини кластерли ёндашувга асосланиб ўқитилиши айнан юқори синфлар ва академик лицей тизимидан бошланишига сабаб, ушбу ўқувчилар келажакдаги соҳаларини танлаб олишган ва мазкур соҳа доирасида олий таълим муассасаларига кириш учун тайёргарлик кўрадилар. Бунда инглиз тили ўқувчиларга танлаб олган соҳаларига мос равишда кластерли ёндашувларга асосан ўқитилади. Олий таълим муассасаларида эса танлаган соҳаларининг профессионал мутахассиси бўлиб етишишида ушбу кластерли ёндашувга асосланган тизим муҳим рол ўйнайди.

Фикримизча, ўқувчилар келажакдаги соҳаларини танлаб олишларида инглиз тили фани муҳим рол ўйнайди. Юқори синфларда эса танлаб олган соҳалари инглиз тилида ўқитилиши юқори малакали мутахассис бўлишларига асос бўлади. Бошлагич синфларда, кичик ёшдаги тил ўрганувчилар муайян соҳани танламаган бўлишади. Шунга кўра тадқиқотларимиз давомида аниқландики, ўқувчиларни муайян соҳага қизиқтиришда инглиз тилини мактабгача ва бошланғич синфларда STEAM технологияси муҳим рол ўйнайди. Инглиз тилини кластерли ёндашув асосида ўқитишнинг асосини STEAM технологияси ташкил этади. STEAM – бу S – science, T – technology, E – engineering, A – art, M – math. (1-расмга қаранг). Ушбу STEAM тизимида кичик ёшдаги тил ўрганувчиларга Ссиенсе (Фан), Течнологй (Технология), Енгинееринг (Мухандислик), Арт (Санъат), Матх (Математика) йўналишларига ўқувчилар хорижий тил ўқитувчилари ҳамда ота-оналар томонидан қизиқтирилади.



1-расм. STEAM технологияси орқали бошланғич синфларни ўқитиш

Ушбу STEAM тизимида ўқиган боғча ва мактаб ёшидаги кичик тил ўрганувчилари қизиқишларига кўра ушбу бешта Science (Фан), Technology (Технология), Engineering (Муҳандислик), Art (Санъат), Math (Математика) йўналишлардан бирини танлайди ва энди юқори синфларда ёки академик лицейларда танлаб олган соҳаларини инглиз тили фанларида кластерли ёндашув асосида ушбу мутахассисликларига мос равишда ўқийдилар.

STEAM технологиясида билимлар алоҳида эмас, ўзаро мутаносиб ҳолда олиб борилиши таъминланади. Ўқувчи ўзида ностандарт фикрлаш, муаммога бир нечта ечим топиш ва ижодкорлик кўникмаларини шакллантиради.

Замонавий таълимнинг илғор йўналишларидан бири - бу STEAM таълимидир. Унинг мазмун-моҳияти шундан иборатки, у боланинг шахсиятини, унинг ақл-идрокини, тадқиқот қобилиятини, илмий усулларга асосланган муҳандислик тафаккурини, техник қўлланмаларни, математик моделлаштиришни, муҳандислик дизайнини ва бошқаларни ривожлантиришга имкон беради. Бошланғич мактаб ёшидаги болаларни ўқитишда STEAM таълим моделидан фойдаланиш алоҳида қизиқиш уйғотади.

Кичик ёшдаги болаларга инглиз тилини ўқитишда STEAM технологиясидан фойдаланиш қулай ва самаралидир. Мисол учун, тил ўқитувчиси Ҳайвонлар ва уларнинг яшаш тарзи (Science) ҳақида ўқувчиларга дарсни ўтишни ташкиллаштиришда, ҳайвонларнинг яшаш жойи ва уларни қуриш (Engineering), яшаш жойи дизайни (Art) ва ҳайвонларни омон қолиши учун зарур бўлган нарсаларни (Science)ни инглиз тили дарсларида қўллаш мумкин. Дарс якунида эса ўқувчиларга бир-бирларининг юқорида айтилган соҳалар орқали бажарилган топшириқларни намойиш қилиш сўралади. Бу инглиз тилида тақдимот ва нутқ кўникмаларини шаклланишида асос бўлиб хизмат қилади. Натижада ўқувчилар STEAM йўналишидаги фанларни қизиқишларига қараб танлаб олишларига замин яратилади.

Қуйидаги ишлаб чиқилган машқлар ҳам кичик ёшдаги болаларга инглиз тилини STEAM асосида ўқитишдир:

Activity 1:

Activity 1:

QR Code Gallery Walk activity

Materials:

- Internet
- 5 – 6 photos in .jpg or .png format
- Paper, Printer, Gallery Walk worksheet
- Students will need cellphones

Teacher Preparation:

- Pick an article, text, or book
- Think of 5 to 6 hints
- Download 5 to 6 images of the hints: www.pixabay.com or www.unsplash.com
- Upload the photos to www.me-qr.com
- Download the QR codes

- Print them and hang on walls
- Teacher will ask... • What’s your favorite book? • What do you think we’ll read next? • Teacher will model using QR codes—give the first hint.
- Give language support • Modals of possibility: • Might be, could be, must be • Sentence Starter: • I think that... • Graphic organizer

Activity 2:

Life cycle of the butterfly

Material:

- A book or article about a caterpillar
- Internet
- Computers or phone
- A graphic design or template tool of your choice, like www.canva.com
- Article on life cycle of butterfly

Teacher preparation:

- Choose an article about the life cycle of the butterfly
- Print out worksheets and graphic organizers or have links ready to go
- Make sure students have access to computers, tablets, or phones
- Make a model of the poster that you want to show

Ўқитувчилар инглиз тили машғулотларини олиб боришларида асосан аутентик баҳолаш топшириқларини қўллашлари тавсия этилади. Ўқувчи ва талабалардан эгаллаган билим ҳамда кўникмаларини аутентик вазифалар орқали тақдим этишларини сўралгандагина уларни ўз эҳтиёжларидан келиб чиқиб ҳақиқий вазиятлар (real life situation)да қандай натижаларга эришишлари мумкинлигини ва инглиз тилида нималарга қодир эканликларини аниқлаш имконияти мавжуд бўлади. Бундай вазифаларни (role play, case study, interview, project work кабилар) тайёрлашда ўқувчи ва талабаларнинг бўлғусидаги касбий вазиятларидан келиб чиқиш лозим бўлади. Жумладан, берилган мавзуда ролли ўйинлар ўтказиш, муҳим масала бўйича йиғилиш ёки давра суҳбати ўтказиш, касбга доир нутқ тайёрлаш, лойиҳа наъмунасини тайёрлаш ва муҳокамага олиб чиқиш каби топшириқлар олиб борилиши мумкин.

Хулоса. Тадқиқотларимиз давомида умумий ўрта таълим мактабларининг юқори синфларида ўқувчиларнинг инглиз тилини танлаган мутахассилиги доирасида яъни кластерли ёндашув асосида ўқитиш методикасини ишлаб чиқиб тадқиқот натижаларини илмий ва назарий жиҳатдан асослаб уни амлиётга татбиқ этдик. Бу ўқувчи фан ва тилни интеграциялашган ҳолда ўрганиш бу бир вақтнинг ўзида янги мавзунини иккинчи тил орқали ўрганиш ёндашувидир. Бунда ўқувчилар чет тилида ўқитилиши мумкин бўлган мавзулар орқали нафақат фан ҳақида маълумот олишади, балки тегишли луғат ва тил кўникмаларига ҳам эга бўлишади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги “Таълим - тарбия тизимини янада такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4884-сонли Қарори. <https://lex.uz/docs/5085887>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Профессионал таълим тизимини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» 2019 йил 6 сентябрдаги ПФ-5812-сон Фармони ижросини таъминлаш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси Қарори. <https://lex.uz/uz/docs/4945840?ONDATE=15.04.2022>
3. Таълим муассасаларида чет тилларини ўқитишнинг сифатини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг ВМҚ 610-сон Қарори. 2017 йил 11 август.
4. Common European Framework of Reference for Languages: learning, teaching, assessment. – Cambridge University Press, 2001. – 261 p.

SAIDOVA Nodira Mustakimovna

Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich
ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi

IMMANENT VA KONTEKSTLI YONDASHUV ASOSIDA SINFDAN TASHQARI ADABIYOT DARSLARINI LOYIHALASHTIRISHNING SAMARADORLIK NATIJALARI

Maqolada matn tahlilida samarali natija beruvchi zamonaviy yondashuvlar borasida olib borilayotgan ilmiy va amaliy ishlarimizning holati bayon qilingan. Olib borilgan tajriba-sinov ishlarida talabalarning faoliyati baholangan. Immanent va kontekst yondashuvlari borasida talabalarning qiziqishlari va uni amaliyotga qo'llay olishlari haqidagi fikrlar statistik jihatdan tahlil qilingan.. Ta'lim oluvchilarning Immanent va kontekst yondashuvlari asosidagi bilimlarini tekshirish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining samaradorlik darajasi va natijalari o'rin olgan.

Kalit so'zlar: immanent yondashuv, kontekst yondashuv, pedagogik texnologiyalar, o'z-o'zini tarbiyalash, loyihalash, so'rovnoma, matn tahlili.

ЭФФЕКТИВНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ВНЕКЛАССНЫХ УРОКОВ ЛИТЕРАТУРЫ НА ОСНОВЕ ИММАНЕНТНО-КОНТЕКСТНОГО ПОДХОДА

В статье изложено состояние нашей научной и практической работы по современным подходам к анализу текста, дающим эффективный результат. В проведённой экспериментальной работе оценивалась успеваемость учащихся. Что касается имманентного и контекстного подходов, изложены интересы студентов и их мнение о том, как они могут применить его на практике. Были представлены уровни эффективности и результаты исследовательской работы, проведённой с целью проверки знаний обучающихся на основе имманентного и контекстного подходов.

Ключевые слова: имманентный подход, контекстуальный подход, педагогические технологии, самообразование, проект, анкета, анализ текста.

EFFECTIVE RESULTS OF DESIGNING LITERATURE LESSONS OUTSIDE THE CLASSROOM BASED ON AN IMMANENT AND CONTEXTUAL APPROACH

The article describes the state of our scientific and practical work on modern approaches to text analysis that give an effective result. In the conducted experimental work, the students' academic performance was evaluated. As for the Immanent and contextual approaches, the interests of students and their opinions on how they can apply it in practice are outlined. The levels of effectiveness and the results of the research work carried out to test the knowledge of students on the basis of Immanent and Contextual approaches were presented.

Key words: immanent approach, contextual approach, pedagogical technologies, self-education, project, questionnaire, text analysis.

Kirish. Bugungi kunda “Loyihalash” tushunchasi juda ko'p sohalarida ishlatib kelinmoqda. Ma'lumki, loyihalash ta'lim shartlaridan biri sanaladi. Ta'lim jarayonini loyihalashtirish ham o'qituvchiga, ham o'quvchiga birdek qulaylik yaratadi. Loyihalash - lot. Projectus - olg'a tashlangan fikr, g'oya, obraz degan ma'nolarni bildiradi, ya'ni kelgusida amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirib bo'lib, proyekt ma'lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikrning ifodasidir. U bildirilgan fikrni mohiyatini va uni amalga oshirish imkoniyatlarini ochib beradi. Loyihalash-mo'ljallangan obyektlar (masalan, bino va inshootlar apparat va asboblari, ko'priklar, yo'llar, kosmik kemalar va hokazo boshqa mahsulotlarning yangi xillari va namunalari)ni qurish va yaratish uchun ularning loyihalarini tuzish va chizish jarayoni demakdir. Fan va texnikaning barcha sohalarida keng qo'llaniladi.

Ta'lim jarayonini loyihalashda o'qituvchi pedagog dars loyihasini har tomonlama o'ylab, uning natijasini va samaradorligini oldindan ko'ra bilishi kerak. Shu bois ham o'quv jarayonini loyihalashtirish samarali natija beradi.

Asosiy qism. Ayniqsa, matn tahliliga qaratilgan mashg'ulotlarda dars loyihasi ko'zlangan natijani bera oladi. Jumladan, adabiyot va o'qish darslarida o'quvchilarni ijodkorlikka undash, erkin, mustaqil va

tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda immanent va kontekst yondashuvlari muhim ahamiyat kasb etadi. Matn tahlilida juda samarali natija beradigan zamonaviy yondashuvlar-immanent va kontekst yondashuvlari asosida tadqiqot ishlarini olib boryapman. Bu tadqiqot ishlarimizning samaradorlik natijalarini Buxoro davlat universiteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 14-1,2 BT-20 guruh talabalari o'rtasida so'rovnoma tarqatgan holda amalga oshirdik. So'rovnoma shu yilning oktabr oyida o'tkazilib, mazkur so'rovnoma 60 ga yaqin talabalar ishtirok etishdi. Taqdim qilingan so'rovnoma 10 ta savoldan iborat bo'lib, mazkur so'rovnoma mazmuni immanent va kontekst yondashuvlarining mazmun-mohiyatiga qaratilgan edi. Talabalarning og'zaki va yozma holatda o'z fikr-mulohazalarini bayon etishdi. Mazkur zamonaviy yondashuvlar doirasida dars mashg'ulotlarida ham fikrlashganimiz bois, ko'pchilik ta'lim oluvchilar ushbu yondashuvlaridan nisbatan xabardor ekanliklari ayon bo'ldi. Taqdim etilgan so'rovnoma mazmuni quyidagilardan iborat edi:

1. Immanent yondashuvini qanday izohlaysiz?
2. Ta'limda kontekst atamasiga qanday izoh berilgan?
3. O'z pedagogik amaliyotingizda immanent yondashuvini qo'llaysizmi?
4. Kontekst yondashuvining turlarini bilasizmi?
5. Matn tahlilida immanent va kontekst yondashuvlarning ahamiyati qanday?
6. Immanent va kontekst yondashuvlarining o'zaro farqlari bormi?
7. Jahon olimlarining immanent va kontekst yondashuv haqidagi fikrlaridan misollar ayting.
8. Badiiy asar tahlilida immanent tahlilning o'rini qanday baholaysiz?
9. Badiiy asar tahlilida kontekstual tahlilning o'rini qanday baholaysiz?
10. Zamonaviy yondashuvlardan yana qaysi yondashuvlarni bilasiz?

Olib borilgan tadqiqotlarimiz davomida shunga amin bo'ldimki, ta'lim oluvchilar immanent va kontekst yondashuvlari haqida qisman tushunchaga ega. Lekin ba'zi bir iqtidorli va talabchan talabalar hech kimning xayoliga ham kelmaydigan juda qimmatli fikrlarni bayon etishdi. Keling, shu fikrlardan ayrimlarini sizga havola qilsam;

Immanent va kontekst yondashuvlariga oid ko'nikmalarni baholash mezonlari	Doim	Ba'zida	Qisman	Umuman yo'q
1.Immanent yondashuvining mazmunini anglash	☐ 23	☐ 15	☐ 13	☐ 7
2.Kontekst atamasi izoh berish	☐ 19	☐ 17	☐ 19	☐ 3
3.Pedagogik amaliyotda immanent yondashuvdan foydalanish	☐ 17	☐ 16	☐ 20	☐ 5
4.Fakt va misollar keltirish orqali savollarga javob berish	☐ 20	☐ 18	☐ 14	☐ 6
5.Matn tahlilida immanent va kontekst yondashuvlaridan foydalanish	☐ 19	☐ 18	☐ 14	☐ 7
6.Matn tahlili jarayonida yondashuvlarni tanlay olish	☐ 19	☐ 19	☐ 16	☐ 4
7.Immanent va kontekst yondashuvlaridagi o'zaro farqlarni ajratish	☐ 21	☐ 17	☐ 15	☐ 5
8.Boshqalar fikrini hurmat qilishini namoyish eta olish	☐ 20	☐ 21	☐ 15	☐ 2
9.Boshqalar fikriga tanqidiy munosabat, tahlil maneralarini tanlay olish	☐ 23	☐ 21	☐ 8	☐ 6
10.Matn tahlilida olimlar fikriga tayanish	☐ 22	☐ 20	☐ 11	☐ 5

G'aybullayeva Sabina: (14-1BT-20) Immanent yondashuv – matnda xolis munosabat bildirib, uning ichki tuzilishi 3-shaxs tomonidan yoritib berishga asoslanadi. Kontekst yondashuvda esa matn muallifining hayotiy tajribasi va matn o'rtasidagi izchillik, o'zaro bog'liqlikning mavjudligi inobatga olinadi. Immanent yondashuvda rassom ranglar jilosida surat chizganidek, ijodkor, yozuvchi ham o'z asar qahramonining ichki olamini so'z chizgilari asosida tasvirlab beradi. Kontekst yondashuvda asar muallifining hayotiy tajribasi bevosita asar bilan hamohang tarzda yoritilishi demakdir. Kontekst yondashuvda asar yozilgan davr ijtimoiy-siyosiy holat to'liq yoritilib beriladi. Xullas, immanent va kontekst yondashuvlari asar mazmun-mohiyatini to'la ochib berishga qaratilgan juda muhim yondashuvlardir.

Rahimqulova Mohinur: (14-1 BT-20) Bilamizki, badiiy asarlarni tahlil qilish jarayonida kitobxonlarning har birida turlicha fikrlar mavjud bo'ladi. Lekin baribir qaysidir bir nuqtada umumiylik borligi seziladi. Tushunish jarayonida tahlil yetakchilik qilsa, talqinning mavqeyi ustunroq ekanligi tayin.

Demak, asarning ichki va tashqi aloqalarini birgalikda olib oʻrganish bilan kontekstual tahlil shugʻullanadi. Asarga alohida mavjudlik sifatida qarab, uning ichki aloqalarini oʻrganish esa immanent yondashuvning faoliyatiga kiradi. Umuman olganda, bu ikki yondashuvlarning oʻzaro farqlari mavjud.

Oʻlmasova Ruxsora: (14-2 BT-20) Immanent atamasini birinchilardan boʻlib, fanga nemis olimi Immanuel Kant olib kirgan. Immanent – oʻrganilayotgan obyektning tabiatiga, uning ichki dunyosiga, matndan tashqari hissiyotlarga xosdir. Kontekst atamasi esa yaqin bogʻlanish, bogʻlanish 20-asr oxiridan boshlab zamonaviy filologiyaga kirib kelgan. Kontekst yondashuvining oʻziga xosligi shundaki, unda matn muallifining hayotiy tajribasi hamda matn oʻrtasida uzviylik va aloqadorlik mavjud.

Soʻrovnoma talabalar juda faol qatnashishdi. Ayrim fikrlarga qarama-qarshi mulohazalar ham boʻldi. Umuman olganda, immanent va kontekst yondashuvlarining farqli va oʻxshash tomonlari taqqoslanildi. Koʻpchilik taʼlim oluvchilar bu yondashuvlarining mohiyatini tushunganliklari hamda amaliyot jarayonlaridan unumli foydalanishlarini aytishdi. Mazkur soʻrovnoma 58 talaba ishtirok etishdi:

Xulosa. Soʻrovnoma natijalaridan shu koʻrinib turibdiki, dars mashgʻulotlari jarayonlarida, matn tahlili borasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar samarasiz ketmabdi. Tajriba natijalari kutganimizdan ham yaxshiroq. Talabalar matn tahlili borasidagi bilimlarini mustahkamlash maqsadida Oʻqish kitobidan matn tanlab tahlil qildik. Talabalar tanlangan matnlarni immanent va kontekst yondashuvlar asosida tahlil qilib, oʻz fikrlarini himoya qila oldilar. Olib borayotgan tajriba-sinov ishlarimizning natijasini koʻrib quvondik.

Adabiyotlar:

1. Abduqodirov A va boshqalar. Taʼlimda innovatsion texnologiyalar. –T.: Isteʼdod, 2008. -180 b
2. Pedagogika. Ensiklopediya. III jild Jamoa // Toshkent: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.
3. Saidova N.M. Gʻafur Gʻulom asarlarini immanent va kontekst yondashuvlari asosida tahlil qilish. // Taʼlim va innovatsion tadqiqotlar . 2022 .9.09
4. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. - Toshkent -2009.A.Madaliyev tahriri ostida.

АЛИМОВА Камола Хужагелдиевна

Тошкент аграр университети мустақил
изланувчиси

МАТНИИ ТУШУНИШ ЖАРАЁНИГА ТАЪСИР ҚИЛАДИГАН ПСИХОЛИНГВИСТИК ОМИЛЛАР

Матнни идрок этишига нисбатан катта эътибор унинг реципиент учун қанчалик аҳамиятли эканлигига боғлиқ. Бу жараён икки томонлама тушунирилади: биринчидан, реципиентга матн қанчалик муҳим бўлса, у шунчалик эътиборда бўлади. Иккинчидан, матнга нисбатан қанчалик кўп эътибор бўлса, узатилаётган маълумотнинг майда иқир-чиқирларигача тушунилади (аналитик эффект), кўпроқ таассурот қолади (таъсирланувчи эффект) ва шунчалик идрок ва тушуниш аниқроқ бўлади (кучайтирувчи эффект).

Калит сўзлар: психоллингвистика, матн, идрок, омил, шахс, ёндашув, тушуниш, фаолият, реципиент, маълумот.

ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОЦЕСС ПОНИМАНИЯ ТЕКСТА

Большое внимание к восприятию текста зависит от того, насколько он важен для адресата. Этот процесс объясняется двояко: во-первых, чем важнее текст для получателя, тем больше внимания он получит. Во-вторых, чем больше внимания уделяется тексту, тем больше уясняется нюансов передаваемой информации (аналитический эффект), тем больше впечатлений остаётся (аффективный эффект), тем яснее восприятие и понимание (усиливающий эффект).

Ключевые слова: психоллингвистика, текст, восприятие, фактор, человек, подход, понимание, деятельность, реципиент, информация.

PSYCHOLINGUISTIC FACTORS AFFECTING THE PROCESS OF TEXT UNDERSTANDING

Much attention to the perception of the text depends on how important it is for the recipient. This process is explained in two ways: firstly, the more important the text is to the recipient, the more attention it will receive. Second, the more attention is paid to the text, the more nuances of the information conveyed are understood (analytic effect), the more impressions are left (affective effect), and the clearer the perception and understanding (enhancing effect).

Key words: psycholinguistics, text, intellect, factor, person, approach, understand, activity, recipient, information.

Қириш. Психоллингвистика фанида матнни идрок этиш ва уни тушуниш жараёнига бевосита таъсир кўрсатувчи омилларнинг учта гуруҳи фарқланади. Уларга қуйидагиларни киритиш мумкин:

- а) матнни идрок этиш ва тушуниш объекти сифатида қатнашадиган шахс хусусиятлари;
- б) матннинг параметрлари ва унда акс этадиган реалликлар;
- в) идрок этиш ва тушуниш жараёни кечадиган вазиятлар. Биз қуйида уларнинг айримларига қисқача тўхталиб ўтамыз.

1. Шахс омиллари. Шахс индивидуал, психофизиологик, психологик ва ижтимоий хусусиятларга (психик жараёнларнинг турли хиллиги, йўналганлик, характер хусусиятлари, ижтимоий-сиёсий ва мафкуравий хусусиятлар ва ҳ.) эга бўлган яхлит система сифатида маълумотни қабул қилади ва қайта ишлаб чиқади.

Китобхоннинг матн билан тўқнашувида қатнашадиган муҳим механизмларидан бири идрок установкасидир. Бу инсонлар онгининг фундаментал компонентларига боғлиқ тайёрлик, маълумотга нисбатан тингловчининг позицияси.

Асосий қисм. Мазмунга боғлиқ бўлган ҳолда установка идрокнинг характери белгилайди. Шунинг учун ҳам идрокнинг биринчи қадамлариданоқ предиспозицион омиллар аҳамият касб этади.

Установкларнинг биринчи босқичи – қидирув операциялари бўлиб, бунда реципиентнинг ҳаётий позицияларига, қадриятларигава интилишларига мос ҳолда матний маълумотнинг манбаи

танланади ва унга маълум муносабат белгиланади. Бу босқичда асарни идрок этиш майдонида юзага чиққан маълумотларни илк баҳолаш содир бўлади ва шунга мос ҳолда идрокнинг асосий предмети аниқланади.

Иккинчи босқич – бевосита идрок жараёнининг ўзи ҳисобланади. Маълумот билан бевосита контактга киришар экан, реципиентнинг установкалари маълумотларни танлайди (идрокнинг танланувчанлиги ҳодисаси), уларнинг реципиент учун муҳимлик даражаси белгиланади ва шундан сўнг муҳим маълумотлар сакланишга юборилади (хотиранинг танланувчанлиги ҳодисаси).

Матн билан контакт тугагандан кейин, яъни реципиент ўқишни тугатгандан кейин барчаси тугамайди, балки установкалар постдиспозицион ҳаракатларни белгилаб беради. Бошқача айтганда, идрокнинг учинчи босқичи бошланади. Бунда илгари идрок этилганнинг кейинги таъсири аниқланади, маълумотлар қайта ишланади, улар онг тизимига ўтказилади ва у ёки бу даражада идрок этилаётган нарсанинг таъсирида маълум ўзгаришларга учрайди.

Матнни идрок этишга нисбатан катта эътибор унинг реципиент учун қанчалик аҳамиятли эканлигига боғлиқ. Бу жараён икки томонлама тушунтирилади: биринчидан, реципиентга матн қанчалик муҳим бўлса, у шунчалик эътиборда бўлади. Иккинчидан, матнга нисбатан қанчалик кўп эътибор бўлса, узатилаётган маълумотнинг майда икир-чикирларигача тушунилади (аналитик эффект), кўпроқ таъсирот қолади (таъсирланувчи эффект) ва шунчалик идрок ва тушуниш аниқроқ бўлади (кучайтирувчи эффект).

Матнни идрок этиш ва тушуниш жараёнига, шунингдек, индивиднинг фаолият ёндошуви, ижтимоий статуси (мавқеи), ижтимоий-маданий ёндошуви, шахснинг психологик хусусиятлари ҳам бевосита таъсир кўрсатади.

Биз куйида уларни алоҳида-алоҳида кўриб чиқамиз.

Фаолият ёндашуви. Инсоннинг идрок қилиш ва тушуниш субъекти сифатидаги характеристикалари кўриб чиқилар экан, даставвал, унинг томонидан амалга оширилаётган фаолиятнинг характери ва мазкур фаолиятга унинг қай даражада боғланганлигига эътиборни қаратиш зарур. Чунки воқеликнинг англанилиши ва тушунилиши фақатгина мақсадга йўналган фаолият контекстидагина мумкин бўлади ва у инсон томонидан интилинган аниқ ва ўта мураккаб мақсадлар билан боғлиқ бўлади. Мақсадлар қанчалик мураккаб бўлгани сари шунчалик кўпроқ ўзаро алоқаларни иноватга олишга, ҳодисаларнинг моҳиятига шунчалик чуқурроқ кириб боришга тўғри келади. Натижада шунчалик кўпроқ тушунилиш кузатилади.

Ижтимоий ёндашув. Бу статус даставвал оммавий ахборот воситалариматнларини идрок этиш ва тушунишга тааллуқлидир. Инсон ижтимоий хусусиятларининг маълумотларни қайта ишлаш жараёнига таъсири шундай тушунтириладики, ҳар қандай идрок этиладиган маълумотнинг мазмуни гуруҳий қизиқишлар ва манфаатларнинг призмаси орқали талқин қилинади. Шундай қилиб, коммуникатив жараённинг мавжудлиги ҳам, узатилаётган маълумотларнинг мазмуни ҳам асосан алоқа амалга оширилаётган ижтимоий системанинг характериға боғлиқ бўлади.

Кўплаб тадқиқотларда тасдиқланадики, маълумотларнинг танланиши ва талқини инсоннинг бу сигналлардан нимани кутаётганига, яъни кутилмаларга боғлиқ ҳолда кечади. Бу кутилмалар ўз навбатида маълумотларни тушунишни маълум томонга буриб юборади. Айнан шунинг учун ҳам ижтимоий ёндошув нуктаи назаридан маълумотларни қабул қилиш жараёнида битта одам қатнашсада, маълумотнинг истеъмолчиси битта одам эмас, балки аудитория бўлади. Аудитория нима дегани? Аудитория маълумотларни идрок этаётган одамлар тўплами бўлиб, у маълумотларни тушуниш жараёнига ўша маълумотнинг ўзгаларга қай даражада муҳим эканлиги нуктаи назаридан туриб таъсир кўрсатади. Аудитория маълумотларнинг муҳимлиги ва долзарблигини ҳам белгилаб беради. Сабаби аудиторияга (кўпчиликка) муҳим бўлган маълумотни яқка киши ҳам муҳим деб қабул қилиши қондаси мавжуд.

Социомаданий ёндашув. Ҳаммага маълумки, маълумотларнинг идрок этилиши ва тушунилиши инсон томонидан унинг онгида мавжуд бўлган қадриятлар, нормалар, умумий ва махсус қобилиятлар асосида амалга оширилади. Маълум маънода айтиш мумкинки, матнни идрок этаётган ва тушунаётган инсоннинг онгини ўзига хос филтър кўринишида тасаввур қилиш мумкин. Мазкур филтър ёрдамида баъзи маълумотлар тўлиқ ўтказиб юборилади, баъзилари ўзгартирилади, баъзилари тўлиқ ташлаб юборилади. Шу нуктаи назардан инсоннинг онги бир вақтнинг ўзида учта томоннинг бирлиги сифатида кўрилади: биринчидан, маълумотларни қабул қилувчи яшайпти ва ҳаракат қилайпти (воқеликларнинг ўзига хос олами); иккинчидан, социомаданий намуналарнинг тўплами, яъни қадриятларнинг (мафкуравий, ахлокий, эстетик ва бошқа қадриятлар) (маданият олами); учинчидан, билимлар тўплами, яъни бу билимларга эга бўлган киши шу билимлар ёрдамида ўз атрофида содир бўлаётган воқеаларни тушунади (билимлар олами). Бу оламлардан ҳар бири

маълумотни тушунишнинг ўзига хос филтри сифатида қатнашади ва матнга нисбатан алоҳида талабни дастурлаштиради.

Психологик ёндашув. Матн идроки жараёнига маълумотни қайта ишлаш учун жавоб берадиган мия структураларининг индивидуал нейрофизиологик конфигурацияси таъсир кўрсатади. Тадқиқотларнинг аниқлашича, инсон миясидаги маълумотларни ишлаб чиқиш ва қайта ишлаш учун тўртта участка жавоб беради. Улар ўнг ва чап ярим шарларда симметрик ҳолда жойлашган: чап тепа киси – оддий мантикий конструкциялар учун, чап пешана қисм – мураккаб мантикий конструкциялар учун, ўнг тепа қисм – оддий эмоционал ҳиссий таъсуротлар учун, ўнг пешана қисм – мураккаб эмоционал ва ҳиссий таъсуротлар учун жавоб беради.

У ёки бу сабабларга кўра мия пўстлогининг турли хил қисмлари турли хил даражада ривожланган бўлиши мумкин. Натижада инсон маълумотни танлаб-танлаб қабул қилади.

Тушуниш нафақат интеллектуал, балки эмоционал етуқлиги билан ҳам узвий боғлиқ. Бу ерда гап шундаки, тафаккурнинг иши инсонга катта эмоционал лаззат бағишлайди. Бундан ташқари, шахснинг эмоционал боғлиқлик даражаси тушуниш жараёнида бу жараённи тўлиқ камраб олади.

Ўз позицияларига кўра одамлар бир-биридан фарқланади. Улар битта маълумотни турли хил тушунишади. Битта объектни ҳар хил одамлар ҳар хил қабул қилишади. Шунинг учун маълумотни узатаётган кишининг ўз маълумотига юклаган маъносини ҳеч бир реципиент ўшандай қабул қилмайди. Бироқ маълумот узатувчининг ўзи ҳам реципиентнинг идроки ва тушунишини олдиндан моделлаштира олмайди.

Матнга тааллуқли омиллар. Матнни идрок этиш ва тушуниш самарадорлиги аксарият ҳолларда матннинг ўзининг хусусиятларига боғлиқ. Мазкур хусусиятлардан қуйидагиларни ажратиб кўрсатиш мумкин: матн мазмунининг реципиент қизиқишларига ва эҳтиёжларига яқинлиги, мазмуннинг сифати ва матннинг қийинчилиги. Бошқача айтганда, матнни идрок этиш жараёнида реципиент уни учта параметр (ўлчов) лар гуруҳи билан баҳолайди. Биринчи гуруҳ мазкур матннинг инструментал роли билан, унинг фойдалилиги билан, амалий фаолиятда қўллаш имконияти билан боғлиқ. Ўлчовларнинг иккинчи гуруҳи реципиент билган воқеликка матн мазмунининг адекватлик (мослик) даражаси билан боғлиқ. Параметрларнинг учинчи гуруҳи мазкур матннинг яратувчисига хос бўлган мукамаллик, профессионализм, маҳорат билан боғлиқ.

Матн мазмунининг реципиент қизиқишлари ва эҳтиёжларига мослиги ҳақида гапирадиган бўлсак, даставвал шуни таъкидлаш керакки, маълум ижтимоий, психологик ва семиотик характеристикаларга эга бўлган субъект билан идрок этиш ва тушуниш объекти сифатида қатнашаётган матн ўртасида ўта мураккаб муносабатлар шаклланади ва бу муносабатлар “дистанция” (масофа) тушунчаси билан тушунтирилади. Матннинг мазмуни билан уни идрок этаётган субъект ўртасидаги масафанинг “узунлиги” юқорида таъкидланган матн ва реципиентнинг фаолият, ижтимоий, ижтимоий-маданий ва психологик параметрлари билан белгиланади.

Хулоса қилиб айтганда, матнни адекват (маънога мос) идрок этиш, тушуниш ва баҳолаш психоллингвистиканинг муҳим масалаларидан бири ҳисобланади. Умуман айтганда, нутқнинг идрок этилиши ва тушунилиши ўзида тилнинг эшитиладиган ва кўриладиган элементларини идрок этишни, улар ўртасида ўзаро алоқаларини ўрнатишни ва уларнинг аҳамияти ва маъноси тўғрисидаги шахс тасаввурларини шакллантиришни мужассамлаштиради. Идрок этишнинг натижаси сифатида тушунишни, яъни умумий маънони талқин этишни кўриш мумкин. Бу маъно бевосита идрок этилаётган матний оқимнинг орқасида яшириниб ётган бўлади. Бошқача айтганда, тушуниш идрок этилаётган маълумотга маълум маъно бериш деганидир.

Адабиётлар:

1. Красильникова В.Г. Речевые проявления личности переводчика в тексте перевода: Автореф. дис. канд. Фи- лол. Наук. – М.: Московский лингвистический ун-т, 1998.
2. Крупник Е.П. Психологические особенности восприятия образа / Психологический журнал. 1985. Т. 6. № 3. С. 148-154.
3. Кулибина Н.В. Художественный текст в лингво-дидактическом осмыслении. Диссертация. – М., 2001.
4. Леонгард К. Акцентуированные личности. – Киев: Науко – вадумка, 1981.

ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH

AMINOV Alijon Axtamovich

Buxoro davlat universiteti
Fizika kafedrası o‘qituvchisi

FIZIKA FANINI O‘QITISHDA NANOTEXNOLOGIYALARNING QO‘LLANILISHIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Mazkur maqolada zamonaviy ishlab chiqarish va fanning bugungi kunda ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni o‘rganishning ahamiyati davlat darajasida qayd etilgan. Hozirda nanotexnologiyalar bizning hayotimizda jahon hamjamiyatida egallagan ahamiyati katta. Nanotexnologiyalar ekologik muammolarni yechishda, zamonaviy elektron qurilmalarni sifat jihatdan yangilashda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuning uchun fizika darslarini o‘tishda texnika va texnologiyalarning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan nanotexnologiyalar haqidagi kompetensiyalarni shakllantirishimiz zarur.

Kalit so‘zlar: nanotexnologiya, nanobatareya, superkonditsatorlar, kvant kompyuterlari, neyro-kompyuter interfeysi, nanorobotlar yoxud assemblerlar, nanotibbiyot va tibbiyotda tashxis qo‘yish, nanokristal, nanotuzilma, nanofaza va nanokompozitlar.

ФОРМИРОВАНИЕ КОМПЕТЕНЦИЙ ПО ПРИМЕНЕНИЮ НАНОТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ФИЗИКИ

В данной статье отмечается важность изучения современных технологий в процессе обучения современному производству и науке на государственном уровне. В настоящее время нанотехнологии имеют большое значение в нашей жизни в мировом сообществе. Нанотехнологии имеют большое значение в решении экологических проблем и качественной модернизации современных электронных устройств. Поэтому на занятиях по физике необходимо формировать компетенции о нанотехнологиях, важных для развития техники и технологий.

Ключевые слова: нанотехнологии, нанобактерии, суперконденсаторы, квантовые компьютеры, нейрокомпьютерный интерфейс, нанороботы или ассемблеры, диагностика в нанотерапии и медицине, нанокристаллы, наноструктуры, нанопазы и наноконкомпозиты.

FORMATION OF COMPETENCES ON THE APPLICATION OF NANOTECHNOLOGY IN TEACHING PHYSICS

This article deals with the importance of modern production and the study of modern technologies in the educational process of science today at the state level. Today, nanotechnology plays an important role in our lives in the world community. Nanotechnologies play an important role in solving environmental problems, qualitative updating of modern electronic devices. Therefore, we need to develop competencies in nanotechnology, which are important for the development of techniques and technologies in the teaching of physics.

Keywords: nanotechnology, nanobacteria, supercapacitors, quantum computers, neurocomputer interface, nanorobots or assemblers, diagnostics in nanotherapy and medicine, nanocrystals, nanostructures, nanophases and nanocomposites.

Kirish. Ilm-fan va innovatsion taraqqiyotning muhim ko‘rinishi bo‘lgan nanotexnologiyalar hayotimizga chuqur kirib kelmoqda. Hozirgi hayotimizni turmushda ishlatadigan elektron qurilmalar, nanorobotlar, zamonaviy elektron hisoblash mashinalari uchun keyingi avlod elementlar bazasini: nanoo‘tkazgichlar, maydon tranzistori, displey va akustik sistemalari ishlab chiqarish, nanomeditsina: viruslarni yo‘qotish uchun nanoqurollar ishlab chiqarish, organlarni lokal tekshirish uchun va yuqori aniqlikda dori vositalarini tirik organizmning ma’lum joyiga yetkazish uchun nanojihozlar ishlab chiqarish sohasidagi ishlanmalar asosida yangi materiallar kompozitsiyalar, yarim o‘tkazgichlar, optik tolalar, elektronika va optoelektronika yaratish, quyosh energiyasidan foydalanish, nurga sezgir yarimo‘tkazgichlar, aerokosmik, raqamli, yadroviy tibbiyot va biotexnologiya maktabning fizika ta’limini sozlash uchun dastlabki shartlarni taqdim etadi.

Asosiy qism. Zamonaviy ishlab chiqarishning rivojlanishini hisobga olgan holda, biz talabalarining bilim faoliyatini rivojlantirish uchun biz ta'lim muhitini nanotexnologiyalar bilan boyitishni taklif qilamiz. Yangi manbalar va o'rganish obyektlari deganda biz quyidagilarni tushunamiz: har kuni ortib boradigan axborot oqimi; o'quv jarayonida keng qo'llaniladigan kompyuter texnikasi va dasturiy ta'minoti; fan, texnika va ishlab chiqarishning yangi yutuqlari bilan bog'liq o'rganish obyektlari. Yangi standartlar va dasturlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, sanoat sohasidagi zamonaviy tendensiyalar va nanotexnologiyalar o'rganilmagan.

Hozirgi zamon nanotexnologiyalarining bir qator yo'nalishlari bo'lib, ular quyidagi sohalarga ajratishimiz mumkin:

1. Molekulyar dizayn, kuchli bir jinsli bo'lmagan elektromagnit maydonlarda yangi molekulalarning sintezi.

2. Nanomateriallar, Nuqsonsiz yuqori mustahkamlikka ega materiallar yaratish, yuqori o'tkazuvchanlikka ega materiallar hosil qilish.

3. Nanoasbobsozlik, tunnel, atom mikroskoplari, magnit-kuch mikroskoplari, molekulyar dizayn uchun sistemalar, nanoo'lchamlardagi o'ta sezgir datchiklar, nanorobotlar ishlab chiqarish.

4. Nanoelektronika, EHMLari uchun keyingi avlod elementlar bazasini: nanoo'tkazgichlar, maydon tranzistori, displey va akustik sistemalari ishlab chiqarish.

5. Nanooptika, nanolazerlar ishlab chiqarish.

6. Nanokataliz, nanostrukturaga ega katalizatorlar ishlab chiqarish.

7. Nanomeditsina, viruslarni yo'qotish uchun nanoqurollar ishlab chiqarish, organlarni lokal tekshirish uchun va yuqori aniqlikda dori vositalarini tirik organizmning ma'lum joyiga yetkazish uchun nanojihozlar ishlab chiqarish.

8. Boshqariladigan yadro reaksiyalari, zarrachalarning nanotezlatgichlari, nostatistik yadro reaksiyalari.

Fizika nisbatan uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tdi. Fizika fani yutuqlarining amaliyotga joriy etilishi fanda fizika texnologiyasining shakllanishiga asos bo'ldi.

Nanotexnologiyalar - bu eng yuqori texnologiyalar bo'lib, ularni rivojlantirishga iqtisodiy rivojlangan davlatlar mlrd.lab pullarni sarf qilmoqda. Olimlarning taxminlariga ko'ra ularning rivojlanishi yozuv, bug' mashinasi va elektr energiyasidan ham ko'proq insoniyat hayotini o'zgartiradi.

Nanotexnologiyalar XXI asr texnologiyasi bo'lib, uglerod nanotrubkalar asosida katta natijalarga erishish mumkin. Bu natijalar elektronika va texnikada, meditsinada, kimyoviy texnologiyalarda qo'llanish perspektivalarini ochadi.

Fizikadan ma'ruza mashg'ulotlarini o'qitishda zamonaviy nanotexnologiyalarning ishlab chiqilishi va ularning qo'llanilishi haqidagi tasavvurlarni shakllantirib borsak talaba yoshlarning nanotexnologiyalarga oid kompetensiyalarni shakllantirgan bo'lamiz.

Hozirgi vaqtda nanotexnologiyalarning juda jadal rivojlanib borishini quyidagi sohalarda kuzatishimiz mumkin:

- Nanobatareya va superkondensatorlar;
- Kvant kompyuterlari va neyro-kompyuter interfeysi;
- Nanorobotlar yoxud assemblerlar;
- Nanotibbiyot va tibbiyotda tashxis qo'yish;

kabi sohalardagi nanotexnologiyalarni yanada rivojlantirib borish maqsadida nanota'limni ham intellektual taraqqiyotning eng muhim shartlaridan biri ekanligini inobatga olishimiz va bu sohadagi kadrlarni tayyorlashni umumta'lim maktablaridan shakllantirib kelishimiz kerak. Shuningdek, fizika va kimyoviy o'zaro ta'sir tabiatining o'zgarishi nanoo'lchov diapazonida sodir bo'lishini ko'rsatishga harakat qiladi va bu aynan kattalik shkalasining xuddi shu qismida sodir bo'ladi.

Nanotexnologiya sohasida juda katta yutuqlarga erishgan Yevropa mamlakatlarining ta'lim tizimiga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, maktab o'quvchilariga o'tiladigan tabiiy (fizika, kimyo, biologiya) fanlar tarkibiga nanotexnologiya haqidagi tushunchalar berib boriladi. Shuning uchun nanotexnologiya sohasidagi kadrlarni tayyorlashni umumta'lim maktablaridan boshlab shakllantirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Albatta, hozirgi kunda nanotexnologiyalar fanini alohida fan sifatida o'qitish ancha murakkab masaladir. Chunki bu predmetlarni o'zlashtirish uchun ta'lim oluvchi o'quvchilarimiz fizika, kimyo, biologiya fanlaridan yetarli darajada bilimga ega bo'lishlari, hamda bu sohada yuqori malakali o'qituvchilarni tayyorlashimiz zarur bo'ladi. Shuning uchun oliy ta'limning bakalavriat bosqichlarida nanotexnologiyalar fanini alohida fan sifatida tashkil etish va talabalarining nanotexnologiyalar va ularning qo'llanilishiga oid kompetensiyalarni shakllantirish zarur.

Nanotexnologiyalar insoniyatga yangi imkoniyatlarni ochib berishi mumkin:

-atomar va molekulyar tartibidagi yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqish;

-molekulyar strukturasi o'zgargan qattiq jism va sirlarni (material va plyonkalar) ishlab chiqariladi. Bunga asosan o'ta mustahkam metallar, gazlama va plastmassa;

-yangi kimyoviy moddalarni kimyoviy reaksiyalarsiz olish, ya'ni molekulalarni terib chiqish vositasida;

-mantiqiy nanoelementlar va nanokompyuterlar ishlab chiqarish (o'lchamlarini kichraytirish va kompyuterlarning hisoblash quvvatini oshirish) va yangi tipdagi o'ta o'tkazgichlar (o'ta sovuq)ni hosil qilish;

-oqsil molekulalarida hisoblash qurilmalarini yaratish;

-tirik organizmlarning (o'simlik va hayvonlar) sun'iy analoglarini yaratish;

-bioanaloglar bakteriyalar, viruslar asosida o'z-o'zidan ko'payuvchi sistemalarni ishlab chiqarish

-organizmga kiritish uchun robot-vrachlarni hosil qilish (hujayra tartibida genetik va fiziologik kamchiliklarni bartaraf etish).

-nanomashinalar, nanorobotlar ishlab chiqarish kabi juda murakkab bo'lgan muammolarni hal etishga zamonaviy va ishonchli imkoniyatlarni beradi

1985- yilda Robert Kerl, Garol'd Kroto va Richard Smolli tasodifiy ravishda prinsipial ravishda yangi uglerod birikmasi bo'lgan fullerenni ochishdi. Fullerenning ajoyib xususiyatlari bir qator tadqiqotchilarni jalb etdi. 1996-yilda fullerenni kashf etganlar Nobel mukofoti sovrindorlari bo'lishdi.


Fulleren molekulasining asosi ugleroddir. Uglerod- ajoyib kimyoviy element bo'lib, u ko'pgina kimyoviy elementlar bilan bog'lanib, turli tarkib va tuzilishga ega bo'lgan molekulalarni hosil qila olish xususiyatiga egadir.

Maktab kimyo kursidan ma'lumki, uglerod ikkita asosiy allotrop holatiga ega. Bular: grafit va olmos. Fulleren ochilishi bilan uglerod yana bir allotrop holatga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Grafit, olmos va fulleren molekulalarining strukturasi ko'ramiz.

Grafit qatlamli strukturaga ega. Uning har bir qatlami bir- biri bilan kovalent bog'langan to'g'ri olti burchaklarni hosil qiluvchi uglerod atomlaridan iborat. Qo'shni qatlamlar bir- birini Van-der- Vaals kuchlari bilan ushlab turadi. Shuning uchun ular bir-biriga nisbatan erkin sirpanadi. Bunga oddiy misol qalam. Grafit sterjenni qog'oz ustida yurg'izsak, qatlamlar sekin bir-biridan ajralib, qog'ozda iz qoldiradi.

Olmos uch o'lchovli tetraedrik strukturaga ega. Har bir uglerod atomi qolgan to'rttasi bilan kovalent bog'langan. Kristall panjaradagi barcha atomlar bir-biridan bir xil masofada(154nm) joylashgan. Ularning har biri boshqalari bilan to'g'ri kovalent aloqa bilan bog'langan bo'lib, kristalda bitta gigant makromolekulani hosil qiladi.

“C-C” kovalent bog'lanishlarning katta energiyaga ega ekanligidan olmos o'ta mustahkam bo'lib, nafaqat qimmatbaho tosh sifatida, balki metall kesuvchi asboblarda uchun ham xom ashyo sifatida ishlatiladi.



1-rasm. Grafit strukturasi



2- rasm. Olmos strukturasi

Bundan tashqari yarim o'tkazgichli qurilma bo'lmish tranzistorning tug'ilish sanasi 1947-yil. deb qabul qilingan. AQSH dagi Bell laboratoriyasidan Dj.Bardin, U. Bratteyn va U. Shoklilar 1958-yilda bu ish uchun fizika bo'yicha Nobel mukofoti bilan taqdirlandilar. Tranzistorning kashf etilishi katta sotsial qiymatga ega bo'ldi. Tranzistorli texnologiyalarning keskin o'sishi XX asr oxirida insoniyatni informatika asriga yetakladi.

Bugungi kunda nanotranzistorlar haqidagi ilmiy so'zlashuvlar ko'payib, ularning holatidagi prototiplari yaratildi. Nanometrli o'lchamlarda Bell laboratoriyasidan chiqqan tranzistorlar gigant edi. Ularning o'lchamlari smlarda o'lchanardi. Yarim asr davomida tranzistorning chiziqli o'lchamlari 100 000 marta, massasi 10^{10} marta kamaydi. Elektr signallarning xususiyatlari ham nanodunyoda mikrodunyodagiga nisbatan ancha farq qiladi.

Endi elektr tokini qandaydir “elektr suyuqlik” yoki “elektr gaz” sifatida tasavvur qilish mumkin emas, chunki nanodunyoda elektr zaryadning kvantlangani birinchi o'ringa chiqadi. Foydalanish mumkin bo'lgan zaryadning miqdori elektron zaryadiga karrali. Elektr toki va u orqali uzatilayotgan informatsiya miqdorini

qanchalik aniqlik bilan qayd etmaylik, ular cheklangan va uzatilgan elementar zaryadlar soni bilan aniqlangan.

Oddiy doimiy elektr toki har doim bexosdan fluktuatsiyalanadi. Chunki zanjirda har bir yangi elektr zaryadning paydo bo'lishi oldingi zaryad hosil bo'lishi bilan moslashmagan. Bunday fluktuatsiyalarni ko'pincha kasriy shovqin deb atashadi va uni Puasson statistikasi bilan ifodalashadi. Ideal holda manba zanjirda bir sekundda n_0 zaryadlarning o'rtacha tokini ushlab tursa, u holda o'rtacha t vaqtda zanjir bo'ylab $N=n_0t$ zaryad o'tadi. Bu kattalikning o'lchanadigan qiymati o'rtacha kvadratik chetlashish bilan fluktuatsiyalanadi. Kasriy shovqin quvvatining absolyut qiymati signal quvvatining oshishi bilan oshadi, ammo nisbiy quvvat pasayadi. Shu sababli mikroduyoda zaryadni kvantlashdan foydalanilmaydi, chunki katta tokda nisbiy fluktuatsiyalar juda kichik. Agar signalni zaryad paketidagi elektronlar soni bilan tasvirlasak, t vaqt ichida tok orqali yetkaziladigan informatsiya miqdori shovqinni e'tiborga olgan holda

$$\log_2 \left(1 + \frac{N}{\Delta N} \right) = \log_2 \left[1 + (n_0 t)^{\frac{1}{2}} \right]$$

ni tashkil etadi.

Demak, nanotranzistor-bu kvanto mexanik qurilma. Ammo u faqat kvantomexanik informatsiya bilan ishlashi shart emas. Isbot qilinganki, nanotranzistorlar bazisida oddiy klassik mantiq elementlarini joylashtirish mumkin. Bundan tashqari, zamonaviy nanoelektronikaning asosiy vazifasi klassik mantiq nanometrli qurilmalarni yaratish texnologiyasidir. Dunyoning katta ilmiy markazlarida bu vazifani yechish uchun ko'plab miqdordagi moliyaviy resurslar tashlangan.

Hozirgi kunda mikroelektron qurilmalarni ishlab chiqarishda tajriba sifatida o'lchamlari 20-30 nm bo'lgan tranzistorlar ishlab chiqarilmoqda. Bu o'lchamdagi tranzistorlar oddiy elektron signallarda ishlamoqda, ammo o'lchamlar yana kichraytirilganda yuqorida aytib o'tilgan muammolar tez ko'payadi. Mezostuktura deb ataluvchi 30 nm dan 5 nm gacha bo'lgan sohani klassik qattiq jism elektronikasidan kvant elektronikasiga o'tish sohasi deb atash mumkin. Mur qonuniga asosan mezoelektronika sohasini to'la qamrashga taxminan 10 yildan keyin erishiladi. Shunday qilib mezotranzistorlar-oddiy tranzistorlar faoliyatining oxirgi bosqichi bo'lib, undan keyin nanotranzistorlar avlodi keladi.

Oddiy mikroelektronikada tranzistor effektini hosil qilish uchun yarim o'tkazgich zarur. Nega? Chunki yarim o'tkazgich o'tkazuvchanlikka javobgar zaryadlangan zarrachalarning boshqarish imkoniyatini yaratuvchi muhit hosil qila oladi. Dielektrlar tokni umuman o'tkazmaydi. Ular faqat tok o'tkazadigan qismlar orasida izolyatsiya hosil qilish uchungina kerak. Metallarda erkin zaryadlangan zarrachalarning kontsentratsiyasi shunchalik kattaki, izolyatsiya orqali qo'yilgan tashqi elektr maydon metall ichiga deyarli kirmaydi. Ammo shu metalning o'zidan bir necha atom miqdorida olsak, bunday nanoklasterning elektron xususiyatlari yarim o'tkazgich xususiyatlarini eslatadi. Bu nanoo'lchamdagi tranzistorlarni metall atomlari oksidlari asosida yaratish imkoniyatini yaratadi.

Bu yerda nanostrukturalarning qay darajada mustahkamligi va ular tayyorlanish texnologiyalarning muammolari birinchi o'ringa chiqadi. Ma'lum bo'ladi-ki, kengligi bir necha atomlardaning iborat qatlamning yashash vaqti normal foydalanish sharoitlarida juda qisqa. Bu yaxshi mahkamlanmagan atomlar nanostrukturalar bo'ylab ko'chishi yoki asos bo'ylab yanada qattiqroq bo'g'lanishni qidirish bilan bog'liq. Bunga konstruksiyaning qizishi va elektromigratsiya sabab bo'ladi.


Aniqlandiki, ba'zi klaster konfiguratsiyalar yuqori mustahkamlikka ega bo'lib, undagi barcha tashqi atomlar mustahkam ushlanib turiladi. Bunday klasterlar sehrli, ular atomidagi sonlar sehrli sonlar deb ataladi. Masalan, ishqoriy metallar uchun sehrli sonlar -8, 20, 40, nodir metallar atomlari uchun -13, 55, 137, 255. C_{60} va C_{70} fullerenlar ham sehrli. Uglerod nanotranzistorlar ham sehrli hisoblanadi. Bu holat oldindan maxsus reaktorlarda sehrli nanostrukturalarni ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish va ulardan nanotranzistorlar yig'ishda foydalanish mumkinligini ko'rsatadi.

Kimyoviy usulda sintezlash mumkin bo'lgan molekulalarda ham tranzistor effekt kuzatiladi.

Yana bir yangilik-molekulyar biologiya strukturalarini: DNK molekulasini oqsil va biologlarni qo'llash. Genetik texnologiyalar asosida nanotranzistorlarni yig'ish amaliyoti muhokama qilinmoqda. Masalan, Amerikaning Scripps Research Institute da alohida DNK molekulasini oktaedr ko'rinishida diametri 22nm olinishiga muvaffaq bo'lingan. Uning ichki sohasi diametri 14nm bo'lgan sferani sig'dira oladi. Olimlarning maqsadlaridan biri – uch o'lchovli DNK strukturalardan uch o'lchovli murakkab mantiqiy zanjirlarni yig'ishda foydalanish.

Masalan, 2004- yilda Northwestern University da tilla va ferromagnetiklar (temir oksidi) klasterlarini DNK molekulasini bilan birlashtirishga erishilgan. Bu esa DNK reaksiyalari natijasida tilla klasterlari kerakli ketma-ketlikda ferromagnet klasterlar bilan almashadigan klaster zanjirlarni olish imkoniyatini tug'dirdi.

Bir qator fransuz tadqiqotchilaridan iborat guruh nanotexnologiyalar yordamida metiy-ion batareyalar uchun o'ta kichik o'lchamlarga ega elektrodlar ishlab chiqdi. Ular asosidagi akkumulyatorlar oddiy akkumulyatorlarga qaraganda ko'proq energiya miqdorini saqlay oladi. Odatiy akkumulyatorlar elektrodlarida ion va elektronlar, agar u yupqa qatlam qilib surilgan taqdirdagina harakatlana oladi. Ammo bunda aktiv material miqdori kamayadi va demak batareyaning sig'imi ham kamayadi. Katta sig'imli qurilmalarda ko'pincha aktiv qatlam qalinligi oshiriladi. Natijada zaryad tezligi kamayadi.



3-rasm. Batareyalarning nanosterjenlari


Yangi texnologiyaning asosi bo'lib, aktiv material uchun nanosterjenlarni “yakorlar” sifatida qo'llash hisoblanadi. Aktiv material nanosterjenlar atrofida yupqa plyonka qilib “o'raladi”. Elektrodning 1sm^2 yuzasiga yupqa plyonkani 50sm^2 yuzasi to'g'ri keladi. Shunga asosan kichik o'lchamlarda katta sig'imlarga ega batareyalar olish mumkin bo'ladi. Bu birinchi navbatda kardiologiyada (sun'iy yurak) manba sifatida, turli avtonom zondlarda qo'l keladi.

Ammo olimlar katta o'lchamlardagi akkumulyatorlar haqida o'ylamoqda. Bu texnologiya elektromobil qo'llash mumkin bo'lgan batareyalarni ishlab chiqarish imkonini beradi.

Ayni vaqtda nanotexnologiyalar sohasida erishilgan yangiliklar ko'pchilik doimiy ravishda nanotexnologiyalarning u yoki bu yutuqlaridan foydalanib kelmoqda. Masalan, zamonaviy mikroelektronika endi “mikro” emas, balki “nano”. Chunki bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan barcha elektron sxemalarning asosiy bo'lgan tranzitorlarning o'lchami $\approx 100\text{nm}$. Ularning o'lchamlarini shu darajada kamaytirish natijasida kompyuter protsessorida 100 milliongacha yaqin tranzistrlarni joylashish mumkin.

1991- yilda yaponiyalik professor Sumio Iidzila nanotrubkalar deb atalgan uzun uglerod silindrlarini qayd etdi.

Nanotrubka- bu uzunligi bir necha o'n mikron, diametri qariyb 1nm bo'lgan, uglerodning miliondan ortiq atomlaridan tashkil topgan molekuladir.



4-rasm. Nanotrubka strukturasi

Trubka devorlarida uglerod atomlari to'g'ri oltiburchaklarning uchlarida joylashgan.

Nanotrubkalar strukturasi quyidagicha tasavvur etish mumkin: Grafit bo'lagini olib, undan chiziqli kesib olamiz va uni silindrga “yelimlaymiz”. (Aslida nanotrubkalar umuman boshqacha o'sadi.) Demak, oddiygina gafit bo'lakchasini olib uni silindrga o'rasak nanotrubka hosil bo'lishi kerak. Ammo nanotrubkalar eksperimental ochilgunga qadar nazariyotchilardan hech kim buni bashorat qila olmadi. Olimlarga faqatgina ularni o'rganish va hayratlanish qolgan edi

Bir qatlamli (m,n) nanotrubka xiraligi indeksi uning diametrini belgilaydi. Bu bog'liqlik quyidagi ko'rinishga ega:

$$D = \sqrt{m^2 + n^2 - mn} \cdot \frac{\sqrt{3}d_0}{\pi}$$

Bu yerda $d_0=0,142$ nm bo'lib, u grafit tekisligidagi uglerod qo'shni atomlari orasidagi masofadir.

Zamonaviy elektron mikroskoplarning ruxsat etuvchi qobiliyati turli xiralikka ega bo'lgan nanotrubkalarni bevosita farqlay olmaydi, shuning uchun bu parametрни aniqlashning yagona usuli ularning diametrlarini aniqlash bilan bog'langan.

Bugungi kunda turli o'lchamdagi va turli xususiyatlarga ega bo'lgan uglerodli nanostrukturalarni olishning ko'plab metodlari ishlab chiqarilgan. Ammo barcha metodlarning asosi bitta: nanotrubkalar va fullerenlar yuqori temperaturalar sharoitida tarkibida uglerod bo'lgan materiallarning kimyoviy o'zgarishlari natijasida hosil bo'ladi.

Nanotrubkalarining elektr va magnit xossalari nazariy va amaliy tadqiq etish bir qator effektlarning mavjudligini qayd etdiki ular bu molekulyar o'tkazgichlarda zaryad o'tishi kvant tabiatiga ega ekanligi va ularni elektron qurilmalarda qo'llash mumkinligi ko'rsatadi.

Oddiy o'tkazgichning elektr o'tkazuvchanligi uning uzunligiga teskari proporsional va ko'ndalang kesim yuzasiga, to'g'ri proporsionaldir. Nanotrubkada esa elektr o'tkazuvchanlik uning uzunligiga ham,

qalinligiga ham bog'liq bo'lmasdan kvant o'tkazuvchanlik $\frac{2e^2}{h}(12,9kOm^{-1})$ ga teng. Bu

o'tkazuvchanlikning chegaraviy qiymati bo'lib, o'tkazgichning butun uzunligi bo'ylab delokallashgan elektronlarning erkin o'tishiga javob beradi. Oddiy temperaturada kuzatiladigan tok zichligining qiymati $10^7 Axc m^{-2}$ bo'lib, hozirgi kunda o'ta o'tkazgichlarda erishilgan tok zichligidan ikki tartibga ko'pdir.

1 K temperaturada ikkita o'ta o'tkazgich elektrod bilan aloqada bo'lgan nanotrubkaning o'zi ham o'ta o'tkazgich bo'lib qoladi. Bu effekt o'ta o'tkazgich elektrodlarda hosil bo'luvchi Kuper elektron juftlarining nanotrubka orqali o'tishida bo'linmasligidan kelib chiqadi.

Nanotrubkalarda magnit qarshiligi yaqqol namoyon bo'ladi. Elektr o'tkazuvchanlik magnit maydon induksiyasiga bog'liq. Agar nanotrubka o'qi yo'nalishiga tashqi magnit maydon qo'yilsa, elektr o'tkazuvchanlikning ostsillyatsiyalari qayd etiladi. Agar maydon nanotrubka o'qiga perpendikulyar qo'yilsa, elektr o'tkazuvchanlikning oshishi kuzatiladi.

Nanotexnologiyalardan meditsina sohasida odamning kasalligi ma'lumki, butun hujayralarning emas, balki bir qism hujayralarning kasallanishi bilan bog'liq. Ammo biz dori qabul qilganda, dori qonda eriydi va kasal hujayralarga tarqaladi. Shunda sog'lom va kasal hujayralarga keraksiz bo'lgan bu dori bir qancha nojo'ya faktorni keltirib chiqaradi. Allergik reaksiyalar shu jumlasidandir. Vrachlarning orzusi dorining ma'lum kasal hujayralargacha yetib borishidir. Meditsinaning bu muammosi shunday nanokapsulali dorilar ishlab chiqarish kerakki, u aynan kasal hujayraga yetib borsin.

Dorili nanokapsulani kasal hujayraga yetkazishga asosiy to'siq odamning immun sistemasidir. Immun sistema hujayralari notanish jismlarni ko'rishi bilan, ularni yo'qotib qondan chiqqarishga harakat qiladi. Shuning uchun ixtiyoriy nanokapsulani qonga qiritishimiz bilan bu kapsula kasal hujayraga yetmay turib immun sistema uni parchalaydi.

Immun sistemani aldash uchun, qizil qon tanachalari bo'lmish eritrotsitlardan foydalanish tavsiya etilmoqda. Eritrotsitlar nanokapsulalarni toshisa, immun sistemasi eritrotsitlarni o'ziniki deb biladi va ularga tashlanmaydi. Immun sistemasi eritrotsit sirtiga bog'langan nanokapsulaga e'tibor bermaydi va bu dori tashuvchi eritrotsitlar bimalol kasal hujayragacha yetib boradi. Eritrotsitlar o'rtacha 120 kun yashaydi. Tajribalar ko'rsatadiki, nanokapsulalarning o'rtacha yashash davri ular eritrotsitlarga bog'langan bo'lsa, oddiy kiritilgan dorilarga nisbatan 100 baravar ortiq bo'ladi.

Olimlar aniqladiki, saraton hujayralari sirtiga foliy kislotasi molekullari yaxshi yopishadi. Agar nanokapsulaning tashqi qobig'ida foliy kislotasi molekullari bo'lsa, bunday nanokapsulalar aynan saraton hujayralariga yopishadi. Bu nanokapsulalarga ultrabinafsha bilan yoritiladigan yana qandaydir molekullar biriktirilsa, saraton hujayralarini ko'rinadigan qilish mumkin. Nanokapsula tashqi qobig'iga saraton hujayralarini o'ldiradigan dori biriktirilsa, bu hujayralarni nafaqat topish, balki yo'qotish imkoniyati tug'iladi.

O'zbekistonda ham nanotexnologiyalar jadal rivojlanmoqda. Respublika Fanlar akademiyasi tomonidan nanotexnologiyalar rivojlanish konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Bu konsepsiyani ishlab chiqishda Fanlar akademiyasi, Issiqlik fizika bo'limi va yadro fizikasi instituti qatnashdi. Nanotexnologiyalar yo'nalishda bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Issiqlik fizikasi bo'limida perspektiv tadqiqotlar

laboratoriyasida nanofizika yoʻnalishida olib borilgan tadqiqot natijalari yuzasidan koʻplab xalqaro grantlar yutilgan.

Xulosa. Talabalarga fizika fanini oʻqitishda nanotexnologiyaga oid oʻquv materiallaridan foydalanish imkoniyatlari bayon qilingan boʻlib, fizika darslarida nanotexnologiyalar, nanotexnologiyalarning qoʻllanilish sohalariga oid oʻquv materiallaridan foydalanish davr talabi hisoblanadi.

XXI asr texnologiyasi nanotexnologiyalar, ularning paydo boʻlishi, nanotexnologiyalarning qoʻllanilish sohalari, iqtisodiy muammolarni bartaraf etish uchun ishlatiladigan nanoqurilmalar, nanotexnologiyalarning tibbiyot sohasida tutgan oʻrni va ahamiyati haqidagi boshlangʻich tushunchalar bayon etilgan, va nanotexnologiyalarning fan-texnika taraqqiyotidagi ahamiyati haqidagi fikrlar aytib oʻtilgan. Shuning uchun yuqorida aytilganidek nanotrubkalarining amaliy qoʻllanishi masalalari koʻrib chiqildi unda asosiy eʼtibor nanotrubkalar asosida kompyuterlar xotirasini ishlab chiqish nanotranzistorlar, nanobatareyalar, metaloelektronika, molekulyar elektronika elementlarini ishlab chiqish va nanorobotlarning meditsina sohasida qoʻllanilishi oʻrganildi va chuqur tahlil etildi.

Adabiyotlar:

1. K.Muqimov “Mitti bunyodkorlar yoxud nanotexnologiya nima”, Toshkent “Kamolot” nashriyoti, 2017-yil; 156 bet.
2. Дьячков П.Н. Природа № 11, 2000. “Углеродные нанотрубки. Материалы для компьютеров XXI века”. С. 105-110.
3. Пул Ч., Оуэнс Ф. М.: Техносфера. 2005. “Нанотехнологии”. 325 с.
4. Евгений Адольфович Кац, Университет им. Бен-Гуриона в Негеве, Израиль, “Экология и жизнь” 2012 й № 9; с. 112-118.
5. Головин Юрий Иванович, Патрикеев Лев Николаевич, “Наномир без формул” Москва “Лаборатория знаний” 2020; 367-с.
6. М.Н. Орлова, И.В. Борзых “Нанoeлектроника” Москва 2013; 50 с.
7. У. Хартманн, “Очарование нанотехнологии”, Москва “Лаборатория знаний” 2020; 211 с.
8. Волков Георгий Михайлович, “Нанотехнология в машиностроении”, Москва “ИНФРА-М”, 2020; 307 с.
9. Aminov A.A. Taʼlim va innovatsion tadqiqotlar, 2021; с. 352-361.

JO‘LLIYEV Asliddin Normengli o‘g‘li

O‘z RFA Yadro fizikasi instituti stajyor
tadqiqotchisi

BOZOROV Erkin Xojiyevich

O‘z RFA Yadro fizikasi instituti “Yadro
tibbiyoti” laboratoriyasi bosh ilmiy xodimi,
professori

NEYTRONLAR FIZIKASI FANINI O‘QITISHDA PEDAGOGIK TA’LIM KLASTERI METODIDAN FOYDALANISHGA DOIR TAVSIYALAR

Maqolada, talabalarning fan, ta’lim va ishlab chiqarish orasidagi integratsiyasi tushunchalarini shakllantirishda, “Klaster” metodidan foydalanishga doir tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: fan, ta’lim, pedagogika, klaster, metodika, texnologiya, kreativ, mustaqil fikrlash, innovatsion ta’lim klasteri.

РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ИСПОЛЬЗОВАНИЮ КЛАСТЕРНОГО МЕТОДА ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБУЧЕНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА НЕЙТРОННАЯ ФИЗИКА

В статье представлены рекомендации по использованию метода «Клстер» в формировании у студентов представлений об интеграции естественнонаучного образования и производства.

Ключевые слова: наука, образование, педагогика, кластер, методология, технология, креатив, самостоятельное мышление, инновационный образовательный кластер.

RECOMMENDATIONS ON USING THE PEDAGOGICAL LEARNING CLUSTER METHOD IN TEACHING THE SCIENCE OF NEUTRON PHYSICS

The article presents recommendations on the use of the "Cluster" method in the formation of students' ideas about the integration of science education and production.

Key words: science, education, pedagogy, cluster, methodology, technology, creativity, independent thinking, innovative educational cluster.


Kirish. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta’lim jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi. Shuning oliy o‘quv yurtlarida zamonaviy o‘qitish metodlari, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va roli benihoyat kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Klaster metodidan foydalanib o‘qitishga doir xorijiy pedagoglardan Yu.O.Tigina, Ye.A.Monastirniy, I.Popov, Ye.I.Sokolova tadqiqotlarida bu metoddan foydalanishning turli usullari ko‘rsatilgan. Respublikamiz pedagog olimlaridan G.I.Muxamedovning hozirgi kundagi ta’lim tizimining innovatsion ta’lim klasterining zaruriyati va ahamiyati to‘g‘risida, M.Y.Rejabovning ta’lim metodlarini qo‘llashga doir ko‘rsatmalari, M.M.Xalilova, A.X. Boymurodov, B.M.Mirzaxmedov, N.M.Mamadiyorov kabi olimlarning klaster metodi haqida atroflicha ma’lumotlar keltirilgan. Yuqoridagi olimlarning ishlarida, neytronlar fizikasi fani va undagi neytronlarning sekinlashishi, sekinlashish masofasi kabi mavzularini o‘qitishga doir klaster metodini qo‘llashga doir ma’lumotlar keltirilmagan.

Muhokama. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi bu o‘qituvchi va talaba belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga erishishdir. Bu jarayonni tashkil etishning eng samarali usullaridan biri “Klaster” metodidir. Klaster inglizcha so‘z bo‘lib (kluster) – bir butun holatda ma’lum mavzu bo‘yicha erkin va ochiq fikrlashning notekis shaklini namoyon etadi. Klaster metodini amalga oshirishda yangi mavzuning

asosiy tushunchasi geometrik shaklidagi chizmalar ichida yoziladi. Masalan yangi mavzuga taluqli bo'lsa talabalar u haqida ko'z oldiga kelgan fikrlarni yozish taklif etiladi. Bunda talabalar tomonidan yozilgan fikrlar umumlashtirib aytib beriladi [1,2,3]. Bu fikrlarni doskada bo'r yoki plakatda flomasterlar bilan yozish mumkin. O'qitish jarayonida amalga oshiriladigan bu metod puxta o'ylangan strategiya bo'lib, undan talaba bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin.


Neytronlar fizikasi fanidan “Neytronlarning sekinlashishi, sekinlashish masofasi” mavzularini o'qitishda “Klaster” metodini qo'llash usullari va vositalarini ko'rib chiqamiz. Mavzularni o'qitish jarayonida, dastlab fundamental bilimlar shakllantiriladi (1-rasm).



1-rasm.

1-rasmda, yadro va zarrachalar (proton, neytron, elektron)ning xossalari va kimlar tomonidan kashf qilinganliklari haqida ma'lumotlar beriladi [3].

Keyingi bosqichda neytronlarning sekinlashishi va sekinlashish masofasi haqida ma'lumotlar bosqichma-bosqich tushuntirib beriladi (2-rasm).




2-rasm.

Neytronlarning sekinlashishi - neytronlarning modda atomining yadrolari bilan ko'p martalab to'qnashuvlari natijasida kinetik energiyasini kamaytirish hodisasi

2-rasmda, neytronlarning sekinlashishi, sekinlashish qobilyati, sekinlashish koeffitsiyenti, chiziqli kuchsizlanish koeffitsiyenti, neytronlarning yoshi, sekinlashish masofasi va ularning yutulishi haqida ma'lumotlarni keltiradi [4].

Talabalarga mavzu o'tilganidan so'ng yuqoridagi 1-rasm va 2-rasmlardan foydalangan holda savollar beriladi va talabaning qay darajada mavzuni tushungani ma'lum bo'ladi.

Pedagogik tadqiqotchilarning natijalariga ko'ra, o'quv mashg'ulotidagi tinglovchilar tamonidan o'zlashtirish, inson 80% ma'lumotni ko'rish organlari, 15% ma'lumotni eshitish organlari va 5% ma'lumotni boshqa usullarda qabul qiladi(1- gistogramma).



3-rasm.

Shuning uchun, dars mashg'ulotlarni asosan ko'rgazmali vositalar yordamida tashkil qilish darsning maqsadiga yetishning asosiy vositalaridandir.

Natijalar. Mashgulotlarda “Klaster” metodidan foydalanilganda quydagi natijalarga erishish mumkin:

- talabaning dars davomida befarq bo'lmalikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

- talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;

- talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har-bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;

- pedagogik va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi;

- talabalarning nazariy bilimlarini amalda qo'llash ko'nikmalarining shakllanishi;

- kreativ va mustaqil fikrlash qobilyatlarining rivojlanishi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ushbu “Klaster” metodidan foydalanish Neytronlar fizikasi fanini o'qitishda yuqori samara beradi. Chunki har bir talaba guruhlarida faol harakat qiladi. Talabalarning o'z fikrini mustaqil bayon qilish va asoslab himoya qila olish ko'nikmalari shakllanadi. Bunda o'qituvchi talabalarning kamchiliklarini to'ldirib, umumiy xulosani beradi. Faol qatnashgan talabalar baholanadi. Oddiy, an'anaviy usulda tashkil qilingan dars jarayonidan farqli ravishda yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'tkazilgan dars jarayoni o'zining sezilarli samarasini ko'rsatadi.

Ushbu maqola № AM-PZ-2019062031 “Yadro energetikasi”, “Yadro tibbiyoti va texnologiyalari”, “Radiatsion tibbiyoti va texnologiyalari” fanlari bo'yicha bakalavr va magistrlar uchun multimediali darsliklarini yaratish nomli innovatsion loyiha doirasida yozib tayyorlangan materiallarning pedagogik tahlili asosida yozilgan bo'lib, darsliklar mualliflariga minnatdorchilik bildiramiz.

Adabiyotlar:

1. Muxriddin Yuldosh o'g'li Rejabov. // «Scientific progress» Scientific Journal, Volume: 1, ISSUE: 4. 34-39

2. G.I.Muxamedov. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: ehtiyoj, zarurat, natija. // “Xalq so'zi” gazetasi, 2019 yil 15 fevral.

3. Mamlakat Mannapovna Xalilova. Klaster ta'lim tizimining uzluksizligi uzviyligi va izchilligini ta'minlovchi model sifatida. // Academic research in educational sciences volume 1 | ISSUE 3| 2020 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804.995-1002

4. Е.В. Рябева, В.Т. Самосадный. Прикладная нейтронная физика. Министерство образования и науки Российской Федерации. Национальный исследовательский ядерный университет «МИФИ». В.В. Кадилин, Москва, 2011.

5. Стогов Ю.В. Основы нейтронной физики: Учебное пособие.- М.: МИФИ, 2008.

MANSUROV Zuhridin Halililayevich

Toshkent arxitektura-qurilish instituti o‘qituvchisi
zuhridinhoji@mail.ru

“QURILISH CHIZMACHILIGI” FANIDA TALABALARNING BILIMINI OSHIRISHDA GRAFIK DASTURLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Oliy ta’lim maskanidagi qurilish chizmachilik kursi talabalarining grafik madaniyatini, shuningdek, shaxsning ijodiy salohiyatini shakllantirishga qaratilgan. Bu jabhada ko‘plab samarali ishlar, xususan, qurilish chizmachiligi fanini o‘qitishda ham zamonaviy grafik dasturlardan foydalanib ta’lim samaradorligiga erishilmoqda. Qurilish chizmachiligi fanining mavzularini yoritishda arxitektura sohasiga mo‘ljallangan grafik dasturlar orasidan ArchiCAD dasturi ayniqsa ancha mukammal bo‘lib, mavzu mohiyatini yoritishda talabalarining ko‘z o‘ngida chizmalarining uch o‘lchamli holatiga o‘tish samarali usul hisoblanadi. Shu sababli ushbu fanning to‘la mohiyatini yoritishda grafik dasturlarning amaliy ahamiyati va ularning tavsiflari alohida o‘rin oladi.

Kalit so‘zlar: grafik ta’lim, qurilish chizmachiligi, grafik dasturlar, grafika, axborot-kommunikatsiya, fazoviy tasavvur, arxitektura, chizma, didaktika, muhandislik grafikasi.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГРАФИЧЕСКИХ ПРОГРАММ ПРИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ ПО ДИСЦИПЛИНЕ “СТРОИТЕЛЬНОЕ ЧЕРЧЕНИЕ”

Курс строительного черчения в вузе направлен на формирование графической культуры студентов, а также творческого потенциала личности. На этом направлении много эффективных работ, особенно в обучении строительному черчению, эффективность обучения достигается с помощью современных графических программ. Среди графических программ, предназначенных для области архитектуры, программа ArchiCAD особенно совершенна для объяснения тем строительных чертежей и является эффективным способом изменения трехмерного состояния чертежей на глазах учащихся. По этой причине применение графических программ и их описания занимают особое место в выяснении всей сути этой науки.

Ключевые слова: графическое образование, строительный рисунок, графические приложения, графика, информация и коммуникация, пространственное воображение, архитектура, рисунок, дидактика, инженерная графика.

METHODOLOGY OF USING GRAPHICAL PROGRAMMES TO IMPROVE STUDENTS' KNOWLEDGE OF THE DISCIPLINE «CONSTRUCTION DRAWING»

The course of construction drawing at the university is aimed at the formation of the graphic culture of students, as well as the creative potential of the individual. There is a lot of effective work on this front, especially in teaching construction drawing, the effectiveness of teaching is achieved with the help of modern graphic programs. Among the graphics programs dedicated to the field of architecture, ArchiCAD is especially perfect for explaining the themes of construction drawings and is an effective way to change the 3D state of drawings in front of students. For this reason, the use of graphic programs and their descriptions occupy a special place in clarifying the whole essence of this science.

Keywords: graphic education, construction drawing, graphic applications, graphics, information and communication, spatial imagination, architecture, drawing, didactics, engineering graphics.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida «uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish» ustuvor vazifasi belgilangan. Mazkur vazifani amalga oshirishda oliy ta’lim muassasalari talabalarining loyihalash malakalarini rivojlantirishda ularning fazoviy tasavvuri, ijodiy faolligi, sohaga oid amaliy masalalarni loyihalash ko‘nikmalari asosiy omil bo‘lib bu sifatlar grafik ta’lim

samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarning kompyuterdan keng foydalana olishi jamiyatda fan-texnika taraqqiyotining jadallashishi va shu asosda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga erishish uchun xizmat qiladi. «O‘qitishning zamonaviy shakllari va metodlarini, kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish, oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-laboratoriya anjomlari va o‘quv-metodik adabiyotlar bilan ta’minlash, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, oliy ta’lim muassasalarining zamonaviy ilmiy laboratoriyalarini tashkil etish va rivojlantirish choralarini ko‘rish asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va ularning kasbiy mobilligi va kreativligini namoyon eta olish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish lozimligini ifodalaydi.

Asosiy qism. Inson faoliyatining barcha sohalarini kompyuterlashtirish, ko‘p asrlik pedagogik texnologiyalarning o‘zgarishiga olib keldi. O‘qitishning yangi vositalari pedagogika fanining asosiy masalalarini qayta ko‘rib chiqishga majbur qildi: jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida oliy ta’lim tizimida kimlar o‘qitilishi, ta’lim mazmuni qanday bo‘lishi, oliy ta’lim mutaxassis tayyorlash uchun asos sifatida qanday shakl va usullardan foydalanish kerak.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, muhandislik kompyuter grafikasi fanining mazmunini qayta ko‘rib chiqish, shu fanni o‘qitishdagi dolzarb muammolardan biri deb hisoblaymiz. Muhandislik kompyuter grafikasi fanining mazmunini qayta tuzishda bugungi kundagi ilm-fan va texnika sohalarining yutuqlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

O‘qitish tamoyillari muammolariga qaratilgan tadqiqotlar analizi, barcha fanlar uchun umumiy bo‘lgan didaktik tamoyillarni ajratib olish imkonini beradi. Barcha tadqiqotchilar didaktik tamoyillarning nomenklaturasiga kelganda bir xil to‘xtamga kelishadi. Ammo bu tamoyillarning mazmunini turlicha talqin qilishadi. Bunday tamoyillarga quyidagilar kiradi:

- ta’lim va tarbiya tamoyili;
- nazariyani amaliyot bilan bog‘liqlik tamoyili;
- ilmiylik tamoyili;
- tushunarlilik tamoyili;
- muvofiqlik va izchillik tamoyili;
- onglilik va ijodiy faoliyat tamoyili;
- ko‘rgazmalilik tamoyili;
- o‘quv natijalarining mustahkamligi va bilish qobiliyatini rivojlantirish tamoyili;
- bilim oluvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish va ta’limning kollektivligi tamoyili;
- ta’limning ijobiy hissiyligi tamoyili.

Agar ta’limning mazmun va protsessual taraflarini ikkiga ajratsak, unda an’anaviy didaktik tamoyillarni shartli ravishda shu ikki guruhga ajratish mumkin. Didaktik tamoyillarni bunday ko‘rinishda ajratishning shartliligi ularning o‘zaro aloqadorligi va o‘zaro bog‘liqligi bilan tasniflanadi.

Misol sifatida ta’limning ta’lim, tarbiya va rivojlantirish jarayonlarini ajratishning shartliligini keltiramiz.

Ta’limning mazmun tamoyillariga quyidagilar kiradi:

- ilmiylik tamoyili;
- tushunarlilik tamoyili;
- izchillik tamoyili;
- uzluksizlik tamoyili;
- uzviylik tamoyili;
- nazariyani amaliyot bilan bog‘liqlik tamoyili;
- davomiylik tamoyili. Mazmunni tanlash tamoyillari:

Ilmiylik tamoyili. M.D.Dammer ilmiylik tamoyilining mazmuni rivojlanishini ko‘rsatib berdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ushbu tamoyilning mazmuni birinchi 1950-yilda M.N.Skatkin tomonidan sakkiz talab shaklida ko‘rsatilgan:

- 1) talabalarga yetkaziladigan ma’lumotlarning ilmiy ishonchliligi;
- 2) tasvirlanayotgan hodisalarning mohiyatini ochish;

- 3) hodisalarni ularning o‘zaro bog‘liqligida ko‘rsatish;
- 4) hodisalarni rivojlanishda va bu rivojlanishning keskin xususiyatini ko‘rsatish;
- 5) bilim oluvchilarni hodisalarni to‘g‘ri dialektik-materialistik tushuntirib beruvchi eng muhim nazariyalar bilan tanishtirish;
- 6) bilim oluvchilarda dunyoni bilish va inson aqlining kuchi haqida to‘g‘ri tasavvurlarni yaratish;
- 7) talabalarda mutlaq va nisbiy haqiqat haqidagi to‘g‘ri fikrlarini yaratish;
- 8) talabalarni ilmiy tadqiqot usullari bilan tanishtirish.

Biz Z.K.Meretukova va A.R.Chinazirovalarning fikriga qo‘shilamiz. Ular «ta’limda ilmiylik tamoyili ta’limning tarkibiy qismida «ilmiy plyuralizm» borligi faktini inobatga olishi kerak. Bitta ilmiy muammoga turlicha yondashuv talabalarining fikrlash doirasini oshirishga, ularni haqiqatni qidirishga undaydi» deyдилar.

G.M.Chernobelskaning qarashlarini sitatasining oxirgi so‘zlaridan anglash mumkin: «Mazmunning ilmiyligiga talabalarga faqat tayyor bilimlarni berish bilan emas, balki ularni ilmiy izlanish metodlari bilan ham tanishtirish yo‘li bilan erishiladi».

Tushunarlik tamoyili. O‘qitishning eng muhim tamoyili tushunarlik tamoyilidir. Yangi materialni o‘rganishda talabalar birinchidan axborot mazmuni, ikkinchidan, uni taqdim etish uslubi bilan bog‘liq qiyinchiliklarga duch keladilar. Birinchi turdagi qiyinchiliklar talabaning tezaurusi bilan bog‘liq. Ya’ni talabaning olamni anglashi namoyon bo‘ladigan o‘zaro aloqador tasavvurlar tizimi bilan bog‘liq. Bu kabi qiyinchiliklar tezaurusli axborot bar’eri nomini olgan. Barcha talabalarining tezauruslari turlicha bo‘lib, bir talaba duch kelayotgan axborot bar’eriga ikkinchi talaba ham duch keladi degani emas.

Oliy ta’limda tushunarlik tamoyili O.V.Romanovanning ishlarida tadqiq etilgan. Yangi axborot muhitining o‘quv jarayoniga ta’sirini tekshirar ekan, muallif ta’lim jarayoni «katta hajmdagi axborotni talabalar jahon axborot maydonidan va mustaqil qabul qilishini hisobga olishi kerak. Tamoyilning an’anaviy tuzilishi kengayib bormoqda. Talabalar oladigan va bilimga aylantiradigan ma’lumotlar shubhasiz ilmiy bo‘lishi kerak, shuning uchun talabalar haqiqiy ilmiy bilimlarni psevd-ilmiy bilimlardan farqlay olishlari kerak», degan xulosaga keladi.

Nazariyani amaliyot bilan bog‘liqlik tamoyili. «Ushbu tamoyil quyidagi qoidalarga asoslanadi: o‘qitish amaliyotida talabalarining o‘z ijtimoiy tajribasini hisobga olish kerak; o‘quv jarayonini talabalar uchun (ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, siyosiy) muhim muammolarni hal qilish uchun yo‘naltirish; milliy iqtisodiyotda sanoat mehnati bilan o‘qitishning yaqin aloqasi; ommaviy axborot vositalari, davriy materiallar».

Izchillik tamoyili. Ye.V.Eliseeva zamonaviy sharoitlarda mazmunni tanlashning yetakchi tamoyili izchillik tamoyili bo‘lishi kerak deb hisoblaydi: «o‘zaro bog‘liq o‘quv ma’lumotlarni pedagogik asoslangan tizim ko‘rinishini taminlaydi». Izchillik tamoyili, mazmunni ishlab chiquvchidan fanning mazmuniga shu fanning barcha konseptual tizimlariga kiritilgan va uning mohiyatini yorituvchi o‘quv bilimlarni kiritishni talab qiladi.

Mazmunni tuzish tamoyillari:

Uzluksizlik tamoyili. I.P.Podlasiy «ta’lim jarayoni alohida qadamlardan iborat, agar u tanaffuslarsiz, uzluksizlikning buzilishsiz, boshqarib bo‘lmaydigan vaziyatlarsiz davom etsa, ko‘proq muvaffaqiyatga erishtiradi. Agar ko‘nikmalarni muntazam mashqlantirib turmasa, ular yo‘qolib boradi» deb yozadi.

Uzviylik tamoyili. Uzluksizlik va uzviylik tamoyillari tushunchalari L.V.Zagrekova va V.V.Nikolinalarning «Didaktika»sida yoritilgan: «Uzluksizlik va uzviylik tamoyillari o‘quv materialining mazmunini tizimda ma’lum ketma-ketlikda va mantiqiy o‘zaro bog‘liqlikda berilishini talab qiladi. Bunda ma’lumotlar oldingisiga tayanadi va yangi ma’lumotni o‘zlashtirishga tayyorlanadi.

Davomiylik tamoyili. Ta’lim mazmunini tuzish uchun ko‘rib chiqilgan tamoyillar davomiylik tamoyili bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u mazmun tuzuvchilarni bo‘limlararo va fanlararo munosabatlarni hisobga olishga yo‘naltiradi. «Ta’lim muhitini to‘ldirib yuborgan fanlararo bog‘liqlikning haddan tashqari ko‘pligi pedagogga bo‘lgan talabni oshirib yubordi».

“Qurilish chizmachiligi” fanini o‘qitishni zamon talablari darajasiga yetkazish uchun fan dasturida ko‘rsatilgan mavzular bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plash va ularni multimediali kompyuter texnologiyalari yordamida qayta ishlash bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llanilishi pedagogik texnologiyalarni inkor etmagan holatda parallel olib borilishi maqsadga muvofiq. Zero, shunday yondashuv grafik materiallarni samarali o‘zlashtirilishida kutilgan natijani beradi. Ayniqsa qurilish chizmachiligi fanini o‘qitishda grafik dasturlardan foydalanish kutilgan natijaga olib boradigan yagona yo‘l desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Fanning nomini o‘zi ham grafik dasturlar yordamida o‘qitilishni talab etadi. Hozirgi kunga qadar qurilish chizmachiligini grafik dasturlar bilan uyg‘un holda olib borilmaslikka asosiy sabablardan grafik dasturlarni biladigan o‘qituvchilarning

yetishmasligi va o‘quv honalarining talab darajasida emasligi edi. Lekin hozirgi rivojlangan davrda grafik dasturlardan foydalanmay darslar tashkil etilishi zamonaviy ta’lim standartlariga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi.

“Qurilish chizmachiligi” fanini o‘qitishda mavzularni bir-biriga bog‘lanishi ularning uzviylikini ta’minlash, o‘qitishning eng zamonaviy usul va vositalaridan foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. O‘rganilayotgan fanning barcha mavzulari bir-biri uchun poydevor vazifasini o‘taydi. Bu esa o‘qituvchidan o‘z ustida tinimsiz ishlashni talab etadi, sababi qurilish chizmachiligi o‘zgarishlar bilan hamohang yuradi. Dastlab shu talablarga mos o‘qituvchilarning tayyorgarligi, ya’ni bir muhim dolzarb muammo hisoblanadi.

“Qurilish chizmachiligi” fanini o‘qitishda o‘quv rejadan kelib chiqqan holda fan dasturi ishlab chiqishda mavzularga oid ma’lumotlarni umumlashtirish hamda ularni tahlil etish zarur.

Zamonaviy kompyuter texnologiyalarining boy imkoniyatlaridan foydalanib qaytadan chizmalarni chizish, ularga animatsiyalar berish, multimediali holatga keltirish lozim. Ayniqsa, multimediali ko‘rinishdagi chizmalar talabalarning diqqat-e’tiborini o‘ziga tortishi natijasida ularning fanga bo‘lgan munosabatlari o‘zgaradi. Bundan tashqari talabalarda shu chizma haqida to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish imkoniyati yaratiladi. Kompyuter grafikasiga tegishli bo‘lgan zamonaviy dasturiy vositalar ArchiCAD, AutoCAD, 3dMax va boshqa dasturlar fanni o‘qitishda o‘qituvchi uchun yordamchi bo‘lib xizmat qilsa, bilimlarni o‘zlashtirayotgan talabalar uchun fanning ma’no mazmunini tushunishga, fazoviy tasavvuri, ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlanishiga, fanni o‘zlashtirish ko‘rsatkichini yaxshilashga olib keladi. To‘plangan ma’lumotlarni qayta ishlashda kompyuter grafikasidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Kompyuter grafikasi murakkab sintetik resurslar qatoriga kiradi. U muhandisga innovatsion g‘oyalarni amalga oshirishga yordam beruvchi zamonaviy qurilma va texnologik yechimlar bilan grafikani birlashtirish natijasida paydo bo‘ldi va rivojlandi.

Uch o‘lchovli modellashtirish – bu konstruktoring g‘oyalarini kompyuter ekranida hayratlanarli darajada haqiqiy va ishonchlashtiruvchi mujassamlovchi olamga sayohatdir. Xuddi qo‘lingizni cho‘zsangiz, hozirgina tasavvuringizdagina mavjud bo‘lgan narsaga tega olasiz.

3D modellashtirish tizimlarida uch o‘lchamli model odatda monitor ekranida ixtiyoriy parallel proeksiya (aksonometriya) sifatida namoyon bo‘ladi. Standart ko‘rinishlar tegishli panelda aks ettiriladi va ortogonal va standart izometrik proeksiyalarni o‘z ichiga oladi. 3D modeldan ortogonal proeksiyalarni avtomatik ravishda yaratish uchun T-VIEW va T-DRAW buyruqlaridan foydalaniladi. Shu tariqa chizma geometriyaning bevosita, fazoviy jism (3D model) asosida uning tekislikdagi (monitor ekranidagi) geometrik tasvirini qurish vazifasi amalga oshiriladi.

Geometrik modellashtirishning tarkibiy tuzilishi quyidagi 4 ta komponentlarni o‘z ichiga oladi:

1. *Asl nusxa yoki modellashtirish ob’ekti.* Uch o‘lchamli fazoni modellashtirishda monitor ekranida ortogonal proyeksiyalar, aksonometriya, perspektiva va sonli belgili proeksiyalar olinadi. Bundan tashqari, modellashtirish ob’ektlari har qanday boshqa zamonaviy ilm-fan uchun dolzarb va hali hal etilmagan muammo bo‘lgan ko‘p o‘lchovli va nochiqliq modellar bo‘lishi mumkin.

2. *Model maydoni* – bu tasvirlanayotgan modelning tashuvchisi. Odatda, bu monitor ekrani, ammo modelni tasvirlash uchun boshqa usullardan ham foydalanish mumkin.

3. *Modellashtirish apparati* 3D modellarni berilish usullarni aniqlaydi.

Ular:

- analitik;
- kinematik;
- konstruktiv;
- parametrlar;
- aralash usullar.

4. *Modellar* karkasli, sirtli va qattiq holatdagi modellarga bo‘linadi.

Kompyuter grafik dasturlar yordamida yaratilgan 3D chizmaning video orqali namoyish etilishi uni talabalar ko‘z oldida real hayotdagidek ko‘rsatib beradi va talabalar uchun tushunarli bo‘lib, ularning fazoviy tasavvurlarini rivojlantiradi. Sababi talabalarda fazoviy tasavvur rivojlanishi fanni tushunishiga olib keladi. Zero, qurilish chizmachiligiga oid materiallarni o‘zlashtirishda fazoviy tasavvur muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun talaba fazoviy tasavvurga ega bo‘lsagina fan bo‘yicha topshiriqlarni bajara oladi.

ArchiCAD dasturida modellashtirish imkoniyatlari kengaytirib berilgan bo‘lib, unda bino modellarini yaratish qulaydir. Tasvirlar, ko‘rinishlar, qirgimlar, zinalar, tom yopmalar, uzellar, konstruksiyalar, smeta ishlari va shu kabi mavzularni yoritishda foydalanish talabalar fazoviy tasavvuri, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga olib keladi.

Fan o‘qituvchisi mavzularga oid loyiha ishlarini ArchiCAD dasturida yaratib, ularni dars jarayonida qo‘llashi mumkin. Yaratilgan modellarni ArchiCAD dasturining keng imkoniyatlaridan foydalanib turli tomonlaridan ko‘rish, qirqim berish, model rangini o‘zgartirish, avtomatik tarzda o‘lchamlarini qo‘yish va shu kabi ko‘plab imkoniyatlaridan unumli foydalanishi mumkin.

Xulosa. Eng asosiy talab o‘qituvchi kompyuter grafikasini bilishidir, ya’ni u berilayotgan materialning mazmuni va mohiyati, murakkablik darajasi, didaktik vazifalarlarga ko‘ra grafikaviy dasturlarni tanlab olishi lozim bo‘ladi.

Biz qurilish chizmachiligi fani bo‘yicha **talaba:**

- kompyuter grafikasining tarixini;
- kompyuter grafikasi bo‘limlarini;
- konstruktorlik grafikasi bo‘limini tashkil etuvchi tizimlar (CAD,CAM, CAE)ni;
- CAD tizimida ishlovchi grafik dasturlar va ularning ishlash tamoyillarini;
- elektron tasvirning formatlari;
- chizma bajarish uchun qo‘llaniladigan uskunalar panellarini;
- buyumning fazoviy holati asosida uning chizmasini olish algoritmlarini **bilishi kerak;**
- ikki va uch o‘lchamli grafika yaratish uchun mo‘ljallangan uskunalar panelini tahlil qilish;
- berilgan uch o‘lchamli detalning ikki o‘lchamli chizmasini chizish;
- detalning ikki o‘lchamli chizmasi asosida uning uch o‘lchamli modelini qurish;
- tekislikda va fazoda geometrik modellarni loyihalashning optiml algoritmlarini aniqlash;
- tekislik va fazoda murakkab chizma va shakllarni yaratish;
- chizmani taxt qilish va chop etish **ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak;**
- murakkab shaklga ega buyumlarni analiz qilish;
- chizmani qo‘lda (chizma qurollari yordamida) va CAD dasturi yordamida bajarishni taqqoslash;
- ikki va undan ortiq CAD dasturlarini o‘zaro taqqoslash;
- CAD dasturlarining o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash;
- yangi CAD dasturlarini mustaqil o‘zlashtirish **malakasiga ega bo‘lishi kerak** deb o‘ylaymiz.

Adabiyotlar:

1. Александрова Е.П., Носов К. Г., Столбова, И. Д. Организация графической подготовки студентов на основе информационно-коммуникационных технологий [Электронный ресурс] // URL: <http://dgng.pstu.ru/conf2017/papers/1/> (дата обращения 05.02.2018).
2. Анисимова Н.С. Теоретические основы и методология использования мультимедийных технологий в обучении. Дис. ... д-ра пед. Наук. Санкт-Петербург. 2002.–330 с.
3. Антонова С.Г., Тюрина Л.Г. Новое поколение учебной литературы: теоретические и методические предпосылки// Унив. Книга.–М.:2000.–№8 –С.15–19. Государственные образовательные стандарты высшего профессионального образования – основа содержания учебных изданий // Там же.– №9–С.19–29. Система учебных изданий для высшего профессионального образования // Там же. 2001. – № 1–2. С.26–30, 34–37.
4. Badalxodjaev T.I. Elektron darslik yaratish harajatlarini aniqlash texnologiyalari. <http://tolkinjon.narod.ru/statya2.htm>
5. Батищев В. И., Мишин В. Ю. Мультимедийные средства обучения. <http://ou.tsu.ru/seminars/eois2003/tezis/section3.htm>
6. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Diss. ...ped.fan.dok. T.:– 2007 y. 305 b.



БЕКМАНОВА Гулбахар Бегдуллаевна
Қорақалпоғистон тиббиёт институти ўқитувчиси

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА КИМЁ ФАНИНИ ЎҚИТИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ МУҲИМ ШАРТЛАРИ

Ушбу мақолада олий таълим муассасаларида кимё фанини ўқитиш самарадорлигини оширишнинг муҳим шартлари ўз аксини топган.

Калит сўзлар: маъруза, амалий ишлар, лаборатория ишлари, муаммоли-изланиш, индуктив, дедуктив, ўз-ўзини назорат қилиш, интерактив методлар, инновацион ва ахборот технологиялари, виртуал лаборатория.

ВАЖНЫЕ УСЛОВИЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ ХИМИИ В ВУЗЕ

В данной статье отражены важные условия повышения эффективности обучения химии в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: лекция, практическая работа, лабораторная работа, проблемно-исследовательская, индуктивная, дедуктивная, самоконтроль, интерактивные методы, инновационные и информационные технологии, виртуальная лаборатория.

IMPORTANT CONDITIONS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF TEACHING CHEMISTRY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

This article reflects the important conditions for improving the effectiveness of teaching chemistry in higher education.

Key words: lecture, practical work, laboratory work, problem research, inductive, deductive, self-control, interactive methods, innovative and information technologies, virtual laboratory.

Кириш. Бугунги кунда ҳар бир таълим муассасаси ва унда хизмат қилувчи педагог-кадрлар зиммасига таълим-тарбия жараёнининг самарадорлигини ошириш, илм-фаннинг сўнгги ютуқларини амалиётга жорий этиш орқали ижодкор, ижтимоий фаол, юксак маънавиятли, касб-ҳунарли, эл-юртга садоқатли миллий ва умуминсоний қадриятлар руҳида тарбияланган, ижодий ва мустақил фикр юрита оладиган, давлат, жамият ва оила олдида ўз бурчи ва жавобгарлини ҳис эта оладиган, рақобатбардош баркамол шахсни тарбиялаш ва камолга етказиш, уларнинг онги ва қалбига миллий истиқлол ғоясини сингдириш каби муҳим вазифаларни амалга ошириш юқлатилган. Ушбу вазифаларнинг муваффақиятли ҳал этилиши таълим-тарбия жараёнида замонавий таълим технологиялардан фойдаланиш билан узвий равишда боғлиқ.

Асосий қисм. Ҳозирги вақтда таълим жараёнида ўқитишнинг замонавий методлари кенг қўлланилмоқда. Ўқитишнинг замонавий методларини қўллаш ўқитиш жараёнида юқори самарадорликка эришишга олиб келади. Таълим методларини танлашда ҳар бир дарснинг дидактик вазифасидан келиб чиқиб танлаш мақсадга мувофиқ саналади. Таълим мазмунини самарали ўзлаштиришда талабаларнинг билим савияси, ўзлаштириш қобилияти, таълим манбаи, дидактик вазифаларига қараб, муносиб равишда оғзаки, кўргазмали ва амалий каби уч гуруҳга бўлинадиган методларнинг қуйидаги вариантлари қўлланилади:

- ўқитишнинг маъруза (суҳбат) методи;
- ўқитишнинг амалий ишлар методи;
- лаборатория ишлари методи;
- мустақил ишлар методи;
- муаммоли-евристик моделлаштириш методи;
- илмий-тадқиқот методлари;
- ўқитишнинг муаммоли-изланиш ва репродуктив методи;
- ўқитишнинг индуктив ва дедуктив методи;

- ўқитишнинг назорат ва ўз-ўзини назорат қилиш методи

Кимё таълими мураккаб ва ўта муҳим босқичдир: яхши (сифатли) дарс бериш - тажрибали ўқитувчи учун ҳам осон иш эмас. Талабаларга ўргатиладиган мавзу мақсадларидан ва таълим мазмунидан келиб чиқиб, энг самарали дарс тури белгиланади. Олий таълим муассасаларида кимё фанини ўқитиш самарадорлигини оширишнинг муҳим шарти таълим жараёнига тизимли ёндашувдир.

Дарсларни ташкиллаштириш учун замонавий кимё ўқитувчиси қуйидагиларни билиши керак.

1. Кимё ўқитиш жараёнида ўқитишнинг таълим ва тарбиявий ҳамда ривожлантириш мақсадини;

2. Ўқув дастурлари, дарсликлари, ўқув – методик қўлланмалар;

3. Кимё ўқитиш методикасининг назарий асослари, жумладан, кимё ўқитиш методларини ва уларнинг натижаларини назорат қилишни, кимё кабинетининг ўқув жиҳозларини, лабораторияда ишлаш вақтидаги хавфсизлик техникасини, кимёвий реактивларнинг хоссалари ва уларни сақлаш қоидаларини ўқитишнинг техник воситаларини ва уларни ишлатиш йўлларини;

4. Ўқитувчи психологик хусусиятлари турли бўлган болалар билан иш олиб боради, уларга таълим ва тарбия беради. Шунинг учун педагогика ва психология фанлари асосларини билиб олиши керак;

5. Талабаларнинг фикрлаш қобилиятларини ривожлантиришнинг муҳим омилларидан бири уларда кимёвий масалалар ечиш малакаларини шакллантириш ва ривожлантиришдир. Шунинг учун ўқитувчининг ўзи масала ечиш малакасига эга бўлиши керак;

6. Ўқитувчи илмий – ижодий изланиш малакасига эга бўлиши керак.

7. Кимё ўқитишнинг анъанавий методлари ўрнига интерактив методлар, жумладан, инновацион ва ахборот технологияларини билиб олишлари керак. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури кўрсатмаларини амалга ошириш талабаларни дунё андозаларига жавоб берадиган даражага олиб чиқади.

Таълимнинг самарадорлигини ошириш, шахснинг таълим марказида бўлишини ва ёшларнинг мустақил билим олишларини таъминлаш учун таълим муассасаларига яхши тайёргарлик кўрган ва ўз соҳасидаги билимларни мустаҳкам эгаллашдан ташқари замонавий педагогик технологияларни ва интерфаол услубларни биладиган, улардан ўқув ва тарбиявий машғулотларни ташкил этишда фойдаланиш қоидаларини биладиган ўқитувчилар керак. Бунинг учун барча фан ўқитувчилари педагогик ва ахборот технологиялар, интерфаол услублар билан қуролланиши ҳамда уларни ўқув-тарбиявий машғулотларда самарали қўллай олишлари жуда зарур эканлигини чуқур англаб етишлари лозим. Демак, ҳозирги замонавий педагогининг ҳар қандай вазиятларда ҳам ўзини вазиятларга ва янги фаолият жараёнларига мослаштира олиши, ўз устида тинимсиз ишлаши талаб этилади. Чунки шиддат билан кечаётган жаҳон микёсидаги ўзгаришлар олдида педагог янги маълумотлардан ортда қолиши мумкин эмас. Айниқса ўз талабаларидан олдинроқда қадам босмас экан у жудаям тезлик билан ўз обрўсини тушириб қўйиши ва бу орқали ёш авлоднинг таълимга бўлган иштиёқини ҳам сусайтириб қўйиши мумкин.

Кимё фанини ўқитишда талабаларга мувофиқ равишда назария ва амалиётнинг уйғунлигини таъминлаш муҳим масала ҳисобланади. Моддаларнинг таркиби, тузилиши, хоссалари орасидаги боғланишни очиб беришда кимёвий эксперимент, демонстрация ва лаборатория тажрибалари катта аҳамиятга эгадир. Кимёвий тажрибалар ўқитувчиларда маҳоратни ўқувчиларда эса назарий билимларни мустаҳкамлайди. Турли сифат ва микдорий реакцияларнинг ранг ҳамда микдор ўзгариши билан бориши, чўкма тушиши, газ ажралиши билан борадигон тажрибалар ўқувчиларда фанга катта қизиқиш уйғотади. Лаборатория тажрибалари экологик эътикодни, меҳнатга тўғри муносабатни шакллантиради. Бундан ташқари олий таълимдаги айрим лаборатория ишларини бажаришда ноқулай шароитлар юзага келиши мумкин бўлган тажрибалар йўқ эмас. Шунда виртуал лаборатория ва қўшимча компьютер дастурларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Лекин бу дастурлар билан ишлаш бўйича ўзбек тилида етарли қўлланма мавжуд эмас. Илмий изланувчилар томонидан бу муаммони ҳал қилиш учун 10 дан ортиқ хорижда тайёрланган компьютер дастурларидан фойдаланиш учун ўқув услубий қўлланма ишлаб чиқилмоқда. Илм изланувчиларининг мақсади ўқувчи ва ўқитувчилар учун компьютер кимёвий дастурлари билан ишлаш бўйича қулай, ўзбек тилида ўқув услубий қўлланма тузиш. Ўқув услубий қўлланма ўқувчилар учун савол ва топшириқлар, қизиқарли тажрибалар, расм, график ва жадваллар кўринишида ишнинг асосий қисми кўрсатилган бўлса, ўқитувчилар учун ўқувчиларни ишини тўла назорат қилиши, дастурлар билан кенгрок ишлашни ташкил этиш имконини беради. Натижада ўқитувчи дарс жараёнининг ўзида назарий билимларни мустаҳкамлаш учун виртуал лабораториялардан фойдаланиб

ўқув машғулотининг ўтиши, лаборатория жараёнида ҳар бир талаба билан индивидуал ишлаган ҳолда тажрибани ўтказиши дарс жараёнини янада унумли ва сифатли бўлишига олиб келади.

Хулоса. Юқоридагилардан хулоса қилган ҳолда, шуни айтишимиз мумкинки, кимё дарсларида замонавий педагогик технологияларни ва интерфаол услубларни қўллаш, кимё машғулотларини дидактик ўйинлар орқали ташкил этиш дарс самарадорлигини ошириш билан бирга, талабаларнинг дарс машғулотида қизиқишини ҳам уйғотади ва дарс жараёнини янада унумли ва сифатли бўлишига олиб келади. Асосийси, аниқ мақсадлар қўйиш, асбоб-ускуналар ва кимёвий моддалар билан ишлаш, хавфсизлик тартиб-қоидаларини ўрганиш, муайян техникани ўзлаштириш, аниқ ўлчаш, диққат билан кузатиш имконияти бўлиши керак. Бироқ, кимёни ҳақиқатга айлантириш ва ғояларни эмпирик тестларга очиб бериш муҳимроқдир. Кузатиш, дедуксия ва изоҳлаш кўникмалари муҳим аҳамиятга эга, чунки эмпирикнинг суриштирувда далил манбаи сифатидаги ўрни таклиф қилинади. Бундан ташқари, бошқа кўплаб муҳим амалий кўникмаларни ривожлантириш керак (масалан, жамоада ишлаш, ҳисобот бериш, тақдимот ва муҳокама қилиш, вақтни бошқариш, муаммоларни ҳал қилиш усуллари ишлаб чиқиш). Лаборатория қўлланмаларини сезиларли даражада қисқартириш ва талабаларни ҳақиқий экспериментни режалаштиришга ва улар нима учун қилаётганларини тушунишга ундаш керак. Фикрлаш ва сўров жараёнига кўпроқ эътибор қаратиш ва "тўғри" жавоб олишга камроқ эътибор бериш керак. Талабалар машғулоти давомида эркин фикрлашлари ва жамоада ўз фикрларини ифодалай олашлари лозим. Лабораториядан кейинги тажриба ҳам диққат билан ўйлашни талаб қилади. Бунда талабаларга лабораториядан кейинги ҳаёлий машқлар бажаришади. Бу ўқувчиларга ўрганган ғояларини кундалик ҳаётда қўллаш имкониятини бери.

Адабиётлар:

1. Аҳадов М.Ш., Каримова З.У. Развитие мышления студентов на внеаудиторной работе с применением инновационных методов. // «Наука. Мысль: электронный периодический журнал». Москва. № 2. 2017. К.13-17. (13.00.02; №11)
2. Аҳадов М.Ш. Дарс сифатини оширишда замонавий педагогик технологиялардан фойдаланиш. // «Биологик хилма-хилликни сақлаш, қайта тиклаш ва муҳофаза қилиш масалалари» мавзусидаги Республика илмий-назарий анжуман материаллари. Нөкис-2016 йил. 163-164 бет.
4. Расулова З.Д. Муаммоли вазиятлар орқали талабаларнинг ўқув-билим фаолиятларини ривожлантириш мавзусидаги илмий мақоласидан. // "Science and Education". p 481.
5. Омонов Ҳ.Т., Хўжаев Н.Х., Мадярова С.А., Эшчонов Э.У. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. Тошкент. Иқтисод-молия. 2009
6. Сапарбаев Ж. “Педагогик технологиялар” фани бўйича маъруза матни. Нукус 2010.
7. Тожиев М., Зиямухаммедов В., Уралова М. Педагогик технология ва педагогик маҳорат фанинг ўқув машғулотларини лойиҳалаш. Ўқув қўлланма-Т. «Тафаккур бўстони», 2012.

ҚАҲОРОВ Мадамин Абдунабиевич

Бухоро давлат университети таянч
докторанти

КИМЁ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА МОБИЛ ДАСТУРИЙ ИЛОВАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Мазкур мақолада кимё ўқитиш методикаси ҳамда дастурлаш соҳасида фаолият олиб бораётган мутахассислар томонидан миллий дастурий иловалар яратиш, прототип дизайни, унда бўлимларнинг жойлаштириш ҳамда қўшимча элементларни жойлаштириш бўйича ишларини амалга ошириш масалалари кўрилган. Фан бўйича дастурий иловалар яратишда бўлим компонентлари, ўқув материаллари мазмуни, ранглар уйғунлиги, қўшимча элементларни жойлаштиришда фаннинг хусусиятларини инобатга олиш талаб этилади.

Калит сўзлар: дастурлаш, мобил илова, прототип, компонент, кимё фани, ўқув материали.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МОБИЛЬНЫХ ПРОГРАММНЫХ ПРИЛОЖЕНИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ХИМИИ

В данной статье рассматривается методика преподавания химии и вопросы выполнения работ по созданию национальных программных приложений, проектированию прототипов, размещению в нём разделов и размещению дополнительных элементов специалистами, работающими в области программирования. При создании программных приложений по предмету требуется учитывать особенности предмета при размещении компонентов раздела, содержания учебных материалов, цветовой гармонии, дополнительных элементов.

Ключевые слова: программирование, мобильное приложение, прототип, компонент, химия, учебный материал.

USING MOBILE SOFTWARE APPLICATIONS IN TEACHING CHEMISTRY


This article discusses the methodology of teaching chemistry and the issues of performing work on the creation of national software applications, the design of prototypes, the placement of sections in it and the placement of additional elements by specialists working in the field of programming. When creating software applications for a subject, it is required to take into account the features of the subject when placing the components of the section, the content of educational materials, color harmony, and additional elements.

Keywords: programming, mobile application, prototype, component, chemical science, educational material.

Кириш. Бугунги кунда кўплаб фанлардан фойдаланишга мўлжалланган мобил дастурий иловалар яратилган бўлиб, улардан таълим жараёнида муайян даражада фойдаланиб келинмоқда. Фанлардан мобил дастурий иловаларни яратиш ўқитиш методикаси ва ахборот-коммуникация соҳасидаги мутахассисларнинг ўзаро ҳамкорлиги натижасида яратилмоқда. Республикамизда бу йўналишда ўз ечимини топиши лозим бўлган бир қатор масалалар бўлса-да, ривожланган мамлакатлар бу соҳа бўйича яратилган, мобил дастурий иловалар мавжуд. Ушбу мобил иловалар ёрдамида кимёвий реакцияларни топиш, бир ёки бир нечта номаълумлар қатнашган кимёвий реакцияларни ечиш имконини беради[1; 548-6]. Шунингдек, Менделеев даврий жадвали, эрувчанлик жадваллари ўрин олганлигини кўриш мумкин (1-расм).

Асосий қисм. Мобил иловани яратиш жараёни бир нечта босқичда амалга оширилиши мумкин. Фан ўқитувчиси ёки мутахассис томонидан яратилаётган иловани қандай мақсадларга мўлжалланганлиги аниқлаб олинади. Шундан кейин мобил дастури иловани яратишга киришилади. Дастлаб, ишни маълум бир ғояга асосланган ҳолда бошлаган қулай ҳисобланади. Фан ўқитувчиси мобил дастурий илова қандай бўлимлардан ташкил топади, уларда қандай ўқув материаллари ва бошқа манбалар жойлаштиришга доир мулоҳазалар умумлаштирилади[6; 684-6]. Ғоя дастурчи билан маслаҳатлашиб, иш бўйича фикр-мулоҳазалар умумлаштирилгандан кейин ғоя асосида мобил дастурий илова прототипи яратилади. Яратилган прототип дизайни, унда бўлимларнинг жойлаштириш ҳамда қўшимча элементларни жойлаштириш бўйича ишлар амалга оширилиши мумкин. Ранглар

уйғунлиги ва дизайн фаннинг хусусиятларидан келиб, чиқган ҳолда дизайнерлар билан маслаҳатлашган ҳолда амалга оширилиши мақсадга мувофиқ ҳисобланади.



1-расм. Химия 4.0 мобил дастурий иловаси кўриниши

Дастурчилар одатда прототип яратишни махсус прототиплаш дастурлари: Marvel, InVision, Proto.io, Pixate, Framer ва бошқалар ёрдамида амалга оширишлари мумкин.

Мобил дастурий иловани яратиш учун код ёзиш талаб этилади. Бу дастурлаш босқичига ўтиш учун дастлабки кадам ҳисобланади. Фан ўқитувчисининг кўрсатмалари асосида дизайнер томонидан прототипда мобил дастурий иловадан ўрин оладиган компонентлар батафсил баён қилинганидан кейин дастурчи томонидан код ёзишга киришилади. Дастурчи аниқ топшириқ сифатида техник масалани тузишни бошлайди. Дастурчи техник масалани ёзишда мобил дастурий иловага кириш-чиқиш тугмаларидан бошлаб, барча бўлим компонентларини ҳисобга олиши талаб этилади. Дастурчи томонидан барча ишлар якунланганидан кейин мобил дастурий илова дастлабки синовдан ўтказилади. Дастлабки синов жараёнида мобил дастурий илованинг қандай ишлаётгани, бўлим ва бошқа компонентларнинг жойлашиши ва ундан фойдаланиш имкониятлари муҳокама қилинади. Синов жараёнида иштирок этаётган дастурчи-мутахассисларнинг мақсади мобиль илова техник масала ёзишдан тортиб, компонентларни жойлашиш ўрганилиб, камчилик аниқланган тақдирда дастур қайта ишлаш учун юборилади. Мутахассислар томонидан синов жараёнида топилган хато ва камчиликлар, таклифлар мобил дастурий илованинг таокмиллашуви, фойдаланувичлар учун қулайлик яратилишига эришилади [2; 8-6].

Кимё фанига доир маълумотлар билан танишиштиришга мўлжалланган “Chemio” иловаси тўғрисидаги маълумотлар билан танишиб чиқамиз. Иловада кимё фанидан лаборатория ишларида ҳисоблашларни бажариш учун мавжуд бўлган барча зарур элементлар мавжуд. Иловадан маълумотнома сифатида фойдаланиш билан бир қаторда унда интерактив жадвал, эрувчанлик жадвали, молекуляр масса калкулятори, атом дизайнери мавжуд бўлиб, унинг ёрдамида ҳар қандай кимёвий элемент 3D модел сифатида ўрганиш мумкин. Илованинг барча элементларидан офлайн ишлайди, шу сабабли Интернетдан фойдаланиш мумкин. AppStore дан иловани сотиб олиш мумкин [10; 325-6].


Кимё фанини ўрганишда шубҳасиз Менделеев даврий системаси муҳим ўрин тутди. Edutainment мобил иловаси ундан доимий равишда исталган ватқда фойдаланиш имконини беради. Технология ёрдамида у яна кизиқарли ва визуал кўринишда яратилган. Даврий жадвални 6 та тўлдирилган ва турли тасвирлар бойитилган вариантлари мавжуд [9; 56-6].

Тадқиқотчилар томонидан турли соҳаларда мобил дастурий иловаларни яратиш, бир қанча қулайликлар яратади. Ўзингизни муаллифлик иловангизни яратиш кўплаб, бир қанча қулайликларни яратади, бу бўйича факатгина дастурчиларни ишлашининг хожати йўқ. Бунинг учун Сизга ўйин яратиш учун код керакми, web сайт яратиш учун скрипт зарурми, роботни бошқариш учун дастур керакми, матн ёзиш ёки молиявий ҳисоботларни ёзиш учун анализатор керакми, барчаси учун Интернетдан тайёр ҳолатдаги ишланмаларни топиш имконияти мавжуд. Камдан-кам ҳолларда дастурлаш бўйича муайян билимга эга бўлган мутахассисларга эҳтиёж

туғилиши мумкин. Дастур яратиш – кишиларнинг муайян мақсадга эришиш учун яратилган, меҳнат ва ижодкорлик маҳсули ҳисобланади.

Одатда дастурлар икки хил варианда: биринчидан дастурлаш тилларини мукамал билган мутахассисларга мўлжалланган, иккинчидан дастурлаш бўйича мутахассис бўлмаган фойдаланувчилар учун яратилади. Уларнинг бепул ҳамда маълум бир тўлов асосида амалга ошириладиган вариантлари мавжуд. Қуйида фанлардан мобил иловалар яратишда фойдаланишга мўлжалланган дастурлар мазмуни билан таништириб ўтамыз.

VisualStudio дастурлаш тили. Дастурлаш бўйича мутахассисларнинг энг кўп фойдаланадиган дастурий таъминот тиллардан ҳисобланади. Ҳозирги вақтда кўплаб дастур ёзувчи мутахассислар дастурий таъминотни C++, JavaScript, VisualBasic, AJAX, Python, TypeScript дастурлаш тилларида ёзадилар. Фойдаланувчи томонидан дастурлаш учун ёзилган техник масала сифати таҳлил қилинади, ундаги камчиликларни бартараф этиш йўллари таклиф қилинади. Ўрнатилган муҳаррир керакли натижага эришишга ёрдам беради. Дастурий таъминот ишлаб чиқиш Windows OC, Linux, Mac OS, Android ва iOS мобил операцион тизимлар учун мўлжалланган[7; 16-6]. Шахсий компьютерларда бир нечта ишлаб чиқувчилар томонидан ёзилиши, унинг кўп функционаллик ечимларидан ҳисобланади (2-расм).



2-расм. VisualStudio дастури иш ойнаси

Афзалликлари:

- функционалиги;
- кучли код тузилмаси;
- натижани жонли кўриш имконини берувчи split-windows XML ва CSS;
- график элементларни қайта ишловчи WindowsForms.

IntelliJ IDEA дастурлаш тили. Дастур тили тижорат, мобил веб-иловалар яратишга мўлжалланган. Фойдаланувчи томонидан таклиф қилинган техник масала кодини дастур мустақил таҳлил қилади, автоматик равишда қўшимчалар киритишни таклиф қилади. Мазкур дастурлаш тили яратувчилар томонидан доимий равишда янгилаб турилади. JS, Java, HTML, Groovy, CSS, XML, ActionScript, Scala, CoffeeScript, Perl5, Erlang, Fantom, Lua, OCaml, GLSL, Haskell – дастурлаш тилларидан фойдаланиб яратилган. Windows OC, Android, iOS тизимларида фойдаланишга мўлжалланган. Фойдаланувчилар томонидан тузилган дастурларни синондан ўтказиш имконияти мавжуд[5; 34-6]. Virgo, Geronimo ва бошқа серверларда мижоз схемаси бўйича ишлайди, дастур серверда жойлашган, ишни фойдаланувчи компьютерда амалга оширади[5; 34-6]. Маълумотлар базасини бошқариш дастурларини ёзади, SQL файлларида ишлайди (3-расм).

- Android учун софт яратиш функционалиги;
- Swing учун дизайнер интерфейси;
- бир нечта тизимларни ўзаро бошқариш имконияти мавжудлиги.

- кенг камровлилик, ракобатдош ечимларнинг амалда йўқлиги;
- C++ ўрганишни бошлаганлар учун ёрдам;
- Янги эскизларни юклаб олиш орқали имкониятларни тезда кенгайтириш;

- Max/MSP, Macromedia Flash, SuperCollider, Pure Data;

• Маълумотлар базаси ва экспертлар форуми янги келганларни зарур керакли маълумотлар билан таъминлайди[7; 26-б].

Фанга доир сайтлар яратиш, мобил дастурий иловалар ҳамда турли кўргазмаларни тақдирот воситалари яратишга мўлжалланган дастурларни танлашни қандай амалга ошириш мумкин. Дастурчиларни янгидан бошлаганлар учун кўплаб вариантлар мавжудлиги танлашда чалкашликларга олиб келади[9; 122-б]. Дастур ёзиш учун дастурни сиз танлашингиз лозим бўлади. Бунда қуйидагиларга эътибор қаратиш лозим.

- мақсад мазмуни – ўйинлар учун мураккаб кодлар;
- дастурлаш тилларни билиш зарурати;
- тиллар сони;
- рус тилидаги интерфейснинг мавжудлиги;
- код анализатори ва автоматик тахрирловчининг мавжудлиги;
- график ускуналар сифати;
- қўшимча кутубхонага эҳтиёж;
- уланиш орқали имкониятларни кенгайтириш имкони;
- амалий дастурларни серверлар билан ишлаш имкони;
- маҳсулот таннарихи;
- янгиланишлар частотаси.

Қулай ҳамда энг яхши дастур вариантыни танлаш учун бир қатор бепул вариантларни синаб кўриш имкони мавжуд. Шундан сўнггина сиз ўзингиз учун маъқул бўлган вариантни сотиб олиш мумкин.

Хулоса. Ҳозирги вақтда кимё ўқитиш методикаси ҳамда дастурлаш соҳасида фаолият олиб бораётган мутахассислар томонидан миллий дастурий иловалар яратиш устида изланишлар олиб борилмоқда, узлуксиз таълимнинг турли бўғинларида кимё фанининг ўқитишга мўлжалланган дастурий иловаларни яратишга бугунги кунда эҳтиёж мавжуд. Бу соҳада изланишлар олиб борилиши, фанда бўлаётган янгиликлар билан ўз вақтида ўқувчиларни тезкор таништириш имкониятини, лаборатория хонасида ўтказиш муаммо бўлган ишларни намойиш қилиш учун қулай эканлигини, дарсларни қизиқарли ташкил қилишга хизмат қилади.

Машғулотларни ташкил қилишда мобил дастурий иловалардан фойдаланиш турли соғламалар ўрнатиш ҳамда улардан машғулот давомида фойдаланиш тезкорлиги, кимё фанидан реакциялар, уларнинг бориши, кимёвий элементлар тўғрисидаги маълумотлар билан танишиш имкони, фанга доир қонуниятларни татбиқи, бўлаётган кашфиётлар ҳамда қизиқарли маълумотлар билан танишишга кенг имконият яратади.

Адабиётлар:

1. Эшназарова М.Ю., Ҳасанов С.С., Жамалов О.О. "Мобил иловалар яратиш технологиялари ва уларнинг имкониятлари" // Academic research in educational sciences, no. 4, 2020, pp. 548-556.
2. Пак М.С., Бондаренко Д.К. Дидактический материал в обучении химии.-Санкт-Петербург:(Осипова), 2013 - 45 б.
3. Кузурман В.А., Задорожный И.В. Методика преподавания химии. -Владимир:(ВЛДУ), 2017 - 88 б.
4. Seirbhis Tacaiochta, Dara Leibseal. Using Graphic Organisers in Teaching and learning. (Castello Print Navan), SLSS 2008. 64 p.
5. Teaching Chemistry - A Studybook A Practical Guide and Textbook for Student Teachers, Teacher Trainees and Teachers 2013.1page 34.
6. Тожибоева М.З. "Мобил иловалардан таълим жараёнида фойдаланиш методикаси" // Scientific progress, vol. 2, no. 2, 2021, pp. 683-690.
7. К. Е. Долгань Инновации и современные технологии в обучении химии Часть I Учеб, пособие // Калинингр. ун-т. - Калининград, 2000. - 66 с.
8. Jacjbson D.A., Eggan P. Kauchak D. Methods for teaching. (Pearson). 2009, 114 p.
9. Хасанова Х.Н. Органик кимёни ўқитиш. Ўқув қўлланма. - Тошкент: PTM, 2019.- 180 б.
10. Pedagogy and practice: Teaching and learning in Secondary schools. Crown copyright - 2004, - 579 p.

IQTISODIY TA'LIM VA TARBIYA

САИДКУЛОВА Фируза Фармоновна

Научный сотрудник кафедры
“Педагогика” Бухарского государственного
университета

НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ

В статье рассмотрены проблемы и трудности формирования специальных профессиональных компетенций при изучении экономических дисциплин. Преподавание экономики в высшей школе с использованием компетентного подхода позволит усилить интерес к изучению экономических процессов, положительно скажется на повышении качества знаний у студентов. Экономические компетенции определяются набором теоретических знаний и практических навыков, необходимых для встраивания в экономическую систему. Экономические компетенции имеют знаниевую основу и обеспечивают практический выход в навыки. Они определяют возможности реализации ученика в будущем как в профессиональной сфере, так и в частной жизни. Целью профессионального образования является подготовка квалифицированного специалиста соответствующего уровня и профиля, конкурентоспособного на рынке труда, компетентного, свободно владеющего своей профессией и ориентирующегося в смежных областях деятельности, готового к постоянному росту, социальной и профессиональной мобильности.

Основным результатом деятельности образовательного учреждения должна стать не система знаний, умений и навыков, а способность человека действовать в конкретной жизненной ситуации.

Ключевые слова: профессиональные компетенции, профессиональная подготовка, кадровый, профессиональные компетенции управленцев.

THE NEED TO DEVELOP ECONOMIC COMPETENCE IN STUDENTS

The article discusses the problems and difficulties of the formation of special professional competencies in the study of economic disciplines. Teaching economics in higher education using a competency-based approach will increase interest in studying the world economy and will have a positive effect on improving the quality of knowledge among students. Economic competencies are determined by a set of theoretical knowledge and practical skills necessary for integration into the economic system. Economic competencies are knowledge-based and provide practical entry into skills. They determine the possibilities for the student to realize in the future both in the professional sphere and in private life. The purpose of vocational education is to prepare a qualified specialist of the appropriate level and profile, competitive in the labor market, competent, fluent in his profession and oriented in related fields of activity, ready for continuous growth, social and professional mobility.

The main result of the educational institution should not be a system of knowledge, skills, but the ability of a person to act in a specific life situation.

Key words: professional competencies, professional training, human resources, professional competencies of managers.

TALABALARDA IQTISODIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH ZARURATI

Maqolada iqtisodiy fanlarni o'rganishda maxsus kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish muammolari va qiyinchiliklari ko'rib chiqiladi. Oliy o'quv yurtlarida iqtisodiyot fanini kompetensiyaga asoslangan holda o'qitish iqtisodiy jarayonlarni o'rganishga qiziqishni oshiradi va talabalarning bilim sifatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy kompetensiyalar iqtisodiy tizimga integratsiyalashuvi uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar majmui bilan belgilanadi. Iqtisodiy kompetensiyalar bilimlar bazasiga ega bo'lib, ko'nikmalarni amaliy o'zlashtirishni ta'minlaydi. Ular talabaning kelajakda ham kasbiy sohada, ham shaxsiy hayotda professional faoliyatni amalga oshirish imkoniyatlarini belgilaydi. Kasb-hunar ta'limining maqsadi - mehnat bozorida raqobatbardosh, malakali, o'z kasbini ravon va tegishli faoliyat

sohalariga yo'naltirilgan, doimiy o'sishga tayyor, ijtimoiy va kasbiy harakatchanlikka ega, tegishli darajadagi va profilli malakali mutaxassisni tayyorlashdir.

Ta'lim muassasasi faoliyatining asosiy natijasi bilim, ko'nikma va malakalar tizimi emas, balki shaxsning muayyan hayotiy vaziyatda harakat qilish qobiliyati bo'lishi kerak.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetensiyalar, kasbiy tayyorgarlik, kadrlar, menejerlarning kasbiy kompetensiyalari.

Введение. Современное состояние экономики нашей страны, стратегия экономического и социального развития, ее диверсификация, процессы глобализации и регионализации ставят задачи по дальнейшему обновлению высшего профессионального образования, требуют постоянной корректировки содержания и технологий подготовки специалистов. Именно оно обеспечивает подготовку молодых людей к жизни и связано с их будущим жизненным успехом, успехом страны, успехом всего общества. В конечном итоге — формирование конкурентоспособного выпускника, специалиста высокого уровня обеспечит и конкурентоспособность страны.

Качественное образование — это соответствие профессиональных компетенций кадров потребностям профессиональной и социальной сферы, рынка труда, потребностям всех сторон жизни общества. В современных условиях развития социально-экономических отношений на передний план выдвигается чрезвычайно важная задача — обеспечить качественную подготовку выпускника вуза, важнейшими характеристиками которого становятся профессиональная гибкость и мобильность, т.е. способность в случае необходимости быстро осваивать новые знания и виды профессиональной деятельности. Обязательными элементами его квалификации являются хорошее общее образование, качественная профессиональная подготовка и высокий уровень общей и профессиональной культуры, умение быстро овладевать новыми знаниями и передовыми технологиями. Таким образом, содержание квалификации в корне изменяется: усиливается объективная сторона, связанная с динамичным изменением требований к современному выпускнику, возрастает роль личностных и социально-психологических факторов в стремлении специалиста к овладению передовыми технологиями. Поэтому требования, предъявляемые к специалисту, могут быть удовлетворены только путем постоянного повышения уровня квалификации работников, на основе качественного базового профессионального образования.

Основная часть. Последние десятилетия мы все стали свидетелями того, что устаревание информации происходит быстрее, чем завершается цикл обучения в вузе. В этой связи традиционный подход на передачу необходимых знаний, от преподавателя к обучаемому, представляется неэффективным. Рынок труда требует не сами знания, а способность специалиста на основе знаний, умений и навыков выполнять определенные, порой непредвиденные функциональные обязанности и операции. В психолого-педагогической науке выделяется большое разнообразие подходов к организации процесса обучения, что позволяет всесторонне рассматривать изучаемое явление. Учитывая структурные особенности компетенции: «Знание и понимание (теоретическое знание), знание как действовать (практическое применение знаний), знание как жить (ценности, позиции)» [5,17].

Если рассматривать образование человека в контексте его социализации, то смысл его образования состоит в освоении какой-либо культурной традиции как системы ранее выработанных средств (компетенций), позволяющей взаимодействовать с окружающим миром, развивать свои способности. Иными словами, человек учится реализовать себя как «я» и быть успешным в обществе [4,18].

Воспитание выпускников вуза, имеющих объективные взгляды на различные стороны жизни в Узбекистане, умеющих применять знания, навыки, способности в быстро меняющихся экономических условиях, принимать грамотные и эффективные решения задача высшей школы на перспективу. Эта задача выполнима в рамках перехода высшей школы на компетентностный подход образования. Для высшей школы в новых экономических условиях важен не объем усвоенных знаний или алгоритмы их воспроизведения по образцу, хотя и это остается в новой системе образования, а ключевые компетенции, творческий подход к решению учебных и жизненных проблем, умение самостоятельно приобретать знания и применять их в нестандартных ситуациях, близких к будущей профессиональной деятельности.

Компетентностный подход позволит сформировать у студентов универсальные и профессиональные компетенции.

Универсальные компетенции, связанные с профессиональной деятельностью выпускников:

- компетенция в области родного языка;

- компетенция в сфере иностранных языков;
- математическая и фундаментальная, естественнонаучная и техническая компетенции;
- компьютерная компетенция;
- учебная компетенция;
- межличностная компетенция, межкультурная и социальная компетенции, гражданская компетенция;
- компетенция предпринимательства;
- культурная компетенция.

Универсальные компетенции формирует каждый преподаватель вуза. Профессиональные компетенции по каждому предмету должны быть четко обозначены, и преподавателю необходимо содержание предмета наложить на формирование основных компетенций. Итак, профессиональная компетентность в первом приближении понимается как способность специалиста использовать в поле профессиональной деятельности научные и практические знания, обладая широкой общей и специальной эрудицией, осуществляя постоянное повышение своей научно-профессиональной подготовки, демонстрируя способность самостоятельно ставить и решать новые профессиональные задачи, проявлять высокую степень профессиональной адаптации. Таким образом, с начала нового столетия процесс формирования профессиональной компетентности учителя рассматривается в контексте повышения как качества образования в целом, так и качества профессионально-педагогического образования в частности [6, 7].

Профессиональная компетентность представляет собой достаточно широкую область, в нее входят следующие компетентности:

- специальная — знания, умения и навыки, обеспечивающие самостоятельное выполнение профессиональных действий и дальнейшее профессиональное развитие;
- аутокомпетентность — владение умениями и навыками управления волевой и эмоциональной сферы, технологиями преодоления профессиональных деструкций, высокий уровень рефлексии и самопроверки;
- навыки устной и письменной речи;
- организаторская;
- поисково-реконструктивная — связана с умениями вести поисковую деятельность, обрабатывать найденную информацию, выдвигать гипотезы, моделировать (реконструировать) процессы и события, принимать решения в различных условиях.

Профессиональная компетентность, как общая, так и специальная, обеспечивается во многом развитием профессионально важных качеств, такие как: память, логическое и креативно-критическое мышление, рефлексия, организованность, собранность, настойчивость, аккуратность и пунктуальность, эмоциональная устойчивость, толерантность, наблюдательность, любознательность, внимание, решительность, контактность.

Основные характеристики специалиста, обладающего профессиональной компетентностью являются: владение на достаточно высоком уровне собственно профессиональной деятельностью в определенной области; способность проектировать свое профессиональное развитие; умение профессионально общаться; способность нести профессиональную ответственность за результаты своего труда [3, 181].

Педагоги-новаторы успешно используют перечисленные виды учебной деятельности, но с внедрением компетентностного подхода процесс обучения в данном ключе будет осуществляться всеми педагогами. Это позволит готовить специалистов, имеющих знания, умения, навыки по профессии, способных адаптировать их к новым условиям, быть ответственными за будущее страны и делать все, чтобы Узбекистан занял достойное место в мире, а люди реально повысили уровень своего экономического и духовного благосостояния.

Так как, например, изучение любой дисциплины начинается с входного контроля, так и формирование профессиональной компетенции должно начинаться с диагностики и анализа имеющихся знаний, умений, а также потребностей и возможностей студентов. Часто неуспешность студентов в освоении компетенций (академическая неуспешность) кроется в низкой учебной мотивации, обусловленной в числе прочего, отсутствием устойчивого желания приобретения конкретной профессии.

С.С.Савельева отмечает, что компетентностный подход следует признать наиболее отвечающим современному пониманию качества образования в обществе высоких технологий, требующем высокого профессионализма от работников, постоянного совершенствования их профессионального уровня [6, 15].

Следовательно, эффективность формирования профессиональных компетенций обусловлена системой личностных мотивов студентов. Содержательный и практический этапы направлены на формирование системы знаний, умений, практических действий в рамках конкретной профессиональной компетенции на конкретной дисциплине в контексте междисциплинарной преемственности. Так, в рабочих программах преподаватели опираются на уже имеющиеся знания и умения, сформированные на этапе общеобразовательной подготовки абитуриента, или на других дисциплинах, указывают связь отдельных тем и формируемых компетенций с другими дисциплинами.

Компетентностный подход в образовании и предполагает, что для экономических дисциплин важно сформулировать следующие компетенции:

- умение находить и оценивать новые рыночные возможности и формулировать бизнес-идею;
- знание современных систем управления качеством и обеспечения конкурентоспособности;
- способность разрабатывать бизнес-планы;
- способность оценивать воздействие макроэкономической среды;
- проводить оценку инвестиционных проектов;
- способность проводить анализ рыночных и специфических рисков;
- умение применять качественные и количественные методы анализа при принятии управленческих решений и строить экономические, финансовые и организационно-управленческие модели;
- наличие представлений об экономическом образе мышления.

В тематике проектных заданий, предлагаемых в процессе работы, учитывались индивидуальные особенности познавательной деятельности студентов, особенности квалификационных характеристик будущего специалиста, лежащих в основе профессионального обучения, тщательность подготовки преподавателем исходного материала для творческих проектов. Правильный выбор темы с учетом названных требований, а также личностных интересов студентов обеспечивает положительную мотивацию и дифференциацию в обучении, активизирует самостоятельную творческую деятельность при выполнении проекта и более четко ориентирует на осваиваемую компетенцию.

Формами реализации включения студентов в процесс творческого усвоения необходимых знаний и умений являются творческие проекты, а также моделирование профессиональной деятельности в виде игр. Связано это с тем, что студенты, у которых с помощью участия в творческих проектах формируется активное, заинтересованное отношение к будущей профессиональной деятельности, должно получить дальнейшее логическое продолжение в формировании опыта применения сформированных знаний. Ведь способность к переносу знаний и умений в новые области профессиональной деятельности составляет основу компетентности специалиста. Необходимость внедрения в учебный процесс подготовки специалистов экономики интеграции теоретических и практических занятий на основе формируемых компетенций основана на общности целей, содержания и методов обучения, что подтверждает актуальность введения методов творческих проектов, моделирования профессиональной деятельности, направленной на усвоение профессиональных знаний, умений, навыков. В процессе исследования выявлены основные педагогические условия, определяющие профессиональное становление будущего специалиста в области экономики, основанные на последовательном развитии активности студентов — от активизации студентов на лекционных занятиях до участия в творческих проектах и моделировании профессиональной деятельности.

Современный руководитель-новатор не может сформироваться сам по себе как природный талант либо в результате проведения какой-либо одной «крупной акции». Действующая же практика, а вернее отсутствие комплексной системы формирования и развития управленцев не обеспечивает решения этой задачи для конкретных отраслей экономики. Необходимы планомерные усилия по организации обучения управленческих кадров в вузах с учетом требований, предъявляемых сегодня к профессиональным и личным качествам управленцев применительно к реальному сектору экономики.

Анализ текущей практики использования игровых технологий при применении компетентностного подхода в профессиональном образовании позволил сделать некоторые выводы:

1. Игровые технологии дают возможность повысить у обучающихся интерес к учебным занятиям, позволяют усвоить большее количество информации, основанной на примерах конкретной деятельности, моделируемой в игре.

2. В процессе игры студенты учатся принимать ответственные решения в сложных ситуациях, что поможет им лучше ориентироваться в профессиональной деятельности.

3. В процессе преподавания была выявлена возможность использовать деловые игры как после ознакомления студентов с теоретическим материалом, так и до проведения соответствующей лекции, а также на обобщающих занятиях.

4. В ходе проведения деловой игры студенты могут играть как активную роль (руководителя отдела, директора фирмы, специалиста-консультанта, сотрудника отдела и т.д.), так и пассивную. В этом случае студент выступает в роли наблюдателя, выполняя контрольно-учетные функции и задавая тем самым информационную базу для последующего анализа в подведения итогов игры.

5. Игры могут применяться на дисциплинах любого цикла. Формировать профессиональные компетенции студентов-экономистов посредством проведения деловых игр можно и при изучении совсем не экономических дисциплин (например, иностранного языка).

6. Когда игры проводятся систематически и на различных дисциплинах, можно предложить студентам (предварительно объяснив технологию построения игр) самостоятельно смоделировать игровую ситуацию по сложно воспринимаемой теме, сформулировать цель, задачи, правила игры. Практика показала, что после такой работы доля студентов, усвоивших тему, значительно увеличивается.

Заключение. Таким образом, правильно подобранные деловые игры являются эффективным и незаменимым средством формирования и развития профессиональных компетенций в процессе обучения студентов экономических специальностей, т.к. способствуют лучшему и более глубокому усвоению информации, формирует устойчивый интерес к экономической сфере общественной жизни и выбранной специальности.

Формирование профессиональной компетентности будущих экономистов это процесс, направленный на усиленную совместную деятельность преподавателя и студентов в процессе профессиональной учебы, использования усовершенствованных содержания, методов, средств и форм учебы, направленных на формирование комплекса ключевых компетенций для данного вида деятельности и профессиональной компетентности

В инновационной экономике инвестиции в человека представляют собой лишь возможные выгоды в будущем, поэтому формирование потенциала управленца и развитие его профессиональных компетенций должно вестись непрерывно и реализовываться через реальные механизмы эффективного использования как в учебных заведениях, так и непосредственно на предприятиях.

Литература:

1. Эркин ва фаровон, демократии Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимида киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ /Ш.М. Мирзиёев. - Тошкент: «Ўзбекистан» НМИУ, 2016. – 56 б.

2. Алексейчева Е.Ю. Экономика организации (предприятия) (электронный ресурс) / Е.Ю.Алексейчева. – 2-е изд. – М.: ИТК «Дашков И.К.», 2016. – 292 с.

3. Глоссарий современного образования / Нар. укр. акад.; под общ. ред. Е.Ю.Усик; [сост.: Астахова В.И. и др.] – 2-е изд., перераб. и доп. – Харьков: Изд-во НУА, 2014. – 532 с.

4. Иванов Д.А. Компетентности и компетентностный подход в современном образовании / Дмитрий Иванов. - М.: Чистые пруды, 2007. - 32 с. - (Библиотечка «Первого сентября», серия «Воспитание. Образование. Педагогика».

5. Пантюк И.В. Профессиональные компетенции специалиста по социальной работе: учебное пособие / И.В.Пантюк. – Мн., 2011. – 304 с.

6. Савельева С.С. Профессиональная компетентность учителя XXI века: учебное пособие / С. С. Савельева. – Коломна: Коломенский государственный педагогический институт, 2008. – 88 с.

TA'LIM MENEJMENTI

БАЙБАЕВА Мухайё Худайбергеновна

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика
университети “Педагогика” кафедраси профессор в.б.,
педагогика фанлари номзоди

ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ РАЎБАРЛАРИНИНГ БОШҚАРУВ ФАОЛИЯТИДА КАСБИЙ ИЖОДКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АКМЕОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Ушбу мақолада раўбарларнинг бошқарув фаолиятида касбий ижодкорлигини ривожлантиришнинг акмеологик хусусиятлари ҳақида маълумотлар ёритилган. Шунингдек, мақолада раўбарнинг касбий ижодкорлигининг акмеологик мезонлари, омилларини ўрганиш ва уни мақбул даражада ривожлантириш, раўбарларнинг касбий ўз-ўзини англаш мезонига мувофиқ касбий ижодкорлиги ривожланиш даражаларининг акмеологик кўрсаткичлари, касбий маҳорат, ходимлар билан ўзаро муносабатлари, ижодий муаммоларни ҳал қилиш, раўбар фаолиятида илмий ва интеллектуал изланиш, ҳақида ҳам маълумотлар кенг ёритилган.

Калит сўзлар: раўбар, фаолият, тизим, функция, ижодий ривожланиш, компетенция, мезон, даража, маҳорат, муносабат.

АКМЕОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ТВОРЧЕСТВА В УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

В данной статье освещены сведения об акмеологических особенностях развития профессионального творчества руководителей в управленческой деятельности. В статье также широко освещаются вопросы изучения акмеологических критериев, факторов профессионального творчества руководителя и его оптимального развития, акмеологических показателей уровней развития профессионального творчества руководителей в соответствии с критерием профессиональной самореализации, профессиональной компетентности, взаимодействия с персоналом, решения творческих задач, научного и интеллектуального поиска в деятельности руководителя.

Ключевые слова: руководитель, деятельность, система, функция, творческое развитие, компетентность, критерий, уровень, умение, отношение.

ACMEOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PROFESSIONAL CREATIVITY DEVELOPMENT IN ADMINISTRATIVE ACTIVITY OF EDUCATIONAL INSTITUTION LEADERS

This article highlights the information about the acmeological peculiarities of managers' professional creativity development in managerial activity. The article also widely covers the issues of studying acmeological criteria, factors of manager's professional creativity and its optimal development, acmeological indicators of levels of manager's professional creativity development in accordance with the criteria of professional self-realization, professional competence, interaction with personnel, creative problem solving, scientific and intellectual search in manager's activity.

Keywords: manager, activity, system, function, creative development, competence, criterion, level, skill, attitude.

Кириш. Бошқарув - мураккаб касблардан бири бўлиб, у нафақат иқтисодий, ижтимоий ва психологик билимларни назарий жиҳатдан, балки амалий жиҳатдан ҳам ўзлаштирган ҳолда етарли тайёргарликка эга бўлишликни талаб этади. Бунда умумий, техник, иқтисодий, тадбиркорлик ва ташкилотчилик қобилиятларига эга бўлиш билан бирга, раўбар барча ҳақиқатларни тушуниш орқали кўп қиррали вазиятларда, шароитларда ўз қиёфасини амалий тарзда тўғри ифода эта олишни билиши зарур. Ваҳоланки, раўбар томонидан олиб бориладиган бошқарув жараёнини мақсадга мувофиқ равишда амалга ошириш учун қиёфанинг роли ҳам катта аҳамиятга эга бўлади. Таъкидлаб ўтиш

жоизки, раҳбар шахсининг барча қобилиятларини мукамаллаштириш бошқарувда қанчалик аҳамият касб этса, раҳбарда қиёфани махсус шакллантириш билан касбий ижодкорликни ривожлантириш камолотга эришиш ҳам шунчалик муҳим. [1, 15-16 б.].

Асосий қисм. Бошқариш - бу ўз қўл остидаги ходимларни муваффақиятларга эришишга раҳбарлик қилиш экан, у аниқ мақсадга эришиш билан бевосита боғлиқ. Шундай қилиб, аниқ мақсад ва унга эришиш йўлида раҳбарнинг акмеологик хусусиятлар орқали касбий ижодкорлигини шаклланиши муваффақият ҳисобланади. Муваффақият деганда жамият томонидан тан олинган бошқарувнинг яхши натижаларга эришиш тушунилади. Муваффақият қуйидаги элементларни қамраб олади:

1. Фаолият билан боғлиқ реал мақсадни аниқлаш;
2. Уни жамият томонидан тан олинishi;
3. Яхши натижага эришиши. [3, 20-22 б.].

Бошқарув жараёни мақсадга эришиш йўлида одатда раҳбар фаолиятида кўпгина қийинчиликлар, тўсиқлар, муаммоларга дуч келиш мумкин. Бу муаммоларни муваффақиятли ҳал этгандагина раҳбар акмеологик хусусиятлар орқали бошқарув фаолиятида кутилган натижага эришиши мумкин.

Акмеология (грекча «акме - чўкки, юксалиш, юкори поғона, гуркиратувчи куч» маъноларини билдиради) - илму-фаннинг шундай янги тармоғи, у инсонни ўз тараққиёти динамикасида, такомили ҳамда ҳаёт-фаолиятининг турли босқичларида ўзидаги энг кучли қобилиятларини намоён қилишининг комплекс масалаларини ўрганади. Яъни, у шахсни ўз такомили жараёнида, ана шу тараққиёт ва юксалишининг объектив ҳамда субъектив омиллари доирасида тадқиқ этади. Акмеология тушунчаси фанга биринчи марта рус олими Н.Рыбников томонидан 1928 йилда киритилган бўлиб, унинг ўзи бу фан предметини етук инсонларнинг шаклланиши жараёнидир, деб таърифлаган эди. Уларнинг таъкидлашларича, инсоннинг ижодий касбий салоҳияти бўлиб, у инсон томонидан ўзига иноят этилган барча имкониятлар ва иқтидорни қандай қилиб, қандай шарт-шароитларда, қайси қонуниятлар таъсирида рўёбга чиқаришини комплекс тарзда ўрганади. Акмеология фанининг асосий вазифаси шахсни турли фаолият жараёнларида, хусусан, танлаган касб-кори, ихтисослиги доирасида ўз ижодий салоҳиятини тўда очиш ва амалда намоёиш этишига боғлиқ бўлган билимлар, амалий кўникмалар, малакалар, технологиялар билан таъминлаш, таништиришдир. [7, 3-12 б.].

Таълим тизими бошқарувчилари табиатини ўзгартирадиган, улар шахсини таркиб топишига таъсир қиладиган кучли ижтимоий омиллардан бири - бу акмеологик мотивациядир. Аниқланишича, раҳбар шахсининг таркиб топишига таъсир қилувчи кучли омил - инсон орттирган тажрибаларнинг тарбия воситаси орқали инсонларга берилиши ҳодисасидир.

Маълумки, раҳбар шахси жуда мураккаб психологик феномен бўлиб, у раҳбарнинг индивидуал ҳаёти давомида маълум конкрет омилларнинг таъсири остида аста-секин таркиб топади. Раҳбарнинг ижтимоий функцияси муайян акмеологик мақсадларга ва қадриятларга йўналганлик шахсни фаоллаштиради. Ижтимоий мақом, рол, қадриятга йўналганлик бирламчи раҳбар хусусиятларини ташкил этиб, унинг тузилишида асос бўлиб хизмат қилади. Раҳбарнинг таърифи хулқ мотивацияси хусусияти ва ижтимоий феъл-атвор тузилишини белгилаб, унинг таркибидан иккиламчи аломатлар сифатида жой эгаллайди. Раҳбарнинг мақсадга қаратилган ижтимоий фойдали фаолияти жараёнида ҳаётий деб аталадиган механизмлари ва онгли фаолиятининг функционал тизими юзага келади. Ана шулар туфайли раҳбар билимларни, кўникма ва малакаларни, ижтимоий тажрибаларини ўзлаштирибгина қолмай балки ўзининг идроки, тафаккури, ҳаёли, хиссиётлари ва иродасини бир сўз билан айтганда, бошқарув жараёнига бўлган онгли муносабатини ҳамда ўз хатти-ҳаракатлари ва хулқ-атворининг мотивларини таркиб топтиради.

Раҳбарнинг амалий фаолияти жараёнида касбий ижодкорлигини ривожлантириш зарурати нафақат бутун ташкилот фаолияти самарадорлиги, балки унинг ўзи ҳам, ходимларининг ривожланиши билан ҳам белгиланади. Бундан ташқари, жадал, тез ўзгариб турадиган жамият раҳбардан ўзини ривожлантириш ва такомиллаштиришни талаб қилади. Шунинг учун раҳбарнинг касбий ижодкорлигининг акмеологик мезонлари ва омилларини ўрганиш ва уни мақбул даражада ривожлантириш жуда муҳимдир. Раҳбарнинг шахсий салоҳиятини оширишнинг асосий акмеологик шартларидан бири бу касбий ижоддаги қарама-қаршиликларни акмеологик асослаш ва ҳал этиш, раҳбар шахсининг ижодий қобилиятларини ривожлантириш, раҳбарнинг ижодий шахсини акмеологик ўрганиш, шакллантириш ва ривожлантириш. [8, 30-32 б.].

Раҳбарнинг акмеологик хусусиятлари, муносабатлари, касбий ижодий ривожланиши ва хатти-ҳаракатлари унинг касбий фаолиятида маълум ролни бажарувчи ва ҳар бири мураккаб жараёндан

иборат бўлган ҳамда шартли равишда тўртта ўзаро мустаҳкам боғланган функционал босқичларга бирлаштирилади:

- бошқарув тизими;
- стимуллаштириш тизими;
- стабилизациялаш тизими;
- индикациялаш тизими.

Ўрганилаётган мавзунини ўқиб ўқилиши мумкин: ижодкорликни ўрганишда умумий психологик ёндашув; ижодкорликнинг қуйидаги ҳодисалар билан алоқаси: меҳнатга ижодий муносабат, ижодий фикрлаш, ижодкорлик, ижодий йўналиш; раҳбарнинг ижодкорлиги ва касбий фаолияти, унинг касбий маҳорати ва касбий маҳоратининг ўзаро таъсири.

Ушбу йўналишлар бўйича қуйидагилар аниқланди:

- ижодкорлик раҳбарнинг тафаккури билан узвий боғлиқдир ва дизайн билан янги маданий, моддий қадриятларни яратиш жараёнидир; у ўзига хослиги ва ижтимоий-тарихийлиги билан ажралиб турадиган сифат жиҳатидан янгисини яратадиган ижодий фаолият сифатида қаралади;

- ижодий фикрлаш маълум психологик фазилатларга эга бўлиб, ҳар қандай раҳбарнинг ижодий салоҳияти ва қобилиятлари туфайли шаклланади ва ривожланади, бу аввало раҳбарнинг ижодий йўналиши ва унинг меҳнатга бўлган муносабатида намоён бўлади;

- бошқарув ижодкорлиги - бу ҳам ишлаб чиқарувчи, ҳам репродуктив элементларнинг мавжудлиги билан тавсифланадиган бошқарув фаолияти муаммоларини ижодий ҳал этиш жараёни.

Раҳбарнинг касбий ижодий ривожланиши касбий маҳорат, самарали шахсий ва касбий ўсиш, шахсий касбий маҳорат, профессионал раҳбарнинг субъектив шартлари ва ривожланиш омилларини ўрганиш нуқтаи назаридан ишлаб чиқилади.

Раҳбарнинг ижтимоий аҳамиятга эга бўлган барча акмеологик сифатлари ижтимоий тараққиётнинг юксак онгли фаолиятчиси сифатида бошқарувчи кадрлар акмеологик компетентлигини шаклланишига таъсир кўрсатувчи раҳбар мотивациясининг хусусиятлари, уларнинг ҳуқ-атвори ва хатти-ҳаракатлари моҳиятини белгилайди.

Раҳбарнинг касбий ижодкорлиги ривожланишининг акмеологик хусусиятларига асосан ривожланиш даражалари кўрсаткичлари, ни акмеологик шароит, касбий ижодкорлигини ривожланишини таъминловчи омилларни ҳисобга оладиган бўлса, бошқарув жараёни янада самарали бўлади.

Раҳбарнинг касбий ижодкорлигини ривожлантиришнинг акмеологик хусусиятларини ўрганиш бошқарув фаолиятини оптималлаштиришга эришиш учун кенг қамровли стратегияни яратишга ёрдам беради.

Раҳбарнинг касбий ижодиёти жараёнида бошқарув вазифаларини юқори даражада самарали ҳал этиш мақсадида ўқиб ўқилиши йўналишларига эга бўлиши мумкин: 1) ўз фаолияти ва унинг шахсий ва касбий ривожланиши, шу жумладан: рефлексив ўзини ўзи бошқариш билан бошқарувчи акс эттириш; профессионал ўзини англаш; аутопсихологик компетенция, ижодий қобилиятлар; 2) ходимларнинг шахсий ва касбий ривожланиши, шу жумладан шахслараро акс эттириш; профессионал алоқа; раҳбарнинг мавқеи; ижодий салоҳият; акмеологик билим ва ходимлар билан ўзаро муносабати; 3) раҳбар сифатида ходимларни бошқарувчанлик фаолияти, шу жумладан: интеллектуал акс эттириш, касбий фикрлаш, маълум бир фаолият соҳасидаги раҳбар ва мутахассиснинг касбий билим ва тажрибаси, меҳнатга ижодий муносабат ва акмеологик маданият. [11, 27-30 б.].

Раҳбарнинг касбий ижодкорлигининг акмеологик хусусиятлари унинг фаолиятининг махсус тури сифатида тушунишда намоён бўлади, унинг мақсади касбий фаолиятнинг янги маҳсулотини яратишдир. Ушбу фаолият натижалари қуйидагилардир: моддий - касбий муаммоларни ҳал қилишнинг янги усули ёки янги касбий ҳаракатлар ва ма'навий - касбий вазиятларни таҳлил қилиш, адолатли қарорлар қабул қилиш ва бу жараёнда - касбий ўзини-ўзи ривожлантириш, касбий маҳоратни ошириш. [6, 27-33].

Раҳбарнинг акмеологик хусусиятларга асосан касбий ижодий ривожланиши шакллари қуйидагилардан иборат:

- 1) илгари бошқарув амалиётида бўлмаган, янги;
- 2) маълум бир раҳбар учун янги, аммо бошқарув амалиётида мавжуд;
- 3) касбий фаолиятнинг эски усуллари, шакллари.

Раҳбарнинг касбий ижодиётининг муҳим хусусиятлари қуйидагилардан иборат: ижодий жараённинг объектив шартлилиги; ижодий касбий фаолиятда мотивацион, ҳиссий-иродавий, интеллектуал, жисмоний, биоэнергетик ва амалий компонентларнинг бирлиги; профессионал ижодкорликнинг муаммоли вазиятининг шартлилиги; ностандарт, ўзига хос, мақбул, оқилона

техника воситалардан фойдаланиш, касбий фаолият субъектининг пайдо бўлаётган ижодий махсус вазифаларни ҳал қилишнинг янги усулини излашга ва уларни касбий фаолиятда амалга оширишга йўналтирилганлиги. [5, 56-58].

Раҳбарларнинг касбий ўз-ўзини англаш мезонига мувофиқ касбий ижодкорлиги ривожланиш даражаларининг акмеологик кўрсаткичлари қуйидагилардан иборат:

- 1) касбий ўз-ўзини англашнинг таркибий қисмлари;
- 2) касбий ўз-ўзини англаш таркибий қисмларининг ривожланиш даражаси етарли, бу ўз-ўзини англаш ва касбий маҳоратнинг тўлиқ ривожланмаганлигига олиб келади;
- 3) ўзини-ўзи англашда намоён бўладиган касбий ўз-ўзини англаш таркибий қисмларининг мақбул ривожланиши, ўз-ўзини англаш ва касбий маҳоратнинг юқори даражада ривожланиши; акмеологик билим мезонига ва ходимлар билан ўзаро муносабатларига

Раҳбардаги ижодий муаммоларни ҳал қилиш тажрибасига кўра:

- 1) ўхшаш вазиятларда кўпинча устун бўлган муваффақиятли раҳбарларга тақлид қилиш, уларнинг ҳаракатларига тақлид қилиш;
 - 2) ўз синов ва хатоси усули,
 - 3) раҳбар фаолиятида илмий ва интеллектуал излаш.
- Раҳбарнинг профессионал мулоқот мезонлари бўйича:
- ҳамкасблар билан мулоқот қилишда қизиқишнинг йўқлиги;
 - монологик мулоқот;
 - профессионал диалог.

Раҳбар муаммоларини ҳал қилиш хусусиятлари сифатида профессионал фикрлаш мезонига кўра:

- 1) қарор қабул қилишда адолатлилик, башорат қилишнинг пастлиги;
- 2) қарорларни қабул қилишдаги номувофиқлик, вазиятни башорат қилиш;
- 3) юқори даражада ривожланган аналитик кўникмалар ва когнитив рефлексивлик, тизимли башорат қилиш ва кўп контекстли, когнитив умидсизликка юқори қаршилик; раҳбар шахсининг ижодий салоҳиятини рўёбга чиқариш. [2, 34-36 б].

Раҳбарларнинг касбий ижодкорлигини ривожлантиришни таъминлайдиган қуйидаги акмеологик омиллар ҳақиқатан ҳам бошқарув фаолиятига самарадорлик даражасини оширишга таъсир қилади. Раҳбарнинг касбий ижодкорлигини ривожлантириш жараёнини акмеологик қўллаб-қувватлаш бошқарув фаолиятини оптималлаштиришга ҳисса қўшади.

Хулоса. Шундай қилиб, раҳбарнинг бошқарув фаолиятида касбий ижодий ривожланиши ва акмеология хусусиятлари орқали юксак малакали бошқарув кадрларини тайёрлаш жараёнида акмеологик мотивация ва компетенция (билимдонлик, маҳорат) масалаларига комплекс ёндашган тарздагина таълим тизими бошқарувчисини жамиятда ижтимоий мақомининг устувор қирраларини очиқ бериши мумкин бўлади.

Адабиётлар:

1. Аъзамхўжаев Э.А. Муомала маромининг ёш хусусиятлари ва динамикаси дисс.... Т.: 2002, 15-16 б.
2. Н.Боймуродов. Раҳбар психологияси. Т.: Янги аср авлоди 2007, 34-36 б.
3. Каримова В.М. Психология / Ўқув қўлланма. – Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2002, 20-22 б.
4. Аникеева, Н.П. Психологический климат в коллективе / Н.П. Аникеева. – М.: Просвещение, 1989, 22-24 с.
5. Деркач А.А. Акмеология: личностное и профессиональное развитие человека. Кн. 1-5. Акмеологические основы управленческой деятельности. Кн.2. М., 2000, 56- 58с.
6. Калаков Н.И. Общенаучная концепция развития военно-акмеологического творчества. Москва-Ульяновск, 2001, 27-33с.
7. Клищевская М. В. К проблеме профессионального развития // Вестн. Москва. 2001.-№ 4. С. 3-12.
8. Морозов А. Н. Формирование эффективного стиля управленческой деятельности руководителя: Автореф. дис. канд.психол.наук.-М.,1998, 30-32 с.
9. Смолкин, А.М. Менеджмент: основы организации // Учебник / Отв. Редактор С.М. Рыловский. – М.: ИНФРА, 2004, 23-25 с.
10. Тейлор, Ф. Принципы научного менеджмента / Ф. Тейлор. Перс англ. – М: Контроллинг, 2007, 31-34 с.
11. Шакуров, Р.Х. Социально-психологические основы управления: руководство и педагогический коллектив. – М.: Просвещение, 1990, 27-30 с.

УТАМУРАДОВА Гулчехра Норбоевна

Жиззах давлат педагогика университети катта
ўқитувчиси

ТАЪЛИМ МЕНЕЖМЕНТИДА ШАХС КОМПЕТЕНТЛИГИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИНИНГ ПЕДАГОГИК МУНОСАБАТЛАРИ

Мақолада таълим менежментида шахс компетентлигининг ижтимоий психологик жиҳатларини педагогик муносабатлари, мамлакатимизда таълим-тарбия соҳасига давлат сиёсати даражасида алоҳида эътибор қаратилиб, ўз навбатида кадрлар тайёрлаш соҳаси олдида таълим муассасалари фаолияти самарадорлигини замонавий талаблар асосида ошириш вазифалари ёритиб берилган.

Калит сўзлар: менежмент, капитал, замонавий талаб, бошқариш механизмлари, сифатли таълим, касбий компетентлик.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСТАНОВКИ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ЛИЧНОСТНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В УПРАВЛЕНИИ ОБРАЗОВАНИЕМ

В статье выделены педагогические взаимосвязи социально-психологических аспектов личностной компетентности в управлении образованием, и особое внимание уделяется сфере образования в нашей стране на уровне государственной политики, и, в свою очередь, задачам повышения эффективности образовательных учреждений, основанным на современных требованиях в области подготовки кадров.

Ключевые слова: управление, капитал, современный спрос, механизмы управления, качественное образование, профессиональная компетентность.

PEDAGOGICAL SETTINGS SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PERSONAL COMPETENCE IN EDUCATIONAL MANAGEMENT

The article deals with the pedagogical relationships of the socio-psychological aspects of personal competence in the management of education and special attention is paid to the field of education in our country at the level of state policy, and in turn, the tasks of improving the efficiency of educational institutions based on modern requirements in the field of personnel training.

Key words: management, capital, modern demand, management mechanisms, quality education, professional competence.

Кириш. Таълим ва тарбия энг ноёб капитал сифатида кадрланаётган бугунги шароитда таълим натижаларини баҳолаш самарадорлигини ошириш ва усуллариини такомиллаштириш механизмларини жорий этиш орқали барча инсонлар учун сифатли таълим олиш имкониятлари яратилмоқда. Мамлакатимизда таълим-тарбия соҳасига давлат сиёсати даражасида алоҳида эътибор қаратилиб келинмоқда. Бу эса ўз навбатида кадрлар тайёрлаш соҳаси олдида таълим муассасалари фаолияти самарадорлигини замонавий талаблар асосида ошириш вазифасини қўймоқда. Шу сабабли ҳам бугунги кунда бўлажак мутахассисларни юксак касбий салоҳият ва инсоний сифатларга эга бўлиши талаб этилади. Р.Х.Жўраев ва С.Т.Турғуновларнинг фикрича, таълим менежментининг асосий мақсади таълим-тарбия жараёни иштирокчилари фаолиятини мувофиқлаштириш, назорат қилиш ҳамда самарали бошқаришни таъминлашдан иборат.

Асосий қисм. Жаҳон амалиётида муайян мутахассислар касбий компетентлигини такомиллаштириш бўйича олиб борилаётган илмий изланишларда таълим бошқаруви натижавийлигига алоҳида эътибор берилган бўлиб, бунда асосий урғу таълим сифати менежментига қаратилмоқда. Бу йўналишдаги илмий изланишлар олий таълим тизимини бошқаришнинг назарий-методологик асослари, сифат менежменти ва таълим сифати мониторингини замонавий талаблар асосида такомиллаштириш ҳамда таълим сифати ва самарадорлиги уйғунлигини илмий жиҳатдан асословчи таклифларни ишлаб чиқиш, олий таълим сифатини баҳолаш тизимини такомиллаштириш масалаларига қаратилган. Республикаимизда кадрлар тайёрлаш соҳасида амалга оширилаётган узлуксиз таълим тизимидаги ислохотлар таълим жараёнларини ташкил этиш ва бошқариш

механизмларини такомиллаштиришни, ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг замонавий талабларига мос келадиган, демократик ва инсонпарварлик тамойилларига асосланган таълим сифати бошқарувини шакллантиришни тақозо этмоқда.

Жаҳонда таълим менежменти йўналишидаги тадқиқотларда раҳбар шахси ёки фаолиятига компетенциялар ва компетентлик контекстида - бошқарув компетентлиги, акмеологик компетентлик, коммуникатив компетентлик, профессионал компетентлик, ижтимоий-психологик компетентлик, ижтимоий-перцептив компетентлик, ижтимоий компетентлик, конфликтли компетентлик, этномаданий компетентлик масалалари бўйича “мотивацион-кадриятли”, “социо-антропологик”, “хулқ атворли”, “интеграл”, “ордерли”, “ярим тизимли”, “кибернетик” ва “рақамли трансформациявий” таҳлил услубларида изланишлар олиб борилмоқда. Раҳбар психологик компетентлигини моделлаштириш, хусусан, олий таълим муассасаси ўрта бўғин раҳбари психологик компетентлигини оптималлаштиришнинг комплекс моделини яратиш алоҳида тадқиқот муаммоси саналади.

Шу боис ҳам ижтимоий психология фани ўз олдига юқоридаги муаммолар ечимини топишда назарий-мавҳум фикрлашдан амалийликка ўтиш заруратини кўйиб, бошқарувчи субъектлар фаолияти муаммосини, яъни шахснинг касби ва мутахассислигидан қатъий назар, жамиятнинг фаол аъзоси сифатида билиши лозим бўлган, мантиқан яхлит дунёқарашга эга бўлиши учун идрок эта олиши шарт саналган, табиат ва жамиятнинг иқтисодий қиёфаси ва унинг динамикасини кўра, тушуна ва баҳолай олиш қobiliятини, бир сўз билан айтганда, психологик компетентлигининг ҳам амалий, ҳам назарий жиҳатларини этнопсихологик кадриятлар доирасида ўрганишни тақозо этмоқда. Шу жиҳатдан ҳам психологик компетентлик:

- мега (халқаро ташкилотлар, трансмиллий корпорациялар);
- макро (давлатнинг марказий органлари, жумладан вазирликлар);
- мезо (марказга бўйсунувчи ташкилотлар, жумладан, ижтимоий институтлар, уюшмалар, бирлашмалар);
- микро (бошланғич ташкилотлар ва кичик гуруҳлардаги шахслараро мулоқот) даражалардаги муносабатлар тизимида кўринади.

Таълим сифатини бошқариш таълимни бошқаришнинг умумий тузилмаси таркибига киради ва унинг самарадорлиги таълимнинг умумий бошқарувини сезиларли даражада ошишини таъминлаши мумкин бўлган тузилма ҳисобланади. Шунинг учун ҳам таълим сифати менежменти таълим тизимидаги бошқарув фаолиятининг мавжуд назарияси ва амалиётини муҳим элементлар билан тўлдиради ва самарали натижавийлигини таъминлайди.

Ўз вақтида Шарқ мутафаккирлари ҳам раҳбарлиқнинг ўзига хос хусусиятлари ҳақида фикр юритганлар. Жумладан, IX-X асрларда яшаб ўтган буюк файласуф Абу Наср Фаробий ўзининг “Фозил одамлар шаҳри” асарида раҳбарлиқнинг ўзига хос жиҳатлари ҳақида фикр юритган. Абу Наср Фаробий ўз асарида “Жамиятда адолат ўрнатиш, шаҳар давлатни бошқариш йўллари, шаҳар ҳокими қандай бўлиш лозимлиги, раҳбар учун зарур бўлган хислатлар” ҳақида қимматли фикрмулоҳазалар келтирилган.

Абу Наср Фаробийнинг фикрича, “раҳбар учун энг муҳими - бу донишмандлик”, дея эътироф этган. Бугунги кунда барча соҳада ишларни олиб боровчи олимлар таълим менежментининг бир қатор ўзига хос хусусиятларига эга эканлигини таъкидламоқдалар. Жумладан, Ходжаев Б.Х. куйидаги фикрларни ифодалайди:

- таълим менежментини “мақсадга мувофиқлик” сўзи билан аниқланадиган маънавий ўлчовга эга;
- таълим менежменти - бу фан ва санъат, чунки бунда инсонлар ўртасидаги ўзаро муносабатлар катта роль ўйнайди;
- менежмент мазмунида ўз аксини топадиган шахс, давлат ва жамият манфаатларига ўзаро диалектик бирлик жамоатчиликнинг фаол қатнашуви;
- таълимни бошқаришда жамоатчиликнинг фаол қатнашуви.

Бугунги мактаб раҳбарларининг компетентлиги йўналишидаги баъзи камчиликлари ҳақида ҳам касбдошлар билан фикрлашмоқдамиз буларга куйидаги камчиликларни киритиш мумкин:

- мактабда бошқарув ишларининг талаб даражасида эмаслиги;
- фидойилик, ижодкорлик, билимдонлик, илмийлик, креативлиқнинг етишмаслиги;
- ҳуқуқий маданият ва саводхонлиқнинг пастлиги; - адолатлилик, ҳалоллик ва инсофлиқнинг етишмаслиги;
- ижодий ва ижтимоий фаолиятнинг етишмаслиги; - иш жараёнида маҳаллийчилик ва уруғаймоқчиликнинг устуворлиги;

- методик бирлашмаларга эътибор бермаслиги, ташаббускорлик ва тадбиркорликнинг йўқлиги;
- мактаб жамоа ишларини ходимларга нотўғри тақсимлаш ва назоратнинг пастлиги;
- касбий ва илмий тажрибага эга эмаслиги;
- ўз атрофига соғлом кишиларни тўплай олмаслиги;
- ўз манфаатини бошқалар манфаатидан устун қўйиши.

Келтирилган камчиликларни бартараф этиш мақсадида муаллифларнинг кўп йиллик педагогик шахс сифатида қуйидагиларни тавсия этамиз:

1. Бугунги раҳбар ўз мутахассислигини билган олий маълумотга эга бўлган камида беш йиллик педагогик маҳоратга эга бўлиши мақсадга мувофиқ.

2. Бугунги раҳбар изланувчан, яратувчан, янгиликка интилувчан бўлиши, педагогик жамоага ўрнак бўлиши.

3. Педагогик раҳбар ўрнини педагогик, психологик, методик малакасини доимо ошириб бориши зарур.

4. Педагог раҳбар оила, маҳалла ва мактаб ўртасида ҳамкорликни таъминлаши зарур.

5. Бугунги раҳбар ўқитувчилар ва ўқувчиларга ҳамда уларнинг ота-оналарига одоб-ахлоқ нормалари асосида мулоқот маданиятига эга бўлиши зарур.

6. Мактаб ва туман миқёсида бўладиган маънавий-маърифий тадбирлар, фан кечалари ва фан олимпиадаларида бош - қош бўлиши.

7. Педагогик раҳбар фидойилик масъулятлилик, жамоа манфаати йўлида жонқўяр, ўзгаларга талабчан ва намуна бўлиши лозим.

8. Раҳбар сезгир бўлиши жамоатчиликни эртанги кунга ишонтириши ва янги ислохотлар сари эргаштира олиши лозим.

9. Бугунги бозор иқтисодиёти шароитида жамиятимизда ва бутун дунёда бўлаётган ҳар қандай воқеаларга нисбатан тўғри фикрлашни ўргата олиш қобилиятига эга бўлиши.

Жамоатчилик фаолияти шахснинг хусусиятлари сифатида намоён бўлади ҳамда инсон ва жамият манфаатларини, мақсадларининг бирдамлигини ифодалайди. У ўз таркибига меҳнат ва жамоатчилик фаоллиги, бурч ва жавобгарлик туйғуси, дўстлик, ҳамкорлик, ўзаро ёрдам, жамоа ва бутун жамият манфаатлари йўлида бошқаларга ва ўзига талабчанлик туйғуларини қамраб олади. Жамоада соғлом муҳитни вужудга келтиришнинг яна бир муҳим хоссаси меҳнатга масъулият билан қараш фазилатларини шакллантиришдир.

Этика (ахлоқ) дейилганда ижтимоий ҳаёт жараёнида рўёбга чиқариладиган универсал ва ўзига хос ахлоқий талаблар ва хулқ-атвор меъёрлари тизими назарда тутилади. Шундай экан, ахлоқнинг муҳим таркибий қисмларидан бўлган меҳнатга масъулиятли муносабатнинг асосий белгилари беғаразлик, меҳнат мажбуриятларига онгли, масъулиятли ёндашиш, интизомлилик, ижодий изланиш, ташаббус, фаолият натижаларини олдиндан кўра билиш ва мустақил қарор қабул қилиш, жамоатчилик ҳамкорлиги, дўстона ёрдам кўрсатишга тайёрлик, ходимларнинг кадр-киммати ва ўзаро ҳурмат туйғусини ривожлантириш ҳисобланади. Ахлоқнинг яна бир хислати онгли интизомдир. Онгли интизом ахлоқнинг таркибий қисми бўлиб, давлат ва жамоатчилик мажбуриятларини тўла бажариш ҳамда ижтимоий ҳаётда инсонларга беғараз ёрдам кўрсатиш ва барча хаттиҳаракатларни умумий қабул қилинган меъёрлар доирасида амалга оширишдир.

Психологияда шахслараро муносабатларни тавсифлашда уларнинг уч таркибий қисми, яъни учта асосий компонентлари кўрсатиб ўтилади: хулқий, эмоционал ва билиш компонентлари. Хулқий компонентлар - сазой-ҳаракат, қилиқ, мимика, имо-ишора, нутқ ва бошқа инсон хулқи билан боғлиқ муносабатлар. Эмоционал компонентлар - эмоционал кечинмалар билан боғлиқ бўлган муносабатлар. Билиш компоненти - бошқаларни ва ўз-ўзини билишга қаратилган психик жараёнлар: сезги, идрок, тасаввур, хотира, тафаккур, ҳаёл ва ҳ.к. Таълим муассасаларида бошқарув фаолиятини ташкил этишда хулқ компоненти етакчи бўлиб, шахслараро муносабатларни тартибга солиб туради. Норматив муносабатларда эса эмоционал компонент тартибга солишчи функцияни бажаради.

Шахслараро муносабатлар мулоқот жараёнида пайдо бўлади ва ривожланади. Мулоқот ҳам ахборотли, ҳам предметли ўзаро таъсир кўрсатишдир. Ўзаро таъсир кўрсатиш, мулоқот, биргаликдаги фаолиятда шахслараро муносабатларда пайдо бўлади ва шаклланади. Улар кенг қўламдаги психик ҳодисаларни: инсонларнинг бир-бирини идрок қилиши ва тушуниши, шахслараро жозибадорлик (ўзига тортиш, мойиллик, симпатия), ўзаро таъсир этишни ифодалайди. Мулоқот жараёнида энг аввало, саломлашиш муҳим аҳамият касб этади, агарда мулоқот иштирокчилари биринчи марта мулоқотда бўлаётган бўлса, албатта, ўзининг кимлигини айтиши, яъни ўзини таништириши зарур ҳисобланади. Шунингдек, мулоқот қандай ташкил этилишига кўра эшитиш ва суҳбатлашиш, танқидни қабул қилиш қоидаларини ва шунингдек, телефонда гаплашиш одобини

билиш мулоқот жараёнига ҳамда мулоқотдан кўзланган мақсадга эришишга ўз таъсирини кўрсатади. Умумий ҳолда оддий кўринишга эга бўлган шахсларро мулоқот жараёни аслида мураккаб жараён бўлиб, инсон ўз ҳаёти давомида ўрганиб боради. Мулоқотнинг психологик жиҳатдан мураккаб хусусиятларга эга эканлигини Б.Ф.Паригин куйидагича таърифлайди: “Мулоқот шу даражада кўп қиррали жараёнки, у бир вақтнинг ўзида индивидларнинг ўзаро таъсир жараёнини, индивидлар ўртасидаги ахборот алмашинуви жараёнини, бир-бирларига ҳамдардлик билдириш жараёнини, шахсларнинг ўзаро бир-бирларини тушуниш жараёнларини ўз ичига олади”.

Бу хусусиятлар замонавий мактаб директори ва педагогик жамоа фаолиятининг методологик асоси бўлиши зарур. Ташқи муҳитни, мавжуд жараёнларни, фаолиятни шундай англаш шахснинг зарурий когнитив томони ҳисобланади ва у инсоннинг креатив, шахсий-интеллектуал сифатларини шакллантириш жараёни, яъни мураккаб рефлексив жараён билан боғлиқ. Шундай қилиб, мураккаб ташкилот ҳисобланган мактабда тартиб-интизомни, уюшқоқлик ва аҳилликни, кўзланган мақсадларга эришишда ҳамкорлик ва яқдилликни жорий этиш ҳамда қўллаб-қувватлаш учун бошқарув зарур.

Хулоса. Юқорида келтирилган фикрларга асосланиб хулоса қилиш мумкинки, замонавий мактаб директорининг бошқарув фаолияти ўзига хос бир фан ва бошқарув санъати ҳисобланади. Мазкур фаолият жараён сифатида меъёрий ва ижодий хусусиятларга эга. Меъёрий хусусиятларга эга деб айтишимизга асосий сабаб, мазкур жараён регламентлаштирилган бўлиб, ўзининг босқичларига, шакл ва методларига, шунингдек, амалга ошириш усулларига эгадир. Ижодий хусусиятлари - бу бошқарувга ижодий муносабатда бўлиш, яъни мазкур жараённи нафақат кенгрок тушунишни, балки илмий асосланган фаолият, сезирлик ва қобилиятни ҳам талаб этади.

Адабиётлар:

1. Адизова Т. М. Бошқарув мулоқоти. - Тошкент: Низомий номли ТДПУ, 2000.
2. Азизхўжаева Н.Н. Укитувчи мутахассислигига тайёрлаш технологияси. - Тошкент: Низомий номли ТДПУ, 2000.
3. Давлетшин М. Г. Замонавий мактаб ўкитувчисининг психологияси. - Тошкент: “Ўкитувчи”, 1999.
4. Джураев Р. Х., Тургунов С. Т. Умумий ўрта таълим муассасаларини бошқаришда менежментнинг асосий тушунчалари. - Тошкент: “Фан”, 2006.
5. Кенжабоев А.Э., Кенжабоева Д.А. Педагог - раҳбарнинг касбий компетентлиги ва педагогик маҳорати./Замонавий таълим./Современное образование /2020, 10 (95)
6. Шамова Т. И., Тюлю Г. М. и другие. Как руководителю школы оценить свою управленческую деятельность. Методические рекомендации. - Москва: МПГУ, 1994.
7. Шарифхўжаев М., Абдуллаев Ё. Менежмент. Дарслик. - Тошкент: “Ўкитувчи”, 2001.

НУСПАТОВ Анвар Насматжонович

Бухоро давлат университети Педагогика
кафедраси ўқитувчиси (PhD)

XVI-XVII АСРЛАРДА БУХОРО ХОНЛИГИДА ИЛМ-ФАН ВА ПЕДАГОГИК ФИКРЛАР ТАРАҚҚИЁТИ

Ушбу мақолада XVI-XVII асрлар Бухоро хонлигининг ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаёти ҳамда ўз даврининг педагогик фикрлар тараққиётида Шайбоний сулоласи вакиллариининг ўтказган таъсири, қиёсий жиҳатдан таҳлил қилинган. Хусусан, XVI-XVII асрлар Бухоро хонлигида шайбонийлар сулоласи ҳукмронлиги давридаги илм-фан, санъат, маданият, таълим ва бошқа соҳалардаги ривожланишининг педагогик шарт-шароитлари тўғрисида далилий фикрлар келтириб ўтилган.

Калим сўзлар: Бухоро, дин, илм, фан, мадраса, педагогик фикр, олим, мутафаккир, шайбоний, маданият.

РАЗВИТИЕ НАУКИ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ МЫСЛИ В БУХАРСКОМ ХАНСТВЕ В XVI-XVII ВЕКАХ

В данной статье описана общественно-политическая и культурная жизнь Бухарского ханства XVI-XVII вв., а также с сравнительной точки зрения анализируется влияние представителей династии Шайбани на развитие педагогических идей того времени. В частности, представлены обоснованные мнения о педагогических условиях развития науки, искусства, культуры, образования и других областях в Бухарском ханстве XVI-XVII вв. в период правления династии Шейбани.

Ключевые слова: Бухара, религия, наука, медресе, педагогическая мысль, учёный, мыслитель, шейбанид, культура.

DEVELOPMENT OF SCIENCE AND PEDAGOGICAL THOUGHT IN BUKHARA KHANATE IN XVI-XVII CENTURIES

This article describes the socio-political and cultural life of the Bukhara Khanate XVI-XVII centuries, and from a comparative point of view analyses the influence of representatives of the Shaybani dynasty on the development of pedagogical ideas of that time. In particular, the author presents well-founded opinions on the pedagogical conditions for the development of science, art, culture, education and other areas in the Bukhara Khanate of the 16th-17th centuries during the reign of the Shaybani dynasty.

Key words: Bukhara, religion, science, madrasah, pedagogical thought, scientist, thinker, shaybani, culture.

Кириш. XVI асрнинг бошларида Ўрта Осиё энг мураккаб, қарама-қаршиликларга бой – ўзаро талашинлар, феодализмнинг инқирози, феодал ҳукмронларнинг маънавий бузилишлари, халқни аёвсиз таланишларнинг кучайиш, оддий меҳнаткаш халқнинг зулмга нисбатан норозиликларини кучайиш даври бўлган. XVI асрда ўзаро урушлар бир авж олиб, бир тўхтаб осойишталик ҳукмронлик қилган пайтда халқнинг ижодий фикрлари, яратувчилик фаолиятлари, таълим ва тарбияга оид фаолиятлари асло сўнмади.

Асосий қисм. Бухорода ислом маданияти раванқ топишининг боиси ислом таълимотининг ўзи бўлса, иккинчи томонда ислом таълимотидаги дин ақидалари ва билим, илм-фан шунчалик чамбарчас боғланган эдики, бундай ҳолатни ҳеч қачон ва ҳеч қайси диний таълимотда учратмаймиз. Бундан узвийлик XVI асрга келиб ўзининг янги босчига чиққанлигини кўрамиз. Исломунос, арабшунос олим америкалик Ф. Роузентал ўзининг “Билим тантанаси” рисоласида ўрта асрда “илм” сўзининг маъноси ва моҳияти ҳақида шундай ёзган: “...илм исломда устунлик қилувчи концепцияларнинг биридир. Бу ҳолат ислом цивилизациясининг турли соҳаларини “илм” аниқлаб беради” [2]. бошқа томонда ислом таълимоти намоёндалари дунёвий илм орқали ҳам инсонни камолотга етказиш

мумкин, ҳалол меҳнат, диний ва дунёвий илмлар Оллоҳ васлига етиши омили деб таълим ва тарбияни ўша даврданок чамбарчас яхлит ҳолда етказишга бел боғлашган.

Ҳақиқатдан ҳам исломдагидек билим олиш бошқа диндорлардан астойдил талаб қилинмаган. Гарчи “илм” деганда дунёвий эмас, балки Куръон ва ҳадислар тушунилса-да, бунга расмий талқин берилса-да, “илм”ни кенг маънода тушунувчилар кўпчиликти ташкил этган. Илм-амал орқали инсоният юқини енгиллатишга ҳаракат қилганлар кўпчилик бўлган.

XVI-XVII асрлар Бухоро хонлигида юзага келган илмий педагогик фикрлар тараққиётининг бирламчи омиллари ўз даврининг мактаб ва мадрасаларидаги ўқиш тизимига бўлган, эътиборнинг кучайганлиги бўлса, иккинчидан, турли йўналишлардаги устоз–шогирд мактабларининг ривожланганлиги бу даврда илмий педагогик ғояларнинг пайдо бўлиши ва ривожланишига, сабаб бўлган. Бу масалалар ўз даврининг қомусий асарларидан бири бўлган “Бадоеъул вақоеъ”да келтирилган тарихий маълумотлар мазмунида ўз аксини топади.

XVI-XVII асрга келиб бутун Бухоро хонлигида, айниқса, мамлакатнинг маданият ва илм фан марказлари бўлган, Бухоро ва Самарқанд шаҳарларида шоирлик, ҳадисшунослик, тарихнавислик, нотиклик, котиблик, табиблик, китобдорлик, наққошлик ва бир қатор касб–хунар турлари раванқ топди. Улар ўзининг устоз–шогирд мактабларига эга бўлган. Зайниддин Восифий ўзининг “Бадоеъул вақоеъ” (нодир воқеълари) асари орқали бу мактаблар ва уларнинг йирик вакиллари тўғрисида қимматли маълумотларни келтириб ўтади. Жумладан, Бухоро хонлигидаги ўз даврининг улкан шоир ва тарихнавислари билан бўлиб ўтган воқеъа ҳикоясида, Шайбонийхон даврида амирулумаро ва маликушшуаро унвонига сазовор бўлган, ўз замонасининг машҳур шоири ҳамда тарихнавис олими Муҳаммад Солиҳ хавлисида, кўплаб замонасининг машҳур олим ва фозил кишилари йиғилишиб, илмий мунозаралари тўғрисида, шундай ҳикоят келтирилади: Мазкур амир Муҳаммад Солиҳ мавлоно Биноийга: Биз катта авлод олимларидан арзирлисини билмаймиз. Уларни таъриф тавсиф қилсангиз, билиб уларни ҳурматини жойига қўйиб, борди-келди қилиб турсак, муносиб бўларди” [4] дея Мавлоно Биноийдан сўраб билади. Бу эса ўша давр олимларининг ўзидан катта авлод вакиллари уларнинг илмий мерослари ҳақидаги маълумотларни билиб бориш анъаналарининг мавжудлигини кўрсатади.

Шунингдек, шайбонийлар давлати ҳукмдорларининг аксарияти бир қанча илм-фанларнинг намояндлари ҳамда ҳомийлари бўлишган. Мисол учун Муҳаммад Шайбонийхон ўзбек ва форс тилларида шеърлар ёзган бўлса, Кўчкунчихон ва Убайдуллохонлар ўз даврининг маърифатли инсонлари бўлишган. Муҳаммад Шайбонийхон, Абдулазизхон ва Абдуллохонларнинг кутубхоналарида ўз даврининг ҳамда олдинги даврга мансуб бўлган энг ноёб китобларнинг жамланганлиги бундан далолат беради. Шайбонийхон ҳаётида урушлар билан боғлиқлар учраса-да, шеърят, илм билан шуғулланишга вақт топа олган. Унинг шеърӣ девонлари анча машҳур бўлган. Ҳозирги кунда унинг шеърӣ девонлари Истамбул кутубхоналарида сақланмоқда. Шайбонийхон ўз шеърӣ қасидаларида, айниқса, Бухоро ва Самарқанд шаҳарларини алоҳида тараннум этган. Ўз шеърларининг бирида у Самарқандни жаннатга қиёсласа, Бухоро шаҳрини Каъбага ўхшатиб олқишлайди. Шунингдек, Убайдуллохон ҳам адабиётга ўзининг бетакрор ғазаллари, қитъалари билан кириб келиб, адабиёт ривожига улкан ҳисса қўшган истеъдодли шоир бўлиб ўз шеърларини ўзбек, форс ва араб тилларида ёзиб, “Убайдий”, “Убайдулла” тахаллуслари остида ёзган. Унинг уч шеърӣ китоблари – девони мавжуд. Кейинчалик уларнинг барчаси жамланиб “Куллиёт” номли битта китобда тўпланди.

Бухоро хонлигида яшаб ижод этган олим ва мутафаккирлар Мирзо Улуғбек академияси илмий ишларининг давомчилари сифатида маърифат майдонига чиқишди. Масалан, Самарқанд ва Бухоро мадрасаларда фаолият юритган таниқли алломалар мударрис Камолиддин Иброҳим, Абдуллохоннинг устози Хожа Муҳаммад, астроном Қиёмиддин Шайдо.

Шунингдек, “Табиблар фаҳри” тахаллуси билан машҳур бўлган - Муҳаммад Мазид, жарроҳ Бақо, машҳур кўз табиблари Шохали ибн Сулаймон (“Дарддан фориғ бўлиш қўлланмаси”), ўз даврининг таниқли ва билимдон кўз шифокори – Убайдулло Қаҳҳолнинг (“Кўз касалликлари ва кўз касалликлари бўйича асосий қўлланма” асари нихоятда қадрланган. 1598 йил Тошкент ҳукмрони Дарвишхон талабига мувофиқ Убайдулла Қаҳҳол ибн Муҳаммад Юсуф “Шифо ул-илал” (“Касалликдан фориғлик” асарини ёзди. Мазкур асар 500 бетдан иборат бўлиб тиббиёт олами учун ўз даврининг дастур амали бўлиб хизмат қилди. Бизгача унинг бир неча нусхалари етиб келди. Бу асардан ташқари Убайдулла Қаҳҳол ибн Муҳаммад Юсуф “Умдат ул-кухлия филамродул-басария” (“Кўз касалликлари ва окулистлар учун асосий қўлланма”) асрини ҳам инсониятга тақдим этди.

XVI-XVII асрларга келиб Бухоро хонлигида адабиёт, тарих фани, меъморчилик ва тасвирий санъат жуда раванқ топди. Темурийлар ҳукмронлиги даврида илгари қурилган бинолар қайта

таъмирланди. Янги мадрасалар, макбаралар, масжидлар, карвонсаройлар янги савдо расталари курилди. Ариқ ва каналлар қазилди. Карвон йўллари бўйлаб сардобалар бунёд этилди, дарёларга кўприклар солинди. Нисорий, Мутрибий, Мухаммад Солих, Зайниддин Восифий, Камолиддин Биноий, Абдурахмон Мукшфикий каби шоир ва муаррихлар йирик адабий ва тарихий асарлар яратдилар. Аҳолини саводхонлигини ошириш, болаларга таълим-тарбия бериш борасида маълум имкониятлар яратилди.

Айни шу асрда хусусий мактаблар юзага келди. Муаллим ёллаб уйда ўқитиш тадбирлари одат тусига кирди. Олти ёшли болалар мактабга бориб алифбени ўрганар, айрим ҳарфларни чизишни машқ қилишарди. Ўқувчилар мактабларда илк саводларини чиқарганларидан кейин мадрасага кириб диний ҳамда дунёвий фанлардан илм олар эдилар.

Бунга биргина мисол Зайниддин Восифийнинг “Бадоеъул вақоеъ” асарида Шайбоний ҳукумдорларининг ўша даврда, илм-фан, маданият ҳамда педагогик фикрлар ривожига таъсири кўплаб мисолларда аниқлаштирилган. Жумладан, Кўчкинчихоннинг салтанат тепасига келган кундаёқ мамлакатдаги олим, фозилларни ва илмга рағбат келтирган зиёли кишилар қатламини кўллаб-қувватлаганлиги, уларга доим иззат-икром кўрсатганлиги баён қилинади. Мисол учун муаллиф, бу ҳақда шундай дейди.

Мазкур хон Самарқанд шаҳрида салтанат сура бошлади ва халифалик яловини осмон куббасию, ою куёш авжига кўтарди. Ўзининг ҳукмронлиги ва салтанат айёмида олиму фозилларга марҳамат ва таъзим бажо келтиришни ўз ҳиммати ва зиммасига олмоқни вожиб ва лозим деб билди [4]. Кўчкинчихон даврига келиб мамлакатдаги кўплаб вайронага айланган ишламай турган мадрасалар, масжидлар, ибодатхоналар, хонақолар ва бир қатор жамоат бинолари курилган ҳамда кўплари қайта таъмирланиб, уларга янгича, қиёфа берилган. Айниқса, ўз даврдаги энг йирик илм-фан марказларидан бири бўлган Мирзо Улуғбек мадрасаси янада кўркам тусда қайта таъмирдан чиқорилиб, ундаги таълим-тарбия жараёнини янада яхшилаш учун хон томонидан энг яхши 10 та мударрис тайинланган.

Ушбу мадраса асосан дунёвий ва аниқ фанларга йўналтирилган бўлган. Муаллифнинг айтишича, мударрислардан бири Мавлоно Амири Калон бўлиб, у мударрислар раиси Восифий таъкидлаганидек, олимларнинг олими бўлган унинг ақлу тафаккури шу даражада, замондошларининг қарашларидан илгарилаб кетганки, мадрасада ўқитадиган фанларни тўла янгилаш, талабаларга дунёвий фанларни кўпроқ ўқитиш диний жаҳолат сарқитидан қутулиб, мадраса таълими мазмунини ташкил этиш кераклиги, айниқса, аниқ фанларни ўргатиш тарафдори ва ислохотчиси бўлган. Олимнинг бундай ғоялари ҳукумат томонидан доим қўллаб-қувватлаб турилганлиги хусусида Зайниддин Восифий шундай дейди.

Шу мударрислардан бири Мавлоно Амири Калон эдики, инояти ихтиёрининг жиловни сарфини талабалар тарбиясига йўналтирмоқни лозим топиб, диний жаҳолат қолдиқларини йўқотмоқ ва аниқ илмлар байроқларини ўрнатишга жидду жаҳд кўрсатадики, залолат биносининг синмоғи унинг заминида илова эди. Бундай қатъий аҳд унга ваколат қилинган эди. Кимиёсар замирининг боислари маъноли сўзларнинг жамъе ва саодат оятларининг муфассали эди; фазилат тарқатувчи фозиллар тарбиси билан банд эди. У билиш шарт муқарар қилинган суфада олимларнинг олими-мударрис бўлиб дарс берарди [4]. Бундан ташқари Самарқанда Шайбонийхон даврида курилган “Шайбонийхон мадрасаси” номи билан машҳур бўлган илм даргоҳида ҳам Кўчкинчихон томонидан кенг бунёдкорлик ишлари олиб борилиб ундаги таълим-тарбия ишлари янгидан йўлга қўйилган ва бу мадрасада 4 та мударрис тайинланган. Уларнинг ичида Мавлоно Хожагий исмли замонасининг машҳур олими бўлиб, у кўп илмларда айниқса, “Маоний ва баён”¹ илмларида шуҳрат топганлиги асарда алоҳида тилга олинади.

Хулоса. Шундай қилиб айтиш мумкинки, XVI-XVII аср Бухоро хонлиги маданий ҳаёти ва унинг ривожига, ўз-ўзидан тараққиёт йўлига кирмади, балки бундай тараққиёт учун жуда катта ҳисса қўшган шайбоний ҳукмдорлар ҳамда замонасининг машҳур тарихчилари, табиблари, хатотлари, нотиклари, тасаввуф ва дин илми уламулари, дуррислари шоир ва уста ҳанармандларининг қилган улкан тарихий меҳнати орқали эрилшилган. Улар томонидан ёзиб қолдирилган асарлар ҳамда келтирилган ижод намуналарини ўрганиш, том маънода ўз даврининг илмий педагогик муҳити ҳамда ажодларимизнинг илмий маданий мерослари мазмуни билан янада яқиндан танишиш имкониятини беради.

¹ Асосан мадрасаларда ўқитилган фан бўлиб, истелоҳлар мағзини чақиш, баён қилиш билан шуғулланувчи фан (ташбеҳ, мажоз, истиора, киноя ва ҳ.к.)

Адабиётлар :

1. Саидкулов Т. Ўрта Осиё халқлари тарихининг тарихшунослигидан лавҳалар Т. Ўқитувчи, 1993.
2. Роузенталь Ф. Торжество знания. М.: 1978.
3. Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (XVI-XIX АСР I ЯРМИ). Т. Фан, 2009.
- 3 “Музакири Ахбоб” (“Дўстлар ёдномаси”) асари форс тилидан Исмоил Бегжонов тарж. Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти 1993.
4. Зайниддин Маҳмуд Восифий Бадоеъул вақоеъ форсийдан Наим Норкулов тарж. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, Т.: 1979.
5. Маънавият юлдузлари (Марказий Осиёлик машҳур сиймолар, алломалар, адиблар) Тупловчи ва масъул муҳаррир: М.М. Хайруллаев Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашр., 2001.
- 6 “Ўзбекистонда ижтимоий фанлар” журналі. 2005 йил. № 4.

**“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI
RASMIYLASHTIRISH TALABLARI**

“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!


1. “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.
2. E‘lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:
 - ✓ ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
 - ✓ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
 - ✓ maqola nomi, annotatsiya (100-200 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.
3. Maqola boshida UDK (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma‘lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e‘lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.
4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.
5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.
6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalari uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko‘rsatiladi.
7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.
8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e‘tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.
9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezlari va ma‘ruzalari chop etilmaydi. **E‘lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**
10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.
12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

Web site: www.buxdu.uz

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Telegram raqami: +998 (97) 798-33-75.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzirimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

Tahririyat rekvizitlari:

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000300100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

BuxDU 400110860064017094100079001

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

PEDAGOGIK MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2022-yil 6-son (88) 2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan. OBUNA INDEKSI: 3070	Buxoro davlat universiteti nashri Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan. Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi. Nashr uchun mas’ul: Nigora SAYFULLAYEVA Musahhih: Sarvinoz RAXIMOVA Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA	Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar. Bosishga ruxsat etildi 28.12.2022 Bosmaxonaga topshirish vaqti 30.12.2022 Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 20,6 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 21 Bahosi kelishilgan narxda. “Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.
---	--	---